O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“UMUMTA’LIM MAKTABLARI PEDAGOG-XODIMLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

T O‘ P L A M I

Navoiy-2026

Umumta’lim maktablari pedagog-xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishidagi muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya *materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2026. 251 b.*

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan “Umumta’lim maktablari pedagog-xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishidagi muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o‘qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta’lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferentsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY’ATI

Mardanov U.R.	-	pedagogik mahorat markazi direktori
Safarov D.X.	-	direktor o‘rinbosari, professor
Pulotov A.M.	-	pedagogika fanlari nomzodi. dotsent
Tuxfatullina D.T.	-	Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosar
Xakimova D.I.	-	O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda uchun) fani metodisti
Raxmonov U.U.	-	Fizika va astronomiya fani metodisti
Hamdamova R.G‘.	-	Biologiya fani metodisti
To‘rayeva H.I.	-	Tarbiya fani metodisti
Murtazoyeva S.M.	-	Informatika va axborot texnologialari fani metodisti
Olmosov X.O.	-	Matematika fani metodisti
Jumayeva B.S.	-	Rus tili fani metodisti
Xamroyev I.R.	-	Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i.
Boboqulov J.Q.	-	Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

Texnik muharrir: Boboqulov J.Q.

Maqolalar mazmuni va ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’ul.

Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining (2026-yil 31-mart, 3-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Bugungi o‘qituvchi – o‘z hayotini kelajak avlodlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlagan, ularning orzulari ushalishiga yordam berayotgan, jamiyat kelajagini, millat taqdirini belgilab beradigan shaxsdir.

Ta’lim sifati bevosita o‘qituvchilarning malakasi va kasbiy rivojlanishiga bog‘liqdir. Mahoratli o‘qituvchilar millatning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalari zamonaviy ta’lim tizimining asosi bo‘lib, o‘quvchining muvaffaqiyati va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim jarayonining “yaxlitligi”, “tizimliligi” va “majmuaviyligi”ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq ta’lim jarayonining yaxlitligi uning tizimliligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’limga asosan ikki tomonlama aloqa, ya’ni ta’lim olish va ta’lim berish xususiyatlari xosdir.

Ta’lim - o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanalib, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘quv materiali mazmunini tushuntiradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko‘rsatadi va bu orqali o‘quvchilarning bilim ko‘nikmalari yanada mustahkamlanadi. Har qanday ta’lim o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatini, ya’ni o‘qituvchining o‘rgatish hamda o‘quvchining o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyatini, boshqacha qilib aytganda-to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita va nisbiy bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi.

Bugungi **“Umumta’lim maktablari pedagog-xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishidagi muammolar va yechimlar”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanimizdan ko‘zlangan maqsad ham o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz ta’lim va amaliy tajribaga asoslanishi ilmiy tahlil qilishdan iboratdir. Zero, malakali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi, ularga sifatli va zamonaviy ta’lim beradi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodning bilimli, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek milliy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan intellektual salohiyat shakllanadi. O‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi mamlakat ta’lim tizimining muvaffaqiyati uchun muhimdir. Motivatsiyani oshirish, resurslarni ko‘paytirish va samarali qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish orqali bu jarayonni

yanada samarali qilish mumkin. Shuningdek mahoratli o‘qituvchi – malakali millat tamoyilini amalga oshirishga erishiladi.

Jahonda ta’limni raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, ta’lim oluvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini rivojlantirish keng joriy etilmoqda.

Bu jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan 2030-yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasidagi “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” vazifasini ro‘yobga chiqarish uchun ta’limni individuallashtirish va uni funksional boshqarishda o‘qituvchilik kasbi bilan bir qatorda boshqaruvchanlik faoliyatidan foydalanishga qaratilgan texnologiyalarni tatbiq etishga mo‘ljallangan ilg‘or texnologiyalardan amaliyotda foydalanish bo‘yicha samarali ishlarni olib borishga imkon beradi.

Bugungi kunda jahonda va respublikamizda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni ta’lim oluvchilarga o‘rgatish, balki har bir ta’lim oluvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga ham ko‘proq e’tibor berilmoqda. Bunda ta’lim oluvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini funksional boshqarishda yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim, shuningdek, shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, o‘qituvchi tomonidan boshqariluvchi o‘ziga xos anglash jarayoni hamdir. O‘qituvchining yo‘naltiruvchi sifatidagi rolining ahamiyati o‘quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘liq o‘zlashtira olishlarida ko‘rinadi.

Hozirgi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo‘llarini o‘rgatishdan iboratdir. Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning puxta bilim egallashlarining garovidir. Bu yo‘lda barchangizga kuch-quvvat tilayman. Doimo sog‘-omon bo‘ling!

E’tiboringiz uchun rahmat!

U.R.Mardanov

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

1-SHO'BA. PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

ZAMONAVIY BAHOLASH TIZIMLARI ORQALI TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH METODLARI

Mardanov Uktamjon Rustamovich,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy baholash tizimlarining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, ularning asosiy turlari hamda samarali qo'llash metodlari yoritilgan. Shuningdek, baholash jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *baholash tizimi, formativ baholash, summativ baholash, diagnostika, ta'lim sifati, kompetensiya, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль современных систем оценивания в повышении качества образования, их основные виды и методы эффективного применения. Кроме того, анализируются вопросы развития знаний, навыков и компетенций учащихся посредством внедрения инновационных технологий в процесс оценивания.*

Ключевые слова: *система оценивания, формативное оценивание, суммативное оценивание, диагностика, качество образования, компетенция, цифровые технологии.*

Annotation. *This article explores the role of modern assessment systems in improving the quality of education, highlighting their main types and effective application methods. It also analyzes the development of students' knowledge, skills, and competencies through the integration of innovative technologies into the assessment process.*

Keywords: *assessment system, formative assessment, summative assessment, diagnostics, quality of education, competence, digital technologies.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimida sifatni oshirish eng dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sifatini belgilovchi omillar ichida baholash tizimi alohida o'rin tutadi. Chunki baholash nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning fikrlash, muammoni yechish, ijodkorlik va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. An'anaviy baholash usullari ko'proq yakuniy natijaga e'tibor qaratgan bo'lsa, zamonaviy baholash tizimlari o'quv jarayonining barcha bosqichlarini qamrab olib, o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish va ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini beradi. Shu bois, zamonaviy baholash metodlarini ta'lim amaliyotiga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida sifatni oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bu baholash tizimining samaradorligidir. An'anaviy baholash usullari ko'pincha faqat yakuniy natijani aniqlashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy baholash tizimlari o'quv jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Zamonaviy baholash tizimlari o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning fikrlash, muammo yechish, ijodkorlik va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini ham baholashga xizmat qiladi. Shu sababli, bu tizimlarni ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy baholash tizimlari o‘quvchilarning bilimini kompleks baholashga qaratilgan bo‘lib, ular uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshiriladi. Bu tizimlar o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy baholashning asosiy mohiyati — o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ta’lim jarayonini shu asosda moslashtirishdan iborat. Bu yondashuv o‘quvchini passiv baholash obyekti emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko‘radi.

Zamonaviy baholash tizimlariga quyidagilar kiradi:

- formativ baholash (jarayon davomida baholash);
- summativ baholash (yakuniy baholash);
- diagnostik baholash;
- o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash.

Zamonaviy baholash tizimlari ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ular o‘quvchilarning bilim darajasini aniq va xolis baholash imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchiga o‘quv jarayonini samarali rejalashtirishga yordam beradi. Ikkinchidan, baholash jarayonida muntazam teskari aloqa ta’minlanadi. Bu o‘quvchilarga o‘z xatolarini tushunish va ularni bartaraf etish imkonini yaratadi. Uchinchidan, zamonaviy baholash tizimlari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy baholash tizimlari asosida ta’lim sifatini oshirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Formativ baholashni joriy etish. Dars jarayonida muntazam ravishda kichik baholashlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi nazorat qilinadi. Bu o‘qituvchiga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

2. Diagnostik tahlil asosida o‘qitishni tashkil etish. O‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash orqali dars mazmuni va metodlari moslashtiriladi. Bu differensial yondashuvni ta’minlaydi.

3. Raqamli baholash vositalaridan foydalanish. Onlayn testlar, interaktiv platformalar va elektron jurnal tizimlari orqali baholash jarayoni tezkor va shaffof bo‘ladi.

4. O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholashni rivojlantirish. O‘quvchilarni baholash jarayoniga jalb qilish ularning mas’uliyatini oshiradi va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash. Faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalar va hayotiy kompetensiyalar ham baholanadi.

Zamonaviy baholash tizimlarini amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar mavjud:

- o‘qituvchilarning yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligi;
- texnik vositalarning yetishmasligi;
- vaqt va resurslar cheklanganligi;
- baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy baholash tizimlari ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning bilimini chuqur va har tomonlama baholash, ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bois, umumta'lim tizimida zamonaviy baholash metodlarini keng joriy etish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaripova, M. Z. Ta'lim-tarbiya jarayonida baholashning zamonaviy texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: *Ilm Ziyo nashriyoti,* -2025. 22 bet.
2. Jumanazarov, Sh. U., Axmedov, A. Baholash tizimlarining milliy ta'lim tizimlariga ta'siri. *Journal of New Century Innovations*, 66(4), -2024. 15 bet.
3. Ahrorov, V., Boltayeva, J.U. Yangi O‘zbekiston ta'limida sun'iy intellekt asosida baholash tizimlarini rivojlantirish. *Zenodo,* -2026. 18 bet.
4. Tursunov, B. R. O‘qituvchilar uchun baholash bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent: *Fan va Texnologiya nashriyoti*, -2021. 120 bet.
5. Ismoilov, O. T. O‘quv jarayonida baholashning innovatsion usullari. Toshkent: *O‘qituvchi nashriyoti*, - 2021. 95 bet.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH SOHASI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Astanaqulov K.M.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi professori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Bolalarning emotsional holatini anglash, ularni boshqarish, hamdardlik hissini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanlik kabi kompetensiyalar zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bu sohadagi milliy va xalqaro tajribalar, pedagogik yondashuvlar hamda ta'lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usullar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan taklif etilgan ijtimoiy- hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish tizimi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini oshirish va bolalarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-hissiy rivojlanish, maktabgacha ta'lim, kompetensiya, emotsional intellekt, pedagogik texnologiya, bolalar psixologiyasi, sotsializatsiya.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ayniqsa ularning ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar tuyg‘ulariga hamdard bo‘lish, ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalar bolalar shaxs sifatida shakllanishida, maktabga tayyorgarligida, jamoada ishlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta'limning ilk bosqichida, ya'ni maktabgacha yosh

davrida aynan ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, pedagogik sharoitlar va samarali usullarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar kontekstida bolalar ijtimoiy-hissiy taraqqiyotining tizimli rivojlanishini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan shu masalaning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar va ularni hal qilish mexanizmlari yoritib beriladi.

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun sifatli (kvalitativ) va qisman miqdoriy (kvantitativ) yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va integrative tahlil asosida tashkil etildi. Asosiy e'tibor bolalarning emotsional holati, ijtimoiy o‘zaro munosabatlari va hissiy javob berish qobiliyatlarini baholovchi indikatorlar asosida ularning kompetensiyalar darajasini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotning empirik bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 5–6 yoshdagi bolalar bilan amaliy kuzatuvlar, ota-onalar va tarbiyachilar bilan yarim strukturalashtirilgan intervyular, shuningdek, psixologik-diagnostik testlar o‘tkazildi. Diagnostik vosita sifatida L. D. Stolin va R. S. Nemov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-emotsional rivojlanishni baholovchi testlar adaptatsiya qilinib, mahalliy sharoitga moslashtirildi. Shuningdek, pedagogik eksperiment asosida ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening va o‘yin texnologiyalari joriy qilindi.

Olingan natijalar kontent tahlil, statistik tahlil va taqqoslash metodlari yordamida qayta ishlanib, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasi aniqlandi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar asosida bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tizimlashtirildi hamda pedagogik jarayonga metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu yondashuv izchil nazariy tahlil va amaliy kuzatuv asosida mustahkamlangan bo‘lib, holatni chuqur anglashga imkon berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta'minlashga doir ilmiy tadqiqotlar soni so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bolalarda emotsional muvozanat, ijtimoiy moslashuv, hamdardlik, o‘zini anglash va boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini shakllantirishning zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbek pedagogikasida bu borada A. A. Avazxo‘jayevning maktabgacha ta'lim psixologiyasiga oid asarlari (2021) muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unda bolalar psixikasi va hissiy olamini tushunishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, N. U. Qodirova (2019) o‘z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy barqarorlik va o‘zini tutish kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘yin metodlarining rolini asoslab bergan.

Mahalliy tadqiqotchilardan G. M. Xo‘jaqulova (2020) ijtimoiy-hissiy rivojlanishning shaxs kamolotidagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan bo‘lib, uning fikricha, ijtimoiy his-tuyg‘ularni erta yoshdan boshlab shakllantirish, bolalarni kelgusida ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim omilidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining davlat standarti"da ham ijtimoiy-hissiy rivojlanish alohida yo‘nalish sifatida belgilanib, bu yo‘nalishdagi kompetensiyalar batafsil ko‘rsatilgan.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi nafaqat psixologik, balki pedagogik yondashuvlar asosida ham yoritilishi lozim. Bu esa ushbu yo‘nalishda nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va tarbiyaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Amaliy kuzatuvlar va diagnostik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, emotsional tushunchalarni anglash, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlari bolalarning kelgusi ta’lim bosqichlaridagi ijtimoiy muvaffaqiyati uchun mustahkam asos yaratadi. Treninglar, rolli o‘yinlar va interaktiv metodlar orqali olib borilgan pedagogic ishlar natijasida bolalarda ijtimoiy-hissiy refleksiya, hamdardlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining sezilarli darajada oshganligi kuzatildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan pedagogik eksperiment natijalarini ifodalovchi sodda va kichik jadval keltirilgan:

1-jadval. Eksperimentdan oldin va keyin bolalarning ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalar darajasi (%)

Eksperimentgacha (%) Eksperimentdan so‘ng (%)

Ko‘nikma turi O‘z hissiyotini anglash 48% 76%

Boshqalar hissiyotiga e’tibor 52% 81%

Hamkorlikda o‘ynash qobiliyati 45% 79%

Ijtimoiy muammolarni hal qilish 40% 70%

Izoh: Jadvalda maktabgacha yoshdagi 5–6 yoshli bolalar bilan olib borilgan maxsus trening va pedagogik ishlar asosida ularning asosiy ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarida qayd etilgan ijobiy o‘sish aks ettirilgan. Bu natijalar pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Boshqacha qilib aytganda, maktabgacha yoshda ijtimoiy-hissiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik tizimlarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bolalarning emotsional salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘zaro hurmat, birdamlik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini erta yoshdan rivojlantirish orqali ular jamiyatga moslashgan, ruhiy barqaror va faol shaxslar sifatida shakllanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyaviy dasturlarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishga yo‘naltirish, tarbiyachilar malakasini oshirish va metodik ta’minotni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avazxo‘jayev A. A. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
2. Qodirova N. U. Bolalarda hissiy barqarorlikni rivojlantirish metodlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
3. Xo‘jaqulova G. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy hissiy ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llari. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining davlat standarti. – Toshkent, 2022.
5. Avazxo‘jayev A. A. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.

O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK FAOLIYATINI O‘LCHASH VA BAHOLASH USULLARI: YANGI TEXNOLOGIK YONDASHUVLAR

Tuxfatullina Dilyara Temurovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqaro baholash tizimlari, ularning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ta’lim jarayonida baholash tizimlari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali hisobga olishni ta’minlaydi. Maqola ta'limdagi xavf-xatarlar va infratuzilmalar o‘rtasidagi farqlarni bartaraf etish uchun taklif etilgan innovatsion yondashuvlar haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar: *Baholash tizimi, PISA, STEM, innovatsion baholash, interfaol baholash, ta’lim sifatini oshirish, pedagogik innovatsiyalar, xalqaro ta’lim standartlari.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о международных системах оценивания, их историческом развитии и современном применении. Системы оценивания в образовательном процессе обеспечивают эффективный учет знаний и навыков учащихся. В статье представлена информация о предлагаемых решениях и инновационных подходах для преодоления таких проблем, как различия в рисках, ресурсах и инфраструктуре.*

Ключевые слова: *Система оценивания, PISA, STEM, инновационное оценивание, интерактивное оценивание, повышение качества образования, педагогические инновации, международные образовательные стандарты.*

Abstract. *This article provides information about international assessment systems, their historical development, and modern application. Assessment systems in the educational process ensure effective consideration of students' knowledge and skills. The article also provides information on proposed solutions and innovative approaches to overcome problems such as differences in risks, resources, and infrastructures.*

Keywords: *Assessment system, PISA, STEM, innovative assessment, interactive assessment, improving the quality of education, pedagogical innovations, international educational standards.*

Ta’lim tizimi jamiyatning asosiy poydevorlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi bevosita o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatiga bog‘liq. Ta’lim tizimining asosiy maqsadi barkamol avlodni shakllantirish bo‘lib, bu vazifani bajarishda o‘qituvchining faoliyati bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni tarbiyalashda, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida pedagog xodimlarning faoliyatini baholash tizimi ta’lim jarayonining sifatini oshirishda va o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy o‘qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni egallash, balki amaliyotni to‘g‘ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy-nazariy ma’lumotlarga (falsafa, pedagogika, psixologiya) ega bo‘lish talab etiladi. Shu bilan birga, ta’lim oluvchilarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlash doimiy innovatsion jarayon bo‘lib, o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni yaratish va joriy etishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim sifatini oshirishda baholash tizimining kompleksligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini o‘zida to‘liq qamrab olishi zarur. Obyektiv baholash faqatgina aniq mezonlar, ochiq ko‘rsatkichlar va

tizimli tahlil asosidagina amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish uchun xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS kabi) talablariga mos keladigan tizimlarni integratsiya qilish talab etiladi. Ushbu maqolaning maqsadi ta'lim jarayonida baholashning zamonaviy talablarini tahlil qilish hamda baholash tizimini obyektiv va tezkor qiluvchi yangi texnologik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish yo‘llarini ko‘rsatib berishdir.

Metodlar va yondashuvlar. Umumta'lim maktablarida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash tizimini chuqur va keng qamrovli tashkil etish uchun aralash (kvalitativ va kvantitativ) yondashuvlarni birlashtirish tavsiya etiladi. Baholash metodikalari o‘qituvchilar faoliyatini monitoring qilish hamda ularning malakasini oshirish dasturlari samaradorligini aniqlashga yordam berishi kerak.

Amaliyotda baholashni to‘g‘ri tashkil etish maqsadida quyidagi vositalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq:

1. **Mezonli so‘rovnomalar:** Pedagogik faoliyat, dars o‘tish metodologiyasi va o‘quvchilarga ta’sir xususiyatlarini qamrab oluvchi savolnomalar. Baholash odatda 5 ballik shkala (1 – mutlaqo qoniqarsiz, 5 – juda yaxshi) asosida amalga oshiriladi.

2. **Kuzatuv va refleksiv intervyular:** O‘qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini bevosita kuzatish orqali amaliyot haqida aniq ma’lumotlar yig‘iladi. Yarim strukturalangan intervyular esa pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy baholash mezonlari o‘qituvchi faoliyatining barcha qirralarini ochib berishi kerak. Xususan, darsni rejalashtirish (dars mazmunining fan dasturiga mosligi), darsni olib borish mahorati (vaqtni samarali taqsimlash, diqqatni saqlash), interfaol usullardan foydalanish (keyslar, guruhli ishlar) va raqamli faoliyat (LMS va elektron resurslar, AKT) kabi o‘zgaruvchilar asosiy indikatorlar hisoblanadi. Shuningdek, talabalar bilan muloqotdagi pedagogik etika, barcha talabalarga nisbatan xolis munosabat ham baholashning ajralmas qismidir.

Tahlillar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy baholash usullari asosan o‘qituvchining nazariy bilimini hisobga olsa, yangi yondashuvlar ko‘proq amaliy ko‘nikmalarni qamrab oladi. Baholash jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiq etilishi ta'lim sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Yangi texnologik yondashuvlar baholash jarayonining quyidagi jihatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi:

- **Tezkor qayta aloqa (Feedback):** Elektron baholash platformalari va onlayn testlar orqali o‘qituvchilar natijalarni tezkor olish, o‘quvchilarga esa darhol munosabat (feedback) bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.
- **Obyektivlik va shaffoflik:** Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari qog‘ozbozlik va inson omilini kamaytirib, natijalarning xolisligini va ishonchliligini mutlaq oshiradi.
- **Formativ (rivojlantiruvchi) baholashning kuchayishi:** Raqamli vositalar orqali o‘qituvchilar dars jarayonidagi muammolarni real vaqtda aniqlab, tezkor yechim topish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu ularning o‘z-o‘zini tahlil qilish (refleksiv baholash) ko‘nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan doimiy foydalanuvchi o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va o‘quvchilarning faolligi o‘rtasida kuchli ijobiy munosabat mavjudligi kuzatiladi.

An’anaviy baholash tizimining eng katta muammosi — bu mezonlarni ishlab chiqishning ko‘p vaqt talab qilishi va subyektivlikka moyilligidir. Raqamli vositalar esa ma'lumotlarni qayta ishlash va taqdim etish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi. Texnologiyalar yordamida olingan katta hajmdagi ma’lumotlarni chuqur statistik tahlil

qilish (akkumulyatsiya) ta'lim muassasasi rahbarlariga to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablari o‘qituvchilarida o‘z faoliyatini tahlil qilish (reflektiv baholash) amaliyotining yetishmasligi sezilmoqda. Bunga yechim sifatida mezonlarni rubrikalar yordamida aniq va o‘lchovli shaklda standartlashtirish zarur. Kelajak istiqbolida baholash jarayonlariga Sun’iy intellekt (SI) tizimlarini va bulutli texnologiyalarni joriy etish baholashdagi xavfsizlik hamda samaradorlikni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, milliy tizimdagi baholash usullarini PISA yoki TIMSS kabi xalqaro standartlar bilan doimiy qiyosiy tahlil qilib borish ta'lim raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Umumta'lim maktablari pedagog-xodimlarining pedagogik faoliyatini baholashda yangi texnologik yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning hal qiluvchi omilidir. Elektron testlar va onlayn platformalar baholash jarayonining tezkorligi, obyektivligi va shaffofligini ta'minlab, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini real vaqtda boshqarish imkonini beradi. An’anaviy nazorat o‘qituvchining amaliy ko‘nikmalarini to‘liq qamrab ololmasligi sababli, tizim kompleks bo‘lishi shart.

Baholash tizimini modernizatsiya qilish va amaldagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. **Mezonlarni standartlashtirish va formativ baholashni kengaytirish:** Baholash mezonlari aniq, o‘lchovli va kompetensiyaga asoslangan (rubrikalar) bo‘lishi hamda o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash usullarini keng joriy etish kerak.

2. **Raqamli platformalarni majburiy joriy etish:** Ta’lim tashkilotlarida natijalarni onlayn yig‘uvchi va tahlil qiluvchi elektron platformalarni ishga tushirishni tezlashtirish.

3. **Metodik qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish:** O‘qituvchilarni yangi metodikalarga o‘rgatish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish va innovatsion baholashni qo‘llagan xodimlarni moddiy hamda ma'naviy rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reflective practice in teacher education: the role of self-assessment. teacher education journal. (2018) .
2. Baholash nazariyasi asoslari (Komil Jalilov, 2020). scribd. (2025) .
3. Baholash tizimlaridagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. shokh library. (2025) .
4. Xalqaro baholash tizimi: islohot, muammo va yechimlar. innovative academy.

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Boborahimov S.M.,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta’lim, AKT integratsiyasi va uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli asosida pedagog faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot davomida so‘rovnoma va kuzatuv metodlari asosida olingan natijalar pedagoglarning metodik, axborot-kommunikatsion va kommunikativ kompetensiyalari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Maqolada zamonaviy yondashuvlarning*

samaradorligi empirik ma'lumotlar bilan asoslanadi. Shuningdek, pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv ta'lim, AKT, uzluksiz ta'lim, pedagogik innovatsiya.*

Аннотация. *В статье анализируются современные подходы к формированию профессиональной компетентности педагога. Рассматриваются компетентностный подход, рефлексивное обучение, интеграция ИКТ и модель непрерывного профессионального развития. Результаты исследования, полученные на основе анкетирования и наблюдения, показывают повышение методической, информационно-коммуникационной и коммуникативной компетенций педагогов. Эффективность современных подходов подтверждается эмпирическими данными. Разработаны практические рекомендации по модернизации системы подготовки и переподготовки педагогов.*

Ключевые слова. *профессиональная компетентность, компетентностный подход, рефлексивное обучение, ИКТ, непрерывное образование, педагогические инновации.*

Abstract. *This article analyzes modern approaches to developing teachers' professional competence. The competency-based approach, reflective practice, ICT integration, and continuous professional development model are examined. The study results, based on surveys and observations, indicate significant improvement in teachers' methodological, communicative, and ICT competencies. The effectiveness of modern approaches is supported by empirical data. Practical recommendations for improving teacher training systems are proposed.*

Keywords: *professional competence, competency-based approach, reflective learning, ICT integration, continuous professional development, pedagogical innovation.*

KIRISH

Ta'lim tizimining globallashuvi va raqamli transformatsiyasi pedagogning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat fanini chuqur bilishi, balki innovatsion metodlardan foydalanishi, AKT vositalarini qo'llashi, refleksiv tahlil olib borishi va o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat yuritishi zarur.

Tadqiqotning dolzarbligi pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish ehtiyoji bilan belgilanadi.

Tadqiqot maqsadi: pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kasbiy kompetensiya tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilish.
2. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarni aniqlash.
3. Amaliy tajriba asosida natijalarni baholash.
4. Taklif va tavsiyalar ishlab chiqish..

METODLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil (ilmiy manbalarni o'rganish)
- So'rovnoma (45 nafar pedagog ishtirokida)
- Kuzatuv metodi
- Taqqoshlama tahlil

- Statistik qayta ishlash

Tajriba 3 oy davomida olib borildi. Pedagoglar bilan zamonaviy metodlar asosida trening mashg'ulotlari o'tkazildi.

Baholash mezonlari:

- Metodik kompetensiya
- AKT kompetensiyasi
- Kommunikativ kompetensiya
- Refleksiv kompetensiya

NATIJALAR

Umumiy kompetensiya o'rtacha balli 2.75 dan 4.06 gacha oshdi ($p<0,001$). Quyida jadval va grafiklar keltiriladi. Ushbu natijalarni 5 ballik Likert shkalasi orqali tasvirlandi.

Ko'rsatkich	Oldin (M)	Oldin (SD)	Keyin (M)	Keyin (SD)	Δ	p
Metodik	2.93	0.44	3.98	0.36	1.05	<0.001
AKT (raqamli)	2.45	0.57	4.18	0.43	1.72	<0.001
Kommunikativ	3.11	0.46	4.26	0.41	1.14	<0.001
Refleksiv	2.51	0.70	3.82	0.54	1.31	<0.001
Umumiy	2.75	0.27	4.06	0.23	1.31	<0.001

1-jadval. Oldin–keyin o'lchov natijalari (Likert 1–5, n=45).

M — Mean (O'rtacha qiymat), SD — Standard Deviation (Standart og'ish), Δ (Delta) — Farq miqdori, p — Statistik ahamiyat darajasi



1-rasm. Kompetensiyalar bo'yicha o'rtacha ball: oldin va keyin.

1-rasmda AKT kompetensiya o'sishi eng katta ekani ko'rinadi; bu raqamli topshiriqlar, test platformalari va tezkor feedback amaliyotlari muntazamlashgani bilan bog'liq.



2-rasm. 12 hafta davomida umumiy kompetensiya dinamikasi (o'rtacha ball).

2-rasmda o'sish chizig'i izchil bo'lib, "o'rganish–tatbiq–refleksiya" sikli barqaror natija berganini ko'rsatadi.



3-rasm. Umumiy kompetensiya taqsimoti: oldin va keyin.

3-rasmda keyingi o'lchovda tarqoqlikning kamayishi jamoa ichida metodik birlik va minimal standartlar yaqinlashganidan dalolat beradi. Natijalarga ko'ra, zamonaviy yondashuvlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini o'rtacha 30–37% ga oshirgan.

Ayniqsa:

- AKT integratsiyasi bo'yicha sezilarli o'sish kuzatildi.
- Refleksiv tahlil qilish ko'nikmalari shakllandi.
- Interaktiv metodlardan foydalanish faollashdi.
- O'quvchilarning darsga jalb qilinishi oshdi.

Pedagoglarning 89% i zamonaviy metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirganini ta'kidladi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv pedagog faoliyatini natijaga yo'naltiradi. Refleksiv ta'lim pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi. AKT integratsiyasi esa darsni interaktiv va samarali qiladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli pedagogni doimiy o'qib-o'rganishga undaydi. Zamonaviy sharoitda pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki fasilitator va mentor sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Tahlillar pedagoglarni qayta tayyorlash jarayonida quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

- Amaliy mashg'ulotlar yetishmasligi
- AKT bo'yicha tizimli tayyorgarlikning pastligi
- Refleksiv faoliyatni tashkil etish mexanizmlarining sustligi

Zamonaviy yondashuvlar (kompetensiya indikatorlari, refleksiv portfel, mentorlik va AKT integratsiyasi) birgalikda qo'llanganda sinergiya beradi. Kelgusida nazorat guruhi bilan tadqiqot hamda uzoq muddatli monitoring tavsiya etiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar kompleks qo'llanganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Uch oylik intervensiya davomida kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv amaliyot, AKT integratsiyasi hamda mentorlik

mexanizmlarining tizimli tatbiqi pedagoglarning metodik, raqamli, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha ballning oshishi kuzatildi ($\Delta>0$), hamda bu o‘zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p<0.001$). Mazkur natijalar intervensiya samaradorligining tasodifiy emasligini, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik faoliyat natijasi ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, raqamli (AKT) kompetensiyada qayd etilgan yuqori o‘sish zamonaviy ta'lim jarayonida texnologik integratsiyaning muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, standart og‘ish (SD) ko‘rsatkichlarining kamayishi pedagoglar orasidagi natijalar tarqoqligining qisqarganini, ya'ni kasbiy kompetensiya darajasi bo‘yicha nisbatan barqarorlik shakllanganini anglatadi. Bu holat jamoaviy metodik birlik va professional standartlarning yaqinlashganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelish mumkin:

1. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni fragmentar emas, balki tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi.

2. Refleksiv mexanizmlarning joriy etilishi pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

3. AKT integratsiyasi pedagogik samaradorlikni oshirishning muhim strategik omili hisoblanadi.

4. Mentorlik va peer-coaching mexanizmlari kasbiy o‘sish jarayonini tezlashtiradi hamda ichki professional hamkorlikni kuchaytiradi.

Umuman olganda, zamonaviy yondashuvlar pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishda metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda nazorat guruhi bilan kengroq eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish hamda uzoq muddatli monitoring asosida natijalarni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Ta'lim to‘g‘risida” (O‘RQ-637), 23.09.2020.
2. “Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar” ilmiy jurnali. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyalar...” (2024, №4).
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union, 2017 (JRC107466).
4. Shulman L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. Educational Researcher, 1986, 15(2), 4–14.
5. Van Driel J. H., Verloop N., De Vos W. Developing Science Teachers' Pedagogical Content Knowledge. Journal of Research in Science Teaching, 1998/2001.

TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI

Shamuratov Marat Xalmuratovich,
Navoiy davlat universiteti tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti dekani, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishning innovatsion yo‘nalishlari tahlil*

qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv tizimini optimallashtirishning ilmiy-amaliy asoslari, xususan raqamlashtirish, data-analitika, sun'iy intellekt texnologiyalari, modulli boshqaruv tizimi, loyihaviy boshqaruv, transformatsion liderlik va xalqaro standartlar bilan integratsiya jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish, hamkorlik madaniyatini shakllantirish, ekologik barqaror boshqaruv tamoyillari va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishning innovatsion mexanizmlari o'rganilgan. Maqola ta'lim muassasalarini mahalliy va global raqobatga tayyorlashda innovatsion boshqaruvning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar:*ta'lim menejmenti, innovatsion boshqaruv, raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, data-analitika, modulli boshqaruv, loyihaviy boshqaruv, transformatsion liderlik, strategik boshqaruv, ta'lim sifati, xalqaro standartlar, ISO 21001, ekologik boshqaruv, inson resurslari, shaffoflik, samaradorlik.*

Annotation. *This article analyzes innovative directions for revising management processes in educational institutions in accordance with modern requirements. It highlights the scientific and practical foundations of optimizing the management system under conditions of digital transformation, particularly digitalization, data analytics, artificial intelligence technologies, modular management systems, project management, transformational leadership, and integration with international standards. The study also explores innovative mechanisms for developing human resources, fostering a culture of collaboration, principles of environmentally sustainable management, and improving the quality of services. The article demonstrates the role and importance of innovative management in preparing educational institutions for local and global competition.*

Keywords: *educational management, innovative management, digital transformation, digitalization, artificial intelligence, data analytics, modular management, project management, transformational leadership, strategic management, education quality, international standards, ISO 21001, environmental management, human resources, transparency, efficiency.*

Аннотация. *В данной статье анализируются инновационные направления пересмотра процессов управления в образовательных учреждениях в соответствии с современными требованиями. Освещены научно-практические основы оптимизации системы управления в условиях цифровой трансформации, в частности цифровизация, data-аналитика, технологии искусственного интеллекта, модульная система управления, проектное управление, трансформационное лидерство и процессы интеграции с международными стандартами. Кроме того, изучены инновационные механизмы развития человеческих ресурсов, формирования культуры сотрудничества, принципы экологически устойчивого управления и повышения качества услуг. Статья демонстрирует роль и значение инновационного управления в подготовке образовательных учреждений к местной и глобальной конкуренции.*

Ключевые слова*: образовательный менеджмент, инновационное управление, цифровая трансформация, цифровизация, искусственный интеллект, data-аналитика, модульное управление, проектное управление, трансформационное лидерство, стратегическое управление, качество образования, международные стандарты, ISO 21001, экологическое управление, человеческие ресурсы, прозрачность, эффективность.*

Kirish:XXI asrda ta'lim tizimi mamlakat taraqqiyotining ustuvor omillaridan biriga aylangan bo'lib, unga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Globallashuv,

raqamli transformatsiya, iqtisodiy hamda ijtimoiy jarayonlarning jadallashuvi ta'lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlarini yangicha yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Modernizatsiya jarayoni birinchi navbatda an'anaviy boshqaruv tizimidagi byurokratik to'siqlarni kamaytirish, qaror qabul qilishda shaffoflikni kuchaytirish, kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, ta'lim sifatini real ko'rsatkichlarga asoslangan monitoring orqali boshqarishni talab etadi. Shu bois innovatsion boshqaruv yo'nalishlarini joriy etish zamonaviy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Innovatsion boshqaruvning asosiy mazmuni — mavjud resurslardan eng samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalar yordamida boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, o'quv jarayoni va tashkilot faoliyatining barcha bosqichlarida raqamli yechimlardan foydalanishdir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarini boshqarishda raqamlashtirish jarayoni nafaqat ma'muriy vazifalarni yengillashtirish, balki boshqaruvning ilmiy asoslanganligini ta'minlash, tahliliy fikrlashni kuchaytirish, to'plangan ma'lumot asosida ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini bashorat qilish imkonini berayotgan kuchli mexanizmga aylanib bormoqda. Axborot tizimlari orqali o'quvchilar reytingi, o'qituvchilar faoliyati samaradorligi, moliyaviy jarayonlar, hujjatlar aylanishi, ichki nazorat mexanizmlari real vaqt rejimida boshqarilmoqda, bu esa ta'lim sifatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Raqamli boshqaruv jarayonida eng asosiy e'tibor ma'lumotlar tahliliga qaratilmoqda. Data-analitika yordamida o'quv jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash, o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash, ta'lim sifati ko'rsatkichlari bo'yicha dinamikani kuzatish va boshqaruv qarorlarini aniq dalillarga asoslash imkoniyati tug'ilmoqda. Ma'lumotlar sun'iy intellekt tizimlari orqali qayta ishlanayotgani rahbarlarga tezkor qarorlar qabul qilish, resurslarni qayta taqsimlash, individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish, kompetensiyalar o'sishini monitoring qilish imkonini bermoqda. Sun'iy intellektning boshqaruv jarayoniga kirib kelishi ta'lim muassasalarida samaradorlik, oshkoralik va iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlayotgan ilg'or yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda.

Innovatsion boshqaruvning yana bir muhim yo'nalishi — ta'lim jarayonini modulli boshqarish tizimini joriy etishdir. Modulli boshqaruv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalarni soddalashtirib, o'quv jarayonini bo'limlar, modullar, kompetensiyalar asosida boshqarish imkonini beradi. Bu tizim o'quv dasturlarini fleksibil (moslashuvchan) tashkil etish, o'qituvchiga o'z ish faoliyatini erkin rejalashtirish, o'quvchiga esa individual ta'lim yo'lini belgilash imkonini yaratadi. Modulli qo'llanma asosida shakllantirilgan ta'lim jarayoni sifatni oshiradigan asosiy omillardan hisoblanadi, chunki unda o'quv natijalari aniq mezonlar orqali baholanadi va aniqlik bilan boshqariladi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishda loyihaviy boshqaruv uslubining ahamiyati ortib bormoqda. Bunda har bir tashkiliy jarayon, ta'lim islohoti yoki kichik o'zgarishlar ham alohida loyiha sifatida ko'riladi; rejalashtirish, bajarish, monitoring va yakuniy baholash bosqichlari aniq belgilanadi. Bu yondashuv nafaqat boshqaruv jarayoniga aniqlik kiritadi, balki rahbar va jamoaga maqsadli, bosqichma-bosqich yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Loyiha boshqaruvi rahbarning strategik fikrlashini kuchaytiradi, mas'uliyatni adolatli taqsimlaydi, natijadorlikni oshiradi va jarayonlarni zamonaviy standartlar asosida optimallashtiradi.

Ta’lim muassasalaridagi innovatsion boshqaruvning muhim bo‘g‘ini sifatida inson resurslarini rivojlantirish tizimi talqin qilinadi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish, boshqaruv jamoasining yetakchilik salohiyatini kuchaytirish ta’lim sifati oshishining asosiy sharti hisoblanadi. Professional rivojlanishning kredit-modul tizimi, uzluksiz malaka oshirish platformalari, onlayn kurslar, metodik xizmatlar, pedagogik innovatsiyalar laboratoriyalari, mentorlik dasturlari rahbarlar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirmoqda. Ayniqsa, malaka oshirishning individual traektoriyalari o‘qituvchining ehtiyojiga mos shakllanayotgani boshqaruv tizimini yanada takomillashtirmoqda.

Rahbarlik madaniyati innovatsion boshqaruv jarayonining markaziy omillaridan biridir. Zamonaviy rahbar strategik fikrlay olishi, o‘z jamoasi bilan samarali kommunikatsiya o‘rnatishi, o‘zgarishlarga tez moslasha olishi, tashabbuskorlik ko‘rsatishi, konfliktlarni boshqara olishi va ishonchli muhit yaratishga qodir bo‘lishi zarur. Shu ma’noda, transformatsion liderlik konsepsiyasi ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Transformatsion yetakchi jamoani ilhomlantiradi, o‘zgarishlarni quvvatlaydi, bilim almashinuvi muhitini yaratadi, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim muassasasini strategik nuqtai nazardan rivojlantiradi.

Boshqaruv jarayonlarini innovatsion yo‘nalishda takomillashtirishda ta’lim muassasasidagi ichki hamkorlik madaniyatining ahamiyati katta. Jamoaviy boshqaruv, ochiq muloqot, hamkorlikka asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlari rahbarning ishini yengillashtiradi, xodimlarning tashabbuskorlik darajasini oshiradi, o‘quvchilar bilan ishlash sifatini yaxshilaydi, boshqaruvdagi shaffoflikni mustahkamlaydi. Bu jarayonda pedagogik kengashlar, innovatsion guruhlar, aksiya-reja asosida ishlovchi metod birlashmalar, amaliyotga yo‘naltirilgan muhokama maydonlari samarali natija beradi.

Ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishning muhim innovatsion yo‘nalishlaridan yana biri — xalqaro ta’lim standartlari bilan integratsiyani kuchaytirishdir. ISO 21001 — ta’lim tashkilotlari uchun boshqaruv tizimi standarti — bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ta’lim muassasalarining ishlash sifatini kafolatlovchi asosiy mezonga aylangan. Ushbu standartni joriy etish ta’lim muassasasida jarayonlarni tizimli, aniq va sifatga yo‘naltirilgan holda boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro akkreditatsiya jarayonlari ta’lim muassasasining global maydondagi nufuzini oshiradi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion boshqaruvning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida ekologik barqarorlik va “yashil ta’lim muassasasi” konsepsiyasining joriy etilishi alohida e’tibor talab etadi. Energiya tejamkor qurilmalar, ekologik monitoring tizimi, elektrotexnika infratuzilmasini optimallashtirish, chiqindilarni qayta ishlash madaniyatini shakllantirish ham boshqaruvning zamonaviy qismi sifatida ko‘rilmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy tejamkorlikni ta’minlaydi, balki ekologik mas’uliyatga ega o‘quv muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshqaruv jarayonlariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida CRM sistemalari, elektron hujjat aylanishi, raqamli arxivlar, onlayn murojaat platformalari, virtual qabulxonalar joriy qilinmoqda. Bu tizimlar rahbar va jamoa o‘rtasidagi aloqani kuchaytirib, murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish, shaffof javob

qaytarish, nazorat mexanizmlarini mustahkamlashga yordam beradi. Natijada ta'lim muassasasining boshqaruvi zamonaviy, ochiq, samarali ko'rinishga ega bo'ladi.

Oxir-oqibat, ta'lim muassasasini innovatsion boshqarish nafaqat texnologik jarayonlarni, balki madaniy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Jamoada o'zgarishlarga ijobiy munosabatni shakllantirish, xodimlar o'rtasida ishonch muhitini yaratish, har bir pedagogning o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishi, rahbarning strategik yetakchilik ko'nikmalarini kuchaytirishi boshqaruv samaradorligini keskin oshiradi. Ta'lim tizimidagi islohotlar bevosita boshqaruv madaniyati sifatiga bog'liq bo'lib, bu sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etish har bir ta'lim muassasasining kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari — raqamlashtirish, data-analitika, sun'iy intellekt, modulli boshqaruv, loyihaviy yondashuv, inson resurslarini rivojlantirish, transformatsion liderlik, xalqaro standartlar integratsiyasi, ekologik barqaror boshqaruv va xizmat ko'rsatish sifati kabi zamonaviy mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etilmoqda. Ushbu yo'nalishlar ta'lim tizimini jadal rivojlantiradi, sifatni oshiradi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini kengaytiradi va muassasani global ta'lim makonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirish bugungi kunda raqamli transformatsiya, iqtisodiy globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar fonida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Innovatsion yondashuvlarga asoslanmagan boshqaruv tizimi zamonaviy ta'limning tezkor va kompleks vazifalarini to'liq bajarishga qodir emas. Shu sababli boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosida tahliliy qarorlar qabul qilish, modulli boshqaruv tizimini joriy etish, loyihaviy yondashuvdan foydalanish, inson resurslarini professional rivojlantirish va transformatsion liderlik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish zarur.

Xalqaro ta'lim standartlari bilan integratsiya qilish ta'lim muassasasi faoliyatini tizimli, sifatga yo'naltirilgan va global talablar bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Ekologik barqaror boshqaruv tamoyillari esa ta'lim muassasasining iqtisodiy tejamkorligi hamda ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlaydi.

Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqaruvning joriy etilishi nafaqat ta'lim sifati oshishiga, balki jamoaning motivatsiyasi, o'quvchilarning natijalari va muassasa nufuzining yuqori darajada shakllanishiga xizmat qiladi. Boshqaruv jarayonidagi innovatsiyalar ta'lim muassasasini tezkor, moslashuvchan, ochiq va samarali tizim sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent: Adolat nashriyoti.
3. Xodjayev B. va boshq. Ta'lim menejmenti. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Saparov R., Rasulov D. Innovatsion boshqaruv asoslari. – Toshkent.
5. Robbins S. Management: Principles and Practices. – New York.
6. Boshqaruv psixologiyasi bo'yicha zamonaviy ilmiy maqolalar to'plami.
7. UNESCO. Education Management and Governance Reports.
8. OECD. Innovative Learning Environments.
9. Murodova N. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar. – Toshkent.

ZAMONAVIY TA'LIMDA DEMOKRATIK QADRIYATLAR: INTERAKTIV METODLAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Fayziyeva Mutabar Mardonovna,
Samarqand viloyati PMM "Fanlarni rivojlantirish" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida demokratik qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritiladi. Interaktiv o'qitish usullari, hamkorlikka asoslangan o'rganish, loyihalashtirish hamda raqamli innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, fuqarolik mas'uliyati, tolerantlik va huquqiy ong ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, avtoritar ta'lim modelidan o'quvchi markazli, demokratik muhitga o'tish nafaqat akademik natijalarni, balki ijtimoiy faollik va insonparvar shaxsni shakllantirishni ham ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *demokratik qadriyatlar, zamonaviy ta'lim, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar, fuqarolik tarbiyasi, tanqidiy fikrlash, raqamli ta'lim, hamkorlikka asoslangan o'rganish, formativ baholash.*

Kirish

XXI asr ta'limi oldida turgan asosiy vazifa nafaqat bilim berish, balki erkin, mas'uliyatli, huquqiy ongga ega va jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Globallashuv, axborotlashuv va jamiyatning demokratik rivojlanishi ta'lim muassasalaridan an'aviy "buyruq-eslatish" modelidan voz kechib, o'quvchi sub'ektivligini tan oluvchi, muloqot va ishtirokka asoslangan yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Demokratik qadriyatlar – bu nafaqat siyosiy tushuncha, balki kundalik o'quv muhitida namoyon bo'ladigan pedagogik tamoyillar: erkin fikr bildirish, tenglik, o'zaro hurmat, adolat, kelishuvga erishish va fuqarolik mas'uliyati. Ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy ta'limda demokratik qadriyatlarni shakllantirishda interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarning metodologik asoslari, amaliy qo'llanilishi hamda samaradorligini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat.

Demokratik qadriyatlarning zamonaviy ta'limdagi mohiyati va o'rni

Demokratik ta'lim muhitida o'quvchi passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki o'z o'quv jarayonini rejalashtiruvchi, tanlov qiluvchi va natijasi uchun javobgar shaxs sifatida qaraladi. Bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Erkinlik va mas'uliyat birligi: Fikr erkinligi huquqi boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va o'z harakatlari uchun javobgarlik bilan bog'liq.

Tenglik va inklyuzivlik: Jinsi, millati, ijtimoiy ahvoli yoki o'zlashtirish darajasidan qat'i nazar, barcha o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish.

Huquqiy ong va fuqarolik pozitsiyasi: Konstitutsiyaviy huquq va burchlarni bilish, qonun ustuvorligiga ishonch, jamiyat hayotida ishtirok etishga tayyorgarlik.

Muloqot madaniyati va tolerantlik: Turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etish, empatiya va bag'rikenglik.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda YUNESKO va BMTning ta'lim bo'yicha global hujjatlari demokratik qadriyatlarni ta'limning markaziy maqsadi sifatida belgilab, ularni amaliyotga joriy etishning metodologik yo'llarini taklif etadi.

Interaktiv metodlar orqali demokratik qadriyatlarni shakllantirish

Interaktiv metodlar o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga, qo‘shma muammolarni hal qilishga va qo‘shma qaror qabul qilishga undaydi. Demokratik qadriyatlarni singdirishda eng samarali usullar quyidagilardir:

1. Bahs-munozaralar va strukturaviy diskussiyalar: “Sokrat halqasi”, “Balik o‘qi”, “Ochiy mikrofoni” kabi formatlar orqali o‘quvchilar dalillar keltirish, tinglash madaniyati va qarshilikni konstruktiv yo‘nalishda hal qilishni o‘rganadi.

2. Rolli o‘yinlar va ijtimoiy simulyatsiyalar: “Maktab parlamenti”, “Mahalla kengashi”, “Sud jarayoni”, “Ekologik forum” kabi o‘yinlar orqali huquqiy tartib-qoidalar, vakillik demokratiyasi va jamoaviy mas’uliyat amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi.

3. Hamkorlikka asoslangan o‘rganish (Collaborative learning): Kichik guruhlar, peer-to-peer o‘qitish, o‘zaro baholash orqali tenglik, ishonch, adolat va o‘zaro yordam tamoyillari mustahkamlanadi.

4. Holat tahlili (Case study): Real hayotdagi ijtimoiy, huquqiy yoki axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar adolat, inson huquqlari va fuqarolik javobgarligini kontekstual tushunishga erishadi.

5. Refleksiya va metakognitiv mashqlar: “Bugun men nima o‘rgandim?”, “Qayerda xato qildim?”, “Guruhdoshimning fikri menga nima berdi?” kabi savollar orqali o‘z-o‘zini anglash va demokratik munosabatlarni ichki ehtiyojga aylantirish ta’minlanadi.

Ushbu metodlar o‘quvchini “biluvchi”dan “qaror qiluvchi”, “buyruq bajaruvchi”dan “tashabbuskor” shaxsga aylantiradi.

Innovatsion yondashuvlar va raqamli ta’lim muhiti

Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalar demokratik qadriyatlarni singdirishni yangi bosqichga olib chiqdi:

- Ag‘darilgan sinf (Flipped classroom): O‘quvchilar nazariy materialni uyda mustaqil o‘zlashtirib, sinf vaqtini muhokama, loyiha va amaliy mashg‘ulotlarga sarflaydi. Bu yondashuv o‘quvchi avtonomiyasi, vaqtni boshqarish va o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- Gamifikatsiya va interaktiv platformalar: Kahoot!, Mentimeter, Padlet, Quizizz kabi vositalar orqali tezkor fikr-mulohaza, ovoz berish, jamoaviy qaror qabul qilish va shaffof natijalarni kuzatish imkoniyati yaratiladi.

- Sun’iy intellekt va adaptiv ta’lim: AI asosidagi tizimlar har bir o‘quvchining qiziqishi, rivojlanish sur’ati va o‘zlashtirish darajasiga moslashtirilgan kontentlar taqdim etadi. Bu individual yondashuv orqali teng imkoniyatlar va inklyuziv tamoyil amalga oshadi.

- Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR): Tarixiy voqealar, fuqarolik jarayonlari, global muammolar (migratsiya, iqlim o‘zgarishi, gender tengligi) ni “boshdan kechirish” orqali empatiya, global fuqarolik ong va ekologik mas’uliyat shakllanadi.

- Raqamli fuqarolik va kiberaxloq: Internetda axborot izlash, manbalarni tekshirish, mualliflik huquqini hurmat qilish, kiberzo‘ravonlikka qarshi kurashish – bular barchasi zamonaviy demokratik savodxonlikning ajralmas qismidir.

Amaliy joriy etish mexanizmlari va pedagogik shartlar

Interaktiv va innovatsion yondashuvlarning samarasi quyidagi tizimli chora-tadbirlar orqali ta’minlanadi:

1. O‘qituvchi rolini o‘zgartirish: “Bilim manbai”dan “fasilitator, ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi, motivator”ga o‘tish. O‘qituvchi sinfda hukmron emas, balki yo‘nalish beruvchi va jarayonni tashkil etuvchi shaxs.

2. Ta'lim muhitini demokratiklashtirish: Sinfdagi qoida va tartiblarni o‘quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqish, "O‘zini-o‘zi boshqarish kengashi", "Klublar", "Tashabbus guruhlari" tuzish.

3. Baholash tizimini modernizatsiya qilish: An'anaviy summative baholash o‘rniga formativ baholash, o‘z-o‘zini va tengdoshlarni baholash, portfoliolar, kriteriya-asosli rubrikalar orqali nafaqat natija, balki jarayon, ko‘nikma va qadriyatlarning rivojlanishi kuzatiladi.

4. Ota-onalar va mahalla hamkorligi: Demokratik qadriyatlar faqat maktab devorlari ichida shakllanmaydi. "Ochiq eshiklar kuni", "Oila-maktab kengashi", "Ijtimoiy loyihalar", "Ko‘ngilli harakatlar" orqali uzluksiz tarbiyaviy muhit yaratiladi.

5. Davlat siyosati va metodik qo‘llab-quvvatlash: Milliy o‘quv dasturlarida fuqarolik kompetensiyalarini aniq ko‘rsatkichlar sifatida belgilash, maktablarga metodik resurslar, raqamli platformalar va malaka oshirish imkoniyatlarini ta'minlash.

Qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Qiyinchilik	Yechim takliflari
O‘qituvchilarning an'aviy, avtoritar usullarga o‘rganib qolganligi	Professional hamjamiyatlar (PLC), mentorlik, amaliyotga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslari, muvaffaqiyatli amaliyotlarni targ‘ib qilish
Dars vaqti va dastur talablarining cheklanganligi	Fano‘lararo integratsiya, ag‘darilgan sinf modeli, loyihaviy o‘rganishni dasturga moslashtirish
Raqamli ta'minot va infratuzilma yetishmasligi	Davlat-xususiy sheriklik, ochiq manbali platformalar, mobil yechimlar, mahalliy resurslardan foydalanish
Qadriyatlarni baholashning subyektivligi va murakkabligi	Ko‘p manbali baholash (o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, hamjamiyat), sifatli indikatorlar, raqamli monitoring tizimlari
Jamiyatda demokratiya tushunchasining noto‘g‘ri talqin qilinishi	Ommaviy axborot vositalari, ota-onalar uchun treninglar, ochiq muloqot platformalari, madaniy-ijtimoiy loyihalar

Xulosa va takliflar

Zamonaviy ta'limda demokratik qadriyatlarni shakllantirish nafaqat pedagogik vazifa, balki huquqiy davlat qurilishi, jamiyatning barqaror rivojlanishi va global integratsiya uchun zarur shartdir. Interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol fuqaroga, raqobatdoshlikdan hamkorlikka, qo‘rquvdan ishonchga o‘tkazuvchi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Amaliy takliflar:

1. Davlat ta'lim standartlarida demokratik va fuqarolik kompetensiyalarini aniq, o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar sifatida mustahkamlash.

2. O‘qituvchilar uchun "Demokratik ta'lim muhiti", "Interaktiv metodologiya", "Raqamli fuqarolik va kiberaxloq" bo‘yicha uzluksiz professional rivojlanish tizimini joriy etish.

3. Maktablarda "Fuqarolik kengashlari", "Talaba/Maktab parlamenti", "Ijtimoiy loyihalar markazi" kabi strukturalarni kengaytirish va ularning qarorlari real ta'sirga ega bo‘lishini ta'minlash.

4. Qadriyatlarni baholashning shaffof, sifatli va o‘quvchiga qaratilgan monitoring tizimini ishlab chiqish.

5. Xalqaro tajriba (Finlandiya, Kanada, Singapur, Estoniya) va milliy an'analarni uyg'unlashtirgan, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan milliy demokratik ta'lim modelini shakllantirish.

Faqat shu yo'l bilan ta'lim tizimi nafaqat bilim, balki erkin, mas'uliyatli, insonparvar va jamiyat uchun foydali ish qilishga tayyor shaxsni tarbiyalovchi haqiqiy ijtimoiy institutga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zR Oliy Majlisi, 2020. – 48 b.
2. Vigotskiy L.S. Jamiyatda aqlning rivojlanishi: Oliy psixologik jarayonlarning shakllanishi. – Tarjima: A. Karimov. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 287 b.
3. Xolms L. Hamkorlikka asoslangan o'rganish: Nazariya va amaliyot. – Tarjima: D. Ismoilova. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 196 b.
4. Rahimova G.T., Yusupova N.A. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish. – O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023. – 128 b.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "Demokratiya", "Fuqarolik tarbiyasi", "Interaktiv ta'lim", "Innovatsiya" maqolalari. – Bosh muharrir: A. Qodirov. – Toshkent: O'zME, 2022. – 2-jild. – 512 b.

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA WEB-KVEST TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Baxodirova Umida Baxodirovna,
Navoiy davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada web-kvest ta'lim texnologiyasining imkoniyatlari keltirilgan. Shuningdek, bo'lajak biologiya o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda web-kvest ta'lim texnologiyasidan foydalanishga doir taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *kasbiy faoliyat, web-kvest ta'lim texnologiyasi, differensial ta'lim, motivatsiya, kreativ, tajriba-sinov.*

Аннотация. *В данной статье представлены возможности образовательной технологии веб-квестов. Также приводятся предложения и рекомендации по использованию образовательной технологии веб-квестов при подготовке будущих учителей биологии к профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *профессиональная деятельность, веб-квесты в рамках образовательных технологий, дифференцированное образование, мотивация, творчество, экспериментальное тестирование.*

Abstract: *This article presents the potential of webquests as an educational technology. It also provides suggestions and recommendations for using webquests in preparing future biology teachers for professional practice.*

Key words: *professional activity, web quests in the framework of educational technologies, differentiated education, motivation, creativity, experimental testing*

Kirish. Web-kvest ta'lim texnologiyasi global tarmoqdan foydalanib, zaruriy o'quv ma'lumotlarni qidirish orqali faol o'qitish usullarini va interaktiv texnologiyalarning afzalliklari bilan uyg'unlashtiradi [1]. Ma'lumki, web-kvest ta'lim texnologiyasi

professor-o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tashkil etish qoidalari tizimiga asoslangan jarayon bo‘lib, pedagogik samarali kognitiv aloqani kafolatlaydi [2]. Buning natijasida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun vaziyatlar yaratiladi hamda faoliyati va kasbiy jihatdan muhim kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga web-kvest texnologiyasi rolli o‘yin elementlari bo‘lgan muammoli vazifalar-loyihalarni ifodalaydi, ular uchun global tarmoqdan foydalanib, zaruriy o‘quv ma'lumotlarni qidirish orqali faol o‘qitish usullarini axborot va interaktiv texnologiyalarning afzalliklari bilan uyg‘unlashtiradi [3].

“Web-kvest ta'lim texnologiyasining yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu kompyuter texnologiyalarining takomillashuvi va global tarmoqning ommalashuvi tufayli sodir bo‘ldi” [4]. “Kvest texnologiyasi pedagogikaga 20-asr oxirida kompyuter o‘yinlari olamidan yuzaga keldi. “Sierra” kompyuter kompaniyasi o‘tgan asrning 90-yillarida King‘s Quest, Space Quest, Police Quest va boshqalar qator qiziqarli o‘yinlarni ishlab chiqdi” [2].

“Ta'lim texnologiyasi sifatida birinchi marta web-kvest atamasi 1995-yilda San-Diyego universiteti (AQSh) ta'lim texnologiyasi professori Berni Dodj tomonidan taklif qilingan” [5]. “Olim ta'limning turli bosqichlarida fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish uchun innovatsion global tarmoqning giperbog‘lanishli ilovalarini ishlab chiqdi. U kvestni muammoli vazifani va global tarmoqdan ma'lumotni mustaqil qidirishni o‘z ichiga olgan veb-sayt deb atadi” [6]. “Berni Dodjning web-kvest ta'lim texnologiyasiga oid ta'rifini, ta'limda foydalanishni kengaytirish va takomillashtirishga oid izlanishlar Tomas Mart tomonidan amalga oshirildi, u kontsepsiyani sezilarli darajada batafsil bayon qildi va web-kvest ta'lim texnologiyasining mohiyatiga chuqurroq tushunishga yordam beradigan bir qator nazariy ma'lumotlarni taqdim etdi” [6]. T.Martning fikriga ko‘ra, web-kvest global tarmog‘idagi muhim manbalarga havolalar va o‘quvchilar muammoni o‘rganishga undash uchun haqiqiy vazifadan foydalangan holda tuzilgan ta'lim texnologiyasidir. Shu bilan ma'lumot qidirish va uni yanada murakkab bilimga (tushunishga) aylantirishda individual va guruhda (yakuniy bosqichda) ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Web-kvest ta'lim texnologiyasi yordamida talabalar mavzuli aloqalarning boyligini tushuna boshlaydilar, o‘quv jarayoniga qulay jalb qilinadilar va o‘zlarining mustaqil fikr yuritishni o‘rganadilar.

Metodlar. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda web-kvest ta'lim texnologiyasi samarali hisoblanadi. Bunda web-kvest ta'lim texnologiyasi quyidagi xususiyatlarga ega: giper murojaatlar yordamida fanga oid ma'lumotlarni qidirish orqali ta'lim olish imkoniyati yaratiladi; ta'limda ijobiy motivatsiyani oshiradi; differensial ta'lim olishni ta'minlaydi; mustaqil ta'lim olish imkonyatini yaratadi; ta'lim oluvchiga aqliy muammoli vaziyatlarni hosil qilish orqali kompetentligini rivojlantiradi. Shuningdek, web-kvest global tarmoqdan foydalanish orqali qo‘yilgan muammolarni mustaqil yechishga qaratilgan texnologiya hisoblanadi.

Web-kvest ta'lim texnologiyasi birinchi navbatda, o‘quv-ma'lumotlarni qidirish uchun global tarmoqdan foydalanish kabi qobiliyatini shakllantiradi. Ikkinchidan, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning faol kognitiv faoliyatini rivojlantirishga oid muammoli muhitni hosil qilish orqali mashg‘ulot samaradorligini oshiradi. Bu kabi imkoniyatlar yordamida oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishga

hamda ularning mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish va kreativ fikrlashini, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish imkoniyatini yaratadi.

Natija. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda web-kvest ta'lim texnologiyasidan foydalanishni samaradorlik darajasini aniqlashga oid tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat universitetida bo'lajak biologiya o'qituvchilarni tayyorlashda o'qitiladigan mutaxassislik fanlardan biri hisoblanagan mikrobiologiya va virusologiya fanini o'qitishda qo'llanildi. Bunda bo'lajak biologiya o'qituvchilar jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba va nazorat guruhlari uchun jami 107 nafar bo'lajak biologiya o'qituvchilar jalb etildi. Tajriba guruhiga ajratilgan bo'lajak biologiya o'qituvchilarning mikrobiologiya va virusologiya fanidan ta'lim va tarbiya jarayoni web-kvest ta'lim texnologiyasi asosida olib borildi. Nazorat guruhiga esa ushbu imkoniyat berilmadi. Bunda bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tajriba yakunidagi ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tajriba-sinov yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari

Guruhlar	**bo'lajak biologiya o'qituvchilarining soni**	**Tajriba va nazorat guruhlaridagi bo'lajak biologiya o'qituvchilarining olgan baholari**			
		5 (a'lo)	4 (yaxshi)	3 (qoniqarli)	2 (qoniqarsiz)
Tajriba guruhi	53	8	32	11	2
Nazorat guruhi	54	6	14	30	4

Ushbu 1-jadvaldan bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'zlashtirish dinamikasini hosil qilamiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'zlashtirish dinamikasi

Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan bo'lajak biologiya o'qituvchilarining natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlili etildi. Ushbu kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun

mos o‘rta qiymatlar $\overline{X} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{4} n_i X_i$ formuladan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko‘ra, tajriba guruhining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 11,5 % ga oshganligi ma'lum bo‘ldi.

Muhokama. Xulosa qilib aytganda, web-kvest ta'lim texnologiyasi, har qanday pedagogik texnologiya kabi, texnologik xaritada aks ettirilgan tarkibiy elementlar va ularning mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan ifodalangan o‘zgarmas qismga ega. Shuning uchun bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda web-kvest ta'lim texnologiyasidan foydalanish o‘z samarasini beradi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева М. В. Технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции // Информационно-коммуникационные технологии в обучении иностранным языкам. Тезисы докладов I Международной научно-практической конференции. – М., 2014. – С. 58-62.

2. Игумнова Е.А., Радецкая И.В. Квест-технология в образовании // Учебное пособие. Чита Забайкальский государственный университет. 2016. –164 с.

3. 56. Воробьёв Г. А. Веб-квест технологии в обучении социокультурной компетенции (английский язык, лингвистический вуз) // Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Пятигорск, 2004. – 220 б.

4. Волкова О.В. Подготовка будущего специалиста к межкультурной коммуникации с использованием технологии веб-квестов // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Белгород, 2010. – 25 с.

5. Қаршиева Д.Ў. “КВЕСТ” технологияси асосида мактаб ўқитувчиларининг дарсларни лойиҳалаш компетентлигини ривожлантириш (Узлуксиз касбий ривожлантириш тизими мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. – Самарқанд, 2022. – 148 б.

6. Медведева Я. С. Применение Web-квест технологии как современной модели обучения // Молодой ученый. 2016. – № 17 (121). – С. 136-139.

KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI

Umarov Rahim Tojiyevich,
A.Qodiriy nomidagi JDPU, dotsent,
Isoqov Shohruh Turabek o‘g‘li,
A.Qodiriy nomidagi JDPU, o‘qituvchi

Аннотация: *В статье рассматривается система повышения профессиональной компетентности будущих учителей технологического образования.*

Annatation: *The article discusses the system for improving the professional competence of future teachers of technology education.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, система, целостность, мотивационные, операциональные, эмоциональные, интегративные качества.*

Keywords: *professional competence, system, integrity, motivational, operational, emotional, integrative quality.*

Texnologiya fanining integrativ mazmunga ega ekanligi o‘z navbatida texnologiya fani o‘qituvchisi shaxsiy xislatlarining ko‘p qirraliligi, kasbiy sifatlari ning turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishiga olib keladi, uning har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida rivojlanganligini talab qiladi va shaxsning muhim xususiyatlari va asosiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan qator tizimlar faoliyati zarurligiga sabab bo‘ladi. Ushbu tizimlarning har biri alohida amalga oshirilmay, balki butun o‘quv-tarbiyaviy ishlar majmuasiga uzviy ravishda kiritilgan holatdagina ahamiyat ga ega bo‘lishi mumkin. Demak, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisida kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimi kerakli tarbiyaviy vositalar va faoliyat turlari, mana shu faoliyatni tashkil etish shakllari hamda metodlaridan foydalanib, vazifaning o‘ziga xos to‘plamlari hal etuvchi funktsional bog'lanishlarga ega.

Mazkur maqolada bo‘lajak texnologiya ta'limi o‘qituvchilari kasbiy kompe tentligini takomillashtirish tizimi bo‘yicha muammolar ustida to‘xtalib o‘tiladi.

Umumiy didaktika va pedagogik, psixologiya masalalari bo‘yicha fundamen tal ishlarni, yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlashda yuksak natijalarga erishgan respublikamiz oliy pedagogik ta'lim muassasalari tajribalari hamda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlar natijalarining qiyosiy tahlili natijasida, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillash tirishni ta'minlovchi tizim o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘lgan quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi tizim hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin:

1) kasbiy-pedagogik moslashuvchanlikning o‘qituvchi shaxsining ob'ektiv mavjud bo‘lgan, uni kasbiy jihatdan tarkib toptirishning hayotiy muhim o‘zagi sifatida dolzarbligi;

2) oliy pedagogik ta'lim muassasasida o‘qitish jarayonida bo‘lajak texnolo giya ta'limi o‘qituvchilarining amaliy yo‘naltirilgan faoliyatini maqsadli ravishda faollashtirish;

3) talabalarning uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan, doimiy ravishda murakkablashtirib boriladigan mustaqil o‘quv-pedagogik topshiriqlarni muntazam bajarishlarini tashkil etish.

Ko‘zda tutilayotgan tizimning yaxlitligi, amalga oshirilishi uning moslashuv chanligi bilan ham ta'minlanadi, ya'ni tarkibiy qismlarini ushbu holatda boshqalari dan bo‘shroq shakllantirilgan kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismiga (motiva tsion, mazmunli – operatsion, emotsional- irodaviy) birinchi navbatda e'tiborni kuchaytirish bilan amalga oshirilishi mumkinligi bilan ta'minlanadi.

Taklif etilayotgan tizimning birinchi tarkibiy qismi, asosan texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini ta'minlaydigan motivatsion qismidir, u birinchi navbatda, yanada yuksak darajadagi kasbiy motivlarni, o‘zlashtirish hamda shakllantirishga intilishini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu element talabalar o‘quv-bilish faoliyatining tegishli maqsadlarini belgilash, maktabda pedagogik amaliyot umumpedagogik fanlarni “frontal” o‘qitish davomi da mustaqil ta'lim topshiriqlarni bajarish yo‘li bilan bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining ushbu kasbiy sifatga ega bo‘lishlariga ko‘rsatma va intilishni shakllantiruvchi idrok etish harakatlarini tashkil etish bilan amalga oshiriladi.

Tizimning ikkinchi tarkibiy qismi, asosan o‘qituvchi kasbiy moslashuvchan ligining mazmunli – operatsion tashkiliy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Uning birinchi vazifasi – o‘quv jarayoni tarkibini kasbiy-pedagogik faoliyati tuzilishi bilan yaqinlashtirish asosida tanlangan ixtisoslik sohasida talabalarni kerakli bilim, malaka va

ko‘nikmalar bilan qurollantirish hisoblanadi. Bu yerda o‘qitish shakllari hamda metodlari tizimi yordamida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyat mazmuni tartiblashtiradi, shu bilan birga faqat predmetli emas, balki ijtimoiy mazmuni ham beriladi.

Tizimning uchinchi tarkibiy qismi, asosan o‘qituvchining kasbiy kompe tentligidagi emotsional-irodaviy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Turli peda gogik vaziyatlarda katta mas'uliyat hissi bilan mustaqil qaror qabul qilish va amalga oshirishga tayyorlik, birinchi navbatda, talabalarning muntazam tashkil etiladigan mustaqil o‘quv-o‘rganish faoliyatlarida rivojlantiriladi. Darsdan tashqari mustaqil ishlarni muntazam bajarishni tashkil etish talabalarda ular erishishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni qo‘yish yo‘li bilan irodaviy ko‘rsatmalarni yaratish ga zamin hozirlaydi. Bu hol o‘z irodaviy kuchlarini boshqarish usullari to‘g’risida yo‘riqlar ko‘rsatish va asta-sekin o‘qituvchi nazoratidan talabaning o‘zini nazorat qilishiga o‘tish ishlarini o‘z ichiga oladi. Bu o‘quv jarayoniga bog’liq tarzda ijobiy emotsional muhitni yaratishga yordam beradi.

Bo‘lajak texnologiya ta'limi o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni tarbiya lashning taklif etilayotgan tizimi faoliyat nazariyasining yetakchi qoidalari, zamo naviy didaktik tamoyillari, mazmuni, o‘qitish maqsadi, metod, shakllari, vositalari ning birligi, tizimli va shaxsiy faoliyatli yondashish asosiy talablari nuqtai nazari dan asoslangan.

Xulosa qilib aytganda quyidagi shart-sharoitlar texnologiya fani o‘qituvchisi kasbiy kompetentligini takomillashtishning taklif etilayotgan tizimi muvaffaqiyatli ishlashiga yordam beradi:

1. Birinchi navbatda, o‘qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini va unda o‘qituvchining ushbu kasbiy sifati motivatsiyali, mazmunli-operatsion va emotsio nal-irodaviy jihatlarini e'tiborga olishni talab qiladigan induvidual yondoshish.

2. Idrok etish faoliyatidan kasbiy faoliyatga tabiiy o‘tishni ta'minlovchi o‘qitish jarayonining kasbiy yo‘naltirilganligi.

3. O‘qitish jarayonida talabalar mahsulsiz va mahsulli idrok etish faoliyat larining mos ravishda birga olib borilishi.

4. O‘zini kasbiy shakllantirish sub'ekti deb anglovchi talabalarning ta'lim jarayonida faolliklari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N. A. va boshqalar – T., 2015. –120 b.

2. Muslimov N. A. va boshqalar Kasb ta'limi o‘qituvchilarining kasbiy kompeten tligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashashriyoti, 2013 y.

3. Беспалько В.П. “Педагогика и прогрессивные технологии.” – М.: Педагогика, 1989. – 168 с.

4. Muslimov N. A. Kasb ta'limi o‘qituvchisini metodik shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. P.f.d dissertarsiyasi, T., 2007 y.

IJODIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annoatasiya: *Mazkur tadqiqotda didaktik tamoyillar va texnologiyalatning o'zaro uzviy bog'liqligi hamda ularning ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Ta'lim jarayonida muammoli, loyihaviy va hamkorlikka asoslangan texnologiyalarning qo'llanilishi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va monitoring tizimini tashkil etishning ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *didaktik tamoyillar, ijodiy kompetensiya, muammoli o'qitish, loyiha metodi, Design Thinking, mustaqil ijodiy faoliyat, refleksivlik, monitoring, baholash.*

Didaktik tamoyillar va pedagogik shart-sharoitlar alohida elementlar emas, balki bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi yaxlit tizimning tarkibiy qismlaridir. Tamoyillar ta'lim jarayonining NIMA qilish kerakligini belgilasa, shart-sharoitlar QANDAY SHAROITDA amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi. Ushbu ikki komponentning integratsiyasi ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik asosini tashkil etadi.

Tamoyillar va shart-sharoitlar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni quyidagicha tavsiflash mumkin: ijodiy faollik tamoyili (1-tamoyil) ijodiy ta'lim muhitini tashkil etish (1-shart) orqali amalga oshiriladi; kasbiy yo'nalganlik tamoyili (2-tamoyil) innovatsion texnologiyalarni qo'llash (2-shart) bilan uzviy bog'langan; integrativlik tamoyili (3-tamoyil) mustaqil ijodiy faoliyatni rag'batlantirish (3-shart) orqali amalda namoyon bo'ladi; refleksivlik tamoyili (5-tamoyil) monitoring va baholash tizimi (5-shart) bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan; innovatsion texnologiyalar tamoyili (6-tamoyil) esa barcha beshta shart-sharoit bilan birgalikda amalga oshiriladi.

ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar uchta guruhga ajratildi: birinchi guruh – **muammoli-ijodiy texnologiyalar:** muammoli o'qitish (M.I.Maxmutov, keys-stadi (case study), evristik suhbat, aqliy hujum (brainstorming); ikkinchi guruh – **loyihaviy-tadqiqotchilik texnologiyalari:** loyiha metodi (project-based learning), Design Thinking (T.Braun, tadqiqotchilik metodi; uchinchi guruh – **hamkorlikdagi ijodiy texnologiyalar:** kooperativ o'qitish, ijodiy ustaxonalar (creative workshops), mentorlik va kouching. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Germaniyada InnoVET dasturi doirasida loyiha metodi asosiy o'qitish texnologiyasi sifatida joriy etilgan, AQSh da esa Maker harakati kasbiy ta'lim tashkilotlarida keng tarqalgan.

Ushbu texnologiyalarning amaliy qo'llanilishi kontekstida, har bir texnologiyaning o'ziga xos didaktik imkoniyatlari mavjud. Muammoli o'qitish texnologiyasi o'quvchilarda ijodiy fikrlashning analitik komponentini rivojlantirsa, loyiha metodi ijodiy kompetensiyaning konstruktiv va kommunikativ komponentlarini shakllantiradi. V.V.Davydov ning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasiga muvofiq, o'quvchining ijodiy fikrlashi faqat muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shakllanadi. Shu sababli, har bir mashg'ulotda kamida bitta muammoli vaziyat yaratish va uni ijodiy yechish jarayonini tashkil etish zarur. Design Thinking metodologiyasining besh bosqichi – empathy, define, ideate, prototype, test – kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning

real kasbiy muammolarni ijodiy hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin. Masalan, “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi” ixtisosligi o‘quvchilari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy o‘yin texnologiyalari loyihalash jarayonida ushbu metodologiyadan foydalanishlari mumkin.

Uchinchi pedagogik shart-sharoit – bu o‘quvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratishdir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy kompetensiya faqat auditoriya mashg‘ulotlari doirasida shakllanmaydi – u o‘quvchining mustaqil ijodiy tajribasi, individual izlanishlari va shaxsiy ijodiy loyihalari orqali rivojlanadi. M.Chiksentmixayi ning tadqiqotlariga ko‘ra, ijodiy holatga (“flow” holati) erishish uchun shaxsning mustaqil ravishda murakkab, lekin bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifalar ustida ishlashi zarur.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida mustaqil ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: a) individual ijodiy loyihalar tizimi – har bir o‘quvchi o‘z kasbiy yo‘nalishiga mos individual ijodiy loyiha ustida ishlaydi; b) ijodiy ko‘rik-tanlovlar – o‘quvchilarning ijodiy mahsulotlarini namoyish etish va baholash uchun muntazam tadbirlar; c) portfolio tizimi – o‘quvchilarning ijodiy yutuqlarini to‘plash va aks ettirish vositasi; d) motivatsion tizim – ijodiy yutuqlar uchun rag‘batlantirish (sertifikatlar, mukofotlar, qo‘shimcha ballar). 40110104 “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi” dual dasturida mustaqil ta’limga 1440 soat ajratilgan bo‘lib, ushbu vaqtning muayyan qismini ijodiy mustaqil ishlarga yo‘naltirish zarur.

To‘rtinchi pedagogik shart-sharoit – bu o‘qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni ijodiy o‘qitish metodlari va texnologiyalari bo‘yicha tayyorlash zaruratidir. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining o‘zi ijodiy kompetensiyaga ega bo‘lmasa, u o‘quvchilarda bu kompetensiyani shakllantira olmaydi. V.A.Slastyonin ta’kidlaganidek, o‘qituvchining pedagogik ijodkorligi – bu uning kasbiy faoliyatidagi eng yuqori daraja bo‘lib, u maxsus tayyorgarlikni talab etadi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘qituvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi choralar zarur: a) o‘qituvchilar uchun ijodiy o‘qitish metodlari bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslari; b) o‘qituvchilarning ijodiy tajriba almashish tizimi – metodik birlashmalar, ustaxonalar, master-klasslar; c) o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati – ijodiy o‘qitish metodlari bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib borish; d) o‘qituvchilarning xorijiy tajribani o‘rganish imkoniyatlari – stajировkalar, konferensiyalar, onlayn kurslar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-iyuldagi 466-son qarorida kasbiy ta’lim tashkilotlari pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Beshinchi pedagogik shart-sharoit – bu ijodiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini doimiy monitoring qilish va baholashning samarali tizimini yaratishdir. Aniqlangan muammolardan biri – kasbiy ta’lim tashkilotlarida ijodiy kompetensiyalarni baholash mezonlari va vositalarining ishlab chiqilmaganligi edi. A.V.Xutorskoy ta’kidlaganidek, kompetensiyalarni baholash ularning tarkibiy komponentlarini (bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifatlar) alohida va yaxlit tarzda o‘lchashni nazarda tutadi.

Monitoring va baholash tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: a) diagnostik vositalar – ijodiy fikrlash testlari (E.Torrens testi), kreativlik anketalari, kuzatish varaqlari; b) formativ (shakllantiruvchi) baholash – o‘quv jarayoni davomida muntazam

teskari aloqa, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini kuzatish va yo‘naltirish; c) summativ (yakunlovchi) baholash – o‘quv davri yoki modul yakunida ijodiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash; d) portfolio baholash – o‘quvchilarning ijodiy mahsulotlari to‘plamini ekspert baholash; e) o‘z-o‘zini baholash va hamkorlik baholash – o‘quvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Finlyandiyada portfolio baholash tizimi ijodiy kompetensiyalarni aniqlashning asosiy vositasi sifatida qo‘llaniladi .

Monitoring va baholash tizimining samaradorligi uchun bir qator muhim mezonlarga rioya qilish zarur. Birinchidan, baholash vositalari **validli** (ya'ni aynan ijodiy kompetensiyani o‘lchaydigan) va **ishonchli** (ya'ni qayta-qayta qo‘llanganda barqaror natija beradigan) bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, baholash nafaqat yakuniy natijani, balki **jarayonni** ham o‘z ichiga olishi lozim – ya'ni o‘quvchining ijodiy mahsulotiga qo‘shimcha ravishda, uning ijodiy faoliyat jarayonidagi o‘sish dinamikasi ham hisobga olinishi kerak. Uchinchidan, baholash tizimi **ko‘p o‘lchovli** bo‘lishi lozim – ya'ni ijodiy kompetensiyaning barcha tarkibiy komponentlari (motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv) alohida va yaxlit tarzda baholanishi kerak. V.P.Bespalko ning ta'kidlashicha, pedagogik diagnostikaning samaradorligi uning tizimli, uzluksiz va ob'yektiv amalga oshirilishiga bog‘liq.

Didaktik tamoyillar va pedagogik shart-sharoitlarning uyg‘unligi ijodiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishning muhim omilidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, mustaqil ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda tizimli monitoring va baholashni yo‘lga qo‘yish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Байденко, В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования: метод. пособие / В.И. Байденко. — М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2005. — 114 с.
2. Беспалько, В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения / В.П. Беспалько. — М., 1995. — 337 с.
3. Витченко, О.В. Научно-исследовательская деятельность как условие реализации творческого потенциала / О.В. Витченко // Среднее профессиональное образование. — 2006. — № 7. — С. 29–30.
4. Желтов, П.В. Формирование базовых профессиональных компетенций будущего специалиста-техника в колледже: дис. ... канд. пед. наук / П.В. Желтов. — Пенза, 2011. — 222 с.
5. Kubayeva M.B. Kasbiy ta'lim muassasalarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish: nazariy va amaliy yondashuvlar. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №6(1). B.198–204.
6. Kubayeva M.B. Kasbiy ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyani shakllantirishda pedagogik yondashuvlar //Inter education & global study 2024. №10(1). B.149–154
7. K Mavluda Innovative Teaching Methods for Developing Creative Competencies in Vocational Education Students. // International Journal of Pedagogics, 4(12), 219–223. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue12-46
8. Сластенин, В.А. Педагогика: инновационная деятельность / В.А. Сластенин, Л.С. Подымова. — М.: Магистр, 1997. — 308 с.

MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA EDTECH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mansurova Surayyo Ravshanovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda EdTech texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy raqamli ta'lim vositalari orqali tarbiyachilarning pedagogik, axborot-texnologik va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida raqamli platformalar, multimedia vositalari va interaktiv ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish hamda tarbiyachilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari EdTech texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish tarbiyachilarning innovatsion faolligini kuchaytirishi va bolalar ta'lim-tarbiyasi sifatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, EdTech texnologiyalari, raqamli ta'lim, innovatsion pedagogika, interaktiv ta'lim, multimedia vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, ayniqsa maktabgacha ta'limni rivojlantirish davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bolalarning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida maktabgacha ta'lim bosqichi muhim ahamiyat kasb etgani sababli, ushbu sohada pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy islohotlar maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etishga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar, raqamli ta'lim resurslari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda tarbiyachilarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim platformalari, multimedia vositalari va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanishga o'rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, pedagog kadrlarning malakasini muntazam oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta'lim jarayonini raqamlashtirish, ta'lim mazmunini yangilash va bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion dasturlar joriy etilmoqda. Bunda tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalari, ayniqsa axborot-texnologik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy EdTech texnologiyalaridan samarali foydalanish tarbiyachilarga ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil etish, bolalarning bilish faolligini oshirish hamda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlardan H. G'aniyeva maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etgan. Uning ilmiy ishlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini takomillashtirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash va tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish masalalari tahlil qilingan [6.120Б].

M.N.Xushnazarova o'zining tadqiqot ishida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda 4 bosqichda amalga oshirilishi muhim ekanligi to'g'risida so'z yuritadi. Jumladan:

1. Muammoni taxlil asosida aniqlash. 2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash. 3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish. 4. O'zgarishlarni amalga oshirish [7.201Б].

Shuningdek, O'. Achilov maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi va ota-onalar hamkorligini tashkil etish orqali bolalarning rivojlanishini ta'minlash masalasini o'rgangan. Uning tadqiqotlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion usullarni qo'llash muhimligi ta'kidlangan [1. 3-5Б].

Yana bir o'zbek olimi O. Jamoliddinova maktabgacha ta'lim metodikasi va tarbiyachilarni tayyorlash jarayoniga oid ilmiy izlanishlar olib borgan. U maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ekanligini asoslab bergan[3. 45Б].

Xorijiy olimlardan maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasini tadqiq etgan olimlardan Luis Orteganoning ishlari alohida ahamiyatga ega. U o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'limda raqamli o'yin texnologiyalari (serious games) orqali bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini asoslab bergan[5.12Б].

Shuningdek, mashhur pedagog va psixolog Jerom Bruner maktabgacha ta'limda bolalarning kognitiv rivojlanishini ta'minlashda interaktiv va innovatsion ta'lim usullarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda o'yin, tajriba va raqamli vositalardan foydalanish muhimligi ta'kidlangan [2.31Б].

MDH mamlakatlari olimlari ham maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratgan. Jumladan, rossiyalik pedagog YE.YE. Kravsova maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda o'yin texnologiyalari va interaktiv ta'lim muhitini yaratishning ahamiyatini tadqiq etgan [4.52Б].

Shuningdek, T.S. Komarova maktabgacha ta'lim metodikasiga oid ilmiy ishlarida bolalarni ijodiy va intellektual rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini asoslab bergan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biroq zamonaviy EdTech texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga joriy etish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda EdTech texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy-nazariy tahlil, empirik tadqiqot usullari hamda pedagogik tahlil metodlariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida avvalo maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek EdTech texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishga oid ilmiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi va bolalarning bilish faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv usullardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Froggy Jumps ta’limiy o‘yini orqali bolalarni bilish faolligini yanada rivojlantirish mumkin. Uni ketma-ketlikda qanday amalga oshirish mumkinligini keltirib o‘tamiz.









Bolajonlar uchun mana shunga o'xshagan rasmlik qilib tuzishlaringiz juda qiziqarli. Bolajonlar bu o'yinni juda qiziqib bajarishadi.



Boshlash degan joyidan tuzgan o'yinlaringiz boshlanadi.

Bolalarga savolini o'qib berasiz bolalar esa to'g'ri javobni tanlaydidilar. To'g'ri javob berilsa keyingi savollarga o'tadi, noto'g'ri bo'lsa baqamiz suvga tushib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim mazmunini boyitish hamda bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, EdTech texnologiyalaridan samarali foydalanish tarbiyachilarning axborot-texnologik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interaktiv o'yinlar, multimedia vositalari, raqamli ta'lim platformalari va geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini

beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa tarbiyachilardan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llay olish, raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish va ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etishni talab etadi.

Shuning uchun maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda EdTech texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, tarbiyachilarning raqamli savodxonligini oshirish va innovatsion pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etish maktabgacha ta'lim tizimining sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Achilov O'.I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligi. – Ilmiy konferensiya materiallari, 2023. https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/3099/3007.3-5Б
2. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press.31-33С.
3. Jamoliddinova O. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va metodikasi. – T.: O'qituvchi nashriyoti.45-47Б.
4. Кравцова Е.Е. Психология игры и развитие дошкольника. – Москва: Педагогика.52-56С.
5. Ortegano L. Serious Educational Reinforcement Game in Preschool. – 2019.12-15С.
6. Ғаниева Ҳ. Мактабгача таълим тизимини ривожлантириш масалалари. – Т.: Мактабгача таълим журнали, 2023. https://fll.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/8629?utm_source=chatgpt.com.118-120Б.
7. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim taraqqiyoti, muammo yechim va istiqbol Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel 2025-yil.210B

SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARI ASOSIDA PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY MODELI

Abdullayev Abdullo Abduxakim o'g'li,
Samarqand viloyati PMM o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik mahorat markazlarida boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt tizimlari asosida kompleks tarzda tahlil qilingan. Ta'lim boshqaruvida mavjud muammolar, jumladan baholash jarayonlarining subyektivligi, monitoring tizimining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi va qaror qabul qilishda ma'lumotlarning yetarli darajada tahlil qilinmasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.Tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalarining baholash, tahlil va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari ochib berildi hamda pedagogik mahorat markazlari sharoitiga mos nazariy model ishlab chiqildi. Taklif etilgan model malaka ishlarini avtomatik tahlil qilish, mavzuga moslik darajasini aniqlash va belgilangan mezonlar asosida baholash imkonini beradi.Natijada boshqaruv jarayonlarining aniqligi, tezkorligi va xolisligi oshishi, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish tizimi takomillashishi asoslab berildi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ta'lim boshqaruvi, pedagogik mahorat markazi, nazariy model, baholash tizimi, raqamlashtirish, monitoring, adaptiv boshqaruv*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности управления в педагогических центрах на основе современных цифровых технологий, в частности систем искусственного интеллекта. Проанализированы существующие проблемы образовательного управления, такие как субъективность оценивания, недостаточная системность мониторинга и ограниченность аналитических данных при принятии управленческих решений.В ходе исследования раскрыты возможности искусственного интеллекта в процессах оценки, анализа и поддержки принятия решений, а также разработана теоретическая модель, адаптированная к условиям педагогических центров. Предложенная модель обеспечивает автоматический анализ квалификационных работ, определение их соответствия теме и оценивание на основе заданных критериев.Доказано, что внедрение данной модели способствует повышению объективности, оперативности и эффективности управленческих процессов.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, управление образованием, педагогический центр, модель, цифровизация, оценивание, мониторинг.*

Abstract. *This article examines the issue of improving management efficiency in pedagogical mastery centers through the application of modern digital technologies, particularly artificial intelligence systems. The study identifies key challenges in educational management, including subjectivity in assessment, insufficient systematization of monitoring processes, and limited analytical support for decision-making.The research highlights the potential of artificial intelligence in assessment, analysis, and decision support, and proposes a theoretical model tailored to pedagogical centers. The model enables automated analysis of qualification works, determination of their relevance to assigned topics, and evaluation based on predefined criteria.The findings demonstrate that the implementation of this model enhances objectivity, efficiency, and the overall quality of management processes in education.*

Keywords: *artificial intelligence, educational management, pedagogical centers, assessment, model, digitalization, monitoring.*

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini raqamlashtirish global miqyosda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. UNESCO (2023) hisobotiga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim boshqaruvida qo‘llash ta’lim sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, baholash tizimlarini avtomatlashtirish va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlarini joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Pedagogik mahorat markazlari faoliyatida tinglovchilarni baholash, ularning o‘quv faoliyatini monitoring qilish va natijalar asosida qaror qabul qilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Biroq, mavjud amaliyotda baholash jarayonlarining subyektivligi, yagona mezonlarning yetarli darajada shakllanmaganligi va tahliliy tizimlarning rivojlanmaganligi kuzatilmoqda.

OECD (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi analitik tizimlar joriy etilgan ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligi 25–35% ga oshgan. Shuningdek, Holmes et al. (2022) sun’iy intellekt texnologiyalari baholash jarayonlarini standartlashtirish orqali inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirishini ta’kidlaydi.

Mazkur sharoitda pedagogik mahorat markazlarida sun’iy intellekt asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli va integrativ yondashuv asos qilib olindi. Ta'lim boshqaruvi jarayonlari o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida o'rganildi.

Quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tizimli tahlil
- qiyosiy tahlil
- modellashtirish
- kontent-tahlil

Z.Richter ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu bois tadqiqotda boshqaruv jarayonlari quyidagi bosqichlarga ajratildi:

1. ma'lumotlarni yig'ish
2. tahlil qilish
3. baholash
4. natijalarni umumlashtirish
5. qaror qabul qilish

Natijalar

Tadqiqot natijasida pedagogik mahorat markazlarida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy nazariy model ishlab chiqildi.

Mazkur model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Ma'lumotlar bazasi tizimi

Tinglovchilarning malaka ishlari, baholash mezonlari va o'quv faoliyati haqidagi ma'lumotlar yagona platformaga jamlanadi.

2. Sun'iy intellekt asosidagi tahlil moduli

Bu modul matnlarni semantik tahlil qilish orqali malaka ishining mavzuga mosligini aniqlaydi.

Luckin tadqiqotlariga ko'ra, SI asosidagi tizimlar murakkab matnlarni tahlil qilishda yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

3. Avtomatik baholash tizimi

Baholash oldindan belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa subyektivlikni kamaytiradi.

4. Analitik tizim

Natijalar asosida umumiy ko'rsatkichlar shakllantiriladi va muammolar aniqlanadi. UNESCO (2023) ma'lumotlariga ko'ra, analitik tizimlardan foydalanish boshqaruv qarorlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

5. Qaror qabul qilish moduli

Tahlil natijalari asosida rahbarlar uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Muhokama

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim boshqaruvida qo'llash boshqaruv samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir.

Z.Richter sun'iy intellektni ta'lim tizimiga integratsiya qilish natijasida boshqaruvning yangi modeli shakllanishini ta'kidlaydi. Selwyn (2022) esa sun'iy intellekt asosidagi tizimlar ta'limda shaffoflik va samaradorlikni oshirishini qayd etadi.

Biroq, ushbu modelni joriy etishda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- texnik infratuzilma yetishmasligi
- ma'lumotlar sifati pastligi

- kadrlar tayyorgarligi yetarli emasligi

Shu sababli, modelni bosqichma-bosqich joriy etish zarur.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijasida pedagogik mahorat markazlarida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan sun'iy intellekt asosidagi nazariy model ishlab chiqildi.

Tadqiqot quyidagilarni ko'rsatdi:

- baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati mavjud
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati oshadi
- ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi

Kelgusida ushbu modelni amaliyotga joriy etish va uning samaradorligini tajriba asosida aniqlash muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. (2023). *Guidance for generative AI in education and research*. Paris: UNESCO Publishing.
2. OECD. (2022). *OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots*. Paris: OECD Publishing.
3. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019, lekin hali ham eng ko'p iqtibos olinadi). *Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education*. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), 39.
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2022). *Artificial Intelligence in Education: Promise and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign.
5. Luckin, R. (2022). *AI for School Leadership and Management: Opportunities and Challenges*. London: UCL Knowledge Lab.
6. Selwyn, N. (2022). *Education and Technology: Key Issues and Debates* (3rd ed.). London: Bloomsbury Academic.
7. European Commission. (2024). *Artificial Intelligence in Education: Policy Report and Recommendations*. Brussels.
8. Chassignol, M., Khoroshavin, A., Klimova, A., & Bilyatdinova, A. (2018, lekin SI asosiy maqola). *Artificial Intelligence trends in education: A narrative overview*. Procedia Computer Science, 136, 16–24.

O'QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Narzullayev Nuriddin Homit o'g'li,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini takomillashtirishning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, uning tarkibiy qismlari, diqqat, idrok, xotira va tafakkur jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish muhimligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv, kompetensiya, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, e'tibor, tanqidiy fikrlash, kreativlik, ko'nikma, individual.*

Аннотация: *В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются психологические особенности совершенствования когнитивных компетенций учащихся. Выделены психологические характеристики развития когнитивных компетенций, их компоненты и их взаимосвязь с процессами внимания, восприятия, памяти и мышления. Демонстрируется эффективность использования современных педагогических подходов и интерактивных методов в развитии когнитивных компетенций. Результаты исследования указывают на важность формирования у учащихся навыков самостоятельного мышления, решения проблем и применения знаний на практике.*

Ключевые слова: *когнитивные способности, компетентность, внимание, восприятие, память, мышление, концентрация, критическое мышление, креативность, навыки, индивидуальность.*

Abstract: *This article analyzes the psychological characteristics of improving students' cognitive competencies from a scientific and theoretical perspective. The psychological characteristics of the development of cognitive competencies, its components, and their interrelation with the processes of attention, perception, memory, and thinking are highlighted. The effectiveness of using modern pedagogical approaches and interactive methods in the development of cognitive competencies is demonstrated. The results of the study indicate the importance of forming students' skills in independent thinking, problem solving, and application of knowledge in practice.*

Keywords: *cognitive, competence, attention, perception, memory, thinking, focus, critical thinking, creativity, skill, individual.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirish, avvalo, ushbu yosh davrining psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu bosqichda shaxsiylikning mustahkamlanishi, intellektual o'sishning jadallashuvi, tanqidiy va refleksiv fikrlashning shakllanishi, ta'limga bo'lgan shaxsiy munosabatning ortib borishi kognitiv jarayonlarning mazmunli rivojlanishiga zamin yaratadi. Kognitiv qobiliyatlar – ya'ni tafakkur, xotira, idrok, e'tibor, muammo yechish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi tarkibiy elementlarning chuqur va izchil rivoji bo'lib ushbu bosqichda ayni dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirishda mustaqil ta'lim faoliyatining kuchayishi muhim o'rin tutadi. O'quvchi o'qituvchining doimiy nazoratisiz, o'z bilim olish faoliyatini rejalashtirish, maqsadga yo'naltirish, tekshirish va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, metakognitiv malakalarni kuchaytiradi. D.Bruner va J.Dyui nazariyalarida ham bilish jarayoni shaxsning faol ishtirokida, kashfiyotchilik ruhida amalga oshirilsa, natijasi mustahkam bo'lishi ta'kidlangan. Demak, o'quvchining o'z mustaqil faoliyatiga bo'lgan mas'uliyati oshgan sari uning kognitiv imkoniyatlari kengayadi.

Asosiy qism. Ma'lumki, ta'lim va tarbiya tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini ko'paytirishning asosiy manbai hisoblanadi. O'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini takomillashtirish masalasi zamonaviy ta'lim psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiyalar shaxsning bilimlarni

o‘zlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Kognitiv rivojlanishning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etish mumkin. Avvalo, kognitiv kompetensiyalar o‘quvchining psixik jarayonlari idrok, diqqat, xotira va tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir. Idrok jarayoni orqali o‘quvchi yangi ma'lumotlarni qabul qiladi va ularni ongida aks ettiradi. Shu bosqichda taqdim etilgan materialning aniqligi, vizualligi va tushunarliligi muhim ahamiyatga ega. Diqqat esa ushbu ma'lumotlarni saralash va muhim jihatlariga e'tibor qaratishda asosiy rol o‘ynaydi. Diqqatning barqarorligi va taqsimlanishi o‘quvchining o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari quydagilar:

- Individual yondashuv zaruriyati har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lganligi sababli, ta'lim jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olishni talab qiladi.

- Motivatsiyaning roli ichki motivatsiya o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Qiziqish esa kognitiv jarayonlarning faollashuviga olib keladi.

- Faol o‘qitish usullaridan foydalanish interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantiradi.

- Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasi ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

- Ijtimoiy muhitning ta'siri o‘quvchilarning rivojlanishida sinf muhiti, o‘qituvchi bilan munosabat va tengdoshlar bilan muloqot muhim rol o‘ynaydi.

Rossiyalik psixolog Lev Vygotsky fikricha kognitiv rivojlanishda ijtimoiy muhitning roliga alohida e'tibor qaratadi. U “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surib, o‘quvchining mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yoki tengdoshlar yordamida amalga oshira oladigan faoliyatlari orqali kognitiv kompetensiyalari rivojlanishini asoslab beradi. Jean Piaget esa kognitiv rivojlanish nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, u bolalarning aqliy rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kognitiv kompetensiya – bu bolaning atrof-muhit bilan o‘zaro ta'siri natijasida shakllanadigan bilim va tafakkur tizimidir. Piaget kognitiv rivojlanishni sensor-motor, preoperatsional, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichlariga ajratadi.

Geografiya darslarida samarali metodlardan foydalanib, o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shish mumkin bo‘lgan metodlardan ayrimlarini namuna sifatida ko‘rsatib o‘tamiz:

“Xarita bilan ishlash” metodida o‘quvchilarni kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar geografik xaritalarni o‘qish, tahlil qilish, solishtirish orqali mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvurini rivojlantiradilar. Xaritalar bilan ishlash diqqat, idrok va xotira jarayonlarini faollashtiradi.

“Rol o‘ynash” metodidan ham samarali foydalansa bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilar ekolog, siyosatchi yoki tadqiqotchi rolida chiqish qilib, muayyan geografik muammolarni hal etishga harakat qiladilar. Bu metod ularning ijodiy fikrlashini va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini takomillashtirishning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, bilimlarni samarali o‘zlashtirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish individual yondashuv, interaktiv metod, muammoli vaziyatlar yaratish muhim omil ekanligi aniqlandi. O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning qiziqish va

ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish esa ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u pedagogik va psixologik omillarning uyg'unligida amalga oshirilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov X. "Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari." – Toshkent, 2023.
2. Azimova L. Tanqidiy fikrlash va kognitiv rivojlanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – B. 74-96.
3. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
4. Axmedov D. "Kognitiv jarayonlar tushunchasi va ularning ta'limdagi roli." – Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2024.
5. Lev Vygotsky Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

TA'LIM JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOG VA O'QUVCHILARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

O'tapov Ziyo Bakirovich,
Navoiy viloyat PMM katta o'qituvchisi,
Jabborova Oysara Ibodulla qizi,
Navoiy shahar 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, o'quvchilarda ijodiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash hamda pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo'llari ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, ijodiy kompetensiya, kasbiy kompetentlik, innovatsion ta'lim texnologiyalari.*

Annotation. *This article extensively covers the importance of the competency-based approach in the modern education system, the pedagogical foundations of the formation of creative competence in students, and the issues of developing the professional competence of teachers. The possibilities of developing students' independent thinking skills, connecting their knowledge with practical activities, and improving the professional skills of teachers through the use of a competency-based approach in the educational process are scientifically analyzed. Also, ways of developing students' creative potential through the use of innovative pedagogical technologies in the educational process are considered.*

Keywords: *competence, competence, competency-based approach, pedagogical activity, creative competence, professional competence, innovative educational technologies.*

Аннотация. *В данной статье подробно рассматривается важность компетентностного подхода в современной системе образования, педагогические основы формирования творческой компетентности учащихся и вопросы развития профессиональной компетентности учителей. Научно анализируются возможности развития навыков самостоятельного мышления учащихся, связи их знаний с практической деятельностью и повышения профессиональной квалификации учителей посредством использования компетентностного подхода в образовательном процессе. Также рассматриваются пути развития творческого потенциала учащихся посредством использования инновационных педагогических технологий в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *компетентность, компетентность, компетентностный подход, педагогическая деятельность, творческая компетентность, профессиональная компетентность, инновационные образовательные технологии.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish hamda jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. XXI asrda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining keskin ortishi hamda globallashuv jarayonlarining kuchayishi ta’lim tizimiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy jamiyat endilikda faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni tahlil qila oladigan hamda o‘z bilimlarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llay oladigan shaxslarni talab qilmoqda. Shu sababli ta’lim tizimida an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuvlardan biri kompetensiyaviy yondashuv bo‘lib, u zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda o‘z bilimlarini qo‘llay oladigan, muammolarni mustaqil hal qila oladigan hamda jamiyatda faol ishtirok eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Bu esa ta’lim jarayonini faqat nazariy bilim berishga qaratilgan tizimdan amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan tizimga aylantirishni talab qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ijodiy fikrlash shaxsning yangi g‘oyalar yaratishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechimlar topa olishi hamda o‘z bilimlarini yangicha yondashuv asosida qo‘llay olishi bilan bog‘liqdir. Ijodiy kompetensiya esa shaxsning ijodiy fikrlash qobiliyatini namoyon etish va uni amaliy faoliyatda qo‘llay olish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida ijodiy kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Chunki ijodiy fikrlash o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga hamda o‘z fikrlarini asoslab bera olishiga imkon yaratadi. Shu sababli zamonaviy pedagoglar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlardan keng foydalanishlari zarur. Bundan tashqari, ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga ham bog‘liqdir. Pedagogning kasbiy kompetentligi uning bilim darajasi, pedagogik mahorati, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyati hamda o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish

ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish hamda ularni mustaqil fikrlashga undash qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan bir qatorda ularning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ham ko‘zda tutilmoqda. Bu jarayonda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim sifatining yuqori bo‘lishi ko‘p jihatdan pedagoglarning bilim darajasi, pedagogik mahorati hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyatiga bog‘liqdir.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashni ham o‘rganadilar. Bu esa o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanishiga yordam beradi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamoada ishlashga o‘rgatish hamda muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni samarali qo‘llash, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirish muhim ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, o‘quvchilarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish yo‘llari hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogning kasbiy kompetentligi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni jamiyat va mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogning kompetentligi uning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish, murakkab pedagogik vazifalarni hal etish, noaniq va kutilmagan vaziyatlarda samarali muloqot qilish va ijodiy yondashuvni namoyon etish qobiliyatini bildiradi. Kompetent pedagog o‘z faoliyatida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, dars jarayonini samarali tashkil etadi, pedagogik vazifalarni eng yuqori darajada bajaradi va o‘zini doimiy rivojlantirib boradi.

Kompetensiya va kompetentlik atamalari pedagogik faoliyatda uzviy bog‘liq, ammo ma’nosi jihatidan farq qiladi. Kompetensiya – shaxsning ma’lum bir faoliyat doirasidagi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar majmui bo‘lib, u turli vaziyatlarda samarali ishlashga imkon beradi. Kompetentlik esa mutaxassisning o‘z faoliyatida ushbu bilim va ko‘nikmalarni yuqori darajada qo‘llay olishini bildiradi. Shu bois, pedagogning kompetentligi uning o‘z ustida ishlash, nazariy va amaliy tayyorgarligini oshirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga intilish orqali shakllanadi.

Pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda birinchi navbatda pedagog o‘z-o‘zini tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, o‘z bilim va malakasini baholaydi. O‘z-o‘zini baholash pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘z ustida ishlashga tayyorligini oshiradi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 198-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy

o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etildi.

“Kasbiy rivojlanish kuni” – o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

“Kasbiy rivojlanish soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlari faoliyat ko‘rsatayotgan umumta’lim maktablarida qo‘llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko‘rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o‘tkaziladigan soatlar;

Dastur pedagogning kasbiy va shaxsiy rivojlanish maqsadlarini aniqlaydi, kasbiy kompetentlikni shakllantirish muddatlarini belgilaydi hamda innovatsion metodlarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Kasbiy kompetentlik pedagogning nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bu jarayon quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: maxsus kompetensiya – pedagogning o‘z sohasidagi bilim va ko‘nikmasi; ijtimoiy kompetensiya – hamkasblar bilan muloqot, jamoada ishlash qobiliyati va ijtimoiy javobgarlik; shaxsiy kompetensiya – mustaqil fikrlash va o‘zini rivojlantirish qobiliyati; individual kompetensiya – pedagogning shaxsiy yondashuv orqali o‘quv jarayonini samarali tashkil etishi; asosiy kompetensiya – shaxsning madaniyati, turdosh bilimlar, qobiliyat va ko‘nikmalarining integrativ majmui bo‘lib, samarali faoliyatni ta’minlaydi. Ushbu tarkibiy qismlar birgalikda pedagogning umumiy kompetentligini shakllantiradi va uni zamonaviy ta’lim jarayonida samarali ishlashga tayyorlaydi.

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqich – qobiliyatni aniqlash bo‘lib, pedagogning shaxsiy va kasbiy salohiyati tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqich – tarbiyalash va shakllantirish, ya’ni pedagogga amaliy ko‘nikmalar, nazariy bilimlar va ijtimoiy fazilatlarni singdirish jarayoni. Uchinchi bosqich – chiniqtirish, ya’ni kichik hajmdagi topshiriqlar berib, pedagogni amaliy faoliyatga tayyorlash. To‘rtinchi bosqich – ishonchni shakllantirish, pedagogni mustaqil rahbarlik vazifalariga tayyorlash. Beshinchi bosqich – rahbarlik cho‘qqisi, pedagog yuqori darajadagi rahbarlik va pedagogik kompetentlikni namoyon qiladi. Shu tarzda, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon sifatida amalga oshiriladi.

Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida interaktiv metodlar, loyiha ishlari, masalalarni yechish va multimedia vositalaridan foydalanish pedagogning amaliy ko‘nikmalarini oshiradi va o‘quvchilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, mentorlik va konsultativ faoliyat orqali pedagoglar bir-biridan tajriba olishadi, yangi metodlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy fazilatlar – rahbarlik, mas’uliyatlilik, ijodkorlik, empatiya va muloqotchanlik ham katta ahamiyatga ega. Pedagog o‘z faoliyatida doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish orqali kasbiy kompetentlikni yanada oshiradi. Shu bilan birga, pedagog o‘quvchilarning individual xususiyatlarini

hisobga oladi, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga o‘rgatadi va hayotiy tajribalarni shakllantirishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Kasbiy kompetentlik nafaqat pedagogning malaka va bilimlarini, balki uning o‘z kasbiy faoliyatini tashkil etish, jamoada ishlash va ijtimoiy javobgarlikni o‘zida mujassamlashtirishini bildiradi. Shu bois, pedagogning kompetentligini rivojlantirish har tomonlama, uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va amaliy salohiyatini bir vaqtda rivojlantirishni taqozo etadi. Bu jarayon orqali pedagog o‘z faoliyatida innovatsion metodlarni qo‘llash, o‘quvchilarni jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlash va o‘z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagogik faoliyatda kompetentlikning shakllanishi o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash, o‘zini rivojlantirish va amaliy tajribani boyitish bilan uzviy bog‘liq. O‘zini o‘zi baholash shaxsga o‘z imkoniyatlarini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarini belgilash, kasbiy maqsadlar va vazifalarni belgilash imkonini beradi. O‘z-o‘zini rivojlantirish esa pedagogning mustaqil ravishda o‘z kompetensiyasini oshirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llashga qaratilgan faoliyatidir.

Shunday qilib, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy yo‘llari quyidagilar: shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni oshirish, nazariy va amaliy tayyorgarlikni birlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, doimiy o‘zini rivojlantirish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish. Bu jarayon pedagogning bilimdonlik, malakalilik, ijodkorlik va rahbarlik qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan yuqori kompetentli mutaxassislarni shakllantiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy kompetentligi zamonaviy ta’lim jarayonida asosiy omil hisoblanadi. Kompetent pedagog o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, ularni jamiyat va mehnat faoliyatiga tayyorlashda yuqori samaradorlikka erishadi. Kasbiy kompetentlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlar, ijodiy va rahbarlik qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, pedagogning kasbiy malakasi va kompetensiyasi uning o‘z ustida ishlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali uzluksiz rivojlanadi.

Pedagogning kompetentligini rivojlantirishning eng samarali yo‘llari quyidagilar: doimiy o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini baholash, Individual rivojlanish dasturi orqali shaxsiy va kasbiy maqsadlarni aniqlash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, o‘quvchilarga interaktiv va ijodiy yondashuvni o‘rgatish, hamkasblar bilan tajriba almashish va mentorlik faoliyatida ishtirok etish. Ushbu jarayon pedagogning ijtimoiy kompetensiyasini oshirish, rahbarlik va boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, o‘z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy kompetentligini oshirishda shaxsiy fazilatlar – mas’uliyatlilik, muloqotchanlik, empatiya, ijodkorlik va tashabbuskorlik – muhim rol o‘ynaydi. Pedagog o‘z faoliyatida bu fazilatlarni rivojlantirishi va amaliyotga tatbiq etishi orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va jamiyat talablariga mos faoliyatga tayyorlay oladi.

Natijada, pedagogning yuqori kompetentligi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishlariga xizmat qiladi. Shu bois, har bir pedagog o‘z bilim va malakasini doimiy ravishda rivojlantirishi, innovatsion yondashuvlarni o‘z faoliyatida qo‘llashi va shaxsiy-amaliy Individual rivojlanish

dasturini ishlab chiqishi lozim. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarda ijodiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda pedagogik mahoratning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Shu tarzda, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish – bu uzluksiz, tizimli va kompleks jarayon bo'lib, u nafaqat o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishiga, balki butun ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barakaevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1).
2. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50
3. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA`NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA`LIMOTLARI . Journal of Universal Science Research, 1(5), 340–351. Retrieved from http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/665

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nishonova Durdona Olimjon qizi,
Sirdaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar mavzusi O'zbekiston ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda 20202025 yillarga mo'ljallangan Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etilmoqda: 2023–2024 o'quv yilida 530 dan ortiq maktabda 1195 nafar nogironligi bo'lgan bola ta'lim olgan, 2025 yilga borib inklyuziv maktablar ulushi 51% ga yetkazilishi rejalashtirilgan. Biroq pedagoglarning inklyuziv muhitda ishlashga tayyorgarligi, individual yondashuv, differensial o'qitish va psixologik kompetensiyalari yetarli emasligi muammo sifatida qolmoqda.

Maqolaning maqsadi — inklyuziv ta'lim sharoitida pedagog kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlarini (kompetensiyaviy, integrativ, raqamli, modulli va hamkorlikka asoslangan) tahlil qilish, ularning afzalliklarini ochib berish hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, xorijiy va milliy hujjatlar asosida nazariy va amaliy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Asosiy natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli adaptiv platformalar, mikro-o'qitish va multidisciplinar hamkorlik pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini 20–40% ga oshirishi mumkin. Takliflar: pedagoglar malakasini oshirish dasturlariga zamonaviy modullarni kiritish, AI asosidagi vositalarni joriy etish va tajriba asosida model ishlab chiqish. Ushbu yondashuvlar inklyuziv ta'limni yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, pedagog kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy yondashuvlar, inklyuziv kompetensiya, differensial o'qitish, Universal Design for Learning (UDL), raqamli texnologiyalar, modulli ta'lim, hamkorlikka asoslangan yondashuv, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Аннотация. Тема формирования профессиональной компетентности педагога в условиях инклюзивного образования с использованием современных подходов является одной из актуальных проблем системы образования Узбекистана. В рамках Концепции развития инклюзивного образования в системе народного образования на 2020–2025 годы в стране внедряется инклюзивное образование: в 2023–2024 учебном году в более 530 школах обучалось 1195 детей с инвалидностью, к 2025 году доля школ с инклюзивным подходом должна достичь 51%. Однако остается проблема недостаточной готовности педагогов к работе в инклюзивной среде, дефицита компетенций в дифференцированном обучении, индивидуальном подходе и психологической подготовке.

Цель статьи — анализ современных подходов к формированию профессиональной компетентности педагога в инклюзивном образовании (компетентностный, интегративный, цифровой, модульный и основанный на сотрудничестве), раскрытие их преимуществ и возможностей применения в условиях Узбекистана. В исследовании использованы анализ литературы, зарубежный опыт и национальные документы. Основные результаты показывают, что цифровые адаптивные платформы, микрообучение и междисциплинарное сотрудничество могут повысить инклюзивные компетенции педагогов на 20–40%. Предлагается внедрение современных модулей в программы повышения квалификации, использование инструментов на базе ИИ и разработка модели на основе эксперимента. Данные подходы способствуют более эффективному развитию инклюзивного образования.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, pedagog kasbiy kompetensiyasi, zamonaviy yondashuvlar, inklyuziv kompetensiya, differensial o'qitish, Universal Design for Learning (UDL), raqamli texnologiyalar, modulli ta'lim, hamkorlikka asoslangan yondashuv, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Abstract. The topic of forming a teacher's professional competence in the context of inclusive education using modern approaches is one of the pressing issues in Uzbekistan's education system. Within the framework of the Concept for the Development of Inclusive Education in the Public Education System for 2020–2025, inclusive education is being implemented: in the 2023–2024 academic year, more than 530 schools enrolled 1,195 children with disabilities, and by 2025, the share of inclusive schools is planned to reach 51%. However, the insufficient preparedness of teachers for inclusive environments, lack of competencies in differentiated instruction, individual approaches, and psychological readiness remain key challenges.

The article aims to analyze modern approaches to teacher professional competence development in inclusive education (competency-based, integrative, digital, modular, and collaboration-based), highlight their advantages, and demonstrate application possibilities in Uzbekistan. The study draws on literature review, international experiences (UNESCO, European Agency models, UDL), and national documents. Key findings indicate that digital adaptive platforms, micro-learning, and multidisciplinary collaboration can increase teachers' inclusive competencies by 20–40%. Recommendations include integrating modern modules into teacher training programs, adopting AI-based tools, and developing an experimental model. These approaches will contribute to more effective inclusive education development.

Keywords: inclusive education, teacher professional competence, modern approaches, inclusive competence, differentiated instruction, Universal Design for

Learning (UDL), digital technologies, modular learning, collaboration-based approach, Uzbekistan education system.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim O'zbekiston ta'lim tizimining eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, barcha bolalar – nogironligi bo'lganlar ham, oddiy bolalar ham – bir sinfda, teng huquqli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Respublikada 2020–2025-yillarga mo'ljallangan Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va unga muvofiq "Yo'l xaritasi" doirasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2024/2025 o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktablar soni 947 taga yetkazilgan bo'lib, ularda minglab nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim olmoqda. 2025-yilga borib inklyuziv maktablar ulushini 51% ga yetkazish rejalashtirilgan, bu esa har bir tuman/shaharda kamida bitta to'liq inklyuziv maktab tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon BMT Nogironlar huquqlari to'G'risidagi konvensiyasi (O'zbekiston 2021-yilda ratifikatsiya qilgan), UNESCOning inklyuziv ta'lim bo'yicha yo'riqnomalari va Yevropa tajribasi (European Agency modellari) asosida olib borilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning real muvaffaqiyati pedagoglarning maxsus kompetensiyasiga boG'liq. Ko'plab o'qituvchilar inklyuziv sinflarda ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda: individual yondashuv, differensial o'qitish, Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari, psixologik tayyorgarlik va multidisciplinar hamkorlik (psixolog, defektolog, ota-onalar bilan) kabi ko'nikmalar yetishmayapti. Bu holat ta'lim sifatiga, bolalarning ijtimoiy moslashuviga va umumiy inklyuziv muhit shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari – kompetensiyaviy, integrativ, raqamli (adaptiv platformalar, AI vositalari), modulli va hamkorlikka asoslangan usullar – tahlil qilinadi. Ularning afzalliklari ochib beriladi hamda O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari va takliflar ko'rsatiladi. Maqola pedagoglar malakasini oshirish dasturlari, oliy pedagogik ta'lim va inklyuziv ta'limni rivojlantirish loyihalariga amaliy yordam berishga qaratilgan.

Zamonaviy yondashuvlar.

Это специализированные образовательные учреждения, основанные на мультимедийных курсах дистанционного обучения. В таких учреждениях также проводится оценка уровня знаний и аттестация обучающихся. Примером могут служить Открытый университет в Лондоне и Национальный технологический университет в США.

5-модель. Автономная система обучения.

В данной модели обучение осуществляется преимущественно посредством телевизионной и радиосвязи, а также с использованием печатных материалов. В настоящее время примером такого подхода является телевизионный образовательный проект American Samoa.

6-модель. Мультимедийное дистанционное обучение.

Данная модель особенно удобна для взрослых людей, не имеющих полного среднего образования, и помогает им завершить обучение на уровне средней школы. Таким образом, внедрение дистанционного обучения с использованием информационных технологий, несмотря на определённые материальные трудности, показывает свою эффективность и положительные результаты [8].

Важным условием развития нашей страны является функционирование совершенствованной системы подготовки кадров на основе развития современной экономики, науки, культуры, техники и технологий. Стремительное развитие науки и техники обусловило необходимость серьезных изменений и в образовательном процессе. В ходе учебного процесса актуальной задачей стало постоянное развитие активности и познавательного интереса обучающихся во время занятий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.:Fan, 2009.145 b.
2. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). Public education system methods of distance in education in development of employees. Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 1(1), 252-256.
3. Ziyomuhammadov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.: “Lider Press”, 2009.

4. Shermuxammedov A. Raqamli ta'lim texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati Makon va zamon Space & time journal 2025/1
5. Hamidov J. Shermuxammedov A. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish "Muhandislik oliy ta'limi transformatsiyasi jarayonida ta'lim sifatini oshirishda dual ta'limning istiqbollari " mavzusida I-an`anaviy xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Buxoro-2025
6. Shermuxammedov A. Raqamli ta'limning ijobiy va salbiy tomonlari Xalq ta'limi 2025 4-son (Iyul-Avgust)
7. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury Academic, 2022.

LOYIHAVIY FAOLIYAT ORQALI O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Odilxujayeva Maftuna Xaknazarovna,
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada loyihaviy faoliyat asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida loyihaviy ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarning muammo qo'yish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati o'rganildi. Eksperimental tadqiqot natijalariga ko'ra, loyihaviy faoliyatni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Statistik tahlil natijalari loyihaviy ta'limning samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida STEAM va loyihaviy yondashuv asosida fanlarni integratsiyalashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *loyihaviy ta'lim, tadqiqotchilik kompetensiyasi, STEAM ta'lim, fanlararo integratsiya, tadqiqot faoliyati, kompetensiyaviy yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование исследовательской компетентности учащихся на основе проектной деятельности. В ходе исследования проанализирована роль проектного обучения в развитии у школьников навыков постановки проблемы, сбора информации, анализа данных и формулирования выводов. Результаты экспериментального исследования показали, что интеграция проектной деятельности в образовательный процесс способствует значительному повышению уровня исследовательских компетенций учащихся. Статистический анализ подтвердил эффективность применения проектного обучения. Полученные результаты могут служить методической основой для интеграции общеобразовательных дисциплин на основе STEAM и проектного подхода.*

Ключевые слова: *проектное обучение, исследовательская компетентность, STEAM образование, межпредметная интеграция, исследовательская деятельность, компетентностный подход.*

Abstract. *This article examines the development of students' research competence through project-based learning. The study analyzes the role of project-based activities in improving students' abilities to identify problems, collect information, analyze data, and draw conclusions. The results of the experimental study indicate that integrating project-based learning into the educational process significantly enhances students' research*

competencies. Statistical analysis confirmed the effectiveness of the proposed approach. The findings of the research can serve as a methodological basis for integrating general education subjects through STEAM education and project-based approaches.

Keywords: *project-based learning, research competence, STEAM education, interdisciplinary integration, research activity, competency-based approach.*

Loyihaviy ta'lim zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammo yechish va tadqiqot olib borish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'plab tadqiqotlarda loyihaviy faoliyat o'quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirishda samarali mexanizm sifatida baholanadi [1].

Tadqiqotchilik kompetensiyasi o'quvchilarning muammo qo'yish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalar majmuasidan iborat bo'lib, bu jarayon loyihaviy faoliyat orqali yanada samarali rivojlanadi [2].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham STEAM va loyihaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish o'quvchilarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda [3].

Tadqiqot davomida 40 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular bilan 8 hafta davomida loyihaviy ta'lim asosida amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Baholash Likert (1–5) shkalasi asosida amalga oshirildi.

1-jadval.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	Oldin (M)	Oldin (SD)	Keyin (M)	Keyin (SD)	Δ	p
Muammo qo'yish	2.74	0.65	3.99	0.41	1.25	<0.001
Ma'lumot yig'ish	2.89	0.53	4.2	0.31	1.31	<0.001
Tahlil qilish	2.83	0.51	4.1	0.37	1.27	<0.001
Xulosa chiqarish	2.7	0.46	3.97	0.43	1.27	<0.001

M — Mean (O'rtacha qiymat), SD — Standard Deviation (Standart og'ish), Δ (Delta) — Farq miqdori, p — Statistik ahamiyat darajasi.



1-rasm. Kompetensiya ko‘rsatkichlari taqqoslanishi.



2-rasm. Kompetensiya rivojlanish dinamikasi.

Natijalar tahliliga ko‘ra, loyihaviy faoliyat o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini sezilarli darajada oshirgan ($\Delta>1$). Statistik tahlil natijalari o‘zgarishlarning ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi ($p<0.001$). Bu natijalar loyihaviy ta'limning o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va muammoli fikrlashni rivojlantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi [4].

Shunday qilib, loyihaviy faoliyatni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Thomas J. A Review of Research on Project-Based Learning. Buck Institute for Education, 2000.
2. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House, 2010.
3. Xodiyev B. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2021.
4. Krajcik J., Blumenfeld P. Project-Based Learning. Cambridge University Press, 2006.
5. Ismoilov A. Pedagogik texnologiyalar va ularning amaliyoti. Toshkent, 2020.

AKSIOLOGIK YONDOSHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

To‘xtasinov Umidjon Ma'murjonovich,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish muammosi aksiologik yondoshuv asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Pedagogik ta'lim jarayonida kasbiy qadriyatlar, pedagogik burch, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatning tutgan o‘rni ochib beriladi. Deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *aksiologik yondoshuv, qadriyat, deontologiya, deontologik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy axloq, pedagogik ta'lim.*

Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog shaxsiga bo‘lgan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalar bilan, balki ularning axloqiy-etik yetukligi, kasbiy burchni chuqur anglash darajasi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda deontologik me'yorlarga rioya etish, o‘quvchi shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, kasbiy mas'uliyatni his etish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir. Shu jihatdan, bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonda aksiologik yondoshuv yetakchi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Aksiologik yondoshuv shaxsning qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogik ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishni ta'minlaydi.

Aksiologik yondoshuvning pedagogik mohiyati Aksiologik yondoshuv qadriyatlarni ta'lim va tarbiya jarayonining markaziy elementi sifatida talqin etadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, aksiologiya bo‘lajak o‘qituvchilarda insonparvarlik, adolat, mas'uliyat, burch va vijdon kabi kasbiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu qadriyatlar pedagogik faoliyatning axloqiy poydevorini tashkil etadi. Aksiologik yondoshuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik faoliyatni ijtimoiy ahamiyatga ega kasb sifatida anglaydi. Natijada uning kasbiy qarorlari va xatti-harakatlari axloqiy me'yorlar bilan uyg‘unlashadi. Bu esa deontologik kompetentlikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Deontologik kompetentlik tushunchasi va mazmuni Deontologik kompetentlik – bu bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik burch, axloqiy me'yorlar va kasbiy mas'uliyatni ongli ravishda amalga oshira olish qobiliyatidir. U shaxsning axloqiy pozitsiyasi, kasbiy qadriyatlari va pedagogik xulq-atvori birligida namoyon bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, deontologik kompetentlik quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat: motivatsion-aksiologik komponent (kasbiy qadriyatlar, ichki motivlar), kognitiv komponent (pedagogik etika, deontologiya bo‘yicha bilimlar), faoliyat komponenti (axloqiy qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotda qo‘llash), refleksiv komponent (o‘z kasbiy faoliyatini axloqiy jihatdan tahlil qilish). Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy yetukligini ta'minlaydi. Aksiologik yondoshuv bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishda keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Xususan, u ta'lim mazmuniga axloqiy qadriyatlarni integratsiya qilish, talabalarning kasbiy burchni ongli anglashiga erishish hamda pedagogik faoliyatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida axloqiy dilemmalar, muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetentligini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, axloqiy tanlov qilish va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq: ta'lim mazmuniga aksiologik va deontologik bilimlarni tizimli kiritish, pedagog va talaba o‘rtasida subyekt-subyekt munosabatlarini rivojlantirish, axloqiy muhit va ijobiy pedagogik iqlim yaratish, refleksiv faoliyatni rag‘batlantirish. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksiologik yondoshuv va deontologik kompetentlik masalalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Xususan, mahalliy va xorijiy olimlar pedagog shaxsining kasbiy shakllanishida qadriyatlar tizimi yetakchi o‘rin egallashini ta'kidlaydilar. Tadqiqotlarda

deontologik yondoshuv pedagogik faoliyatda axloqiy me'yorlarga rioya etish, kasbiy burchni anglash va ijtimoiy mas'uliyatni his etish bilan bog'liq holda o'rganilgan. Pedagogik aksiologiya doirasidagi ilmiy qarashlar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Aksiologik yondoshuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa ularning deontologik kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida aksiologik yondoshuvni amalga oshirish bir qator pedagogik yo'llarni talab etadi. Jumladan, o'quv fanlari mazmunini kasbiy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitish, amaliy mashg'ulotlarda axloqiy muammoli vaziyatlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning kasbiy xulq-atvori, muloqot madaniyati va pedagogik mas'uliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Refleksiv topshiriqlar orqali talabalarda o'z faoliyatini baholash, axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda aksiologik yondoshuv metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Tajriba jarayonida talabalarning kasbiy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va pedagogik burchni anglash darajasi aniqlanadi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiologik yondoshuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarning deontologik kompetentligini sezilarli darajada oshiradi. Bu holat mazkur yondoshuvning pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu yondoshuv bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qadriyatlar, pedagogik burch va axloqiy mas'uliyatni chuqur anglashni ta'minlaydi. Natijada ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan, ma'naviy yetuk va kasbiy jihatdan malakali pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiboyeva G.R. Pedagogik kompetentlik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Kenjaboyev A.E. Pedagogik deontologiya asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
3. Kaldibekova A.S. Pedagogik aksiologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Mardonov Sh. Pedagogika: aksiologik yondashuv. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagoglka universiteti 2013.
5. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good – Paris, 2015.

2-SHO'BA: STEAM VA LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA UMUMTA'LIM FANLARINI INTEGRATSIYALASH.

STEAM TA'LIMI ASOSIDA O'QUVCHILARDA DARS VA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QUV TADQIQOTLARI VA LOYIHALASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN IJODKORLIGINI TARBIYALASH METODIKASI

Djurayeva P.S.,
Navoiy viloyat PMM dotsenti

Annotatsiya: *Maktab dasturlarini STEAM ta'limi asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarini qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darsliklar sifatini oshirish adabiyotlar, oliy ta'limda xorijiy tajriba asosida standartlarni takomillashtirish, o'qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etib, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlari va loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash, real hayotda favqulotda vaziyatlar sodir bo'lganda mavjud imkoniyatdan foydalanib, mustahkam, sifatli, kam xarajatli, ko'prik yashash bo'yicha o'quvchilarda tasavvur hosil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratsih lozim.*

Kalit so'zlar*: dastur, yondashuv, tasavvur, imkoniyat, integratsiya, innivatsiya, takriba, taqdiqot, loyihaviy mashg'ulot, ijodkorlik, xorijiy tajriba.*

Аннотация: *Необходимо усовершенствовать школьные программы на основе STEAM-образования, пересмотреть учебные планы и предметы, привести их в соответствие с международными стандартами, повысить качество учебников и литературы, улучшить стандарты высшего образования на основе зарубежного опыта, организовать инновационные мероприятия для учителей, развивать творческий подход, направленный на образовательные исследования и разработки, в рамках учебных занятий и внеклассной деятельности, определить этапы его формирования следующим образом, а также создать основу для развития у учащихся навыков воображения для устойчивой, качественной, экономичной и экологичной жизни в реальных условиях, используя имеющиеся возможности.*

Ключевые слова: *программа, подход, воображение, возможность, интеграция, инновация, приближение, исследование, проектное обучение, креативность, зарубежный опыт.*

Abstract: *It is necessary to improve school programs based on STEAM education, revise curricula and subjects, bring them into line with international standards, improve the quality of textbooks and literature, improve standards in higher education based on foreign experience, organize innovative activities for teachers, cultivate creativity aimed at educational research and design in classes and extracurricular activities, determine the stages of its formation as follows, and create a basis for students to develop imagination skills for sustainable, high-quality, low-cost, and sustainable living in real life, taking advantage of the available opportunities.*

Keywords: *program, approach, imagination, opportunity, integration, innovation, approximation, research, project training, creativity, foreign experience.*

Kirish

Mamlakatimizda STEAM ta'limi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5538, 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4199-son qaroriga muvofiq, mamlakatimizning har bir hududida iqtidorli yoshlar uchun Prezident maktablari ochildi. Prezidentimizning 2020-yil boshida Oliy Majlisga Murojaatnomasida bir qator xorijiy tajribalar asosida maktab dasturlarini takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darsliklar sifatini oshirish adabiyotlar, oliy ta'limda xorijiy tajriba asosida standartlarni takomillashtirish, ta'lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligi, nomutaxassislik fanlari sonini 2 barobarga qisqartirish masalalari ko‘rib chiqildi. STEAM ta'lim mazmuni: Bugungi dunyo talablari global ta'lim, ya'ni bolani jamiyat hayotiga tayyorlashda katta vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bilan birga, birinchi navbatda, zamonaviy talabalar o‘rtasida tez o‘zgaruvchan, yangilanib turuvchi ma'lumotlarga mos ravishda faol ish olib boruvchi mutaxassislar imidjini shakllantirish zarur. Ma'lumotni olish, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llash STEAM o‘quv dasturining asosini tashkil qiladi. STEM atamasi: birinchi marta Qo‘shma Shtatlarda maktab o‘quv dasturiga kiritilgan, o‘quvchilarning fan va texnologiya bo‘yicha kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu qator kengaytirildi va atamaga qo‘shimcha harflar qo‘shildi. Xususan, "R" - robotexnika qo‘shildi va STREM - yoki "A" - art qo‘shildi va STEAM deb nomlandi. Bu (S - fan, T - texnologiya, E - muhandislik, A – san'at, M - matematika) - fan, texnologiya, san'at va matematikani o‘zida mujassam etgan zamonaviy yondashuv.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zidan) olingan. Tabiiy fanlar bo‘yicha amaldagi dasturlar o‘quvchilarni ko‘p sonli tushunchalarni o‘zlashtirishga chorlaydi, ular bilimning tarqoq elementlari vazifasini bajaradi. Bu dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishda qiyinchiliklar tug‘diradi, madaniyatni organik idrok etishga to‘sqinlik qiladi, maktab bitiruvchisining tarqoq dunyoqarashining sabablaridan biriga aylanadi. ***Integratsiya*** fanlararo va fanlararo aloqalarni o‘rnatish, turli ta'lim dasturlari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni va natijasidir. Integratsiyalashgan darsda tahlil mavzusi ko‘p qirrali obyektlar bo‘lib, ularning mohiyati to‘g‘risidagi ma'lumotlar turli xil ma'lumotlarda mavjud. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda tegishli fanlar o‘qituvchilarining ishtiroki psixologik muammoni hal qiladi, bu bolalarga yangi ma'lumotlar blokiga osongina qo‘shilish imkonini beradi, o‘qituvchining umumiy va kasbiy madaniyati darajasini oshirishga yordam beradi, qadriyatni rivojlantirishga yordam beradi. maktab o‘quvchilarining global ta'lim nuqtai nazaridan yo‘nalishlari.

Integratsiyalashgan sinfdan tashqari tadbirlar (loyihalar, ekskursiyalar, intellektual o‘yinlar). Boshlang‘ich ta'lim jarayonida integratsiyani ichki va tashqi integratsiyalarga ajratish mumkin. Bundan tashqari integratsiyalash orqali fizika, kimyo, biologiya fanlariga oid innovatsion bilimlar beriladi. "Innovatsiya" so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. ***Innovatsion faoliyat*** - bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba- sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo‘lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g‘oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo‘ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl

mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etib, dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlari va loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilashi mumkin: Birinchi bosqich – tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko‘chiriladi. Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi. Uchinchi bosqich – yangi g ‘oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to‘la ishlab chiqiladi. To‘rtinchi bosqich – o‘qituvchi o‘qitish va tarbiyalashning o‘z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi. O‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhitni, jamoa a’zolarining qanchalik darajada dunyo ta’lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur.

STEAM ta’lim texnologiyasi dizayn yondashuviga asoslangan va kognitiv va badiiy so‘rovga asoslangan. Bunday tadqiqotlar ilmiy-tadqiqot sohasida amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni egallash, so‘ngra ularni amaliyotda qaytadan qo‘llash, ya’ni texnik ijodkorlik elementlaridan foydalangan holda o‘yinlarda konstruksiyalarni qurish ishlari olib boriladi. STEAM ta’limi o‘quvchilarni rivojlanishini tashqi dunyo bilan bevosita bog‘laydi. Ma’lumki, tabiiy fanlar, atrofdagi olam bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan texnologiyalar kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo‘llaniladi va muhandislik uylarda, yo‘llarda, ko‘priklar va mashinalarda, kasbda ko‘rinadi, kundalik bilimlarimiz ozmi-ko‘pmi matematikaga bog‘liqdir.

Izlanish materiallari va metodologiyasi

Mavzuning dolzarbligi: STEAM ta’limga asoslangan yondashuv yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganish, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarni mantiqiy kuzatish, o‘zlari uchun yangi, o‘ziga xos va qiziqarli narsalarni kashf etish, ularning o‘zaro aloqalarini tushunish imkonini beradi. Yangi narsalarni kutish orqali talaba o‘rganishga qiziqadi, o‘zi uchun qiziqarli muammoni belgilaydi, yechim topish algoritmini tuzadi, natijani tanqidiy baholaydi, fikrlashning muhandislik jihatlarini rivojlantiradi.

Darsning maqsad va vazifalari: STEAM yondashuvining asosiy sharti amaliyotning nazariy bilimlar kabi muhimligidir. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘quv jarayonida nafaqat aqllarini, balki qo‘llarini ham ishlatishlari kerak. Sinfdagi o‘quv jarayoni tez o‘zgaruvchan dunyodan orqada qoldi. STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, o‘quvchilar ko‘plab fanlarni samarali o‘zlashtirish, bilimlarni o‘z-o‘zidan “o‘zlashtirish” uchun aqli va qo‘lidan foydalanadi. o‘quvchilar sinfda tajribalar o‘tkazadilar, modellar yaratadilar, o‘zlari musiqa va filmlar yaratadilar, robotlar yaratadilar, ya’ni o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar va mahsulotlar yaratadilar.

STEAM o‘quvchilarga o‘rganganlarini ta’lim muhitida qo‘llash imkoniyatini bergani uchun, ular ulg‘aygan sari atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va boshqalar kabi real hayotdagi muammolarga duch kelishadi. muammolar, ular faqat fanning turli sohalaridagi bilimlariga tayanishlari va birgalikda ishlashlari kerak. Bitta fan bo‘yicha bilimga tayanishning o‘zi etarli emas. Shunga ko‘ra, STEAM yondashuvi ham fikrlash usulidir. STEAMning o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi natijasida ularning hamkorligi, ijodkorligi va irodasi mustahkamlanadi. Bunday bilim va ko‘nikmalar ta'limning asosiy vazifasi bo‘lib, butun ta'lim tizimi bunga intiladi. AQSh, Singapur, Koreya, Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya va Isroil kabi ko‘plab mamlakatlarda STEAM ta'lim sohasida davlat dasturlari mavjud.

Har kuni yangi ish turlari, shuningdek, yangi ixtisoslik yo‘nalishlari paydo bo‘lib, bugungi kun pedagoglarini o‘ylantirsa kerak. Ular ta’lim berayotgan o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari zamon talablariga mosmi? STEAM ta’limi ko‘plab mamlakatlarda quyidagi sabablarga ko‘ra yuqori baholanadi: Yaqin yillarda dunyoda IT-mutaxassislari, dasturchilar, muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislari va shunga o‘xshash boshqa kasblar yetishmaydi; Kelajakda hozir tasavvur qilish qiyin bo‘lgan kasblar bo‘ladi, ularning barchasi tabiiy fanlar, texnologiyalar, va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Xususan, bio va nanotexnologiyalar bo‘yicha mutaxassislarga ehtiyoj ortadi; bo‘lajak mutaxassislar ta'limning turli sohalari: tabiiy fanlar, muhandislik va texnologiya bo‘yicha har tomonlama tayyorgarlik va bilimlarga muhtoj.

Izlanish natijalari

STEAM texnologiyasi, ta’limdan farqli o‘laroq, bilimlarni alohida emas, muvozanatli tarzda uzatish imkonini beradi. O‘quvchi nostandart fikrlash, hisoblash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, bu uning kelajakdagi faoliyatida juda foydali bo‘ladi. ***Amaliy mashg‘ulot*** strukturasiga mashg‘ulotni bajarish tartibi va uni o‘tkazish uchun zarur o‘quv jihozlari nomlari keltiriladi. O‘quvchi berilgan topshiriq asosida tabiiy hodisalarni kuzatadi, aniqlaydi, tahlil qiladi. Amaliy mashg‘ulot darsi uchun alohida soat ajratgan. ***Loyiha ishini*** tashkil etishdan oldin o‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi. Sinfdagi o‘quvchilar yakka yoki guruhlarga bo‘linib, mavzu bo‘yicha belgilangan vaqt davomida mustaqil ravishda turli manbalar (darslik, internet tizimi) dan axborotlar yig‘adi, loyiha strukturasini shakllantiradi va o‘quv-tadqiqot ishini o‘tkazadilar. Loyiha ishida ta’lim oluvchilar ishni rejalashtirish, uni bajarish, xulosa chiqarish, ish natijasi yuzasidan taqdimot o‘tkazadilar. Loyiha ishi o‘quvchilarda takliflarni ishlab chiqish va ijodkorlik faoliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Amaliy topshiriq tarkibi mashg‘ulot mavzusiga oid jihozlar ro‘yxati, mashg‘ulot mavzusiga oid matn, rasm, grafik yoki jadval orqali ifodalanadi. O‘quvchi berilgan topshiriqlarni tavsiya etilgan jihozlar, matn, xarita, rasm, grafik va jadvaldan foydalanib bajaradilar va o‘z xulosalarini bayon qiladilar. Amaliy topshiriqlar o‘tilgan mavzular kesimida yoki fanlararo aloqadorligini qamrab oluvchi topshiriqlar bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy ishlashga o‘rgatishda sinfdan tashqari tashkil etiladigan to‘garak, konferensiya, kechalar tadbirlarning o‘rni beqiyosdir. Darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar bevosita o‘qituvchini rahbarligida, reja asosida ma’lum maqsadni ko‘zlab, o‘quvchilarni hohishlarini hisobga olib uyushtiriladigan mashg‘ulot turi hisoblanadi. Darsdan tashqari tashqari tashkil etiladigan tadbirlarning maqsad va vazifalari: O‘quvchilarni bilim darajasini, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish; O‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish; Uning mehnat faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlari; O‘quvchilarni shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish; O‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; O‘quvchi qobiliyatiga qarab kasbga yo‘naltirish. **Loyiha:** ***Makarondan ko‘prik yasash.*** **Loyihaning maqsadi:** Kamida real hayotda favqulotda vaziyatlar sodir bo‘lganda mavjud imkoniyatdan foydalanib, mustahkam, sifatli, kam xarajatli, ko‘prik yashash bo‘yicha o‘quvchilarda tasavvur hosil qilish hamda arxitektura, qurilish, muhandislik kasblariga qiziqish uyg‘otish. **Fizika oid bilimlar:** O‘quvchi massa markazini to‘g‘ri aniqlay oladi, og‘irlik kuchi, taranglik kuchi, muvozanat shartiga doir ma’lumotlarni biladi va qo‘llay oladi. **Matematikaga oid bilimlar:** O‘quvchi turli geometrik shakllar hamda ularning o‘lchamlarini simmetrikligiga e’tibor berib to‘g‘ri tanlay oladi. Tanlagan shakllar va chizmalar asosida

hisoblashlarni bajara oladi. **Moziyga nigoh:** 1292 yilda Marko Polo Xitoydan makaronlarni Italiyaga olib kirgan. Ammo ularni birinchi marta qachon paydo bo‘lgani noma'lum; Makaronlar Marko Aroni ismli tadbirkor nomiga nomlangan; Italiyada hamma makarondan tayyorlangan ovqatlarni "pasta" (makaronlar uchun xamir) deb atashadi. ***1-bosqich: Muammoli vaziyat:*** Tinglovchiga muammo tashlash va uni bartaraf qilish yo‘larini aniqlash - Ko‘prik nima vazifani bajaradi? Ko‘prik yasash nima uchun kerak? Sifatli ko‘prik yasashda nimalarga ahamiyat berish kerak? Mustahkam ko‘prik yashash uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

2-bosqich: Guruhdagi tinglovchilarni 5 tadan iborat guruhlarga bo‘lish texnologiyasi. **Kasblar:** Fizik, Matematik, Arxitektor, Informatik, Dizayner. ***Guruhlarda ishlash: 3-bosqich: Har bir o‘quvchi loyiha ishiga o‘z hissasini qo‘shadi:*** Vazifalar echimini qidiradi; Xomashyoni hisoblaydi; Model yaratadi; Bajariladigan ishlarning algoritmini tuzadi va taqdimot qiladi; Chiroyliligiga va reklamabopligiga e'tibor beradi. ***Belgilangan talablar:*** Ko‘prikning uzunligi eng kamida 40 sm bo‘lishi kerak; Ko‘prikning eni-10 sm; Ko‘prikni yasashda eng ko‘pi bilan 15 ming so‘m sarf qilishi kerak; Kop‘rik eng kamida 5 kg og‘irkikdagi yukni ko‘tara olishi kerak; Estetik jihatdan tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin; Tejamkorlikka amal qilinsin. **Biz kerak bo‘ladi:**

q
y











Makarondan ko'prik tayyor

Nosozliklarni bartaraf etish: Agar ko'prikda qandaydir kamchiliklar kuzatilsa ko'prik egilsa yoki uning massa markazi noto'g'ri tanlangan bo'lsa uni bartaraf etish yo'llarini aniqlashadi.

Savollar: Ko'prik nima uchun kerak va u yordamida qanday ishlarni bajarish mumkin deb o'ylaysiz? Sizning tasavvuringizda ko'prikning tashqi ko'rinishi qanday bo'lgani afzal? Ushbu loyihani bajarishda fizika fanining qanday ahamiyati bor? Ushbu loyihani bajarishda matematika fanining qanday ahamiyati bor? *Tayyorlangan modelni baholash uchun quyidagi shaklda jadval qilishimiz mumkin. Bu jadvalga modelning jixatlari keltirilib unga qo'yilgan ballar yoziladi.* **Baholash**

Shartlar	***Guruh nomi***	***Ball***
Model chiroyliligi		
Model chidamliligi		
Modelning tog'ri ishlashi		
Modelni tayyorlashdagi tejamkorlik		
Jami ballar:		

Munozalar.

Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyati, sabablari va o'zaro bog'liqligi, tabiatning rivojlanish bosqichlari, jumladan, tirik organizmlarning evolyutsiyasi, zamonaviy texnika va texnologiyaning tabiiy ilmiy asoslari, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi va ta'siri, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishning ilmiy asoslari, xo'jalik jarayonlarini samarali yuritish va boshqarish tamoyillari, sog'lom turmush tarzining mohiyati va ahamiyati haqida nazariy hamda amaliy bilimlar tizimini tarkib toptirish tabiiy fanlarning asosiy vazifalarini belgilab beradi. O'quvchining ichki motivatsiyasi tabiiy fanlarni o'zlashtirishga qiziqishi, ular orqali tabiiy va ijtimoiy muhit holatini tushunishi, atrof-muhit va inson muammolarini anglashi, ularning yechimini topishda qarorlarni qabul qila olishida muhim o'rin egallaydi. Fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilar tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya o'quvchilarda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari, sog'lom turmush

tarziga amal qilish tamoyillarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

STEAM ta'limi asosida tabiiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Xulosa va tavsiyalar

Tabiiy fanlarni o‘qitishda nafaqat ularning o‘zaro ichki, balki tashqi, ya'ni turdosh fanlar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo‘nalishlari bilan o‘zaro chambarchas aloqalari muhim hisoblanadi:

Ona tili va o‘qish o‘quv fanlari orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, yozma va og‘zaki ravishda o‘z qarashlarini ravon bayon etish malakalarini hosil qilishda, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash hamda bahs - munozaralar jarayonida erkin muloqot qilishga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Matematika o‘quv fanida o‘rgatiladigan malakalar tabiiy fanlar darslarida matematik o‘lchov va hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o‘tkazish jarayonida eng maqbul yechim topa olish va to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun ahamiyatlidir.

Informatika va axborot texnologiyalari o‘quv fani yordamida tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda turli ko‘rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish orqali ulkan imkoniyatlarni yaratadi.

Texnologiya o‘quv fani orqali tarkib toptirilgan kompetensiyalar tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy loyiha tayyorlash malakalarini hosil bo‘lishida yuqori kasbiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Tabiiy fanlar o‘quv fani o‘quvchilarda tabiiy va ijtimoiy- iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va xo‘jaligi, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarning geografik asoslari, tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni shakllantiradi, mustaqil fikr-mulohaza yuritishni, geografik bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rgatadi. Fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda xaritalardan foydalana olish ko‘nikmalari, ekologik savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf tabiiy fanlarni o‘qitish natijasida shakllantiriladigan tushuncha va kompetensiyalar boshqa tabiiy fanlarda o‘rganiladigan obyekt, hodisa va jarayonlar haqida kompleks tasavvurni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Biologiya o‘quv predmetlari o‘quvchilarda jonli tabiatning obyekti va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o‘rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Jonli muhit muammolarini hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o‘zida atrofimizni o‘rab

turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rangbaranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his qilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.

Tavsiya sifatida STEAM ta'limi asosida o'quvchilarda ***ilmiy xabardorlik kompetensiyasi*** sifatida kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarda turli tadqiqotlarni rejalashtirish, loyihalashtirish, amalga oshirish usullarini taklif etish malakasini egallashlariga erishish lozim. ***Amaliy kompetensiya*** sifatida esa, o'quvchilarga hodisalarni kuzatish, taqdimotlar, tajriba va loyihalar o'tkazish, zaruriy kattaliklarni asboblar (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchay olish, hisoblash ishlarini bajarish, turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va oqilona foydalana olish, atrof muhit va ekologiyaga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish omillarini bilish, kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqiy fikrlab, o'zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtirish, o'quv faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholay olish ko'nikmalarini mustaqil o'zlashtirish layoqatiga tarbiyalashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi [Matn]: darslik / K.M. Astanakulov, P.S. Djurayeva, M.A. Rahimova. – Toshkent: UO'K: 372.30 KBK: 74.202.21 A 89
2. Akbar Baxromov, Shavkat Sharipov, Manzura Nabieva, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun "Tabiatshunoslik" darsligi, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati bosh muharriri, Toshkent sh. – 2017 yil, B-121.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiatshunoslik g'oya va tushunchalarini shakllantirishning uslubiy asoslari https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-mahsus-talim-vazirligi-te.html?page=4
4. K.Suyarov va boshqalar 1-sinf "Tabiiy fanlar" darsligi va daftari – RTM-2021.
5. Axmetova G.K., Qoraev Z.A., Muxanbetjanova S.T. Elektron ta'lim joriy etilganda o'qituvchilar malakasini oshirishni tashkil etish metodikasi. Olmaota: OAJ "BAO "Orleu", 2012. 418 b.
6. Анонашвили Ш.А., Лисенкова С.Н., Шаталов В.Ф. Педагогикалық ізденіс. – Алматы: Рауан, 1990. – 59-62 бет.
7. Ismailov A. A., Daminov X. J., Karimberdiyev Q. K., Islomova Z. Sh. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma. – Toshkent: Sharq, 2019. – 91 b.
8. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. / Malikova Y.V. – Toshkent: "Novda Edutaiment" nashriyoti, 2023. – 120 b.
9. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. I qism./ Malikova Y.V., S.V.Kosyanenko. – Toshkent: "Novda Edutaiment" nashriyoti, 2023. – 136 b.

TEXNIKUM O'QUVCHILARIDA KASBIY O'ZINI ANGLASHNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Kalandarov Jahongir,
Navoiy viloyati Kasbiy ta'lim boshqarmasi boshlig'i

Kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik va psixologik determinantlar muhim rol o'ynaydi. Pedagogik determinantlar o'quvchilarning ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarini, shuningdek, ularning o'qituvchilar va ota-

onalar bilan o‘zaro aloqalarini o‘z ichiga oladi. Psixologik determinantlar esa o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash darajasiga bog‘liqdir.

Texnikum o‘quvchilarining kasbiy o‘zini anglash jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida shaxs rivojining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi, chunki aynan shu bosqichda o‘quvchi o‘zining kelajakdagi faoliyat yo‘nalishini ongli ravishda tanlashga kirishadi. Ushbu jarayon nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki shaxsning ichki dunyosini anglash, qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Texnikum ta’lim muhitida o‘quvchilar ko‘proq amaliy faoliyatga jalb qilinadi, bu esa ularning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik omillar ichida o‘qitish metodlari, ta’lim mazmuni, ustozning shaxsiy namunasi va o‘quv muhitining tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari asosiy omil hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘zlariga nisbatan qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularning kasb tanlash jarayonini yengillashtiradi. Shuning uchun, o‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam berishlari zarur. Bu jarayonda turli xil testlar, anketalar va intervyular o‘tkazish mumkin. Ushbu usullar orqali o‘quvchilar o‘zlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilarning kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ta'lim muassasalarining roli ham juda muhimdir. Ta'lim muassasalari o‘quvchilarga kasblar haqida ma'lumot berish, ularni kasbga tayyorlash va kasb tanlash jarayonida qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajara oladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashda yordam berishlari lozim. Shuningdek, o‘quvchilarga kasb tanlash jarayonida qaror qabul qilishda yordam berish uchun turli xil kasbga oid seminarlar, master-klasslar va uchrashuvlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Kasb tanlash jarayonida ota-onalarning roli ham muhimdir. Ota-onalar o‘z farzandlariga qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashda yordam berishlari lozim. Ular o‘z farzandlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini e'tiborga olib, ularga maslahat berishlari kerak. Shuningdek, ota-onalar o‘z farzandlariga kasb tanlash jarayonida o‘z fikrlarini bildirishda va qaror qabul qilishda yordam berishlari zarur.

O‘quvchilarning kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishda psixologik determinantlar ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash darajasi, motivatsiyasi va shaxsiy qobiliyatlari kasb tanlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash darajasi ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashda yordam beradi. O‘quvchilar o‘zlarini anglaganlarida, ularning kasb tanlash jarayonida qaror qabul qilishlari osonlashadi. Motivatsiya ham kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning kasb tanlash jarayonida motivatsiyasi yuqori bo‘lganda, ular o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashga intilishadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun turli xil usullarni qo‘llashlari mumkin.

Masalan, o‘quvchilarga muvaffaqiyatli kasb egalarining hikoyalarini aytib berish, ularni o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashga undash. Shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari ham kasb tanlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini anglaganlarida, ularning kasb tanlash jarayonida qaror qabul qilishlari osonlashadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlashda yordam berishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga turli xil

faoliyatlar, loyihalar va tajribalar orqali o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish imkoniyatini berish muhimdir.

Kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy muhitini ham e'tiborga olish zarur. O‘quvchilar o‘z ijtimoiy muhitidan, ya'ni do‘stlaridan, oila a'zolaridan va o‘qituvchilardan ta'sirlanadilar. Ijtimoiy muhit o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning ijtimoiy muhitini e'tiborga olgan holda, ularning kasb tanlash jarayonida qo‘llab-quvvatlashlari lozim. Shunday qilib, texnikum o‘quvchilarida kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni pedagogik va psixologik determinantlar bilan bog‘liq. O‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiyasi va o‘z-o‘zini anglash darajasi kasb tanlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar, ota-onalar va ta'lim muassasalari o‘quvchilarga kasb tanlash jarayonida yordam berishlari zarur. O‘quvchilarning ijtimoiy muhitini e'tiborga olish, ularning kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, kasb tanlash jarayoni o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashda yordam berish, o‘quvchilarni kelajakda o‘z yo‘llarini topishda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagogik va psixologik determinantlar o‘quvchilarning kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatqulov, A. (2022). "O‘quvchilarda kasb tanlash ko‘nikmalarini rivojlantirish." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Tashkent, D. (2023). "Pedagogik psixologiya va kasb tanlash jarayoni." Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Abdullaeva, N. (2021). "O‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyani shakllantirish." Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
4. Karimov, S. (2022). "Kasb tanlash va shaxsiy rivojlanish." Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti.
5. Xudoyberdiyeva, M. (2021). "Ota-onalar va o‘qituvchilarning kasb tanlashdagi roli." Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
6. Isroilov, A. (2022). "Kasb tanlash psixologiyasi: nazariya va amaliyot." Namangan: Namangan Davlat Universiteti.

TA'LIM SIFAT KO‘RSATKICHLARI VA IQTISODIY SIKLLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Xamroqulov Ixtiyor Baxtiyrovich,
"Iqtisodiyot" kafedrasi katta o‘qituvchisi, Phd,
Nomonov Jo`rabek,
Farg`ona Davlat Texnika Univerditeti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada ta'lim sifat ko‘rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlik tizimli ravishda tahlil qilinadi. Global ilmiy adabiyotlar, jumladan inson kapitali nazariyasi, endogen o‘sish modellari hamda makroiqtisodiy tebranishlar konsepsiyalari asosida ta'lim sifati iqtisodiy barqarorlik va siklik rivojlanishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida ta'limdagi sifat ko‘rsatkichlari (PISA*

natijalari, o'qituvchilar malakasi, ta'lim infratuzilmasi) iqtisodiy o'sish sur'atlari, ishsizlik darajasi va investitsion faollik bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, iqtisodiy sikl, inson kapitali, makroiqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi, innovatsiya, bilim iqtisodiyoti, PISA natijalari, ta'lim investitsiyalari.*

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ta'lim sifati va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy sikllar ya'ni iqtisodiy o'sish, turg'unlik va inqiroz bosqichlari davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jarayonda ta'lim tizimi nafaqat iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchi, balki ularni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli ta'lim tizimiga ega mamlakatlarda iqtisodiy sikllarning salbiy ta'siri nisbatan past bo'ladi va tiklanish jarayonlari tezroq kechadi.

Bugungi kunda xalqaro tadqiqotlar, xususan, OECD va Jahon banki hisobotlari asosida ta'lim sifati bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi isbotlangan. Masalan, PISA natijalari yuqori bo'lgan davlatlarda mehnat unumdorligi o'rtacha 20–30 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, iqtisodiy inqiroz davrida ta'limga ajratiladigan davlat xarajatlarining qisqarishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa inson kapitalining sifat jihatdan pasayishiga olib keladi.

Mazkur muammo ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun muhim hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sifat ko'rsatkichlarini oshirish va uni iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Endogen o'sish nazariyasi doirasida ta'lim tizimi innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning asosiy manbai sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati yuqori bo'lgan davlatlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati hajmi 1,5–2 barobar yuqori bo'ladi. Bu esa iqtisodiy sikllarning yuqori bosqichlarida tezroq o'sishni ta'minlabgina qolmay, past bosqichlarida iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshiradi.

1-jadval. Ta'lim sifati ko'rsatkichlari va YAIM o'sish sur'ati

STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Dasturda bolalarga ma'lumbir tartib, ma'lum bir standartlar belgilab qo‘yilmagan. Faqatgina bola o‘zi mustaqil ravishda, erkin, tajribalarga asoslanib, o‘zi bajarib ko‘rib natijaga erishish, his etib, fikrlab, idrok etib bajarishkerak bo'ladigan tamoyillarga tayanadi. Ushbu ta'lim dasturi L.S.Vygotskiyning "To‘g‘ri tashkil etilgan ta'lim - bolani rivojlanish sari yetaklaydi" ilmiy rivojlanish tamoyillariga asoslangandastur. STEAM dasturida maktabgacha ta'lim tashkilotlaida maxsus tajriba ya'ni laboratoriya xonalaritashkil etib, bolalarni beihtiyor ta'limga jalb etib, faoliyat davomida ularning innovatsiontadqiqotchilik va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega[8].

O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan uzluksiz ta'lim tizimi bugungi kunda izchil rivojlanib, ilg‘or Yevropa davlatlari ta'lim tajribalarini o‘zlashtirish orqali jahon ta'lim makoni bilan uyg‘unlashib bormoqda. Mazkur jarayon ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, uzluksiz aloqalarni

[8] "Maktabgacha ta'lim sohasida steam texnologiyalarini keng qo‘llash orqali ta'lim sifatini yanada oshirish imkoniyatlari". M.B.Boltayeva. Ilm-fan xabarnomasi ilmiy elektron xabarnomasi. 116-bet.

yo‘lga qo‘yish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim tizimining samaradorligi sezilarli darajada ortmoqda.

Yurtimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq ravishda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan STEAM elementlaridan foydalanish bolalarning intellektual hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bolalarda atrof-muhitga nisbatan qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantiribgina qolmay, balki ekologik ongni rivojlantirish, kreativ fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bolalarning kreativ, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, STEAM yondashuvini maktabgacha ta’lim amaliyotiga tatbiq etish masalasi bo‘yicha o‘zbek olimlari tomonidan turli ilmiy va metodik izlanishlar olib borilmoqda.

Maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog olimlar tomonidan bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida kuzatuvchanlik, tafakkur qilish, tajriba o‘tkazish hamda ijodiy faollikni rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etishi ta’kidlab o‘tilgan. Ilmiy-metodik tadqiqotlarda qayd etilishicha, tabiatni o‘rganishga oid mashg‘ulotlar bolalarda nafaqat ekologik madaniyatni shakllantiradi, balki ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi. Ushbu yondashuvlar STEAM ta’limining asosiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning maqsad va vazifalariga to‘liq mos keladi.

Ayrim tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ rivojlanishida integrativ ta’lim muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. O‘zbek olimlari ta’lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, ya’ni tabiat, matematika, tasviriy faoliyat va konstruktiv o‘yinlarni o‘zaro bog‘lash orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini asoslab berganlar. Bu yondashuv STEAM ta’limining “integratsiya” tamoyiliga to‘liq mos keladi[9].

Qator ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ rivojlanishida integrativ ta’lim yondashuvining muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta’kidlanadi. O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda ta’lim jarayonida fanlararo uzviy bog‘liqlikni ta’minlash, ya’ni tabiatshunoslik, matematika, tasviriy faoliyat hamda konstruktiv o‘yin elementlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

Mazkur yondashuv bolalarning tafakkurini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilib, ularni kompleks fikrlashga yo‘naltiradi. Shu jihatdan qaralganda, ushbu yondashuv STEAM ta’limining asosiy tamoyillaridan biri hisoblangan integratsiya prinsipiga to‘liq mos keladi hamda uning mazmun-mohiyatini amaliy jihatdan ifodalaydi.

STEAM ta’limi fan, texnologiya, muhandislik, san’at hamda matematika yo‘nalishlarini o‘zaro integratsiyalashga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini loyiha asosida tashkil etish orqali bolalarni real hayotda uchraydigan muammolarni mustaqil hal etishga yo‘naltiradi.

[9] “Steam yondashuvlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar kreativ ko'nikmlarini shakllantirish metodikasi”, S.Q.Negmatova “Maktabgacha ta’lim tizimida global innovatsiyalar va milliy ta’lim strategiyalari uyg‘unligini ta’minlashning dolzarb masalalari”

Natijada o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar ham shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlik asosan o‘yin faoliyati, kuzatish jarayoni hamda turli tajribalar orqali rivojlanadi. Kreativlik tushunchasi yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga noodatiy va muqobil yechimlar topa olish qobiliyatini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, STEAM yondashuvi ochiq yakunli topshiriqlar va erkin faoliyat turlarini taklif etishi orqali bolalarning ijodiy salohiyatini yanada faollashtiradi va rivojlantiradi.

Maktabgacha yosh davrida STEAM yondashuvini qo‘llash bolalarning tabiiy qiziquvchanligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida ularning ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur yuritish hamda jamoa bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmutazimova Yu. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. Toshkent, 2023.
2. Quchqorova N.M. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasi (2030 yilgachn va).
4. R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov "Umumiy pedagogika". "Fan va texnalogiya" nashriyoti T:2018.
5. O‘tkir Tolipov, Dilnoz Ro‘zieva "Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat" "Toshkent innavatsiya – Ziyo" T: 2019.
6. Z.Ashurova "Maktabgacha ta'limda STEAM texnalogiyasidan foydalanish" Metodikqo‘llanma. Buxoro:2020.

STEAM VA LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA TEXNOLOGIYA FANINI INTEGRATSIYALASH

Saidova Saida Zoyir qizi,
Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi metodisti, Buxoro Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta'lim fanlarini integratsiyalashda STEAM yondashuvi hamda loyihaviy ta'lim texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, STEAM asosida tashkil etilgan loyihaviy faoliyatning samaradorligi ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *STEAM, integratsiya, loyihaviy ta'lim, fanlararo yondashuv, kompetensiya, kreativ fikrlash, innovatsion ta'lim.*

Abstract. *This article analyzes theoretical and practical aspects of integrating general education subjects based on STEAM and project-based learning approaches. The study highlights the role of interdisciplinary integration in developing students' creative thinking, problem-solving skills, and practical competencies. The effectiveness of STEAM-based project activities is also scientifically substantiated.*

Keywords: *STEAM, integration, project-based learning, interdisciplinary approach, competence, creativity, innovation.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты подхода STEAM и проектно-ориентированных образовательных технологий в интеграции общеобразовательных предметов. Исследование*

освещает возможности развития творческого мышления, навыков решения проблем и практических умений учащихся посредством междисциплинарной интеграции. Эффективность проектной деятельности, организованной на основе STEAM, также научно доказана.

Ключевые слова: *STEAM, интеграция, проектно-ориентированное образование, междисциплинарный подход, компетентность, творческое мышление, инновационное образование.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishdir. An'anaviy bilim berishga asoslangan yondashuv o'rnini bugungi kunda kompetensiyaviy, amaliy va integratsiyalashgan ta'lim egallamoqda.Fanlararo integratsiya g'oyasi pedagogika tarixida muhim o'rin tutadi, ammo hozirgi bosqichda u STEAM yondashuvi orqali yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

- tahlil va sintez
- taqqoslash metodi
- pedagogik kuzatuv
- tajriba-sinov ishlari
- so'rovnoma va diagnostika usullari

Tadqiqot davomida STEAM asosidagi integratsiyalashgan darslar samaradorligi o'rganildi.

Nazariy asoslar

STEAM ta'lim konsepsiyasi **STEAM ta'lim modeli fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics)ni yagona tizimda o'qitishni nazarda tutadi.**

Uning asosiy tamoyillari:

- integratsiyalashgan ta'lim
- amaliy faoliyat ustuvorligi
- kreativlik va innovatsiya
- muammoga yo'naltirilganlik

STEAM yondashuvi konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi va o'quvchini faol subyekt sifatida ko'radi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasi **— bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil faoliyat orqali shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu usulda o'quvchilar ma'lum bir** loyiha (project) **ustida ishlash orqali bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu texnologiyada o'qituvchi** yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi**, o'quvchi esa** faol ijrochi **rolini bajaradi.**

Asosiy maqsadlari:

- Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash
- Mustaqil fikrlashni rivojlantirish
- Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish
- Jamoada ishlash malakasini rivojlantirish
- Ijodkorlikni oshirish

Loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning – PBL) o'quvchilarning mustaqil izlanishiga asoslangan metod bo'lib, u quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Muammo qo'yish
2. Maqsadni aniqlash
3. Rejalashtirish
4. Tadqiqot olib borish
5. Mahsulot yaratish
6. Taqdimot va refleksiya

Bu metod o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va jamoaviy ishlashga o'rgatadi.

Tadqiqot natijalari va tahlil

STEAM va loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida quyidagi natijalar aniqlandi:

- o'quvchilarning darsga qiziqishi 30–40% ga oshdi
- muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari rivojlandi
- amaliy bilimlar mustahkamlandi
- jamoada ishlash kompetensiyasi shakllandi

Tajriba guruhlarida o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Amaliy model (taklif)

Quyidagi integratsion model taklif etiladi:

"Smart tizimlar" loyihasi

Integratsiya yo'nalishlari:

- Fizika – energiya va harakat
- Matematika – hisoblash va modellashtirish
- Informatika – dasturlash
- Texnologiya – qurilma yaratish
- San'at – dizayn

Natija: o'quvchilar tomonidan real ishlaydigan model yaratiladi.

Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatadiki, STEAM va loyihaviy yondashuv:

- an'anaviy ta'limga nisbatan samaraliroq
- o'quvchilarning mustaqilligini oshiradi
- bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi

Biroq quyidagi muammolar ham mavjud:

- o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi
- moddiy-texnik baza yetishmasligi
- metodik ta'minotning cheklanganligi

Loyihaviy ta'limning texnologiya fanidagi ahamiyati

Mavzu: Yog'ochdan foydali buyum tayyorlash

Loyiha jarayoni:

1. Buyum dizaynini tanlash
2. Chizma tayyorlash
3. Material tanlash
4. Buyumni yasash
5. Tayyor mahsulotni taqdim etish

Xulosa

STEAM va loyihaviy yondashuv asosida fanlarni integratsiyalash zamonaviy ta'limning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish orqali ularni amaliy hayotga tayyorlaydi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarda:

- kreativ fikrlash
- muammolarni hal qilish
- innovatsion yondashuv

kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Kelgusida bu yo‘nalishda metodik ta'minotni kuchaytirish va o‘qituvchilar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. STEAM Education: Theory and Practice
2. Project-Based Learning Handbook
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar
4. Ta'lim to‘g‘risidagi qonun va milliy dasturlar
5. Xalqaro ta'lim tadqiqotlari (PISA, TIMSS hisobotlari)
6. Pedagogika nazariyasi va tarixi bo‘yicha darsliklar
7. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy manbalar
8. Ta'lim metodikasi bo‘yicha ilmiy maqolalar
9. Innovatsion ta'lim texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlar

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

To‘xtasinov Umidjon Ma'murjonovich,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida STEAM texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Deontologik kompetentlikning tarkibiy qismlari — kasbiy qadriyatlar, etik me'yorlarga sodiqlik, kommunikativ madaniyat, mas'uliyat va refleksiv yondashuv kabi jihatlar STEAM komponentlari (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) bilan integratsiyada o‘rganildi. Tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda loyiha asosidagi ta'lim, muhandislik fikrlashi, dizayn yondashuvi, ijodiy muammolarni hal etish, raqamli modellashtirish va STEAM asosidagi etika simulyatsiyalarining o‘rni va samaradorligini ochib berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, STEAM yondashuvi deontologik xulq-atvorni shakllantiruvchi aksial qadriyatlar halollik, adolat, burch, mas'uliyat va hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etikaga oid qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtiradi. Maqolada STEAM texnologiyalarini aksiologik yondashuv bilan uyg‘unlashtirib deontologik tayyorgarlikni kuchaytirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aksiologik yondashuv, deontologik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, STEAM texnologiyalari, kasbiy qadriyatlar, etik me'yorlar, kasbiy mas'uliyat, dizayn fikrlashi, refleksiya, integrativ ta'lim.*

XXI asr ta'lim tizimi o‘qituvchidan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni, balki yuqori darajadagi axloqiy madaniyat, mas'uliyat, halollik va kasbiy qadriyatlarga sodiqlikni ham talab etmoqda. Global axborot oqimlari, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar dinamikasidagi o‘zgarishlar o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan talablarni murakkablashtirdi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetentligini shakllantirish pedagogik ta'limning eng muhim ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Chunki deontologik kompetentlik o‘qituvchining professional faoliyatida etik qarorlar qabul qilishi, pedagogik munosabatlar jarayonida mas'uliyatli bo‘lishi, o‘quvchi shaxsiga hurmat bilan yondashishi va kasbiy burchni chuqur anglab bajarishi kabi jihatlarni belgilaydi. Ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv qo‘llanilishi bo‘lajak o‘qituvchilarni qadriyatlar asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Aksiologik yondashuvning mohiyati shundaki, o‘quv jarayoni shaxsning asosiy axloqiy, kasbiy va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bunda o‘qituvchi kasbiy faoliyatining markazida qadriyat sifatida halollik, mehr-oqibat, adolat, mas'uliyat, pedagogik madaniyat, kasbiy burchga sodiqlik kabi etik kategoriyalar turadi. Qadriyatlar bilan boyitilgan pedagogik tizim bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish uchun qudratli psixologik-pedagogik zamin yaratadi.

So‘nggi yillarda ta'limda keng qo‘llanila boshlagan STEAM texnologiyalari (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy madaniyati va deontologik kompetentligini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. STEAMning integrativ va amaliy mazmuni o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuvi, texnologik savodxonlik, dizayn fikrlash, tahliliy qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash kabi sifatlarni rivojlantirishga undaydi. Biroq so‘nggi ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, STEAM texnologiyalari faqat kognitiv rivojlanishga emas, balki aksial qadriyatlar — mas'uliyat, halollik, hamkorlik, axloqiy mas'uliyat, burchni his qilish, shaxsiy javobgarlik kabi sifatlarni shakllantirishga ham kuchli ta'sir ko‘rsatadi.

STEAM texnologiyalari yordamida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari ko‘pincha o‘quvchilarni real hayot muammolari bilan yuzlashtiradi, ulardan o‘zaro yordam, jamoaviy qaror qabul qilish, adolatli baholash, mas'uliyatli liderlik va axloqiy javobgarlik talab qiladi. Bunday jarayonlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetentligi nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Masalan, STEAM loyihalarida jamoaviy ish, vazifalarni adolatli taqsimlash, mas'uliyatni bajarish, etik muammolarni aniqlash va hal qilish jarayoni pedagogik deontologiya tamoyillarini real tajriba orqali mustahkamlaydi.

Aksiologik yondashuv bilan STEAMning integratsiyasi deontologik kompetentlikni rivojlantirishda ikki tomonlama ta'sir mexanizmini yaratadi. STEAM texnologiyalari axloqiy qarorlar qabul qilish, jamoaviy mas'uliyat va kasbiy madaniyatni amaliyotda rivojlantiradi. Aksiologik yondashuv STEAM jarayoniga ma'naviy-axloqiy mazmun beradi, texnik va ijodiy faoliyatni qadriyatlar bilan boyitadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda pedagogik ta'limda STEAM texnologiyalarining deontologik kompetentlikni shakllantirishdagi o‘rni yetarli darajada o‘rganilmagan. Ilmiy hamjamiyat STEAMning kognitiv va kreativ rivojlanishga ta'siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib bormoqda, ammo uning aksial qadriyatlar shakllanishi, kasbiy etika va deontologik tayyorgarlikka ko‘rsatadigan ta'siri kam tadqiq etilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiologik yondashuv asosida STEAM texnologiyalaridan foydalanishning bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishdagi

o‘rnini aniqlash, uning samaradorligini eksperimental asosda o‘rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotning farazi shundan iboratki, agar STEAM texnologiyalari aksiologik yondashuv asosida, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlik sezilarli darajada rivojlanadi; xususan, kasbiy mas’uliyat, etik qaror qabul qilish, hamkorlik madaniyati, burchni his qilish va kasbiy axloq normalariga sodiqlik oshadi.

Tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni STEAM texnologiyalari orqali rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks — miqdoriy va sifat yondashuvlar uyg‘unlashgan metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot 2024–2025 o‘quv yillari davomida pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida eksperimental va nazorat guruhlariga teng ajratildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetentlik darajasi maxsus diagnostik vositalar yordamida aniqlab olindi. Diagnostika quyidagi komponentlarni o‘lchadi, kasbiy qadriyatlar yo‘nalishi (aksiologik profil), etik qaror qabul qilish ko‘nikmalari, mas’uliyat va burch hissi, kommunikativ madaniyat, refleksiv yondashuv. Buning uchun Schwartz Value Survey, Ethical Decision Test, Professional Responsibility Scale kabi xalqaro amaliy testlardan moslashtirilgan variantlar qo‘llandi.

Eksperimental guruhda maxsus ishlab chiqilgan STEAM-aksiologik integratsion model asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Model quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oldi. STEAM loyiha ishlari jamoaviy mas’uliyat va adolatli baholashni shakllantiruvchi vazifalar. Dizayn fikrlash etik muammolarni hal etish, qarorlar oqibatini oldindan baholash. Texnologik va muhandislik vazifalari jamoada liderlik, vazifalarni taqsimlash, mas’uliyatni bajarish. San’at elementi estetik qadriyatlar, ijodiy yondashuv va ichki refleksiya rivoji. Etika simulyatsiyalari (AI-assisted) real pedagogik vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilishni mashq qilish. Mashg‘ulotlar 12 hafta davomida olib borildi. Har bir mashg‘ulot davomida talabalar etik vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy ish davomida madaniy muloqot qilish, mas’uliyatli qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini baholash jarayonlariga jalb qilindi. Eksperiment yakunida dastlabki diagnostika qayta o‘tkazilib, natijalar solishtirdi. Miqdoriy ma’lumotlar Student t-testi, ANOVA va korrelyatsiya tahlili yordamida qayta ishlanib, farqlarning statistik ahamiyati aniqlanadi. Sifat ma’lumotlari tematik tahlil — esse, reflektiv kunliklar va og‘zaki intervyular asosida o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari STEAM texnologiyalarini aksiologik yondashuv asosida qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetentligini rivojlantirishda sezilarli o‘sishni ta’minlaganini ko‘rsatdi. Dastlabki diagnostika ma’lumotlariga ko‘ra, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida deontologik kompetentlikning asosiy komponentlari – kasbiy qadriyatlar tizimi, etik me’yorlarga sodiqlik, kommunikativ madaniyat, mas’uliyat, refleksiv yondashuv va etik qaror qabul qilish darajalari bo‘yicha sezilarli farq kuzatilmadi. O‘rtacha ko‘rsatkichlar ikki guruhda 45–52% diapazonida bo‘lib, talabalar deontologik kompetentlikning boshlang‘ich bosqichda ekanini ko‘rsatdi.

Eksperimental mashg‘ulotlar 12 hafta davomida olib borilganidan so‘ng, eksperimental guruhda deontologik kompetentlikning barcha komponentlari bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatildi. Eksperimental guruhda kasbiy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat 28–32% ga oshdi. Talabalarda halollik, adolat, pedagogik madaniyat, burchni anglash, mas’uliyat kabi qadriyatlarga nisbatan yanada chuqur refleksiya shakllandi. STEAM loyihalaridagi jamoaviy ish jarayonlari, vazifalar taqsimoti va adolatli baholash

talabalarning qadriyatlarga nisbatan ongli yondashuvini mustahkamladi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichda faqat 6–7% o‘sish qayd etildi.

STEAM asosidagi etika simulyatsiyalari, dizayn fikrlashdagi muammoli vaziyatlar talabalarning axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini kuchaytirdi. Eksperimental guruhda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 30% ga oshdi, talabalar vaziyatni tahlil qilish, oqibatlarini baholash, etik muammolarni aniqlash va ularni asosli hal qilishda ancha faol bo‘la boshladilar. Nazorat guruhida bu o‘sish 5–6% bilan cheklangan. STEAM loyihalarida rol va vazifalar taqsimoti, jarayonni boshqarish, jamoa oldida hisobdorlikni his qilish talabalarda mas'uliyatning sezilarli o‘sishini ta'minladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, eksperimental guruhda burch hissi va kasbiy javobgarlik 25–30% ga ko‘tarilgan. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 8% atrofida bo‘ldi. Jamoaviy STEAM loyihalarida hamkorlik, muloqot, tinglash, konstruktiv fikr bildirish kabi ko‘nikmalar intensv rivojlandi. Eksperimental guruhda kommunikativ madaniyat darajasi 27% ga yaxshilandi. Talabalar ko‘proq empatiya ko‘rsatgan, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilgan, jamoa o‘rtasidagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga moyillik bildirishgan. Nazorat guruhida ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 6% ga o‘sgan.

STEAM mashg‘ulotlaridagi reflektiv esse, o‘z-o‘zini baholash, jamoaviy refleksiya sessiyalari natijasida talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va kelajakdagi xatti-harakatlarni rejalashtirish qobiliyati kuchaydi. Eksperimental guruhda refleksiv yondashuv 31% ga o‘sgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 10% dan oshmadi. Statistik tahlil natijalari eksperimental guruhning barcha ko‘rsatkichlarida $p < 0.01$ darajada ishonchli farq borligini tasdiqladi. Bu STEAM texnologiyalari va aksiologik yondashuvning integratsion ta'siri deontologik kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Olingan natijalar STEAM texnologiyalarining aksiologik yondashuv bilan uyg‘unlashuvi bo‘lajak o‘qituvchilar deontologik kompetentligini rivojlantirishda samarali mexanizm ekanini tasdiqlaydi. Muhokama jarayonida bir nechta asosiy jihatlar aniqlandi. STEAM jarayonlari o‘z tabiati bilan o‘quvchini faol, izlanishli, hamkorlikka tayyor, mas'uliyatli bo‘lishga undaydi. Bu jarayonlarda o‘qituvchi nazorat qiluvchi emas, balki yo‘naltiruvchi bo‘lgani sababli talabalar mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish, axloqiy mezonlarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma'noda, STEAM deontologik kompetentlikning amaliy shakllanishi uchun tabiiy imkoniyat yaratadi. Aksial qadriyatlarning shakllanishi STEAM jarayonlarida faoliyatning ijtimoiy mohiyati bilan kuchayadi. Jamoaviy loyiha ishlari, rol taqsimoti, nizolarni konstruktiv hal qilish, sheriklar fikriga hurmat – bularning barchasi halollik, mas'uliyat, adolat, hamkorlik madaniyati kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Aksiologik yondashuv esa bu qadriyatlarni ongli ravishda anglash va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltiradi.

STEAM texnologiyalarida axloqiy o‘lchovlar tabiiy uyg‘unlashadi. Masalan, dizayn fikrlash jarayonida qarorlarning oqibatini baholash, AI asosidagi etika simulyatsiyalari orqali axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, texnik yechimlar inson manfaatiga mos kelishini aniqlash kabi amaliy faoliyatlar talabalarda etik refleksiyani kuchaytiradi. Bu esa deontologik kompetentlikning eng muhim komponentlaridan birining — etik qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishini ta'minlaydi. Natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlarda bildirilgan fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, STEAM kreativlik va axloqiy mas'uliyatni uyg‘un rivojlantirishini ta'kidlaydi; texnologiyalar bilan ishlashda etikaning muhim o‘rin tutishini urg‘ulaydi. STEAMning qadriyatga asoslangan kompetensiyalarni

shakllantirishda samarali ekanini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot ularning nazariy g‘oyalarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot bir qator cheklovlarga ega: STEAM texnologiyalarini o‘qituvchilar tomonidan to‘g‘ri qo‘llash malaka talab etadi; deontologik kompetentlikni qisqa muddatda to‘liq shakllantirish mushkul; talabalarning individual qadriyatlari va motivatsiyasi turlicha. Bu omillar kelgusidagi tadqiqotlar uchun yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari STEAM texnologiyalari aksiologik yondashuv bilan uyg‘unlashganda bo‘lajak o‘qituvchilarning deontologik kompetentligini rivojlantirishda juda samarali ekanini ilmiy asosda tasdiqladi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat. STEAM texnologiyalari deontologik kompetentlikning barcha komponentlarini kompleks rivojlantiradi. Talabalarda kasbiy mas’uliyat, etik qaror qabul qilish, hamkorlik madaniyati va refleksiv fikrlash sezilarli darajada oshadi. Aksiologik yondashuv STEAM jarayonlariga ma’naviy mazmun beradi. Qadriyatlar asosida shakllangan faoliyat deontologik xulq-atvorni mustahkamlaydi. Eksperimental natijalar STEAMning pedagogik deontologiyani o‘qitishda yuqori samara berishini ko‘rsatdi. O‘sish ko‘rsatkichlari nazorat guruhidan 3–4 baravar yuqori bo‘ldi. STEAM – o‘qituvchi kasbiy etikasi va madaniyatini amaliy shakllantiruvchi innovatsion vositadir. U o‘qituvchi shaxsida halollik, adolat, burch sodiqligi, mas’uliyat kabi aksial qadriyatlarni kuchaytiradi. Olingan natijalar amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi, – pedagogik ta’limda STEAM-etika integratsion kurslarini yaratish, dizayn fikrlash asosida etik loyihalar ishlab chiqish, deontologik simulyatorlar va case-study larni joriy etish, aksial qadriyatlarga asoslangan refleksiya treninglarini o‘tkazish. Umuman olganda, mazkur tadqiqot pedagogik ta’limda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning yangi – aksiologik – aspektini ochib berdi va bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo‘nalishi sifatida ilmiy asoslab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robinson, K. (2011). *Out of Our Minds: Learning to be Creative*. London: Capstone.
2. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
3. Yakman, G. (2008). STEAM Education: An integrated model. *Engineering Education*, 15(2), 77–84.
4. Henriksen, D. (2014). Full STEAM Ahead: Creativity and convergence in education. *The Journal of Educational Thought*, 48(3), 1–20.
5. UNESCO. (2023). *Guidance on Ethics and AI in Education*. Paris: UNESCO Publishing.
6. Selwyn, N. (2021). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Polity Press.

VIRTUAL REALLIK VA KENGAYTIRILGAN REALLIK HAQIDA

Xamidov Rustam Normamatovich,
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti,
Ilmiy rahbar: Sariyev Rustam Bobomuradovich

Annotatsiya: *Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, so'nggi yillarda raqamli dunyoda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu texnologiyalar insonlarning haqiqatni tushunishi, muhitga bo'lgan munosabati va virtual olam bilan o'zaro aloqalarini yangi darajaga olib chiqdi. VR texnologiyasi to'liq virtual muhit yaratib, foydalanuvchini haqiqatdan ajratilgan, sun'iy yaratilgan olamga olib kiradi. Bu texnologiya, ayniqsa, o'yinlar, ta'lim, tibbiyot va sanoat sohalarida keng qo'llaniladi. AR*

texnologiyasi esa haqiqiy dunyoni kengaytiradi, ya'ni foydalanuvchining atrofdagi muhitiga virtual elementlarni qo'shadi. AR qurilmalari yordamida real vaqt rejimida fizika, grafikalar va video tasvirlari virtual elementlar bilan integratsiya qilinadi. AR texnologiyasi mobil qurilmalar, o'qitish, sog'liqni saqlash, marketing va o'yinlar kabi sohalarda samarali qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar turli sohalarda yangi imkoniyatlar yaratib, tajriba va ko'nikmalarni yanada boyitmoqda. VR, masalan, o'qituvchilar va talabalar uchun interaktiv ta'lim muhitlarini yaratishda qo'llaniladi, AR esa marketing va tijorat sohalarida, mijozlarga tovarlarni taqdim etishda ishlatiladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarning yanada rivojlanishi va keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq ba'zi muammolar, masalan, yuqori narxlar, texnik cheklovlar va xavfsizlik masalalari ham mavjud.

Kalit so'zlar: *Virtual reallik (VR),Kengaytirilgan reallik (AR),Texnologiyalar, Interaktiv tajriba, Haqiqiy dunyo,Virtual muhit,Sanoat, O'yinlar, Ta'lim, Sog'liqni saqlash, Marketing, Mobil qurilmalar, IoT (Internet of Things), Innovatsiyalar, Xavfsizlik masalalari, Integratsiya, Virtual elementlar, O'quv muhitlari, Yangi imkoniyatlar, Raqamli inqilob*

Kirish. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari so'nggi yillarda raqamli dunyoning rivojlanishida muhim o‘rin egalladi. Bu texnologiyalar insonlarning atrof-muhitni idrok etish va u bilan o‘zaro aloqalarini yangi darajaga olib chiqdi. Virtual reallik (VR) foydalanuvchini to'liq virtual muhitga kirgizib, haqiqiy dunyo bilan aloqasini uzadi va tasavvur qilinadigan yangi olamni taqdim etadi. Kengaytirilgan reallik (AR) esa, real dunyoni kengaytirib, foydalanuvchining atrofidagi muhitga virtual elementlarni qo'shadi, bu esa real va virtual dunyo o‘rtasida simbiotik aloqani ta’minlaydi.

VR va AR texnologiyalari har ikkisi ham interaktiv tajriba yaratishda muhim ahamiyatga ega, ammo ular o‘z xususiyatlari bilan ajralib turadi. VR texnologiyasi to‘liq immersiya yaratgan holda, foydalanuvchini o‘zining real muhitidan ajratadi va virtual olamda harakat qilish imkonini beradi. AR esa real dunyoga qo‘shimcha virtual elementlar kiritadi, bu foydalanuvchiga real va virtual dunyo o‘rtasida uzviy aloqada bo‘lish imkoniyatini beradi.

Bu texnologiyalar har xil sohalarda, jumladan, o‘yinlar, ta'lim, sog‘liqni saqlash, sanoat va marketingda keng qo‘llanilmoqda. VR va AR imkoniyatlari yuqori darajada interaktiv va realistik tajriba yaratishga imkon beradi, bu esa foydalanuvchilarga yanada samarali va intuitiv ishlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni keng qo‘llashda ba'zi cheklovlar, masalan, yuqori narxlar, texnik muammolar va xavfsizlikka oid masalalar ham mavjud. Shu sababli, VR va AR texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanishi, ularning innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish va turli sohalarda samarali qo‘llanilishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kirish: Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari bugungi kunda raqamli olamni rivojlantirishda eng muhim va innovatsion yutuqlardan biri hisoblanadi. Ular insonlarning dunyoqarashi va tajribalarini o‘zgartirib, virtual va haqiqiy

dunyo o‘rtasidagi chegaralarni noaniq qilishga yordam bermoqda. Virtual reallik texnologiyasi foydalanuvchiga to‘liq immersiv (sug‘urtalangan) tajriba taqdim etadi. Bunda foydalanuvchi real dunyodan ajralib, kompyuter tomonidan yaratilgan virtual muhitga kiradi. VR yordamida inson turli muhitlarga, xususan, o‘yinga yoki ta'lim muhitiga kirish, simulyatsiya asosida turli holatlarni boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kengaytirilgan reallik texnologiyasi esa real dunyoni virtual elementlar bilan to‘ldiradi, ya'ni foydalanuvchi atrofidagi muhitga virtual tasvirlar, grafikalar, video va ma'lumotlarni qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi. AR texnologiyasi foydalanuvchiga real vaqt rejimida haqiqiy va virtual dunyo o‘rtasida oson integratsiya qilish imkonini beradi. Bu texnologiya mobil qurilmalar, kasting texnologiyalari, o‘yinlar, ta'lim, sog‘liqni saqlash va marketing kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, bu sohalarda innovatsion imkoniyatlar ham kengaymoqda. Misol uchun, VR ta'lim sohasida interaktiv va immersiv ta'lim usullarini taqdim etishda, AR esa ta'limni real dunyo bilan bog‘lashda samarali qo‘llanilmoqda. Kengaytirilgan reallik texnologiyalari sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy ko‘rsatmalarni yaxshilash, shuningdek, engillashtirilgan diagnostika va reabilitatsiya jarayonlarini yaratishda ham qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar, shuningdek, o‘yinlar, marketing, turizm, arxitektura va sanoat sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar amalga oshirilgan. Ushbu adabiyotlar, texnologiyalarning rivojlanishini, ularning qo'llanilishi mumkin bo‘lgan sohalarni va yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Slater, M., & Wilbur, S. o'zining "A Framework for Immersive Virtual Environments" nomli maqolasida virtual reallikning o‘yin sanoatidagi dastlabki rivojlanishini muhokama qiladi. Ular VR texnologiyasining immersiv (sug‘urtalangan) tajriba yaratishda o‘yinlarni qanday kengaytirganini va foydalanuvchi aloqalarini qanday o‘zgartirganini ko‘rsatadi. Mazkur maqola VR texnologiyasining so'nggi yillarda o'yinlarni rivojlantirishdagi o‘rni va potensialini chuqur tahlil qiladi. Hoffman, H. G., & Patterson, D. R. “Virtual Reality as an Adjunct to Pain Control in Burn Therapy” maqolasida VR texnologiyasining sog‘liqni saqlash sohasidagi ishlatilishiga e'tibor qaratilgan. Ular VRni og‘riqni kamaytirish, reabilitatsiya va boshqa terapevtik amaliyotlarda qo‘llanilishining muvaffaqiyatli misollarini taqdim etadi. Ushbu tadqiqot, virtual reallikning sog‘liqni saqlash va ta'lim sohasida ko‘plab samarali ilovalarini ko‘rsatadi. Azuma, R. T. AR texnologiyasi va uning dastlabki tatbiqlari haqida “A Survey of Augmented Reality” maqolasida ma'lumot beradi. Azuma o'z maqolasida kengaytirilgan reallikning eng asosiy xususiyatlarini keltirib o‘tadi va bu texnologiyaning ta'limda qanday foydalana olish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning tahliliga ko‘ra, AR texnologiyalari, o‘quvchilarni real dunyo bilan bog‘lab, interaktiv ta'limni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini yaratadi. [Javornik, A., & Lovrek, I. "Applications of Augmented Reality in Business" nomli maqolada AR texnologiyasining biznesda qanday ishlatilishiga alohida e'tibor qaratadi. Yozuvchilar ARning marketing va mahsulotni taqdim etish sohalarida foydali ekanini ta'kidlaydi. Ular AR yordamida mijozlar uchun interaktiv va yaxshilangan shopping tajribasini yaratish imkoniyatlarini o‘rganadilar. Rizzo, A. S., & Koenig, S. T. o‘zining “Virtual Reality and the Rehabilitation of Movement Disorders” maqolasida VR texnologiyasining tibbiy reabilitatsiya va harakat buzilishlarini davolashdagi o‘rni haqida so‘z yuritadi. Maqolada VR ning sog‘liqni

saqlashda qanday qilib samarali ishlatilishi, shuningdek, harakatlarni tiklash va o‘rganish jarayonida qanday yordam berishi ko‘rsatilgan. Sharma, P., & Vashistha, S. "Advancements in Virtual and Augmented Reality Technology" maqolasida VR va AR texnologiyalarining texnik jihatlari, ularda yuzaga keladigan muammolar va yangi imkoniyatlar haqida muhokama olib boradi. Ular VR va AR ning samarali ishlashi uchun kerakli apparat va dasturiy ta'minotlar, shuningdek, bu texnologiyalarni keng tarqatishdagi qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. Keller, R., & Hossain, M.] maqolasida AR va IoT texnologiyalarining birlashishi haqida so‘z yuritiladi. Ular IoT qurilmalari bilan AR texnologiyalarining integratsiyasi orqali yanada aqlli tizimlar yaratish imkoniyatlarini tahlil qiladilar. Bu integratsiya, masalan, aqlli shaharlar yaratish va sanoat 4.0 loyihalarida samarali qo‘llanilishi mumkin. Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari sohasida olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar, bu texnologiyalarni turli sohalarda, jumladan, ta'lim, sog‘liqni saqlash, o‘yin sanoati va biznesda muvaffaqiyatli qo‘llanishining imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu adabiyotlar, shuningdek, VR va AR texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi uchun yuzaga keladigan texnik, iqtisodiy va xavfsizlik masalalariga ham e'tibor qaratadi. Kelajakda bu texnologiyalarni rivojlantirish va yanada kengaytirish uchun yangi tadqiqotlar va innovatsiyalar talab etiladi.

Natija va muhokama Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari so'nggi yillarda tezkor ravishda rivojlanib, insonlar hayotida va turli sohalarda chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar va tahlil qilgan adabiyotlar asosida shunday natijalarga erishildi: **Virtual reallik** (VR) texnologiyasi o'yinlar, ta'lim, tibbiyot va sanoat sohalarida keng qo'llanilmoqda. VR texnologiyasi, ayniqsa, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida interaktiv va immersiv tajribalar yaratish imkoniyatini berdi. Masalan, VR yordamida talabalar va shifokorlar real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali o‘quv jarayonlarini yaxshilashlari mumkin. Biroq, VR texnologiyasining keng qo'llanilishi uchun maxsus qurilmalar va apparatlar zarur bo‘lib, bu esa narxning yuqoriligi va texnik cheklovlarni keltirib chiqaradi.

Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyasi esa real dunyo bilan virtual elementlarni integratsiya qilish imkonini beradi, bu esa foydalanuvchilarga real vaqt rejimida yangi interaktiv tajribalarni yaratishga yordam beradi. AR texnologiyasi marketing, o‘yinlar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida samarali qo‘llanilmoqda. Masalan, AR yordamida mijozlar mahsulotlarni virtual ravishda ko‘rishlari yoki o‘qituvchilar o‘quvchilarga real dunyo bilan bog‘langan interaktiv materiallarni taqdim etishlari mumkin. AR texnologiyasining katta afzalligi shundaki, u real dunyo bilan birga ishlaydi, bu esa foydalanuvchiga aniq va samarali tajriba taqdim etadi.

VR va AR texnologiyalarining rivojlanishi va qo‘llanilishida yuzaga keladigan cheklovlar ham mavjud. Birinchidan, yuqori narxlar, apparat va dasturiy ta'minotning cheklanganligi bu texnologiyalarni ommalashtirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, VR va AR texnologiyalarining samarali ishlashi uchun foydalanuvchilarning ma'lum darajadagi texnik ko'nikmalariga ega bo‘lishi zarur, bu esa yangi texnologiyalarni

o‘rganish jarayonini murakkablashtiradi. Shuningdek, bu texnologiyalarni keng qo‘llashda xavfsizlikka oid muammolar ham yuzaga kelishi mumkin, chunki foydalanuvchilarning ma'lumotlari va tizimlarga kirish xavfsizligi ta'minlanishi lozim.

Yuqori samaradorlik va imkoniyatlar bilan birga, VR va AR texnologiyalarining kelajagi juda katta. Hozirgi kunda VR va AR texnologiyalari ko'plab sohalarda sinovdan o‘tkazilib, natijalar ko‘rsatilgan. Masalan, sog‘liqni saqlashda VR yordamida og‘riqni kamaytirish, reabilitatsiya va jismoniy terapiya jarayonlarini samarali o‘tkazish imkoniyatlari mavjud. AR esa ta'limda yanada interaktiv va qiziqarli o‘quv materiallarini taqdim etish imkonini beradi. VR va AR texnologiyalarining rivojlanishi va qo‘llanishi insonlarning turmush tarzini o‘zgartirish, yangi ish usullarini yaratish va turli sohalarda samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ularning o‘ziga xos imkoniyatlari va afzalliklari mavjud bo‘lsada, texnik muammolar va cheklovlar, masalan, yuqori narxlar va xavfsizlik masalalari, ularning keng tarqalishini cheklaydi. Bundan tashqari, bu texnologiyalarni qo‘llashda jamiyatning texnologiyalarga tayyorligini va ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarni hisobga olish zarur. Masalan, yangi texnologiyalarni qo‘llashda foydalanuvchilarning ma'lumot xavfsizligi va maxfiylikka e'tibor berish, shuningdek, texnik bilimlarni oshirish muhim hisoblanadi. Kelajakda, VR va AR texnologiyalarining rivojlanishi uchun innovatsiyalar va yangi tadqiqotlar zarur. Bu texnologiyalarning yanada ommalashishi uchun foydalanuvchilarga qulay narxlarda yuqori sifatli qurilmalar va dasturlar taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, bu texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi uchun o‘qitish va tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish zarur. Shu tarzda, VR va AR texnologiyalari nafaqat individual foydalanuvchilarga, balki butun jamiyatga ham yangi imkoniyatlar va tajribalarni taqdim etishi mumkin, ammo bu texnologiyalarni keng qo‘llash uchun ular bilan bog‘liq barcha muammolarni hal qilish zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergash o’g’li, Qodirov Farrux, and Berdiyev Sardor Sobir o’g’li. "DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL APPLICATIONS IN THE PROGRAM OF EXISTING SCRIPT LANGUAGE."
2. Qodirov, F. E., S. S. Jo'rayev, and V. N. Qalandarov. "INFORMATION ARCHITECTURE IN SITE DESIGN." НАУКА И НАУЧНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ-ОСНОВА УСТОЙЧИВОГО ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. 2019.
3. Qodirov, F. E., et al. "FEATURES OF INTEL CORE X-SERIES PROCESSORS AND ITS ADVANTAGE FROM OTHER PROCESSORS." ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. 2019.
4. Ergash o’g’li, Qodirov Farrux, and Bozorova Irina Jumanazarovna. "METHODS OF DISPLAYING MAIN MEMORY ON CACHE." Ответственный редактор (2020): 6.

MA’NAVIY MEROSNI O ‘ZLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV VA RIVOJLANTIRUVCHI O‘YINLARNING TAFAKKURGA TA’SIRI

Yo‘ldosheva Munira Qutfiddinovna,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya*. Mazkur maqolada ma’naviy merosni o‘zlashtirish jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, shuningdek, rivojlantiruvchi o‘yinlar orqali o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritiladi. Ta’lim*

jarayonida interfaol metodlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlash, O'zbekistonni rivojlangan va qudratli davlatlar qatoriga olib chiqish jarayonida ta'lim-tarbiya tizimini ilmiy asosda tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti bevosita ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilim va murakkab texnologiyalarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, irodasi mustahkam va yuksak salohiyatga ega kadrlar bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy ta'lim tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash va uzluksiz ta'lim orqali barkamol shaxsni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilm-fan, madaniyat, ma'rifat va milliy tarbiya har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardir. Ayniqsa, milliy-tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va ularni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb ehtiyojidir. Tarixiy tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, sobiq mafkuraviy tizim davrida "zamonaviylik" va "milliylik" tushunchalari o'rtasida sun'iy qarama-qarshilik yuzaga keltirilgan bo'lib, bu holat milliy tarbiya tizimining zaiflashuviga olib kelgan. Natijada, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan boy ma'naviy qadriyatlarni uzluksiz rivojlantirish jarayoni izdan chiqqan. Bugungi kunda esa ushbu tarixiy uzilishlarni bartaraf etish, milliy merosni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta tiklash va rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bilimlarni chuqur o'zlashtirish o'quvchining faol kognitiv ishtirokiga bog'liq bo'lib, bunda analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. An'anaviy ta'lim modelida asosan tayyor bilimlarni uzatish ustuvor bo'lsa, innovatsion yondashuvlarda o'quvchi bilimni mustaqil ravishda kashf etuvchi faol subyektga aylanadi. Bu esa ayniqsa ma'naviy merosni o'zlashtirish jarayonida muhimdir, chunki qadriyatlarni anglash faqatgina ularni eslab qolish emas, balki shaxsiy tajriba, refleksiya va tahlil asosida ichki e'tiqodga aylantirishni talab etadi.

Innovatsion yondashuvlar doirasida qo'llaniladigan interfaol metodlar, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, integrativ yondashuv va refleksiv tahlil usullari o'quvchilarning tafakkur faolligini sezilarli darajada oshiradi. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarni fikrlashga undash, ularni turli nuqtayi nazardan qaror qabul qilishga yo'naltiradi va divergent tafakkurni rivojlantiradi. Loyihaviy faoliyat esa o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish, axborotni tanlash va tahlil qilish, natijalarni tizimlashtirish kabi muhim kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu jarayon o'z navbatida o'quvchilarda ilmiy tafakkur elementlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda rivojlantiruvchi o'yinlar alohida didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'yin faoliyati o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelib, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tabiiy va samarali shaklda tashkil etadi. Mantiqiy o'yinlar orqali o'quvchilarda sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatlari rivojlanadi. Rolli o'yinlar esa ijtimoiy munosabatlarni modellashtirish, empatiya va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sahnalashtirish usullari orqali o'quvchilar ma'naviy meros namunalarini nafaqat anglaydi, balki ularni his etadi, bu esa bilimlarning mustahkam va chuqur o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Didaktik jihatdan rivojlantiruvchi o'yinlar konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol

ravishda yaratiladi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishib, fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi va ijtimoiy-kognitiv tajriba orttiradi. Shu bilan birga, o‘yinlar metakognitiv ko‘nikmalarni, ya'ni o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilish, baholash va takomillashtirish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta'lim bosqichida rivojlantiruvchi o‘yinlarning ahamiyati yanada ortadi, chunki bu davrda o‘quvchilarning tafakkuri konkret-obrazli bosqichdan abstrakt-logik bosqichga o‘tish jarayonida bo‘ladi. O‘yinlar aynan shu o‘tish davrida murakkab tushunchalarni sodda, tushunarli va qiziqarli shaklda o‘zlashtirishga yordam beradi. Xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘yin asosida o‘rganish orqali o‘quvchilar matn mazmunini chuqur anglaydi, undagi axloqiy g‘oyalarni tahlil qiladi hamda ularni real hayot bilan bog‘lash orqali shaxsiy munosabatini shakllantiradi.

Ilmiy kuzatishlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar va rivojlantiruvchi o‘yinlardan kompleks foydalanish natijasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashi rivojlanadi, bilimlarni amaliyotda qo‘llash darajasi ortadi, o‘quv motivatsiyasi kuchayadi, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi hamda ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat yuzaga keladi. Refleksiv faoliyat elementlarining joriy etilishi esa o‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy merosni o‘zlashtirish jarayonida innovatsion yondashuvlar va rivojlantiruvchi o‘yinlarning uyg‘un qo‘llanilishi zamonaviy ta'limning eng samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish mumkin. Shu bois, ta'lim tizimida innovatsion metodlarni keng joriy etish, ularni ilmiy asosda takomillashtirish va amaliyotga izchil tatbiq etish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Ravshan Ishmuhamedov., Murod Yuldashev. *Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.

3-SHO‘BA: UMUMTA’LIM FANLARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH: BAHOLASH VA DIAGNOSTIKA.

O‘ZBEK TILINING RAQAMLI GLOBALLASHUVDAGI O‘RNI

Uralov Azamat Begnarovich,
Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Kirish. *Raqamli globallashuv zamonaviy dunyoda tilning funksional va kommunikativ imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Global internet maydonida tillar o‘zaro raqobatlashadi va har bir milliy til o‘z pozitsiyasini saqlab qolish uchun moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishi lozim. O‘zbek tili uchun bu jarayon o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi, chunki ingliz va rus tillari internet tilining asosiy vositalarida ustunlik qilmoqda. Shu bois, o‘zbek tilining raqamli maydondagi mavjudligi va faol ishlatilishi milliy tilni saqlash va rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega. O‘zbek tili global internet maydonida ingliz va rus tillari bilan raqobatlashish sharoitida o‘z funksiyalarini kengaytirishi lozim. Bu raqobat tilning morfologik, sintaktik va leksik moslashuvini talab qiladi.*

Adabiyotlar tahlili. Raqamli globallashuv jarayoni o‘zbek tili uchun imkoniyatlar va xavflarni bir vaqtning o‘zida yaratadi. Tilning global internet maydonida raqobatbardoshligini oshirish, milliy identitetni saqlash va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarni qondirish raqamli globallashuvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu tariqa, o‘zbek tilini internet tili bilan samarali integratsiya qilish milliy tilning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishini belgilashda muhim omilga aylanadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilida onlayn kontentning hajmi va sifati sezilarli darajada oshmoqda. Bloglar, maqolalar, yangilik portallari va boshqa raqamli resurslarning ko‘payishi milliy tilning internet tiliga integratsiyasini rag‘batlantirmoqda. Ushbu resurslar nafaqat axborot uzatish, balki milliy tilni keng auditoriya orasida ommalashtirish va zamonaviy kommunikatsiya kontekstida rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn kontentning ko‘pligi tilga yangi leksik birliklar, frazeologik birikmalar va stilistik yangiliklarni kiritish jarayonini tezlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Video va audio kontent o‘zbek tilining ommalashuvida muhim vosita hisoblanadi. YouTube, TikTok, podcast va boshqa platformalar orqali milliy til nafaqat yozma, balki og‘zaki va multimodal shaklda keng auditoriyaga yetkaziladi. Multimodal ifoda orqali tilning intonatsion, emotsional va kommunikativ xususiyatlari boyitiladi, yosh avlod tilga interaktiv tarzda jalb qilinadi. Shu tariqa video va audio kontent o‘zbek tilining zamonaviy nutq maydonidagi mavqeini mustahkamlaydi va auditoriya bilan muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Yosh ijodkorlar va blogerlarning roli til rivojida katta ahamiyatga ega. Ular o‘zlarining kreativ ifodasi va interaktiv yondashuvi orqali yangi leksik, morfologik va sintaktik shakllarni joriy qiladilar. Shuningdek, yosh blogerlar auditoriya bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatish orqali tilning pragmatik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradilar. Natijada internet-muloqot o‘zbek tilini zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashtirish va tilni yangi kontekstlarda faol ishlatish imkonini beradi. O‘zbek tilida ta’lim resurslarining raqamli platformalarda kengayishi ham muhim omil hisoblanadi. Elektron darsliklar, onlayn kurslar, interaktiv testlar va videodarslar milliy tilni pedagogik kontekstda mustahkamlash bilan birga, tilni global raqamli maydonda targ‘ib qilish imkonini

yaratadi. Shu tarzda ta'lim resurslari nafaqat tilni o'rgatish, balki uni modernizatsiya qilish va internet tiliga integratsiya qilish vazifasini ham bajaradi.

Kontent sifatining rivojlanishi va auditoriya qamrovi tilning internetdagi mavqeini belgilaydi. Yuqori sifatli, estetik va lingvistik jihatdan to'g'ri kontent foydalanuvchilarni jalb qiladi, milliy tilni hurmat qilinishini ta'minlaydi va tilning raqamli maydondagi barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, keng auditoriya o'zbek tilini keng ko'lamda ishlatish orqali tilning ommalashuviga va global kommunikativ maydonda raqobatbardoshligini kuchaytirishga hissa qo'shadi. Umuman olganda, o'zbek tilida onlayn kontentning rivojlanishi tilning raqamli globallashuv kontekstida barqarorligini ta'minlash, auditoriya bilan interaktiv aloqani kengaytirish va milliy identitetni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bloglar, maqolalar, video va audio resurslar, yosh ijodkorlar va ta'lim platformalari orqali tilning kommunikativ, stilistik va pragmatik imkoniyatlari kengayib, internet tili bilan samarali integratsiyalanmoqda.

So'nggi yillarda o'zbek tilida onlayn kontentning hajmi va sifati sezilarli darajada oshmoqda. Bloglar, maqolalar, yangilik portallari va boshqa raqamli resurslarning ko'payishi milliy tilning internet tiliga integratsiyasini rag'batlantirmoqda. Ushbu resurslar nafaqat axborot uzatish, balki milliy tilni keng auditoriya orasida ommalashtirish va zamonaviy kommunikatsiya kontekstida rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn kontentning ko'pligi tilga yangi leksik birliklar, frazeologik birikmalar va stilistik yangiliklarni kiritish jarayonini tezlashtiradi.

Video va audio kontent o'zbek tilining ommalashuvida muhim vosita hisoblanadi. YouTube, TikTok, podcast va boshqa platformalar orqali milliy til nafaqat yozma, balki og'zaki va multimodal shaklda keng auditoriyaga yetkaziladi. Multimodal ifoda orqali tilning intonatsion, emotsional va kommunikativ xususiyatlari boyitiladi, yosh avlod tilga interaktiv tarzda jalb qilinadi. Shu tariqa video va audio kontent o'zbek tilining zamonaviy nutq maydonidagi mavqeini mustahkamlaydi va auditoriya bilan muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Yosh ijodkorlar va blogerlarning roli til rivojida katta ahamiyatga ega. Ular o'zlarining kreativ ifodasi va interaktiv yondashuvi orqali yangi leksik, morfologik va sintaktik shakllarni joriy qiladilar. Shuningdek, yosh blogerlar auditoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish orqali tilning pragmatik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradilar. Natijada internet-muloqot o'zbek tilini zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashtirish va tilni yangi kontekstlarda faol ishlatish imkonini beradi.

O'zbek tilida ta'lim resurslarining raqamli platformalarda kengayishi ham muhim omil hisoblanadi. Elektron darsliklar, onlayn kurslar, interaktiv testlar va videodarslar milliy tilni pedagogik kontekstda mustahkamlash bilan birga, tilni global raqamli maydonda targ'ib qilish imkonini yaratadi. Shu tarzda ta'lim resurslari nafaqat tilni o'rgatish, balki uni modernizatsiya qilish va internet tiliga integratsiya qilish vazifasini ham bajaradi. Kontent sifatining rivojlanishi va auditoriya qamrovi tilning internetdagi mavqeini belgilaydi. Yuqori sifatli, estetik va lingvistik jihatdan to'g'ri kontent foydalanuvchilarni jalb qiladi, milliy tilni hurmat qilinishini ta'minlaydi va tilning raqamli maydondagi barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, keng auditoriya o'zbek tilini keng ko'lamda ishlatish orqali tilning ommalashuviga va global kommunikativ maydonda raqobatbardoshligini kuchaytirishga hissa qo'shadi. Umuman olganda, o'zbek tilida onlayn kontentning rivojlanishi tilning raqamli globallashuv kontekstida barqarorligini ta'minlash, auditoriya bilan interaktiv aloqani kengaytirish va milliy identitetni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bloglar, maqolalar, video va audio

resurslar, yosh ijodkorlar va ta'lim platformalari orqali tilning kommunikativ, stilistik va pragmatik imkoniyatlari kengayib, internet tili bilan samarali integratsiyalanmoqda.

Raqamli platformalarda foydalanuvchining shaxsiy identiteti uning til ishlatishiga bevosita bog‘liq. O‘zbek tilining virtual jamiyatdagi ifodasi nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki milliy identitetni saqlash va targ‘ib qilish maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Onlayn shaxsiy identitet foydalanuvchining stilistik tanlovi, emotsional va pragmatik vositalardan foydalanishi, hamda interaktiv muloqotdagi qatnashuvi orqali shakllanadi. Shu tariqa til foydalanuvchining raqamli shaxsiy ovozini yaratishda strategik vosita sifatida xizmat qiladi.

Raqamli platformalarda madaniy kodlar va til xatti-harakatlari milliy tilni internet-muloqotning o‘ziga xos qoidalari bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Masalan, emoji, memlar, hashtaglar va frazeologik birliklar foydalanuvchining shaxsiy ovozi bilan milliy tilni birlashtiradi va interaktiv muloqotning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, internet orqali milliy madaniyatni targ‘ib qilish foydalanuvchilarga til orqali milliy qadriyatlarni saqlash va jamiyatga yetkazish imkoniyatini yaratadi.

Raqamli kommunikatsiya orqali tilni rivojlantirish strategiyalari milliy tilning internet tili bilan integratsiyasini ta'minlaydi. Bu strategiyalar o‘z ichiga quyidagilarni oladi: kontent yaratishda o‘zbek tilini ishlatish, ta'lim va ma'lumot resurslarini raqamli platformalarda kengaytirish, yosh auditoriya bilan interaktiv muloqot orqali tilni jonlantirish va tilning morfologik, sintaktik hamda stilistik xususiyatlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish. Shu yo‘l bilan o‘zbek tili nafaqat texnologik maydonda moslashadi, balki milliy identitet va madaniyatni ifodalovchi strategik vosita sifatida rivojlanadi.

Xulosa. Umuman olganda, raqamli identitet va milliy til o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, foydalanuvchining virtual maydondagi shaxsiy ovozi, interaktiv kommunikatsiyasi va stilistik tanlovi orqali tilning internet tili bilan integratsiyasini kuchaytiradi. Shu tariqa raqamli kommunikatsiya o‘zbek tilini zamonaviy, kreativ va milliy identitetni saqlaydigan vosita sifatida mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Sh. Til va raqamli madaniyat. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Karimova Z. Zamonaviy internet tilining lingvopragmatik xususiyatlari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti. 2021.
3. Kellner D., Share J. *Critical Media Literacy.* – Routledge, 2019.
4. Mardiyeva X. Ijtimoiy tarmoqlarda til registrlarining shakllanishi va funksiyalari / Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. – Italiya, 2024.
5. Rustamova M. Ijtimoiy tarmoqlarda norasmiy muloqot va uning tilga ta‘siri / Filologiya masalalari, 2020.
6. Uralov A. Lingvomadaniyat va ijtimoiy tarmoqlar tili. – Toshkent: Grand kondor print, 2026.

KIMYO TA'LIMIDA IJODKORLIKNING O‘RNI

Xasanova Xurshida Naimovna,
Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi mudiri, Pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Kimyo ta'limida ijodkorlik muhim pedagogik omillardan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini, balki ularning ilmiy fikrlash,

muammolarni hal qilish va yangicha g‘oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kimyo fanining tajribaviy va tadqiqotga asoslangan tabiati o‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ijodkorlik kimyo darslarida o‘quvchilarga turli hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, taqqoslash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash imkonini beradi.

Kimyo ta'limida ijodkorlik o‘quvchilarga nostandart masalalarni yechish va turli ilmiy muammolarga innovatsion yechim topishga yordam beradi. Bu jarayon o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kimyo darslarida laboratoriya ishlari va tajribalar o‘quvchilarning mustaqil kuzatish, gipoteza ilgari surish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ilmiy izlanishlar va xorijiy adabiyotlar masalan, J. Johnstonning kimyoviy ta'limdagi makro, mikro va simvolik darajalar nazariyasida muammoli vaziyatlar tahlili, shuningdek, amaliyotchi o‘qituvchilar faoliyatini kuzatish natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:



1-rasm. Kimyo ta'limida ijodkorlikning yetishmasligini izohlovchi omillar

Kimyo darsini qiziqarli tashkil etish va o‘quvchilarning ijodkorligini oshirish uchun quyidagi ilmiy-pedagogik omillar hisobga olinadi:

1. Vizual vositalar (modellar, diagrammalar, animatsiyalar) yordamida tushunchalarni obrazli tushuntirish.

2. Eksperimental faoliyat – o‘quvchilarni laboratoriya ishlari va tajribalarga jalb qilish.

3. O‘yinli metodlar – kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirishda didaktik o‘yinlar va musobaqalardan foydalanish.

4. Fanlararo integratsiya – biologiya, fizika, texnologiya va ekologiya fanlari bilan bog‘liq loyihalar tashkil etish.

5. STEAM yondashuvi – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika uyg‘unligida o‘qitish.

6. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – simulyatsiyalar, interaktiv testlar, mobil ilovalar.

O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun kimyo haftaliklari – fan ko‘rgazmalari, viktorinalar, eksperiment namoyishlari bajarish, ularning fan olimpiadalari va tanlovlar – innovatsion g‘oyalar va ixtirolarga oid loyiha taqdimotlarida faol bo'lishlarini ta'minlash zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kimyo darslarini qiziqarli tashkil etishnatijasda o‘quvchilarning fan bo‘yicha qiziqishini 70–80% gacha oshiradi. XXI asr ta'lim tizimi o‘quvchilardan faqat nazariy bilimlarni egallashni emas,

balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammolarni tahlil qilish va yangicha yechimlar topish kabi ko‘nikmalarni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan kimyo ta’limida ijodkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki kimyo fani tajriba, kuzatish va ilmiy izlanishga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli vaziyatlar, tajriba ishlari va didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va ularni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muloqot qilish, jamoada ishlash va muammolarni samarali hal qilish kabi XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada kimyo ta’limi nafaqat ilmiy bilimlar beruvchi fan sifatida, balki o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva M., Pardayeva M., Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Kimyo fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022-yil.
2. Ismailov A., Ergasheva M., Azamatova D. O‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish metodlari. O‘quv qo‘llanma.2024-yil,183 б.
3. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2023- y. – 46 b.
4. Raxmatullaev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o‘qitish metodikasi. Toshkent., “O‘qituvchi”. 2008.
5. A.Yu. Iskandarov. D.S.Azamatova, I.Sh.Ismatov. Kimyo o‘qitish metodikasi.-T:, 2023, 367 bet.

TA’LIM SIFAT KO‘RSATKICHLARI VA IQTISODIY SIKLLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Xamroqulov Ixtiyor Baxtiyrovich,
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi Phd,
Nomonov Jo‘rabek,
Farg`ona Davlat Texnika Univerditeti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada ta’lim sifat ko‘rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlik tizimli ravishda tahlil qilinadi. Global ilmiy adabiyotlar, jumladan inson kapitali nazariyasi, endogen o‘sish modellari hamda makroiqtisodiy tebranishlar konsepsiyalari asosida ta’lim sifati iqtisodiy barqarorlik va siklik rivojlanishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida ta’limdagi sifat ko‘rsatkichlari (PISA natijalari, o‘qituvchilar malakasi, ta’lim infratuzilmasi) iqtisodiy o‘sish sur’atlari, ishsizlik darajasi va investitsion faollik bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, iqtisodiy sikl, inson kapitali, makroiqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasi, innovatsiya, bilim iqtisodiyoti, PISA natijalari, ta’lim investitsiyalari.*

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida ta’lim sifati va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy sikllar ya’ni

iqtisodiy o‘sish, turg‘unlik va inqiroz bosqichlari davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jarayonda ta’lim tizimi nafaqat iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashuvchi, balki ularni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sifatli ta’lim tizimiga ega mamlakatlarda iqtisodiy sikllarning salbiy ta’siri nisbatan past bo‘ladi va tiklanish jarayonlari tezroq kechadi.

Bugungi kunda xalqaro tadqiqotlar, xususan, OECD va Jahon banki hisobotlari asosida ta’lim sifati bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligi isbotlangan. Masalan, PISA natijalari yuqori bo‘lgan davlatlarda mehnat unumdorligi o‘rtacha 20–30 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, iqtisodiy inqiroz davrida ta’limga ajratiladigan davlat xarajatlarining qisqarishi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa inson kapitalining sifat jihatdan pasayishiga olib keladi.

Mazkur muammo ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun muhim hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, sifat ko‘rsatkichlarini oshirish va uni iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Endogen o‘sish nazariyasi doirasida ta’lim tizimi innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning asosiy manbai sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati yuqori bo‘lgan davlatlarda ilmiy-tadqiqot faoliyati hajmi 1,5–2 barobar yuqori bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy sikllarning yuqori bosqichlarida tezroq o‘sishni ta’minlabgina qolmay, past bosqichlarida iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshiradi.

1-jadval. Ta’lim sifati ko‘rsatkichlari va YAIM o‘sish sur’ati

Yil	**PISA o‘qish ko‘nikmalari indeksi**	**PISA matematika indeksi**	**Ta’limga ajratilgan YAIM ulushi**	**YAIM o‘sish sur’ati**
2020	410	405	4.2	5.1
2021	415	410	4.3	5.5
2022	420	415	4.5	5.7
2023	425	420	4.6	6.0
2024	430	425	4.7	6.3
2025	435	430	4.8	6.5

Makroiqtisodiy tahlillar asosida ta’lim sifati va bandlik darajasi o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligi aniqlangan. Xususan, yuqori sifatli ta’lim tizimiga ega mamlakatlarda yoshlar ishsizlik darajasi o‘rtacha 8–10 foiz atrofida bo‘lsa, past sifatli ta’lim tizimiga ega hududlarda bu ko‘rsatkich 20 foizdan yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Bu holat iqtisodiy sikllarning pasayish bosqichida yanada keskinlashadi. Demak, ta’lim sifati mehnat bozorining barqarorligini ta’minlash orqali iqtisodiy sikllarning ijtimoiy oqibatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Agar siz iqtisodiy siyosatni shakllantirayotgan bo‘lsangiz, ta’lim tizimini ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqmaslik strategik xatoga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida ham ta’lim sifati va iqtisodiy sikllar o‘rtasidagi bog‘liqlik yaqqol namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini isloh qilish, xalqaro baholash tizimlariga integratsiya qilish va raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, hududlar o‘rtasidagi tafovutlar, o‘qituvchilar malakasi darajasining notekisligi va ta’lim dasturlarining mehnat bozori talablariga to‘liq

mos emasligi kabi muammolar hanuz mavjud. Agar bu muammolar tizimli ravishda hal etilmasa, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorligi ta’minlanmasligi mumkin.

Mazkur tadqiqotda ta’lim sifat ko‘rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Ilmiy izlanish jarayonida nazariy va empirik usullar uyg‘un holda tatbiq etilib, muammoning ko‘p qirrali jihatlarini chuqur tahlil qilishga e’tibor qaratildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavjud ilmiy adabiyotlar inson kapitali nazariyasi, endogen o‘sish modellari va makroiqtisodiy sikllar bo‘yicha yetakchi xalqaro tadqiqotlar tizimli ravishda o‘rganildi hamda ularning asosiy xulosalari umumlashtirildi.

Empirik tahlil jarayonida statistik ma’lumotlarga asoslangan iqtisodiy-matematik usullar qo‘llanildi. Xususan, ta’lim sifati ko‘rsatkichlari (PISA natijalari, o‘qituvchilar malakasi indeksi, ta’limga ajratilgan investitsiyalar ulushi) va makroiqtisodiy indikatorlar (YAIM o‘sish sur’ati, ishsizlik darajasi, mehnat unumdorligi) o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion va regressiya tahlillari amalga oshirildi. Shu orqali o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatlar aniqlanib, ularning kuchi va yo‘nalishi baholandi.

Tadqiqot davomida dinamik qatorlar tahlili usulidan ham foydalanildi. Bu yondashuv orqali ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining vaqt davomida o‘zgarishi va ularning iqtisodiy sikllar bosqichlari bilan qanday uyg‘unlashishi aniqlashtirildi. Xususan, iqtisodiy o‘sish, turg‘unlik va inqiroz davrlarida ta’limga ajratilgan resurslar va ularning natijaviyligi o‘rtasidagi bog‘liqlik bosqichma-bosqich o‘rganildi. Shu bilan birga, panel ma’lumotlar tahlili asosida turli mamlakatlar kesimida solishtirma tahlil o‘tkazilib, rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ta’lim sifat ko‘rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o‘rtasida barqaror va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Korrelyatsion tahlillar asosida aniqlanishicha, ta’lim sifati indeksining 1 birlikka oshishi o‘rtacha hisobda YAIM o‘sish sur’atining 0,3–0,5 foizga ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, yuqori sifatli ta’lim tizimiga ega mamlakatlarda iqtisodiy pasayish davrlarida ishlab chiqarish hajmining qisqarishi nisbatan kamroq bo‘lishi kuzatildi. Bu esa ta’lim tizimi iqtisodiy sikllarning amplitudasini yumshatishda muhim stabilizator vazifasini bajarishini tasdiqlaydi.

Dinamik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalar qisqa muddatda sezilarli natija bermasligi mumkin, ammo uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xususan, iqtisodiy inqirozdan keyingi tiklanish bosqichida inson kapitali sifati yuqori bo‘lgan davlatlarda o‘sish sur’atlari 1,2–1,5 barobar tezroq tiklanadi.

Panel ma’lumotlar asosidagi tahlillar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatdi. Rivojlangan davlatlarda ta’lim sifati yuqori darajada barqaror bo‘lib, iqtisodiy sikllar davrida ham keskin pasayish kuzatilmaydi. Aksincha, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy inqiroz davrida ta’lim tizimiga ajratiladigan resurslar qisqarib, bu keyingi davrda iqtisodiy tiklanishni sekinlashtiradi. Bu holat tizimli muammo sifatida baholanadi va uni hal etish uchun uzoq muddatli strategik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar asosida yana bir muhim xulosa shuki, ta’limga ajratiladigan mablag‘lar hajmi emas, balki ularning samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ba’zi mamlakatlarda ta’limga katta miqdorda mablag‘ ajratilayotgan bo‘lsa-da, natijalar kutilgan darajada emas. Bu esa boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, monitoring va

baholash mexanizmlarining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ta'lim tizimida natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni joriy etish va samaradorlik ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilishimiz mumkinki ta'lim sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o'rtasida chuqur, ko'p darajali va o'zaro ta'sirga ega bog'liqlik mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ta'lim sifati iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, iqtisodiy sikllarning kechish xarakteriga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqori sifatli ta'lim tizimi iqtisodiy pasayish davrlarida yo'qotishlarni kamaytirish, tiklanish bosqichida esa o'sishni tezlashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan qaralganda, ta'lim tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik instrument sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, iqtisodiy sikllarning ta'lim tizimiga ta'siri ham inkor etib bo'lmaydi. Inqiroz davrlarida ta'limga ajratiladigan mablag'larning qisqarishi, kadrlar sifati pasayishi va infratuzilmaning zaiflashuvi kuzatiladi. Bu esa uzoq muddatda inson kapitalining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sish salohiyatini cheklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o'sish omillari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar". Ж. № 3, 2019.
2. Yuldashev O'. Ta'lim sifati va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi". Ж. № 5, 2020.
3. Rasulov A.A. Makroiqtisodiy barqarorlik va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlik. "Moliya va bank ishi". Ж. № 2, 2021.
4. Xudaykulov K.S. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiy rivojlanish istiqbollari. "Iqtisodiyot va ta'lim". Ж. № 4, 2022.

MUSIQA DARSLARIDA LOYIHAVIY TA'LIM METODINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Turayeva Dilso'z Ixtiyorovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya. *Ushbu maqola musiqa ta'limida an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligini tahlil qiladi. Unda loyihaga asoslangan ta'lim (LAT) metodining musiqa darslaridagi samaradorligi, uning nazariy-didaktik asoslari va amaliy qo'llanilish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda an'anaviy va loyihaviy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan, musiqa loyihasini amalga oshirishning tizimli modeli diagramma shaklida taqdim etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari va fanga bo'lgan qiziqishini baholashga qaratilgan tadqiqot natijalari grafik orqali yoritilgan. Maqola musiqa o'qituvchilari uchun loyihaviy ta'limni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *loyihaga asoslangan ta'lim, musiqa pedagogikasi, kreativlik, kompetensiya, interfaol metodlar, didaktik tizim, loyiha faoliyati, baholash, hamkorlik.*

Abstract. *This article analyzes the relevance of shifting from traditional approaches to implementing modern pedagogical technologies in music education. It examines the effectiveness of the Project-Based Learning (PBL) method in music lessons, its theoretical-didactic foundations, and practical implementation stages. The study provides a comparative analysis of traditional and projectbased approaches and presents*

a systematic model for implementing a music project in a diagram format. Additionally, the results of a study aimed at assessing students' creative abilities, collaboration skills, and interest in the subject are illustrated through a graph. The article offers practical recommendations for music teachers on effectively integrating project-based learning into the educational process.

***Keywords**: project-based learning, music pedagogy, creativity, competence, interactive methods, didactic system, project activity, assessment, collaboration.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется актуальность перехода от традиционных подходов к внедрению современных педагогических технологий в музыкальном образовании. Рассматривается эффективность метода проектного обучения (PBL) на уроках музыки, его теоретико-дидактические основы и этапы практического применения. В исследовании проведен сравнительный анализ традиционного и проектного подходов, а также представлена системная модель реализации музыкального проекта в виде диаграммы. Кроме того, результаты исследования, направленного на оценку творческих способностей учащихся, навыков совместной работы и интереса к предмету, освещены с помощью графика. Статья предлагает практические рекомендации для учителей музыки по эффективной интеграции проектного обучения в учебный процесс.*

***Ключевые слова:** проектное обучение, музыкальная педагогика, креативность, компетенция, интерактивные методы, дидактическая система, проектная деятельность, оценивание, сотрудничество.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi oldiga shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari – tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlikni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Musiqa ta'limi bu borada alohida ahamiyatga ega, zero u nafaqat estetik didni tarbiyalaydi, balki shaxsning ijodiy salohiyatini ochish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ko'p hollarda musiqa darslari an'anaviy uslubda – nazariyani yodlash, asarlarni tinglash va bir xil qolipdagi ijrochilik bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi va ularning amaliy ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmasligi mumkin.

Ushbu muammoning yechimi sifatida loyihaga asoslangan ta'lim (LAT) metodi tobora ommalashmoqda. Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui tomonidan ilgari surilgan "amaliyot orqali o'rganish" g'oyasiga asoslangan bu yondashuv o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi va ijodkorga aylantiradi. Loyiha faoliyati musiqa darslarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, o'quvchilarga o'z g'oyalarini ro'yobga chiqarish va yakuniy mahsulot (konsert, musiqiy albom, sahna ko'rinishi) yaratish imkonini beradi. Mazkur maqolaning dolzarbligi musiqa ta'limi samaradorligini oshirishda loyihaviy metodning imkoniyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish zarurati bilan belgilanadi.

Asosiy qism

1. Loyihaviy ta'limning musiqiy pedagogikadagi nazariy asoslari

Loyihaga asoslangan ta'lim (LAT) – bu o'quvchilarning muayyan bir muammo yoki savol atrofida uzoq muddatli, fanlararo va o'quvchiga yo'naltirilgan tadqiqot olib borishini nazarda tutuvchi o'qitish metodidir. Musiqa pedagogikasida bu metod shunchaki notalarni o'rganish yoki asar ijro etishdan ko'ra kengroq maqsadlarni ko'zlaydi. U o'quvchilarni musiqiy jarayonning barcha bosqichlariga jalb qiladi: g'oya yaratishdan tortib, uni rejalashtirish, amalga oshirish va ommaga taqdim etishgacha.

LATning an'anaviy ta'limdan asosiy farqi – uning markazida yakuniy mahsulot yoki natija turishidir. Bu jarayonda o'qituvchining roli bilim manbaidan yo'naltiruvchi (fasilitator) va maslahatchiga o'zgaradi. O'quvchilar esa o'z o'quv jarayonlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar, bu esa ularning mustaqilligi va motivatsiyasini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, loyihaviy faoliyat o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

Kreativlik va innovatsiya: O'z musiqiy asarini yaratish, mavjud asarlarni qayta aranjirovka qilish, konsert uchun nostandart konsepsiya ishlab chiqish.

Hamkorlik: Guruhda ishlash, vazifalarni taqsimlash (masalan, solist, akkompaniator, ovoz rejissyori), bir-birini tinglash va umumiy maqsad yo'lida birlashish.

Muammoni hal qilish: Ijro davomidagi texnik qiyinchiliklarni bartaraf etish, cheklangan resurslar bilan loyihani amalga oshirish yo'llarini topish. **Kommunikatsiya:** O'z loyihasini (konsert, albom) ommaga taqdim etish, tinglovchilar bilan muloqot qilish, o'z ijodi haqida so'zlab berish.

"Loyihaga asoslangan ta'lim o'quvchilarga chuqur bilim, shuningdek, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik va muloqot kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi."

2. Musiqa darslarida loyiha faoliyatining didaktik tuzilmasi va tamoyillari

Musiqa darslarida loyihaviy faoliyatni samarali tashkil etish uchun uning didaktik tuzilmasini aniq belgilab olish muhim. Bu jarayon odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi va har bir bosqichda o'qituvchi va o'quvchining roli aniq belgilangan bo'ladi:

1-diagramma. *Musiqiy loyiha faoliyatining bosqichlari.*





Musiqa darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan loyiha turlariga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Tadqiqot loyihasi: "Sevimli bastakorim hayoti va ijodi" yoki "O‘zbek milliy musiqa merosi" mavzusida ma'lumot to‘plash va taqdimot qilish.

Ijodiy loyiha: Berilgan she'rga musiqa bastalash, xalq qo‘shig‘ini zamonaviy uslubda aranjirovka qilish, qisqa metrajli filmga saundtrek yaratish.

Ijro loyihasi: Muayyan bir davrga yoki janrga bag‘ishlangan konsert dasturini tayyorlash va ijro etish (masalan, "Barokko musiqasi kechasi").

Tashkiliy loyiha: Maktab miqyosida "Yosh iste'dodlar" ko‘rik-tanlovini yoki musiqiy festivalni tashkil etish.

Bunday loyihalar o‘quvchilarga fanni shunchaki o‘rganish emas, balki uni "yashash" imkonini beradi, bu esa bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Natijalar va muhokama: Loyihaga asoslangan ta’lim metodining samaradorligini baholash uchun an’anaviy va loyihaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili o‘tkazildi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, LAT o‘quvchilarning nafaqat fanga oid bilimlarini, balki umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ham yuqori natijalar beradi.

1-jadval. An’anaviy va loyihaga asoslangan musiqa darslarining qiyosiy tahlili

Mezonlar	An’anaviy musiqa darsi	Loyihaga asoslangan musiqa darsi
Ta’lim maqsadi	Musiqa nazariyasi, nota savodi va ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish.	Ijodiy, kommunikativ, hamkorlik kompetensiyalarini musiqiy faoliyat orqali rivojlantirish.
O‘qituvchining roli	Bilim uzatuvchi, nazoratchi, baholovchi.	Fasilitator (yo‘naltiruvchi), maslahatchi, hamkor, motivator.

Ushbu metodning amaliy samaradorligini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari quyidagi grafikda aks ettirilgan. Tadqiqotda ikki guruh (an';anaviy ta'lim oluvchi nazorat guruhi va loyihaviy ta'lim oluvchi tajriba guruhi) ishtirok etdi. Ularning bir necha muhim ko‘nikmalari o‘quv yili boshi va oxirida baholandi.



1-grafik. *Loyihaviy va an'anaviy metodlar bo'yicha o'quvchilar ko'nikmalarining qiyosiy tahlili (Tadqiqot natijalari asosida tuzilgan illustrativ grafik)*Grafik natijalaridan ko‘rinib turibdiki, loyiha guruhidagi o‘quvchilarning "Ijodiy qobiliyat" va "Hamkorlikda ishlash" ko‘nikmalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori o‘sishni ko‘rsatgan. "Nazariy bilimlar" bo‘yicha har ikki guruhda ham o‘sish kuzatilgan bo‘lsa-da, loyiha guruhi amaliyot bilan bog‘liqlik tufayli biroz ustunlikka erishgan. "Ijrochilik mahorati" ham loyiha guruhida yuqoriroq, bunga sabab loyiha doirasidagi konsert kabi ommaviy chiqishlar o‘quvchilarda mas'uliyat va motivatsiyani oshirganidir. Bu natijalar xalqaro tadqiqotlar xulosalariga mos keladi, ularda loyihaga asoslangan ta'limning o'quvchilar yutuqlari va fanga munosabatiga ijobiy ta'siri tasdiqlangan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, musiqa darslarida loyihaga asoslangan ta’lim metodini qo‘llash shunchaki zamonaviy tendensiya emas, balki ta’lim samaradorligini oshirishning strategik muhim vositasidir. Bu metod o‘quvchilarni musiqiy jarayonning markaziga qo‘yadi, ularning ichki salohiyatini ochishga yordam beradi va fanni hayotiy tajriba bilan bog‘laydi. Loyihaviy faoliyat orqali o‘quvchilar nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, balki kelajakda har qanday sohada zarur bo‘ladigan tanqidiy fikrlash, muammo yechish, jamoada ishlash va o‘z g‘oyalarini himoya qila olish kabi muhim kompetensiyalarni ham egallaydilar. Bu esa o‘z navbatida, musiqa ta’limining asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama rivojlangan, ijodkor va ma’naviy boy shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa o‘qituvchilari uchun tavsiya shuki, loyihaviy ta’limni bosqichma-bosqich, kichik loyihalardan boshlab joriy etish, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish va baholashda an’anaviy usullar bilan birga portfolio, o‘zaro baholash kabi innovatsion yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kelgusi tadqiqotlar turli sinflar va musiqiy yo‘nalishlar kesimida aniq loyiha modellarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashning standartlashtirilgan mezonlarini yaratishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arziqulov, H.N. (2023). Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik-psixologik

asoslari. *Development of pedagogical technologies in modern sciences.*
2. Djamalova, D. A. (2022). Ta'lim muassasalarida musiqa darslarini o'qitishning zamonaviy usullari. *Cyberleninka.*
3. Dyui, J. (1916). *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education.* The Macmillan Company.
4. Hasanova, D.K. (2024). Kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshish bosqichlari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4*(3).
5. Karimov, S. (2020). Umumta'lim maktablarida musiqa darslarini jismoniy harakatlar uyg'unligida tashkil etishning o'ziga xos uslublari. *Art.jdpu.uz.*
6. Muxitdinova, S. S. (2021). Musiqa madaniyati darsini samaradorligini oshirishda ilg`or pedagogik texnologiyalarning o`rni va ahamiyati. *Metodik tavsiya, Buxoro.*
7. Navro‘zov, I.N. (2021). Loyiha metodi asosida o‘qitishning asosiy aniq maqsadi va samaradorligi. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, (6).*
8. Qorayev, S.B., & Tirkashev, N.I. (2022). Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. *Academic Research in Educational Sciences, 3*(1), 1071-1078.

GESHTALTNING TIL HODISALARI BILAN ALOQADORLIGI (O‘XSHATISH, METAFORA, RAMZ VA TAKRORLAR ASOSIDA)

Niyozova Gulhayo,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *mazkur maqolada badiiy matnda geshtalt hodisasining til birliklari bilan aloqadorligi o‘rganiladi. Tadqiqotda A. Qodiriyning* “O‘tkan kunlar” *va Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlari asosida o‘xshatish, metafora, ramz va takror kabi badiiy vositalarning lingvistik geshtalt yaratishdagi roli tahlil qilinadi. Asardagi “Yurak”, “Navo” kuyi va boshqa ramziy birliklar qahramonlarning ruhiy holati, ijtimoiy-psixologik kechinmalari hamda muallifning badiiy tasvir uslubini ochib beruvchi konseptual birliklar sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari badiiy matnda til birliklari alohida semantik detallar sifatida emas, balki o‘quvchi ongida yaxlit emosional-idrokiy obraz – lingvistik geshtaltni shakllantiruvchi vositalar sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *geshtalt, lingvistik geshtalt, badiiy matn, metafora, o‘xshatish (tashbeh), ramz, takror, konsept, badiiy obraz.*

Kirish

Badiiy matnda til birliklari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki muallif yaratgan badiiy olamni idrokiy jihatdan tashkil etuvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu jihatdan geshtalt nazariyasi badiiy matndagi obrazlarning yaxlit idrok etilish mexanizmini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Geshtalt tamoyiliga ko‘ra inson ongida voqelik alohida qismlar emas, balki yaxlit obraz sifatida idrok etiladi. Badiiy matnda metafora, o‘xshatish, ramz va takror kabi stilistik vositalar ana shunday yaxlit emosional-idrokiy obrazlarni shakllantiradi. Mazkur nazariy qarashlar o‘zbek badiiy adabiyoti namunalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, A. Qodiriy va Cho‘lpon asarlaridan olingan parchalar orqali metafora, o‘xshatish, ramz va takror kabi stilistik vositalarning lingvistik geshtalt yaratishdagi roli **tahlil qilinadi**.

“Yurak” metaforasining geshtalt xususiyati

"Kumushka bag'ishlang'an yurak tugunini yeshilg'an holda ko'rar, go'yo marvarid tugilgan harir ro'ymol o'g'irliqdan so'ng oyoq ostlarida bo'm-bo'sh yotqandek va egasi shu o'g'irlang'an javohirotining alamini chekib turg'andek edi".[10]

Ushbu parcha Otabekning Kumushga bo'lgan sadoqat va muhabbatini metaforik tasvir orqali yuksak badiiylikda ifodalaydi. Muallif Otabekning Kumushga atalgan yuragini "tuguni yechilgan hol" sifatida ko'rsatarkan, uning sevgisi beg'ubor, samimiy va butun borlig'i bilan bag'ishlangan tuyg'u ekanini anglatadi. "Marvarid tugilgan harir ro'ymol o'g'irlangandan keyin bo'sh yotgandek" obraz esa Kumush Otabek hayotida qanday qadrli va bebaho o'rin tutishini chuqur ma'noda ochib beradi: Kumush – Otabek yuragining marvaridi, eng nozik va eng ulug' qadriyatidir. Shuning uchun ham Kumushsiz qolgan qalb egasi "o'g'irlangan javohirning alamini chekayotgan" bechoraga qiyoslanadi. Bu metafora Otabekning ruhiy holatini alohida detallar orqali emas, balki bitta mazmuniy butunlikda, kuchli emosional geshtalt tarzida namoyon etib, uning muhabbati nechog'lik chuqur va mazmundor ekanini o'quvchi ongida badiiy ta'sirchanlik bilan gavdalantiradi.

O'xshatishlarning lingvistik geshtalt yaratishdagi roli

"Otalar uchun bundog' gaplar unchalik yomon ta'sir bermasa-da, xotinlarg'a qanday asar qilishi bilgulukdir. Oftob oyim uchun go'yoki qizining birar aybi uchun bu ishka majbur bo'ling'andek, Kumush esa endi eriga suyumsiz, ishdan chiqg'an va burchakka tiqilg'an uvadadek bo'lib ko'rina boshlag'an edi. Maktubni eshitkan quloqlari yanglish eshitkandek bo'lar edi.

— Tag'in o'qub ko'ringiz-chi...

Qutidor xotinining so'zidan kuldi:

— Qaytarib o'qishning foydasi yo'q, xatning maqsadi san onglag'andek, – dedi. Oftob oyim boshi yanchilg'an ilondek to'lg'andi:

— Qizim ustiga kundash?!

Qutidor qafaska yangi soling'an qushdek urinmakka olg'an xotinini bosmoq bo'ldi".[11]

Qahramonlarning ruhiy holati va ijtimoiy-psixologik vaziyati o'xshatish (tashbeh) vositasida ifodalanib, lingvistik geshtaltning shakllanishiga xizmat qiladi. Xususan, "**boshi yanchilg'an ilondek to'lg'andi**" birikmasi orqali Oftob oyimning ichki iztirobi, ruhiy larzasi hamda g'azab holati kuchli obraz asosida umumlashtiriladi. Ushbu tashbeh qahramonning psixologik kechinmalarini alohida holatlar sifatida emas, balki yaxlit emotsional-ruhiy manzara sifatida idrok etishga imkon beradi. Shuningdek, "**qafaska yangi soling'an qushdek urinmakka olg'an**" o'xshatishi ayol obrazining erksizlik, siqilish va ichki qarshilik holatini konseptual darajada ifodalab, vaziyatning dramatik fonini kuchaytiradi. "**Burchakka tiqilg'an uvadadek bo'lib ko'rina boshlag'an**" tashbehi esa Kumush obrazining qadrsizlanishi, kamsitilishi va ruhiy ezilish holatini ta'sirchan ifodalab, ayol taqdiriga xos ijtimoiy bosimni umumlashtiruvchi geshtalt obrazni yuzaga keltiradi. Demak, ushbu parchada o'xshatishlar stilistik bezak vazifasinigina bajarmay, balki badiiy matnda psixologik mazmunni yaxlit idrok ettiruvchi lingvistik geshtaltni shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

"Navo" kuyi ramziy geshtalti

"Navo" kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko'zi orqaliq to'kdirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo'ydi va dunyoda yolg'iz hasratkina bo'lmag'anligini

[10] Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2009. – 193-bet.
[11] Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2009. – 148-bet.

bildirgandek o‘zining "savt" kuyini yer yuziga shodliq va so‘yinch yog‘dirib arz eta boshladi. "Navo"ning sihirlik "savt"i Otabekning ko‘z yoshlarini quritdida, bir yengillik bag‘ishladi. "Navo" bilan yuvilib ketkan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...".[12]

"Navo" kuyi ramziy geshtalt sifatida talqin qilinadi, ya'ni u faqat musiqiy kuy emas, balki Otabekning ichki fojiaviy tajribasini (haydalish, ayriliq, iztirob) bir butun emosional obrazga jamlovchi ramziy birlik vazifasini bajaradi. Muallif kuyni personifikatsiya qilib, uni "so‘zlovchi" va "yig‘lovchi" subyektga aylantiradi, natijada "Navo" Otabekning ichki dardini tashqi shaklda ifodalovchi badiiy kodga aylanadi. Kuy qahramon xotirasini faollashtirib, o‘tgan voqealarni ongda jonlantiradi va shu orqali ruhiy iztirobning yaxlit manzarasini hosil qiladi; bu jarayon geshtalt tamoyiliga ko‘ra alohida epizodlarni emas, balki ularning umumiy mazmunini "butunlik" sifatida idrok ettiradi. Epizod yakunida kuy hasratdan yengillikka olib kelishi bilan ramziy geshtaltning dinamik tabiatini ko‘rsatadi: "Navo" iztirobni ifodalash bilan cheklanmay, ruhiy bo‘shanish va umidning qayta tiklanishini ham anglatadi. Demak, bu parchada "Navo" kuyi Otabek kechinmalarining ramziy ifodasi bo‘lib, uning fojiaviy xotirasi va ruhiy yangilanishini birlashtiruvchi konseptual-emosional geshtalt vazifasini bajaradi.

Takror orqali badiiy geshtaltning shakllanishi

"Dasturxonga qaragan kishi bo‘lmadi; hech kim bu faqir va sodda hashamat ichida takalluf axtarmas, ko‘ngilning xursandliklarga bo‘lgan ketsiz maylini qondirish bilangina ovora edi. Shu sabab bo‘lsa kerak, dasturxon ustida duv-duv gaplashib, ayvonni ovozga to‘ldirib o‘tirgan qiz-juvonlardan hech biri o‘ng biqinida yonma-yon o‘tirib, zo‘rg‘a dasturxonga qo‘l uzatgan mingboshi oyimlarning "shu ham mehmondorchilikmi?" degan ma'noda bir-biriga qarab lab burishtirganlarini payqamadi. Dasturxon yig‘ilgandan keyin bazm boshlandi; shundan keyin hamma o‘zini unutdi, hamma yosh bolaga aylandi".[13]

Ushbu holat tasvirida takror stilistik bezak sifatida emas, balki **semantik va sintaktik darajada yuzaga keluvchi kognitiv mexanizm** sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, "**hamma o‘zini unutdi, hamma yosh bolaga aylandi**" kabi parallel tuzilmalarning ketma-ket qo‘llanishi individual subyektlarni fon darajasiga surib, kollektiv ruhiy holatni markazga olib chiqadi. Natijada bazm manzarasi alohida harakatlar yig‘indisi sifatida emas, balki umumiy quvonch, erkinlik va vaqtinchalik ijtimoiy chegaralarning yo‘qolishi bilan tavsiflanadigan **yaxlit badiiy geshtalt** sifatida idrok etiladi. Shu tariqa takror muhit va hissiy holatni birlashtiruvchi asosiy vosita bo‘lib, matnning emotsional va konseptual butunligini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda metafora, o‘xshatish va ramz kabi stilistik vositalar qahramonlarning ruhiy holatini yaxlit idrok etishga xizmat qiladi. A. Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanida bu birliklar lingvistik geshtalt yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur vositalar orqali muallif qahramonlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit va dramatik vaziyatlarni o‘quvchi ongida bir butun emosional-obrazli manzara sifatida gavdalantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ko‘hler W. **Gestalt Psychology.** – New York: Liveright, 1929. – 403 p.

[12] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2009. – 220-bet.

[13] Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 376 b.

2. Kwiatkowska A. **Linguistic Gestalt and Text Perception: Towards a Cognitive Stylistic Approach.** – Warszawa: University of Warsaw Press, 2012. – 135 p.
3. Lakoff G., Johnson M. **Metaphors We Live By.** – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
4. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 376 b.
5. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2009. – 400 b.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.

BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISH

Hamdamova Ra'no G'ayratovna,
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya: *Mazkur maqola umumta'lim maktablarining biologiya va tabiiy fan o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda biologiya darslarida o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish bo'yicha qisqacha tavsiyalar haqida so'z boradi. Ushbu maqola o'quvchilarni tabiatga ehtiyotkorona munosabtada bo'lishni, atrof-muhitda ro'y berayotgan muammolarga yechim izlab topish, o'quvchilarda tanqidiy va tahlilliy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishni maqsad qiladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik ong, mind-mapping, aql xaritasi, yirtqichlar, o'lja, moslanish*

Abstract: *This article is intended for biology and natural science teachers of secondary schools, and it provides brief recommendations for the formation of students' ecological awareness in biology lessons. This article aims to educate students to be careful about nature, to find solutions to environmental problems, and to develop critical and analytical thinking skills in students.*

Keywords: *ecological awareness, mind-mapping, mind map, predators, prey, adaptation*

Аннотация: *Данная статья предназначена для учителей биологии и естественных наук средних школ и содержит краткие рекомендации по формированию экологического сознания учащихся на уроках биологии. Цель статьи — научить учащихся бережно относиться к природе, находить решения экологических проблем и развить у них навыки критического и аналитического мышления.*

Ключевые слова: *экологическое сознание, ментальные карты, хищники, жертвы, адаптация*

Hozirgi globallashuv orqali tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashib borayotgani ekologik muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, biologikma-xillikning kamayishi, iqlim o'zgarishi kabi muammolar insoniyatdan tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni talab qiladi. Shu bois o'quvchilarda ekologik ong, ekologik madaniyat va tabiatni asrashga doir mas'ulliklarni kuzatish ta'lim muhim ahamiyatidan biri.

Biologiya fanining mazmuni tabiat, tirik organizmlar va tabiat bilan bog'liqligini o'rganish bo'lib, o'quvchilarda ekologik dunyoqarashni yanada keng imkoniyatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Biologiya darslarida o'quvchilarda tabiatni, ekologik jarayonlarni, insonning tabiatga ta'sirini hamda atrof-muhitni asrash bo'yicha mas'uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish muhim kasb ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirish faqat nazariy bilimlarni berish bilangina cheklanib qolmay, balki ularni amaliy faoliyatiga jalb qilish, muammolarni ishlab chiqish asosida fikrlashga undash, amaliy va ishlab chiqarishni tashkil etish orqali samarali amalga oshiriladi. Bunday sharoitda o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni kuzatish, jarayonlarni anglash va ularga hal qilishga intilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Yirtqichlar va ularning o‘ljalaridagi moslanishlar” mavzusi biologiya fanida muhim ekologik va evolyutsiya jarayonlarini o‘quvchilarga singdirish uchun samarali xizmat qiladi. Ushbu mavzu orqali o‘quvchilar tirik organizmlar o‘ziga xos o‘zaro bog‘liqlik, tabiiy tanlanish jarayoni hamda organizmlarning yashash muhitiga moslashishini chuqur anglab yetadi. Ushbu mavzu o‘quvchilarga tabiatdagi yirtqich–o‘lja munosabatlarini oshirishga yordam beradi. Yirtqich hayvonlar o‘z o‘ljasini tashlanish uchun tezlik, kuchli jag‘, o‘tkir tirnoqlar, sezgi organlari kabi moslanishlarga ega bo‘ladi. O‘lja bo‘ladigan organizmlar esa yashirin rang (kamuflyaj), tez yugurish, himoya yoki zaharli a’zolari kabi himoya moslanishlarini rivojlantirgan. Bu esa organizmlarning uzoq evolyutsion jarayonlari asosida shakllanganligini o‘quvchilar anglaydilar. Mavzuni o‘rganish o‘quvchilarda ekologik tafakkur va ekologik ongni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuni o‘rganishda bir qancha zamonaviy pedagogik metodlardan samarali foydalanish muhim. Darsning kirish bosqichi o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish hamda ularni faol bilish jarayoniga jalb etishga xizmat qiladi. Mazkur bosqichda o‘qituvchi muammoli savol orqali o‘quvchilarning kundalik hayotda kuzatgan, ammo ilmiy jihatdan izohlab bermagan hodisalariga e’tibor qaratadi. “Nima sababdan ayrim hayvonlar o‘z o‘ljasini tez tutadi, ayrimlari esa yirtqichlardan oson qochib qutula oladi?” yoki “Nima uchun ayrim hayvonlar atrof-muhit rangiga o‘xshab ketadi?”mazmunidagi savol o‘quvchilarni fikrlashga, kuzatish va tahlil qilishga undaydi hamda yangi bilimlarni egallashga ichki ehtiyoj hosil qiladi.

Bunday muammoli savollar orqali o‘quvchilar yirtqichlar va o‘ljalari o‘zlariga tegishli o‘zaro munosabatlar hamda tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlari haqida fikr yurita boshlaydilar. Ularda yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ishonch shakllanadi hamda dars jarayonida faol ishtirok etish uchun motivatsiya paydo bo‘ladi. Kirish bosqichida qo‘llanilayotgan **“Muammoli savol”** interfaol usuli o‘quvchilarning erkin fikr bildirishini ta’minlaydi va ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini to‘g‘rilashga shoshilmaydi, balki ularning fikrlarini umumlashtiradi va mantiqiy bog‘laydi. Natijada o‘quvchilar hodisaning mohiyatini hali to‘liq tushunmagan bo‘lsalar-da, unda muayyan qonuniyat mavjudligini anglay boshlaydi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, yirtqichlar va ularning o‘ljalari o‘zaro bog‘liqlik tirik organizmlarning uzoq davom etgan evolyutsion jarayonida jarayonida shakllangan moslanishlar bog‘liqdir. Yirtich hayvonlarda o‘ljani saqlash va ovlashga morfologik hamda fiziologik moslanishlar — o‘tkir tish va tirnoqlar, ko‘rish sezgi organlari, tez

harakatlanish kabi moslanishlar shakllangan bo‘lsa, o‘lja bo‘ladigan organizmlarda esa yirtqichlardan himoyalanishga moslanish mavjud.

Ushbu moslanishlar organizmlarining yashash muhiti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular tabiiy tanlanish jarayonining natijalaridir. Yirtqich va o‘lja o‘zida bunday o‘zaro moslanishlar ekotizimda populyatsiyalar sonining tartibga solinishiga hamda tabiiy muvozanatning saqlanishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, motivatsiya bosqichida yaratilgan muammoli vaziyat o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, ilmiy izlanishga undaydi va darsning keyingi bosqichlarida yirtqich va o‘ljaning o‘zaro ta’siri hamda hayvonlarning ekologik munosabatlarni chuqurroq o‘zlashtirish uchun mustahka poydevor yaratadi. Bu esa zamonaviy ta’limda muhim hisoblangan faol, ongli va maqsadga yo‘naltirilgan o‘rganish jarayonini ta’minlaydi.

Darsning mustahkamlash bosqichi o‘quvchilarning yitqichlar va ularning o‘ljalaridagi moslanishlar haqidagi yangi bilimlarini ongli ravishda mustahkamlash, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu bosqichda turli xil interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobilyatlari rivojlantiriladi. Mavzuni mustahkamlashda Mind mapping (aql xaritasi) metodidan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, xulosa qilish, o‘zaro bog‘liklarini hisobga olishda samarali hisoblanadi.



Biologiya darslarida o‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirish jarayoni uzluksiz va kompleks yondashuvni talab etadi. Yuqorida keltirilgan metodik tavsiyalar biologiya o‘qituvchilariga ushbu mas’uliyatli va muhim vazifani amalga oshirishda amaliy yordam berishga qaratilgan. Innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash, fanlararo va kasblararo integratsiyani ta’minlash, hamda o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda amaliy mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish orqali yosh avlodda ekologik madaniyat,

mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning barqaror ekologik kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2019–2023.
2. Abdurahmonov A., Xudoyberdiyev S. **Ekologiya asoslari**. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.
3. Odum EP **(asosiy tashqil etuvchi va ekologiya)**. – Moskva: Mir, 2009. – 328 b.
4. Begon M., Townsend C., Harper J. **Ekologiya: Individuallardan ekotizimlarga** . – Oksford: Blackwell nashriyoti, 2006. – 738 b.
5. To'xtayev A. **Biologiya o'qitish metodikasi**. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. **Ta'limda innovatsion texnologiya**. – Toshkent: Istiqlol, 2017. – 180 b.
7. Novak JD, Cañas AJ **Kontseptsiya xaritalari asosida yotgan nazariya va ularni qanday qurish mumkin**. – Florida inson va mashina idroki instituti, 2008.
8. Mamedov N.M. **Ekologicheskoe obrazovanie va vospitanie shkolnikov** . – Moskva: Prosveshchenie, 2015. – 192 s.

STEAM VA LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA UMUMTA'LIM FANLARINI INTEGRATSIYALASH

Merzayeva Xamida Juraqulovna,
Navoiy viloyati PMM metodisti

STEAM ta'lim, loyihaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, kimyo, biologiya, fizika, tabiiy fanlar, kompetensiya, innovatsion ta'lim, ekologik ta'lim, bioenergiya, tajriba, ilmiy fikrlash, kreativlik, muammoni hal qilish, ta'lim samaradorligi, o'quv jarayoni, integratsiyalashgan dars, metodika.

Mazkur maqolada umumta'lim fanlarini STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) va loyihaviy yondashuv asosida integratsiyalashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayniqsa kimyo, biologiya va fizika fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchilarda kompleks bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

This article analyzes the theoretical and practical aspects of integrating general education subjects based on the STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) approach and project-based learning. The study particularly examines the formation of students' comprehensive knowledge, skills, and competencies through ensuring strong interdisciplinary connections among chemistry, biology, and physics.

В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты интеграции общеобразовательных предметов на основе подхода STEAM (Наука, Технологии, Инженерия, Искусство, Математика) и проектного обучения. В исследовании особенно рассматривается формирование у учащихся комплексных знаний, навыков и компетенций через обеспечение тесной междисциплинарной связи между химией, биологией и физикой.

Turli sohalarda, jumladan ta'lim sohasida ham global o'zgarishlar bo'layotganligi, shunday muhitda yashashga loyiq, zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Bunday mukammal, keng dunyoqarashga ega, chuqur mantiqiy fikrlovchi, muammolarni nostandart yechish

qobiliyatiga ega bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlashda barcha fanlar qatorida tabiat hodisalarining ilmiy asoslanishida, inson hayotini yaxshilashda qo‘l keladigan tabiiy fanlarni, xususan kimyo fanini ham sifatli va samarali o‘qitish zarurdir.

Integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi asosida o‘quvchilarning tabiiy fanlarga oid bilimlari alohida-alohida emas, balki yagona tizimda o‘zlashtirilishi ta'minlanadi. Xususan, kimyo fanida moddalarning tarkibi va reaksiyalari, biologiyada tirik organizmlardagi jarayonlar, fizika fanida esa energiya, harakat va qonuniyatlar o‘zaro bog‘langan holda o‘rganilishi o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Maqolada loyihaviy yondashuv orqali “ekologik muammo yechimlari”, “bioenergiya manbalari”, “atrof-muhitni muhofaza qilish” kabi mavzularda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan. Ushbu jarayonda o‘quvchilar tajriba o‘tkazish, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, STEAM va loyihaviy yondashuv asosida fanlarni integratsiyalash o‘quvchilarning:

mantiqiy va kritik fikrlashini rivojlantiradi;

amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bilimlarni shakllantiradi;

fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

jamoada ishlash va muammolarni hal etish kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, maqolada integratsiyalashgan ta'limni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar (metodik ta'minotning yetishmasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi) va ularni bartaraf etish yo‘llari ham taklif etilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda, o‘quv jarayonini innovatsion tashkil etishda hamda zamonaviy kompetensiyalarga ega o‘quvchilarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

STEAM ta'limida kimyo fani va boshqa fanlar integratsiyasiga asoslangan topshiriqlarni bajarish natijasida maktab o‘quvchilarida quyidagi ijobiy xususiyatlar shakllanadi:

1. Ijodkorlik
2. Nostandart fikrlash
3. Tezkor fikrlash
4. Mustaqil fikrlash
5. Aniq fikrlash
6. Bir qancha tushunchalarni bog‘lay olish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stuckey, Marc, Lippel, Marianne, Eilks, Ingo. Teaching chemistry about Stevia – a case of cooperative curriculum innovation within PROFILES in Germany. //CEPS Journal 4 (2014) 1. Pp.69-83.

2. Jeongho Cha, Su Yin Kan, Poh Wai Chia. Spot the differences Game: An Interactive method that engage students in organic chemistry learning.//Journal of Korean chemical society 2018. 159-162.

3. Xasanova X.N. Kimyo darslarida o‘qitish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. “Ta'limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat; muammolar, tahlillar va istiqbollar mavzusidagi Respublika - amaliy konferentsiya. mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy. 2021. – B. 6-7.

4. Xasanova X.N., Nurmonov S.E. The effect of individual and group learning forms in the teaching of organic chemistry art school students. // International Multidisciplinary Research Journal akademikal. India: 3 march 2019. (85-87 bet)
5. Xasanova X. N. Dunyo mamlakatlarida maktablarda ta'lim sifatiniyaxshilashda STEAM ta'limidan foydalanishning ahamiyati. Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy metodik jurnal. –Urganch. - 3/2023. - 61-64 b.

UYDA YAKKA TARTIBDA TA'LIM OLUVCHI O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI LOYIHA ISHLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH (FIZIKA FANI MISOLIDA)

Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti,
O'tapov Ziyo Bakirovich,
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirishda loyiha ishlarining (Project-Based Learning) o'rni va ahamiyati yoritilgan. Fizika fani misolida uy sharoitida o'tkazilishi mumkin bo'lgan amaliy tajribalar va raqamli simulyatsiyalarning (PhET) o'quvchi kompetensiyalarini shakllantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tabiiy-ilmiy savodxonlik, PISA, loyiha ishi, fizika, uy laboratoriyasi, PhET simulyatsiyalari, yakka tartibdagi ta'lim.

Zamonaviy global ta'lim paradigmasida tabiiy-ilmiy savodxonlik (Scientific Literacy) tushunchasi o'quvchi shaxsining intellektual salohiyatini belgilovchi eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA talablariga ko'ra, tabiiy-ilmiy savodxonlik – bu shunchaki fan qonuniyatlarini bilish emas, balki real hayotiy muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, dalillarga tayanib xulosalar chiqarish va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga mas'uliyat bilan yondashish qobiliyatidir. Bugungi kunda O'zbekiston xalq ta'limi tizimida ham ushbu kompetensiyalarni shakllantirish davlat ta'lim standartlarining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Biroq, ta'lim tizimida alohida e'tibor talab etiladigan qatlam – uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o'quvchilar kontingenti mavjud bo'lib, ularning tabiiy fanlarni o'zlashtirish jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega. Mazkur toifa o'quvchilari maktabdagi ijtimoiy muhitdan, zamonaviy laboratoriya jihozlaridan va jamoaviy amaliy mashg'ulotlardan ma'lum ma'noda uzilib qolganligi sababli, ularda fanga bo'lgan qiziqishning pasayishi va bilimlarining nazariy xarakterga ega bo'lib qolishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida, ushbu o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangicha, innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda.

Fizika fani o'zining tabiatiga ko'ra eksperimental fan bo'lib, uni laboratoriya tajribalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uyda ta'lim oluvchi o'quvchi uchun bu muammoning eng maqbul yechimi sifatida loyiha ishlari asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL) texnologiyasini ko'rsatish mumkin. Loyiha ishlari o'quvchining mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, unga o'z yashash muhitini kichik ilmiy laboratoriyaga aylantirish imkonini beradi. Bu usul orqali o'quvchi fizik

jarayonlarni faqat kitobdan o‘qimaydi, balki ularni o‘z qo‘li bilan yaratgan modellari misolida sinovdan o‘tkazadi.

Ushbu maqolada taklif etilayotgan “Uy laboratoriyasi” va raqamli simulyatsiyalarning uyg‘unlashgan modeli (Hybrid Learning) o‘quvchining cheklangan sharoitda ham yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi. Fizika fanidan loyiha ishlarini tizimli tashkil etish orqali biz nafaqat ta’lim sifatini oshiramiz, balki uyda ta’lim oluvchi bolaning jamiyatga integratsiyalashuviga, unda muhandislik va texnik fikrlashning shakllanishiga zamin yaratamiz. Shunday qilib, loyiha ishlari kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishning eng samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Uyda yakka tartibda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodologiyaning asosi – nazariy bilimlarni empirik (tajribaviy) faoliyat bilan bog‘lashga tayanadi. Tadqiqot metodikasida “Loyiha ishi asosida o‘qitish” (Project-Based Learning) texnologiyasi asosiy vosita sifatida tanlab olingan bo‘lib, u o‘quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan faol subyektga aylantiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchiga fizik jarayonlarni o‘zining yashash muhitida, mavjud maishiy resurslar yordamida modellashtirish imkonini beradi. Metodologiyaning muvaffaqiyati o‘quvchining o‘z tadqiqot ob’ektini tanlashi, gipoteza tuzishi va tajriba o‘tkazish jarayonida mustaqil qaror qabul qilishiga asoslanadi.

Amaliy yondashuvning birinchi bosqichi sifatida “Uy laboratoriyasi” konseptini joriy etish taklif etiladi. Bunda fizika fanining asosiy bo‘limlari – mexanika, termodinamika va optika bo‘yicha tajribalar murakkab laboratoriya asboblarisiz, oddiy maishiy buyumlar yordamida tashkil etiladi. Masalan, Paskal qonunini tibbiy shpritslar va suv yordamida gidravlik press modelini yasash orqali o‘rganish o‘quvchida muhandislik fikrlashini uyg‘otadi. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat fizik qonunni isbotlaydi, balki o‘lchash asboblaridan (lineyka, sekundomer) to‘g‘ri foydalanish, natijalarni qayd etish va xatoliklarni hisoblash kabi PISA talablariga mos amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Metodologiyaning ikkinchi muhim tarkibiy qismi – raqamli texnologiyalar va virtual simulyatsiyalardan (masalan, PhET Interactive Simulations) foydalanishdir. Uy sharoitida amalga oshirish xavfli bo‘lgan (elektr zanjirlari, radioaktivlik) yoki mikrodunyoga oid (molekulalar harakati, atom tuzilishi) jarayonlarni o‘rganishda raqamli laboratoriyalar ajralmas hisoblanadi. Gibrid yondashuv asosida o‘quvchi dastlab virtual muhitda tajriba parametrlarini o‘zgartirib, natijani bashorat qiladi, so‘ngra real hayotda uning analogini yaratishga harakat qiladi. Bu esa raqamli savodxonlikni tabiiy-ilmiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Loyiha ishlarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning onlayn mentorlik modelidan foydalaniladi. O‘qituvchi o‘quvchi bilan masofaviy aloqa orqali loyiha bosqichlarini muhokama qiladi, ammo natijaga erishish yo‘lini o‘quvchining o‘zi belgilaydi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchi o‘z ishining natijalarini “Loyiha kundaligi” yoki grafik ko‘rinishida rasmiylashtiradi. Bu usul o‘quvchida ma’lumotlarni tahlil qilish, dalillar keltirish va o‘z kashfiyotini taqdimot qilish (onlayn konferensiya yoki video-hisobot shaklida) ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu esa PISA baholash tizimidagi yuqori darajadagi kompetensiyalarga to‘liq mos keladi.

Ushbu metodologiyaning yakuniy maqsadi – uyda ta’lim oluvchi o‘quvchilarni faqat akademik bilimlar bilan qurollantiribgina qolmay, ularda hayotiy muammolarga ilmiy nuqtai nazardan yechim topa oladigan shaxsni shakllantirishdir. Fizika fanining fundamental qonuniyatlarini loyiha ishlari orqali o‘rganish, o‘quvchining kognitiv

(bilish) qobiliyatlarini oshiradi va unda o‘z-o‘zini o‘qitish (self-education) madaniyatini qaror toptiradi. Shunday qilib, taklif etilayotgan yondashuv cheklangan sharoitda ham yuqori sifatli tabiiy-ilmiy ta'lim olish imkoniyatini kafolatlaydi.

Tadqiqot doirasida uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan loyiha ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, fizika fanini amaliy-izlanishli yondashuv asosida o‘zlashtirish o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Eksperiment davomida o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan loyihalar (masalan, "Quyosh pechi", "Elektromagnit poezd modeli", "Gidravlik kran") tahlil qilinganda, ularda fizik hodisalarni nafaqat kuzatish, balki ularning matematik modelini tuzish va nazariy qonuniyatlar bilan bog‘lash ko‘nikmasi 35-42% ga ortgani aniqlandi. Bu natija an'anaviy darslik matni bilan cheklangan o‘qitish uslubidan ko‘ra, loyiha ishi o‘quvchining kognitiv faolligini bir necha barobar yuqori darajada stimullashini isbotlaydi.

PISA xalqaro baholash dasturining uchta asosiy kompetensiyasi bo‘yicha olingan natijalar muhokama qilinganda, eng yuqori o‘sish "Hodisalarni ilmiy tushuntirish" hamda "Ma'lumotlarni va dalillarni ilmiy talqin qilish" yo‘nalishlarida kuzatildi. O‘quvchilar o‘z loyihalari ustida ishlash jarayonida olingan o‘lchov natijalarini jadvallashtirish va ularni grafik ko‘rinishida tasvirlash orqali fizik kattaliklar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni (masalan, Om qonunidagi kuchlanish va tok kuchi mutanosibligi) mustaqil ravishda anglab yetdilar. Bu esa uy sharoitida ham yuqori darajadagi tahliliy fikrlashni shakllantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida "Uy laboratoriyasi" va raqamli simulyatsiyalarning (PhET) uyg‘unlashgan modeli o‘quvchilarning psixologik motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatganligi aniqlandi. Masofaviy so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, o‘quvchilarning 85% dan ortig‘i loyiha ishlari orqali fizikani o‘rganish ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttirganini va fanga bo‘lgan qo‘rquv hissini yo‘qotganini ta'kidladilar. Ayniqsa, uy sharoitida o‘z qo‘li bilan yaratgan asbobining ishlashini ko‘rish o‘quvchida "muvaffaqiyat hissi"ni (success feeling) uyg‘otib, uning ijtimoiy-intellektual izolyatsiyadan chiqishiga yordam berdi.

Muhokama qilinayotgan metodikaning samaradorligi yana shundaki, u o‘quvchida "tanqidiy baholash" ko‘nikmasini rivojlantiradi. Tajriba natijalari kutilgan nazariy ko‘rsatkichlardan farq qilgan hollarda (masalan, ishqalanish kuchi yoki havo qarshiligi hisobiga), o‘quvchilar ushbu tafovutning sabablarini ilmiy tahlil qilishga o‘rgandilar. Bu esa PISA baholash tizimidagi eng murakkab darajadagi kompetensiya – ilmiy tadqiqot metodlarini baholash va takomillashtirish qobiliyatining amaliy ko‘rinishidir. Olingan ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, loyiha ishlari orqali o‘qitish uyda ta'lim oluvchi o‘quvchilar uchun shunchaki qo‘shimcha metod emas, balki asosiy pedagogik strategiya bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda loyiha ishlari va zamonaviy AKT vositalari (simulyatsiyalar) o‘rtasidagi integratsiyaning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv o‘quvchini nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki uni XXI asrning muhim ko‘nikmalari – muammolarga kreativ yechim topish va mustaqil o‘rganish (long-life learning) ruhida tarbiyalaydi. Bu esa ta'lim tizimidagi barcha toifa o‘quvchilar uchun teng va sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda loyiha ishlari asosida o‘qitish

metodikasi eng maqbul va samarali pedagogik strategiya hisoblanadi. Fizika fani misolida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki ularda ilmiy fikrlash, gipoteza tuzish va eksperiment natijalarini tanqidiy tahlil qilish kabi PISA standartlariga mos yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qildi. "Uy laboratoriyasi" konsepti esa cheklangan sharoitda ham ta'lim sifatini ta'minlash va o'quvchining kashfiyotga bo'lgan tabiiy qiziqishini rag'batlantirish imkoniyatini yaratdi.

Muhokama qilingan gibrid ta'lim modeli, ya'ni real tajribalar va raqamli simulyatsiyalarning (PhET) uyg'unligi, o'quvchining kognitiv faolligini oshirish bilan birga, unda raqamli savodxonlikni ham baravar rivojlantiradi. Bu yondashuv orqali o'quvchi mikrodunyo jarayonlarini vizuallashtirish va xavfli tajribalarni xavfsiz virtual muhitda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ldi. Natijada, uyda ta'lim oluvchi o'quvchi o'zini zamonaviy ilm-fan taraqqiyotidan uzilib qolgandek his etmaydi, balki raqamli texnologiyalar yordamida global ilmiy hamjamiyatning bir qismi sifatida shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida olingan ijobiy natijalarga tayanib, uyda yakka tartibda ta'lim berish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, uyda ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun fizika va boshqa tabiiy fanlardan "Xavfsiz uy laboratoriyasi va loyiha ishlari to'plami" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqish zarur. Ushbu qo'llanma nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar uchun ham o'quvchining amaliy faoliyatini to'g'ri yo'naltirishda asosiy dasturilamal bo'lib xizmat qilishi lozim. Bunda har bir loyihaning hayotiy muammolar bilan bog'liqligi va PISA talablariga mos kelishi ustuvor mezon sifatida olinishi kerak.

Ikkinchidan, umumta'lim maktablari qoshida uyda ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun "Masofaviy virtual mentorlik" tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Tajribali pedagoglar tomonidan loyiha ishlari bo'yicha beriladigan haftalik onlayn maslahatlar o'quvchining ilmiy izlanishlarini tizimlashtiradi va undagi ijtimoiy izolyatsiya holatini bartaraf etadi. Shuningdek, milliy ta'lim platformalarida loyiha ishlarining o'zbek tilidagi videoyo'riqnomalarini ko'paytirish, o'quvchilarning o'z ishlarini namoyish etishlari uchun "Virtual ilmiy ko'rgazma"lar tashkil etish tavsiya etiladi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, loyiha ishlari orqali tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish – bu shunchaki ta'limiy usul emas, balki inklyuziv ta'limning mazmunini boyituvchi ijtimoiy-pedagogik mexanizmdir. Ushbu yondashuvning keng ko'lamda joriy etilishi, barcha o'quvchilar uchun, ularning yashash va ta'lim olish sharoitidan qat'i nazar, teng va sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi hamda ularni kelajakda fan va texnika sohalarida o'z o'rinlarini topishlariga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PISA 2025 Assessment and Analytical Framework [Electronic resource] / OECD. – 2023. – URL: https://www.oecd.org/pisa/ (date of access: 28.03.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli "Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2018.
3. Qodirov M. Fizika o'qitish metodikasi: darslik / M. Qodirov, A. Ahmedov. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2023. – 320 b.
4. Usmonov N. Umumta'lim maktablarida fizika fanidan loyiha ishlari: metodik qo'llanma / N. Usmonov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2024. – 112 b.

5. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future / S. Bell // The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas. – 2010. – Vol. 83, Issue 2. – P. 39–43.
6. Wieman C. E. Interactive Simulations for Teaching Physics / C. E. Wieman, K. K. Perkins, W. K. Adams // Physics Today. – 2008. – Vol. 61, Issue 10. – P. 68–70.
7. PhET Interactive Simulations [Electronic resource] / University of Colorado Boulder. – 2026. – URL: https://phet.colorado.edu/uz/ (murojaat sanasi: 28.03.2026).

BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Shavkatova Shahrizoda Shavkatovna,
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida ona tili darslarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Fanlararo integratsiyaning o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurini shakllantirish va bilimlarni tizimli o'zlashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ona tili darslarini matematika, tabiatshunoslik, tasviriy san'at va boshqa fanlar bilan integratsiyalashning samarali usullari va metodlari ko'rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va integratsiyalashgan ta'limning pedagogik imkoniyatlari haqida ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *fanlararo integratsiya, boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы межпредметной интеграции на уроках родного языка в системе начального образования. Освещается значение интеграции учебных предметов в развитии речевой компетенции учащихся, формировании логического мышления и системного усвоения знаний. Также анализируются эффективные методы интеграции уроков родного языка с математикой, природоведением, изобразительным искусством и другими предметами. В статье представлены научные выводы о роли современных педагогических технологий, компетентностного подхода и интегрированного обучения в повышении эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова: *межпредметная интеграция, начальное образование, уроки родного языка, компетентностный подход, педагогические технологии, интегрированное обучение.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of interdisciplinary integration in native language lessons in primary education. The importance of interdisciplinary integration in developing students' speech competence, logical thinking and systematic acquisition of knowledge is highlighted. The paper also examines effective methods for integrating native language lessons with mathematics, natural science, visual arts and other subjects. Scientific conclusions are presented regarding the role of modern pedagogical technologies, competency-based approaches and integrated education in improving the effectiveness of the educational process.*

Keywords: *interdisciplinary integration, primary education, native language teaching, competency-based approach, pedagogical technologies, integrated learning.*

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", - degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim amaliyoti ko‘rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo‘layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik o‘quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini erkin qo‘llash imkoniyatini beradi.

Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o‘rni rivojlangan mamlakatlar maktab ta'limi mazmuni va strukturasiga ta'sir o‘tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o‘quv soatlari keskin qisqartirildi, o‘quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Turli o‘quv predmetlarini soatlarning qisqarishi, o‘quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o‘quvchilarga qo‘yilayotgan talablar kuchaydi, ta'lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmoqda. O‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishida sodir bo‘layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o‘qituvchilardan o‘quvchilarga bir fan doirasida bog‘liqliklar asosida turli hodisalarni o‘rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o‘rganish o‘quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraktsiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi yangi fundamental hamda amaliy tadqiqiga oid yo‘nalishlarini rivojlantirish, hozirgi davr boshlang‘ich ta'limida ona tili darslarining fanlararo integratsiya asosida olib borilishi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. O‘quvchilarning tafakkuri, nutqiy ko‘nikmalari va muloqot qobiliyatlari aynan shu bosqichda shakllanadi. Integratsiya, pedagogik nuqtai nazardan, turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish va ularni yaxlit tizimda o‘zlashtirishni ta'minlaydigan jarayon sifatida qaraladi. Lotincha "integratio" so‘zidan kelib chiqqan bu tushuncha "yaxlitlash, birlashtirish" ma'nosini bildiradi va ta'lim jarayonida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiya o‘quvchilarni faqat faktlar bilan tanishtirib qolmay, balki ularni real hayot bilan bog‘lashga, mavzularni tushunishga, mantiqiy tahlil va analogiyalar qilishga yo‘naltiradi [1].

Ona tili darslarini matematika bilan integratsiya qilish misolida o‘quvchilar matnli masalalarni o‘rganib, matematik terminlarni tushunish bilan birga nutqiy qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, tabiatshunoslik fanlari bilan integratsiya o‘quvchilarda ilmiy tasavvur, kuzatuv va tahlil qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Masalan, o‘simliklar va hayvonlar haqida matn yozish yoki kuzatuv natijalarini bayon qilish orqali ular ilmiy nutqni shakllantiradilar. Tasviriy san'at bilan integratsiya esa o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va tasavvurini kengaytiradi; rasm asosida hikoya tuzish, manzara tasvirini yozma ravishda ifodalash, obrazli ifodalar bilan ishlash o‘quvchilarning ijodiy va nutqiy kompetensiyalarini boyitadi [2].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyalashgan darslarni yanada samarali qilish imkonini beradi. STEAM metodologiyasi, interaktiv dars vositalari, loyiha ishlari

va muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda, dars jarayonini qiziqarli va amaliyotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv asosida integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarga bilimlarni faqat yodlash emas, balki uni turli vaziyatlarda qo'llash imkonini ham beradi [3].

Fanlararo integratsiya ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini, tafakkurini, ijodkorligini va bilimlarni tizimli o'zlashtirishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsiya jarayonida o'quvchilar turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirib, dunyoni yaxlit tushunishga harakat qiladilar, bu esa ularning muloqot va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, integratsiya o'quvchilarni o'z fikrini aniq va mantiqan ifodalashga, real hayotiy vaziyatlarni tushunishga, o'rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Shu sababli, ona tili darslarida fanlararo integratsiyani qo'llash pedagogik jihatdan zarur va dolzarb hisoblanadi. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarda tafakkur, nutq va ijodiy ko'nikmalarni bir vaqtda rivojlantiradi. Ular bilimlarni tizimli o'zlashtirish bilan birga, hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Ta'lim jarayonida turli fanlarni uzviy bog'lash orqali o'quvchilarning qiziqish darajasi oshadi, darslar qiziqarli va interaktiv bo'ladi, o'quv motivatsiyasi kuchayadi. Natijada integratsiyalashgan ta'lim boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim, tafakkur va nutq kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini fanlararo integratsiya asosida olib borish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish, bilimlarni tizimli va yaxlit ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli pedagoglar darslarni faqat ona tili mavzulari bilan cheklab qolmay, turli fanlarni o'zaro bog'lab, o'quvchilarning tafakkur va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2020.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
3. Avliyakulov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
4. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2022.
5. Yo'ldoshev J. Ta'lim innovatsiyalari. – Toshkent, 2020.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI BLUM TAKSONOMIYASI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Pulotov Abdurayim Murotovich,
Navoiy viloyati PMM professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi,
Adizova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy davlat universiteti doktoranti,

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari yoritilgan. Tanqidiy fikrlash pedagoglarning axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim kasbiy kompetensiya sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada Blum taksonomiyasi asosida fikrlash*

jarayonining asosiy bosqichlari tahlil qilinib, ularning pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, Blum taksonomiyasi, maktabgacha ta'lim, pedagogik kompetensiya, tarbiyachi, pedagogik faoliyat, zamonaviy ta'lim.*

Abstract: *This article examines the theoretical and pedagogical foundations for developing critical thinking skills among preschool educators. Critical thinking is understood as a key professional competence that enables educators to analyze information, evaluate evidence, and draw independent conclusions. The article also analyzes the main stages of the thinking process based on Bloom's taxonomy and highlights their significance in enhancing educators' professional competencies. Effective methods and approaches for fostering critical thinking skills in the pedagogical activities of educators are also discussed.*

Keywords: *critical thinking, Bloom's taxonomy, preschool education, pedagogical competence, educator, pedagogical activity, modern education.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim bolalarning bilimini rivojlantirishda nafaqat ma'lumotni yodlab olish, balki uni tushunish, tahlil qilish, yangi g'oyalarni yaratish hamda eng muhimi egallagan bilim va tajribalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda.Bu jarayon esa pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarni chuqur o'zlashtirishi va ularni amaliyotda samarali qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davri esa bolaning tafakkuri, bilish jarayonlari va mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi [1]. Shu sababli aynan shu davrda bolalarda savol berish, fikr yuritish, muammoni turli nuqtai nazardan baholash kabi intellektual faoliyatni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda pedagogning kasbiy kompetensiyalari, xususan tanqidiy fikrlash ko'nikmasi muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash pedagogning ta'lim jarayonini samarali tashkil etishida muhim omil hisoblanadi.

Asosiy qism. Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, turli fikr va qarashlarni solishtirish hamda asosli xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalovchi murakkab intellektual jarayondir [2]. Ushbu ko'nikma insonning mustaqil fikr yuritishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va ularning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyatda tanqidiy fikrlash pedagogga ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish, turli metod va yondashuvlarni solishtirish hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi[3].Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatda tanqidiy fikrlash tarbiyachining o'quv-tarbiyaviy jarayonni chuqur anglashiga, ta'lim metodlarini tanlashda asosli qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyachining tanqidiy fikrlashi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;

- ta'lim jarayonidagi muammolarni aniqlash;
- turli metod va usullarning samaradorligini baholash;
- bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Shu jihatdan tanqidiy fikrlash tarbiyachining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik texnologiyalar va metodlar mavjud. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ichida ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarning nazariy asoslaridan biri sifatida Blum taksonomiyasi alohida ahamiyat kasb etadi[4].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda Blum taksonomiyasi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.Blum taksonomiyasi ilk bor 1956-yilda amerikalik psixolog Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan.Keyinchalik u 2001-yilda yangilangan shaklda taqdim etilib, bugungi kunda ko‘plab ta'lim konsepsiyalari va metodikalarining asosiy tayanchiga aylangan [5]. Uning eng mashhur talqini kognitiv soha – ya'ni fikrlash jarayoniga asoslanadi.Mazkur taksonomiya o‘rganish jarayoni oddiydan murakkabga tomon izchil rivojlanishini ta'kidlaydi.

1-infogramma. B.Blum o‘quv materiali bilan tanishishning 6 darajasi

Mazkur taksonomiya fikrlash jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Blum taksonomiyasiga ko‘ra bilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Bilish – ma'lumotlarni eslab qolish va qayta aytib berish.
2. Tushunish – o‘rganilgan ma'lumotni anglash va izohlash.



3. Qo‘llash – olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash.
4. Tahlil – ma'lumotlarni tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish.
5. Baholash – ma'lumot va g‘oyalarni tanqidiy baholash.
6. Yaratish – yangi g‘oya yoki yechim yaratish.

Mazkur bosqichlar pedagogning fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[6].

Blum taksonomiyasi asosida tarbiyachilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilish faoliyatining bosqichma-bosqich murakkablashib borishini nazarda tutadi. Ushbu bosqichlar tarbiyachilarning kasbiy faoliyatiga moslashtirilgan holda quyidagicha talqin qilinadi:

1. Bilish bosqichi - Tarbiyachilar maktabgacha ta'lim metodikasi, pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim yondashuvlari haqida nazariy bilimlarni egallaydi.

2. Tushunish bosqichi - Pedagoglar o‘rganilgan nazariy bilimlarning mazmun-mohiyatini anglab, ularni pedagogik jarayon bilan bog‘laydi.

3. Qo‘llash bosqichi - Tarbiyachilar o‘z faoliyatida yangi metod va texnologiyalarni amaliy mashg‘ulotlar orqali qo‘llaydi.

4. Tahlil bosqichi - Pedagoglar ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tahlil qilib, ularning sabablarini aniqlaydi.

5. Baholash bosqichi - Pedagoglar o‘z faoliyatini tahlil qilib, ta'lim jarayonining samaradorligini baholaydi.

6. Yaratish bosqichi - Tarbiyachilar yangi pedagogik g‘oyalar, interfaol metodlar va o‘quv faoliyati shakllarini ishlab chiqadi.

Mazkur bosqichlarning izchil amalga oshirilishi tarbiyachilarda bilimlarni nafaqat o‘zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, amaliyotda qo‘llash va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada pedagoglar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish hamda bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qodir bo‘lgan kasbiy kompetensiyaga ega bo‘ladilar.

Xulosa.**Blum taksonomiyasi** tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu taksonomik yondashuv ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish, pedagoglarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tizimli ravishda shakllantirish hamda ularning kasbiy faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, bilish jarayonining "bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish" kabi darajalarga ajratilishi tarbiyachilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.Shuningdek, Blum taksonomiyasiga asoslangan ta'lim jarayoni pedagoglarda **tanqidiy va analitik fikrlash**, muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, pedagogik qarorlarni asosli ravishda qabul qilish kabi muhim kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida tarbiyachilarning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish hamda innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva.D.Sh. Maktabgacha pedagogika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
2. Yuvashov.Sh, Akbarov.B. Kreativ fikrlash: o‘quv qo‘llanma. – Namangan, 2024.
3. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath & Co., 1910.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Ennis R.H. The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities. – Urbana-Champaign: University of Illinois, 2011.

КӨСЕМШЕЛЕРДІҢ ҚАЗАҚ, ӨЗБЕК ЖӘНЕ ҚАРАҚАЛПАҚ ТІЛДЕРІНДЕГІ ҚҰРЫЛЫМЫ, ҚЫЗМЕТІ ЖӘНЕ САЛЫСТЫРМАЛЫ ГРАММАТИКАЛЫҚ ТАЛДАУЫ

Abdirova Keulimshat Joldasbek qizi,
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi, qardosh tillar metodisti

Аннотация: *Бұл мақалада қазақ, өзбек және қарақалпақ тілдеріндегі көсемше және қатыстық етістік формаларының морфологиялық құрылымы мен синтаксистік қызметі салыстырмалы түрде қарастырылады. Зерттеу барысында көсемше формаларының жасалу жолдары, олардың сөйлемдегі грамматикалық және семантикалық қызметтері талданады. Сонымен қатар*

түркі тілдеріне тән агглютинативті құрылым негізінде бұл формалардың типологиялық ұқсастықтары мен айырмашылықтары анықталады. Қазақ тіліндегі көсемше формаларының күрделі етістік құрамындағы рөлі, өзбек тіліндегі participial (сипаттауыштық) құрылымдардың атрибутивтік қызметі және қарақалпақ тіліндегі сәйкес грамматикалық формалардың қолданылу ерекшеліктері салыстырмалы түрде сипатталады. Зерттеу нәтижелері түркі тілдерінің грамматикалық жүйесіндегі ортақ заңдылықтарды және әр тілдің өзіндік функционалдық ерекшеліктерін айқындауға мүмкіндік береді.

Кілт сөздер: *көсемше, есімше, participle, түркі тілдері, салыстырмалы грамматика, морфология, синтаксис.*

Kósemşelerdiń qazaq, ózbek hám qaraqalpaq tillerindegi qurılısı, xızmeti hám salıstırmalı grammatikalıq tallawı

Annotatsiya: *Bul maqalada qazaq, ózbek hám qaraqalpaq tillerindegi kósemşe hám qatısıq etistik formalardıń morfologiyalıq qurılısı menen sintaksislik xızmeti salıstırmalı túrde qarastırıladı. Izertlew barısında kósemşe formalardıń jasalıw jolları, olardıń gap ishinde atqaratın grammatikalıq hám semantikalıq funkciyaları taldaw etiledi. Sonday-aq túrkiy tillerge tán agglutinativ sistema negizinde bul formalardıń tipologiyalıq uqsaslıqları hám ayırmashılıqları anıqlanadı. Qazaq tilindegi kósemşe formalardıń quramalı etistik qurılımlarındaǵı roli, ózbek tilindegi participial qurılımlardıń atributivlik xızmeti hám qaraqalpaq tilindegi sáykes grammatikalıq formalardıń qollanılıw ózgeshelikleri salıstırmalı túrde kórsetiledi. Izertlew natıyjeleri túrkiy tillerinińh grammatikalıq sistemasındaǵı ortaq nızamlıqlardı hám hár tilge tán funksionalıq ózgesheliklerdi anıqlawǵa múmkinshilik beredi.*

Tayanısh sózler: *kósemşe, esimshe, participle, túrkiy tiller, salıstırmalı grammatika, morfologiya, sintaksis.*

Qozoq, o'zbek va qoraqalpoq tillarida ko'makchi fe'l shakllarining tuzilishi, vazifasi va qiyosiy grammatik tahlili

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qozoq, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi ko'makchi fe'l shakllari hamda participial konstruktsiyalarning morfologik tuzilishi va sintaktik vazifalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu shakllarning yasalish usullari, gap tarkibidagi grammatik va semantik funksiyalari o'rganiladi. Shuningdek, turkiy tillarga xos bo'lgan agglutinativ tuzilish asosida mazkur shakllarning tipologik o'xshashliklari va farqlari aniqlanadi. Qozoq tilidagi ko'makchi fe'l shakllarining murakkab fe'l tarkibidagi roli, o'zbek tilidagi participial konstruktsiyalarning atributiv funksiyasi hamda qoraqalpoq tilidagi mos grammatik shakllarning qo'llanish xususiyatlari qiyosiy tarzda tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari turkiy tillarning grammatik tizimidagi umumiy qonuniyatlar va har bir tilning o'ziga xos funksional xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *ko'makchi fe'l shakllari, participle, turkiy tillar, qiyosiy grammatika, morfologiya, sintaksis.*

Кіріспе. Көсемше – етістік тұлғасының жақсыз формасы ретінде сөйлем құрамында іс-әрекеттің сипаты мен амалын, шақтық қатынасын білдіретін грамматикалық категория. Түркі тілдерінде бұл категория кең таралған және тілдердің морфологиясы мен синтаксисінің маңызды компоненті болып табылады. Бұл мақалада қазақ, өзбек және қарақалпақ тілдерінде көсемше/participial формалардың морфологиялық құрылымы мен синтаксистік қызметі, сондай-ақ

олардың типологиялық ұқсастықтары мен айырмашылықтары салыстырмалы түрде зерделенеді.

Қазақ тіліндегі көсемшенің құрылымы мен қызметі. Морфологиялық құрылым, қазақ тілінде көсемшелер еттістік тұлғалардан жасалатын грамматикалық формалар болып табылады. Олар екі негізгі топқа бөлінеді: өткен шақ көсемшелері – -ып, -іп, -п жұрнақтары арқылы жасалады. Бұл форма күрделі етістік құрамында негізгі іс-әрекетті білдіреді және сөйлемде адвербиалдық немесе анықтамалық қызмет атқарады.

Келер шақ көсемшелері – -ғалы, -гелі, -қалы, -келі жұрнақтары арқылы жасалады және іс-әрекеттің келер шақтағы мақсат, себеп, салдар мәнін білдіреді.

Қазақ тілінің грамматикасында көсемшелер жеке тұлғалық емес, жақсыз форма ретінде қарастырылады: олар көптелмейді, септелмейді және тәуелденбейді (осы шектеулер формалық ерекшелік ретінде белгіленеді).

Синтаксистік қызметі. Көсемшелер сөйлемде келесі қызметтерді атқарады: Күрделі етістік құрамының бөлігі ретінде: негізгі етістікпен бірге күрделі мағына құрайды (*орындап болды*).

Іс-әрекетті сипаттау немесе амал-тәсілін көрсету: белгіленген қимылдың қандай түрде жүзеге асқанын көрсетеді.

Себеп-мақсат қатынасын білдіру: мысалы *оқығалы отыр* сияқты.

Бұл қызметтер көсемшенің грамматикалық аналогы ретінде оның сөйлем құрамындағы семантикалық рөлін айқындайды.

Өзбек тіліндегі participle формалары: грамматикалық жүйе. Өзбек тілінде көсемшеге тең формалар participial constructions ретінде қарастырылады, олар етістіктен туындап, сөйлемде атрибутивтік (сыныптауыштық) немесе аралас құрылымдық қызмет атқарады. Морфологиялық және семантикалық ерекшеліктер. Өзбек тілінің participle құрылымдары әдетте -gan / -kan / -gen / -ken сияқты жұрнақтар арқылы жасалады, және бұл жалғаулар аяқталған іс-әрекетті және нәтижені білдіреді.

Бұл формалар сөйлемде келесі қызметтерді орындайды: Нысанның сапасын сипаттау: *kelgan odam* — "келген адам".

Себепті, жағдайды көрсету: participle формасы толық сөйлем құрамында қолданылып, шартты немесе толық сипаттағы мағыналар береді.

Салыстырмалы сөйлемдер құру: Өзбек тілінде participle арқылы күрделі сөйлемдер құрылып, контекстте семантикалық қатынас беріледі.

Бұл грамматикалық жүйе түркі тілдерінің агглютинативті сипатын көрсетеді: тіл формалар морфемалар арқылы кеңейтіліп, жақсыз қызметте қолданылады.

Қарақалпақ тіліндегі қатыстық формалар. Қазіргі зерттеулерге қарағанда, қарақалпақ тілінде каратылық, participial типті формалар грамматикалық құрылым ретінде толық зерттелген жоқ. Дегенмен тарихи деректер мен түркі тілдерінің ортақ грамматикалық дәстүрлері көрсеткендей, қарақалпақ тілінде де verbal adjectival (сипаттауыштық) және auxiliary constructions (қосалқы етістік құрылымдары) арқылы көсемше типті формалар бар.

Морфологиялық деректемелер**.** Бұрынғы әдеби тіл материалдары қарақалпақ тілінде -gan / -kan / -gen / -ken сияқты формалар қатыстық немесе классификациялаушы мағынада қолданылғанын көрсетеді, ол өзбек тіліндегі participle жүйесіне типологиялық түрде жақын.

Бұл формалар сөйлем құрамында:

Анықтауыш рөлінде: зат есімді анықтайтын атрибутивтік қызмет.

Хабарлы немесе мәндік қатынас беру: белгілі бір іс-әрекеттің нәтижесін көрсету.

Қарақалпақ тілінің морфологиялық жүйесінің күрделілігі оның агглютинативті сипатын көрсетеді және көптеген дербес suffix арқылы грамматикалық ролін айқындайды.

Түркі тілдері контекстінде салыстырмалы талдау. Түркі тілдеріндегі participle/көсемше жүйелері типологиялық тұрғыдан агглютинативті және дериватизацияланған құрылымдарға негізделген.

Қазақ тілінде көсемше / participle формалар жақсыз етістік формасы ретінде шақтық мағына мен қосалқы синтаксистік қызметті кең көлемде білдіреді.

Өзбек тілінде participle формалар негізгі глаголдық мағынаны алып қана қоймай, сыныптауыштық және жалпы сипаттауыштық қызмет атқарады, сөйлемдерде қатыстық (relative) функция береді.

Қарақалпақ тілінде participle типті формалар тарихи дәстүрлер мен морфологиялық параллельдер арқылы дериватталған жүйе ретінде түсіндірілуі мүмкін; олар зат есімдерді анықтау немесе іс-әрекетті сипаттау қызметінде қолданылады.

Бұл салыстырмалы талдау түркі тілдері арасындағы грамматикалық аналогиялық байланыстарды және айырмашылықтарды айқындайды.

Қорытынды. Көсемшелер/participial формалар — қазақ, өзбек және қарақалпақ тілдерінде еттістік тұлғаларды кеңейту және сөйлем құрамында семантикалық қатынастарды көрсету жүйесі ретінде маңызды рөл атқарады.

Қазақ тілінде көсемшелер шақтық категориялар мен синтаксистік қызметтерді білдіретін грамматикалық категория ретінде дамыған.

Өзбек тілінің participial жүйесі грамматикалық түрде көбірек атрибутивтік және салыстырмалы қызмет атқарып, сөйлемдер арасындағы күрделі семантикалық байланыстарды қалыптастырады.

Қарақалпақ тілінде көсемше типті формалар морфологиялық және тарихи тіл семействасына тән формалар ретінде зерттеледі.

Бұл салыстырмалы зерттеу түркі тілдерінің грамматикалық жүйелерінің типологиялық сәйкестігін және жеке тілдердің функционалдық ерекшеліктерін көрсетеді.

Пайдаланылған әдебиеттер

1. **Raihan Muhamedowa.** ***Kazakh: A Comprehensive Grammar*****.** – Routledge, 2016. Бұл кітап қазақ тілінің толық грамматикалық жүйесін, оның ішінде морфология мен синтаксисін кешенді түрде талдайды (қатыстық формалар, етістік формалары, көсемше/participle қатысты мәселелер)

2. **«Қазақ грамматикасы» (фонетика, морфология, синтаксис) — оқу құралы.** – Жүйелі түрде қазақ тіліндегі етістік тұлғалардың (соның ішінде көсемше) қалыптасуын көрсетеді

3. **Kazakh and Uzbek Comparative Grammar.** – Қазақ және өзбек тілдерінің салыстырмалы грамматикасы; қатыстық формалардың грамматикалық ұқсастықтары мен айырмашылықтарын талқылайды

4. **Есімше тұлғаларының тілдік табиғаты: монография.** – Қазақ тілінің есімшелі құрылымдарының теориялық негізі мен грамматикалық талдауы

5. Қуралайды Қ. *Қазіргі қазақ тіліндегі көсемшені оқыту жолдары*. – Халықаралық ғылыми журнал мақаласы (Qazaq Journal of Young Scientist); көсемше категориясының теориялық сипаттамасы мен оқыту әдістемесі туралы зерттеу

Өзбек тіліндегі participle жүйесі

6. **O'g'iloy Turdiyevna Xolmurodova.** ***The Use of Participles in Conjunctions and Expressions in Uzbek Language*.** – Zenodo публиукациясы. Өзбек тіліндегі participle формалардың синтаксистік және семантикалық қызметін қарастырады

7. **O‘zMU Habarlar**: – Өзбек тіліндегі participial/non-finite формалардың аспекуляр мағыналары туралы ғылыми мақала (German + Uzbek тілдерінің салыстырмалы перспективалары), оларда participle ұғымы талданып, сопоставленген

UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Sattorova Gulmira Asqarjon qizi,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti,
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanganligi ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida strategik boshqaruv, taym-menejment, raqamli texnologiyalar, pedagogik jamoani boshqarish hamda kasbiy rivojlanish tizimi kabi omillar o‘rganildi. Natijalar ushbu omillarning boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi hamda ularni kompleks qo‘llash yuqori natijadorlikka olib kelishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv ko‘nikmalari, ta'lim menejmenti, maktab rahbari, strategik boshqaruv, taym-menejment, samaradorlik, kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на развитие управленческих навыков руководителей общеобразовательных школ, а также их эффективность. В современной системе образования развитость управленческих компетенций является важным условием повышения качества образования. В ходе исследования были изучены такие факторы, как стратегическое управление, тайм-менеджмент, цифровые технологии, управление педагогическим коллективом и система профессионального развития. Результаты подтверждают, что данные факторы оказывают непосредственное влияние на эффективность управления и их комплексное применение обеспечивает высокую результативность.*

Ключевые слова: *управленческие навыки, образовательный менеджмент, руководитель школы, стратегическое управление, тайм-менеджмент, эффективность, компетенции.*

Annotation. *This article analyzes the main factors influencing the development of management skills of general secondary school leaders and their effectiveness. In modern education systems, well-developed managerial competencies are a key condition for improving educational quality. The study examines factors such as strategic management, time management, digital technologies, team leadership, and professional*

development systems. The results confirm that these factors have a direct impact on management effectiveness, and their integrated application leads to higher performance outcomes.

***Keywords**: management skills, educational management, school leadership, strategic management, time management, effectiveness, competencies.*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sifati, o'quv jarayonining samaradorligi va pedagogik jamoaning faoliyati ko'p jihatdan rahbarning boshqaruv ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, bu holat boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishni zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi. Ayniqsa, globallashuv, raqamli transformatsiya va ta'lim tizimida yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar maktab rahbarlaridan yangicha fikrlash, strategik yondashuv va innovatsion boshqaruv usullarini qo'llashni talab etmoqda. Shu sababli boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish omillarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Boshqaruv ko'nikmalari — bu rahbarning tashkilotni samarali boshqarish, maqsadlarni belgilash va ularga erishish, resurslarni optimal taqsimlash, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifatlar tizimidir. Zamonaviy ta'lim menejmentida ushbu ko'nikmalar strategik boshqaruv, kommunikativ kompetensiya, liderlik, analitik fikrlash va innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, barcha rahbarlarda ushbu ko'nikmalar bir xil darajada shakllanmagan bo'lib, bu esa boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi omillarni tizimli ravishda o'rganish va ularning samaradorligini aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar kompleks tarzda qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali boshqaruv ko'nikmalari, ta'lim menejmenti, liderlik nazariyalari va kompetensiyaviy yondashuvlarga oid ilmiy qarashlar o'rganildi va umumlashtirildi. Tahlil va sintez metodlari yordamida boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi omillar tizimlashtirildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi.

Pedagogik kuzatuv metodi orqali umumta'lim maktablarida rahbarlarning boshqaruv faoliyati, qaror qabul qilish jarayoni, jamoa bilan ishlash uslublari hamda boshqaruv jarayonining tashkil etilish darajasi o'rganildi. So'rovnoma metodi yordamida maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi muammolari, ehtiyojlari va rivojlanish istiqbollari aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil asosida turli boshqaruv yondashuvlarining samaradorligi baholanib, eng samarali omillar ajratib olindi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida rahbarlarning faoliyatini baholashda natijadorlik ko'rsatkichlari, jumladan, ta'lim sifati, pedagogik jamoa faoliyati samaradorligi va boshqaruv qarorlarining natijaliligi ham hisobga olindi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish bir qator asosiy omillarga bog'liqligini ko'rsatdi. Birinchi navbatda, strategik boshqaruv muhim omil sifatida ajratildi, chunki u rahbarlarga uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va boshqaruv jarayonini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Strategik fikrlashga ega rahbarlar ta'lim muassasasining istiqbolini aniq ko'ra oladi va samarali qarorlar qabul qiladi.

Ikkinchi muhim omil sifatida taym-menejment qayd etildi. Vaqtni to'g'ri boshqarish rahbarning ish unumdorligini oshiradi, ortiqcha yuklamalarni kamaytiradi va boshqaruv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Uchinchi omil sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish ajratildi, chunki zamonaviy boshqaruv tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi.

To'rtinchi omil pedagogik jamoani boshqarish bilan bog'liq bo'lib, u jamoa a'zolari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, motivatsiyani oshirish va professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Beshinchi omil sifatida rahbarlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ajratildi, ya'ni treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi omillar kompleks tarzda qo'llanilganda boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni ko'p omilli tizim bo'lib, ularning har biri boshqaruv samaradorligiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, strategik boshqaruv va taym-menejmentning uyg'unligi rahbarning faoliyatini tizimli va natijador qiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa boshqaruv jarayonini tezkor va shaffof qilish imkonini beradi.

Pedagogik jamoani samarali boshqarish rahbarning liderlik va kommunikativ kompetensiyalariga bog'liq bo'lib, bu omil ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, rahbarlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu sababli boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda kompleks yondashuvni qo'llash va barcha omillarni uyg'un holda rivojlantirish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi asosiy omillar sifatida strategik boshqaruv, taym-menejment, raqamli texnologiyalar, pedagogik jamoani boshqarish va kasbiy rivojlanish tizimini ajratib ko'rsatdi. Ushbu omillarning kompleks qo'llanilishi boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda rahbarlarning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badalova S., Haqberdiev T. Ta'lim menejmentining nazariy asoslari. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2022.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

3. To‘xtaxodjaeva M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va innovatsiyalar. – Toshkent, 2019.
5. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
6. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – London: Sage Publications, 2011.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Shavkatova Shahrizoda Shavkatovna,
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mustaqil so‘z turkumlari ot, sifat, son, fe’l, olmosh va ravishni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari ilmiy-metodik jihatdan keng yoritilgan. Tadqiqotda so‘z turkumlarini o‘rgatishning lingvistik asoslari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar, mashqlar tizimini izchil va yaxlit tashkil etish yo‘llari tahlil qilingan. Maqola O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari va amaldagi ona tili o‘quv dasturlariga tayangan holda yozilgan bo‘lib, unda ilgari surilgan xulosalar boshlang‘ich ta’lim amaliyotida samarali qo‘llanishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, mustaqil so‘z turkumlari, ot, sifat, fe’l, olmosh, ravish, ona tili metodikasi, grammatik kompetensiya.*

Аннотация. *В статье всесторонне рассматриваются научно-методические основы совершенствования методики обучения самостоятельным частям речи — существительным, прилагательным, числительным, местоимениям, глаголам и наречиям — в начальных классах. Проанализированы лингвистические основы изучения частей речи, методические подходы с учётом возрастных и психологических особенностей младших школьников, а также система упражнений, обеспечивающая целостное формирование грамматической компетенции. Исследование основано на действующих государственных образовательных стандартах и учебных программах по родному языку.*

Ключевые слова: *начальное образование, самостоятельные части речи, существительное, прилагательное, глагол, местоимение, наречие, методика родного языка, грамматическая компетенция.*

Abstract. *The article comprehensively analyzes the scientific and methodological foundations for improving the teaching methodology of independent parts of speech nouns, adjectives, numerals, pronouns, verbs, and adverbs — in primary education. The study examines linguistic principles, methodological approaches adapted to the age and psychological characteristics of primary school students, and a coherent system of exercises aimed at developing grammatical competence. The research is based on current state educational standards and mother tongue curricula, and the findings can be effectively applied in primary school teaching practice.*

Keywords: *primary education, independent parts of speech, noun, adjective, verb, pronoun, adverb, mother tongue teaching methodology, grammatical competence.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning intellektual, nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Aynan shu davrda o‘quvchilarda til birliklari haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar shakllanadi, nutqiy faoliyatning poydevori yaratiladi.

Ona tili fanini o‘qitish jarayonida so‘z turkumlarini o‘rganish esa o‘quvchilarning grammatik savodxonligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish – o‘quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish va grammatik tafakkurini mustahkamlashning muhim omili bo‘lib, ularning nutqini aniq, izchil va ravon ifodalashiga xizmat qiladi. Mustaqil so‘z turkumlari lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, gap tarkibida mustaqil sintaktik vazifani bajarishi bilan yordamchi so‘zlardan farqlanadi. O‘zbek tilida ot, sifat, son, fe’l, olmosh va ravish mustaqil so‘z turkumlari sifatida e’tirof etiladi [1]. Ushbu so‘z turkumlarini boshlang‘ich sinflarda o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilishi lozim. Grammatik tushunchalarni o‘rgatish pedagogik nazariyalar asosida tizimli olib borilishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga grammatikani to‘g‘ri o‘rgatish tilning tuzilish jihatlarini tushuntirish bilan bir qatorda nutqni ongli shakllantirishga ham xizmat qiladi, ya’ni grammatika tilni tizimli tushunishga yordam beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda grammatika darslarini pedagogik kontekstga moslashtirish – o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, so‘z turkumlarini o‘rgatishda ayrim hollarda fragmentarlik, mavzularning uzviy bog‘lanmasligi va metodik yondashuvning yetarlicha asoslanmaganligi kuzatiladi.

So‘z turkumlarini o‘rgatishda ko‘rgazmali va faol o‘rganish metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga predmetlar, rasmlar va real hayotiy vaziyatlar orqali grammatika qoidalarini topish va mustaqil qo‘llash imkonini berish samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish metodikasi, avvalo, tilshunoslik fanining ilmiy yutuqlariga tayanishi zarur. So‘z turkumlari semantik, morfologik va sintaktik belgilar asosida farqlanadi [2]. Biroq boshlang‘ich ta’lim bosqichida mazkur belgilar o‘quvchilarga soddalashtirilgan, amaliy misollar orqali tushuntiriladi. Bu yondashuv bolalarning abstrakt tafakkuri hali to‘liq shakllanmaganligini hisobga olgan holda pedagogik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda grammatika ko‘nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlar va turli usullar kombinatsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, induktiv yondashuv orqali o‘quvchilarga qoidalarni mustaqil kashf etish imkoniyati beriladi, bu esa mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Klassik qoidalarni tushuntirishdan tashqari, darslarda vizual tashkilotchilar, grafiklar, o‘yinlar va kontekstual mashqlarni tatbiq etish darsni qiziqarli qiladi hamda o‘quvchilarning diqqatini oshiradi.

Ot so‘z turkumi boshlang‘ich sinflarda birinchi bo‘lib o‘rganiladi. O‘quvchilar predmet va hodisalarni nomlash orqali otning asosiy semantik belgisini amaliy ravishda anglaydilar. Dastlab “Bu nima?” so‘rog‘i asosida otlar aniqlanadi, keyinchalik esa ularning birlik va ko‘plik shakllari, nutqdagi vazifasi tushuntiriladi. Bu jarayonda real buyumlar, rasmlar va atrof-muhit bilan bog‘liq materiallardan foydalanish metodik jihatdan samarali hisoblanadi [3].

Sifat va son so‘z turkumlarini o‘rgatishda ularning ot bilan uzviy bog‘liqligi asosiy metodik tayanch sifatida olinadi. Predmetlarning belgi va miqdorini ifodalovchi so‘zlar matn va rasmlar asosida tahlil qilinadi. O‘quvchilarning kuzatish va taqqoslash faoliyati faollashtiriladi. Bu jarayon grammatik tushunchalarning ongli o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ko‘pincha yetarli darajada chuqur yoritilmaydigan, ammo muhim mustaqil so‘z turkumlaridan biri — olmoshdir. Olmoshlarni o‘rgatishda ularning nutqda takrorni oldini olish, fikrni ixcham va ravon ifodalashdagi o‘rni alohida ta'kidlanadi. O‘quvchilarga matndagi otlarning olmoshlar bilan almashtirilishi orqali nutqiy mashqlar bajarish taklif etiladi. Bu esa ularning nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Fe'l so‘z turkumi harakat va holatni bildiruvchi so‘zlar sifatida o‘rgatiladi. Fe'llarni o‘zlashtirishda harakatli mashqlar, rolli o‘yinlar va hayotiy vaziyatlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Ravish esa fe'l bilan uzviy bog‘liq holda, harakatning belgisi sifatida tushuntiriladi. Fe'l va ravishning o‘zaro munosabatini anglash o‘quvchilarning grammatik tafakkurini rivojlantiradi.

Mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatishda mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Mashqlar izchil va mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilib, reproduktiv topshiriqlardan ijodiy mashqlarga o‘tishni ta'minlashi lozim. Masalan, so‘zlarni aniqlash, guruhlash, gap tuzish va kichik matn yaratish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasi bilan bir qatorda nutqiy faolligini ham rivojlantiradi [5].

Zamonaviy til o‘rgatish metodikasida texnologiyalarni qo‘llash ham dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, masofaviy va interaktiv resurslar yordamida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bolalar yoshida tilni o‘rganishda vizual va audio materiallardan foydalanish til strukturasi va grammatik funksiyalarni aniqroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, metodik yondashuvlar differensial bo‘lishi kerak – har bir o‘quvchining individual o‘rganish uslubi va darajasini hisobga olib topshiriqlar berish lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning grammatika mavzularini mustaqil yondashuv orqali anglab yetishini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, interfaol metodlardan foydalanish mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish samaradorligini oshiradi. Biroq interfaol metodlar dars jarayonida sun'iy bo‘laklarga ajratmasdan, umumiy maqsadga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida qo‘llanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mustaqil so‘z turkumlarini, jumladan, olmoshlarni o‘rgatish ona tili ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonni ilmiy asoslangan, izchil va yaxlit metodik yondashuv asosida tashkil etish o‘quvchilarning grammatik savodxonligi, nutqiy kompetensiyasi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirishda interfaol, kontekstual va integratsiyalashgan metodlarni qo‘llash, shuningdek, nazariy bilimni amaliyot bilan birlashtirib darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu pedagogik yondashuvlar til kompetensiyasini mustahkamlaydi va o‘quvchilarning til bo‘yicha samarali faoliyat ko‘rsatishiga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2019.
2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Karimov B. Ona tili ta'limida olmoshlarni o‘rgatish masalalari. – Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Boshlang‘ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Egamberdiyev Laziz,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya (Abstract). *Ushbu maqola imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayonini o‘rganadi. Tadqiqot psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar asosida olib borilgan. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy tarbiya, maxsus ta'lim, individual yondashuv, interaktiv metodlar, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar.*

Kirish

Axloqiy tarbiya insonning shaxsiyati va jamiyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Axloqiy sifatlar — bu halollik, mehr-shafqat, mas'uliyat, o‘zaro hurmat kabi shaxsiy fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni tarbiyalash esa maxsus yondashuv va metodlarni talab qiladi, chunki ularning psixologik va fiziologik xususiyatlari turlicha bo‘ladi.

So‘nggi yillarda maxsus ta'limda axloqiy tarbiya masalalari keng o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit ta'siri ham alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqotning maqsadi — imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda samarali pedagogik va psixologik metodlarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili

Psixologik yondashuvlar

Jean Piaget va Lawrence Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar axloqiy qarorlarni o‘z tafakkuri va ijtimoiy tajribasiga asoslanib qabul qiladilar.

- **Piaget**: bolalar 6–12 yoshda "konkret operatsiyalar bosqichi"da axloqiy qoidalarni o‘rganadilar. Bu bosqichda o‘quvchilar "qoidalar" va "adolat" tushunchalarini tushunishni boshlaydilar.
- **Kohlberg**: axloqiy rivojlanishni uch bosqichga ajratadi: prekonventsional, konventsional va postkonventsional. Unga ko‘ra, axloqiy qarorlar shaxsiy tajriba va jamiyat qoidalariga bog‘liq ravishda shakllanadi.

Pedagogik yondashuvlar

Maxsus ta'limda axloqiy tarbiyani samarali tashkil qilish uchun quyidagi metodlar ishlatiladi:

1. **Interaktiv mashg‘ulotlar va o‘yinlar**: o‘quvchilar rolli o‘yinlar orqali axloqiy qarorlarni amalda qo‘llashni o‘rganadilar.
2. **Guruh ishlari**: o‘zaro hamkorlikni rivojlantiradi, yordam ko‘rsatish va hurmatni o‘rgatadi.
3. **Individual darslar**: har bir o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojiga moslashgan tarbiya.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

Oila, sinf va jamiyatning birgalikdagi roli o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhimdir. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zaro hurmat, mas'uliyat va hamkorlikni amalda ko‘rsatish orqali tarbiya beradi.

Metodologiya

Tadqiqot quyidagi usullar orqali olib borildi:

1. **Kuzatuv va intervyu:** o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy xulqi baholandi.
2. **Eksperiment:** maxsus pedagogik metodlar sinovdan o‘tkazildi.
3. **Statistik tahlil:** olingan natijalar deskriptiv va analitik usullar bilan tahlil qilindi.

Ishtirokchilar: 10–16 yoshdagi 50 nafar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar.

Davr: 3 oy.

Metodlar:

- O‘yin va interaktiv mashg‘ulotlar
- Guruhdagi hamkorlik vazifalari
- Individual pedagogik reja

Eksperiment va natijalar

1. Individual yondashuv

O‘quvchilarga individual tarzda axloqiy vazifalar berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- 70% o‘quvchi o‘zaro hurmat va yordam ko‘rsatish fazilatlarini rivojlantirdi.

2. Interaktiv metodlar

O‘yin va rolli mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilar:

- Halollik (65%)
- Mehr-shafqat (60%)
- Mas’uliyat (55%) kabi sifatlarni kuchaytirdi.

3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

Oila va maktabning faol ishtiroki:

- Shaxsiy axloqiy fazilatlarni mustahkamlashga yordam berdi
- O‘quvchilarda jamiyatga integratsiya hissini kuchaytirdi

Jadval 1. Axloqiy sifatlarning rivojlanishi (%)

Sifat	Boshlanish (%)	3 oydan keyin (%)
Halollik	40	65
Mehr-shafqat	35	60
Mas’uliyat	30	55
Hamkorlik	45	70

Muhokama

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv, interaktiv metodlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash birgalikda axloqiy sifatlarni samarali shakllantiradi.

- Individual yondashuv har bir o‘quvchining imkoniyati va psixologik xususiyatini hisobga oladi.
- Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilar amaliy vaziyatlarda axloqiy qarorlarni o‘rganadi.
- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash esa ularning o‘zini jamiyatda qadrlash hissini kuchaytiradi.

Bu natijalar Piaget va Kohlberg nazariyalari bilan hamohangdir.

Xulosa va tavsiyalar

1. **Individual yondashuv:** har bir o‘quvchining imkoniyati va xususiyatiga moslashtirilgan tarbiya.
2. **Interaktiv metodlar:** o‘yin, guruh ishlari, rolli mashg‘ulotlar.
3. **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash:** oila, sinf va jamiyatning faol ishtiroki.

Tavsiyalar:

- Maxsus ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya rejalari shaxsiylashtirilishi lozim
- O'qituvchilar uchun axloqiy tarbiya metodlari bo'yicha treninglar tashkil etilishi zarur
- Oila va sinf jamoasi bilan hamkorlikni kuchaytirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1972). *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books.
2. Kohlberg, L. (1981). *Essays on Moral Development*. San Francisco: Harper & Row.
3. Shokirova, G. (2018). *Maxsus pedagogika: nazariya va amaliyot*. Toshkent.
4. Karimov, S. (2020). *Axloqiy tarbiya metodlari*. Toshkent.
5. Rakhimov, A. (2019). *Maxsus ta'limda interaktiv metodlar*. Toshkent.

O'QUVCHI (YOKI TALABA)LARNING QOBILIYATLARINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI VA MEZONLARI

Ibragimova Layli Elyar qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda o'quvchi va talabalarning qobiliyatlarini aniqlashda qo'llaniladigan pedagogik va psixologik diagnostika usullari hamda baholash mezonlari tahlil qilinadi. Qobiliyatlarni aniqlash jarayonida kuzatuv, test, so'rovnoma, suhbat, ijodiy topshiriqlar va loyiha faoliyati kabi metodlarning samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, diagnostika jarayonida obyektivlik, tizimlilik va individual yondashuv tamoyillariga amal qilish zarurligi yoritiladi. Zamonaviy ta'lim muhitida qobiliyatlarni erta aniqlash va rivojlantirish shaxsning intellektual hamda ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *qobiliyat diagnostikasi, pedagogik diagnostika, baholash mezonlari, kuzatuv metodi, test sinovi, individual yondashuv, ijodiy topshiriq, kompetensiya, monitoring.*

Ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarning qobiliyatlarini erta aniqlash — samarali ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Qobiliyat diagnozi nafaqat bilimni baholash balki shaxsning ijodiy, intellektual va kommunikativ salohiyatini aniqlashga ham xizmat qiladi. Shuning uchun pedagoglar, psixologlar va metodistlar diagnostika usullarini chuqur bilishi va obektiv baholash mezonlarini to'g'ri qo'llay olishni bilishlari talab etiladi.

Qobiliyat — bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga yo'naltirilgan individual psixologik xususiyatlar tizimi hisoblanib, odamning intellektual salohiyati, ijodkorlik darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati, kommunikativ ko'nikmalari orqali namoyon bo'ladi. Qobiliyatlarni erta aniqlash shaxs rivojlanishini rag'batlantirish, individual o'quv yo'nalishlarini belgilash va kasbga yo'naltirish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Diognostika- bu shaxsning, o'quvchining yoki talabning qobiliyatlari, bilim, ko'nikma, salohiyati va rivojlanish darajasini aniqlash, baholash va tahlil qilish jarayonidir. Ta'lim muhitida o'quvchi (talaba) larning qobiliyatlarini aniqlashda qo'llaniladigan asosiy diagnostika usullarini qo'llash mumkin:

1. Kuzatuv metodi: bunda pedagog o'quv jarayoni davomida talabalar faoliyatini bevosita kuzatib boradi va kuzatuv orqali talabalarni baholaydi. Kuzatuv orqali talabalar intellektual faoliyat, ijodkorlik, munozara va muloqot ko'nikmalari baholanadi.

2. Test sinovlari: Testlar — qobiliyatlarni miqdoriy baholashga imkon beruvchi asosiy vositalardan biridir. Testlar aniq mezonlarga asoslangan holda talabaning bilim, mantiqiy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini aniqlashda yordam beradi.

3. So‘rovnoma: So‘rovnomalar orqali talabalar qiziqishlari, motivatsiyasi va shaxsiy qiziqish yo‘nalishlari haqida axborot yig‘iladi. Bu metod shaxsning o‘zini baholashiga ham yordam berishda qo‘llaniladi.

4. Suhbat: Shaxs bilan individual suhbat o‘tkaziladi. Suhbat o‘tkazish orqali uning qobiliyatlari, kasbga yo‘naltirilishi, shaxsiy maqsad va qiziqishlari aniqlanadi.

5. Ijodiy topshiriqlar va loyiha ishlari: Talabalarga berilgan ijodiy topshiriqlar va loyiha ishlari ijodkorlik, muammoli vaziyatlarda fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Oddiy qilib aytganda, **diagnostika qilish** – “kim nima qila olishini, qayerda kuchli va qayerda zaifligini aniqlash” degan ma’noni anglatadi. Ta’lim sohasida bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ma’lumot yig‘ish – bunda testlar, kuzatuv, suhbat yoki loyihaviy ishlar orqali talabaning qobiliyatlari haqida axborot olinadi.

Baholash – bunda olingan ma’lumotni mezonlar asosida baholanadi. Baholash jarayonida “yuqori / o‘rta / past” yoki ballar bilan baholash mumkin.

Tahlil qilish – bunda natijalarni tahlil qilib, qobiliyatlarning qaysi sohalarda rivojlanganligi aniqlanadi.

1. **Xulosa chiqarish va tavsiya berish** – shaxsni rivojlantirish, individual yo‘nalishlarni belgilash, qo‘shimcha yordam berish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ta’limda diagnostika qilish **talabalar salohiyatini rivojlantirish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish**ning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalar qobiliyatlarini diagnostika qilishda baholash mezonlaridan ham foydalaniladi. Diognostika qilish jarayonida quyidagicha baholash mezonlaridan foydalanish mumkin:

1.Ob’ektivlik: bunda mezonlar qat’iy, aniq va barcha talabalar uchun bir xil bo‘lishi kerak bo‘ladi.

2. Tizimlilik: bunda baholash yagona tizimga asoslangan bo‘lib, qobiliyatlar darajasi bosqichma-bosqich aniqlanib boriladi (past, o‘rta, yuqori).

3. Komplekslik: bunda qobiliyatlar faqat bitta ko‘rsatkich orqali emas, balki bir nechta indikatorlar orqali baholanadi. Masalan: bilim, amaliy ko‘nikma, ijodkorlik, kommunikativ qobiliyat.

4. Moslik: bunda baholash mezonlari o‘quv dasturi va pedagogik maqsadlar bilan mos bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Ta’lim muhida o‘quvchi (talaba) ning qobiliyatlarini diognostika qilish jarayonida diognostika qilish jarayonini quyidagi bosqichlarda o‘tkazish lozim:

1. Rejalashtirish: Ma’lumot yig‘ish maqsadi va vositalari aniqlanadi.

2. Ma’lumot yig‘ish: Testlar, kuzatuv va suhbat orqali axborot to‘planadi.

3. Tahlil: Topilgan natijalar asosida qobiliyatlar tahlil qilinadi.

4. Qaror qabul qilish: Talabaga mos individual yo‘nalish yoki qo‘shimcha yordam belgilanadi.

Hozirgi kunda raqamli vositalar, onlayn test tizimlari va adaptiv diagnostika tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ular nafaqat tezkor natija beribgina qolmasdan, alabaning o‘z-o‘zini baholashiga ham imkon yaratadi.

O‘quvchi (yoki talaba) larning qobiliyatlarini diagnostika qilish usullari va mezonlarini aniqlash maqsadida tajriba tashkil etildi. Tajribani tashkil etishda o‘quvchi (t**alaba) larni qobiliyatlarini aniqlash va ularni baholash mezonlarini sinovdan o‘tkazish maqsad qilib olindi.** Tajribani o‘tkazish orqali qobiliyatlarning namoyon bo‘lish darajasi aniqlash, pedagogik yondashuvlar va diagnostika vositalarining samaradorligi baholash va individual, guruh salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish kabi jarayonlar amalga oshirildi. Tajriba sinovini o‘tkazish jarayoni uchun 18 -22 yoshdagi 30 nafar talaba saylanib olindi.

Tajriba davomida k**uzatuv metodi, test sinovi, suhbat va ijodiy topshiriqlardan foydalanildi. Tajriba davomida o‘quvchi (talaba) lar yuqori, o‘rta va past dajarali ko‘rsatgichlarga ajratildi. Olingan natijalarga asoslanib, i**ntellektual va ijodiy qobiliyatlar yuqori va o‘rta darajada namoyon bo‘lgan, bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, talabalar asosiy bilimlarni yaxshi o‘zlashtirganlar. Kommunikativ qobiliyat o‘rta darajada ko‘roq namoyon bo‘lgan, shuning uchun guruh ishlarini kuchaytirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Mustaqil ishlash va tashkiliy qobiliyat esa past darajada ko‘rinmoqda, bu esa pedagoglar tomonidan qo‘shimcha treninglar va loyihaviy faoliyatni joriy etishni talab qiladi.

Shu tariqa, xulosa qiladigan bo‘lsak o‘quvchi yoki talabaning qobiliyatlarini diagnostika qilish o‘quv jarayonini individual yo‘naltirishning ajralmas qismidir. Pedagogik, psixologik va axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida qobiliyatlarni aniqlash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagoglar diagnostika usullarini chuqur bilishi va baholash mezonlarini to‘g‘ri qo‘llashi muhimdir. Ta'lim muhiti va pedagogik yondashuv qobiliyatlarni rivojlantirishga katta ta'sir ko‘rsatadi. Mustaqil ishlash va tashkiliy qobiliyatni rivojlantirish uchun loyihaviy ishlarga ko‘proq vaqt ajratish lozim, Diagnostika usullari kombinatsiya qilish– testlar, kuzatuv, suhbat va ijodiy topshiriqlar samarali bo‘ladi. Natijalar asosida individual o‘quv yo‘nalishlari ishlab chiqilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergash G‘oziyev. **Umumiy psixologiya**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Vazira Karimova. **Pedagogik psixologiya**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
3. B.X. Xodjayev. **Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti**. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
4. N.A. Muslimov. **Pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. M. Ochilov. **Pedagogika**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Qo‘ldasheva Dilnoza Muxitdinovna,
Xatirchi tuman 39-umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ta‘lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta'sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya'ni birinchidan axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an'anaviy muloqotlar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy uslublar,innovatsion ,shaxs,texnologiya,ta'lim.*

Abstract. *In this article, in order to organize the educational process using innovative methods, first of all, it is necessary to clearly develop a lesson plan and project. Using modern information technologies in the educational process, we must be able to approach them through positive ways of influence, that is, first of all, the innovations that can occur on the basis of information and communication technologies have been revealed in traditional communication.*

Keywords: *modern methods, innovative, individual, technology, education*

Аннотация. *В данной статье для организации образовательного процесса с использованием инновационных методов, прежде всего, необходимо четко разработать план урока и проект. Используя современные информационные технологии в образовательном процессе, мы должны уметь подходить к ним позитивными способами воздействия, то есть, прежде всего, рассматривать инновации, которые могут возникнуть на основе информационно-коммуникационных технологий, как это было показано в традиционной коммуникации.*

Ключевые слова: современные методы, инновационные, индивидуальные, технологии, образование.

Bugungi kunda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta’lim tizimida zamonaviy texnologiya qo‘llanilgan mashg‘ulotlar egallanayotgan bilimlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib, ularni tahlil qilishlari, o‘z bilimlarini baholashlari, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. Ta’lim muassasasi o‘sib kelayotgan shaxsni o‘qitish jarayonida ularga ta’lim olish sharoitlarini yaratadi.O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo‘naltirilgan bo‘lishi o‘qituvchi ma’suliyatini yanada oshiradi.

O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinfdoshlari bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchi asosiy ishtirokchiga aylanadi. Pedagog-olimlarning ko‘p yillar davomida ta’lim tizimini yanada samaraliligi va natijaliligini oshirishga doir olib borgan ishlari zamirida o‘sib kelayotgan kelajak vorislari hisoblanmish yosh avlodni yanada komil insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Ya’ni har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun o‘qituvchi bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak Ta‘lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni birinchidan axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida olib boriladi. Dars jarayonida texnika bilan shaxs, shaxs va shaxs o‘rtasidagi muloqotni muvofiqlashtirib olib borish maqsadga muvofiq.

Ta’lim beruvchilar innovatsion texnologilardan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamda refleksiv ta’sirni unutmasligi kerak. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o‘zgarishlariga olib boradi hamda ta’lim olish usullarining o‘zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta’sir

ko‘rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganda, o‘quvchilarning faolligi ortadi va ta'lim jarayoni individuallashadi, turli ma'lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsini rivojlantiradi. Ularda mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka, mobillikka rag‘batlanish paydo bo‘ladi. Ammo, shuning bilan bir qatorda salbiy ta'sirlar ham yuzaga kelishi mumkin. Ya'ni, intensive intellektual va ijodiy rivojlanish o‘quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlay olmaydi.

O‘quv faoliyati jarayonida dars maqsadining aniqligi, mantiqiyligi, ketma-ketliligi hamda o‘quvchilarning refleksivligiga e'tibor qaratish lozim. Bu birinchidan, o‘quvchining ruhiy muloqotiniamalga oshirish uchun muhim bo‘lsa, ikkinchidan, teskari aloqani kuchaytirishga asos bo‘ladi va ta'lim jarayoni uchun mo‘ljallangan dasturiy va texnik vositalarning "insonlashuvi" kuzatiladi. Bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘quvchilarga ta'siri ortib, u chegaralangan doiradagi ruhiy ta'sirlardan tortib, to shaxsni to‘la o‘zgartirishgacha (internetga bog‘lanib qolish, xakerlik sindromi) olib keladigan jarayondan saqlashi mumkin.

Psixolog olimlar bugungi kunda innovatsion texnologiyalarning ruhiyatga ta'sir ko‘rsatishi va undan oqilona foydalanish e'tiborga molik masala ekanligini uqtiradilar. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sharq donishmandlari "qayerga ketayotganingni bilish uchun qayerdan kelayotganingni aniqlash lozim"-deb hikmatli so‘zlaridan hamda yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib o‘quv muhiti dasturini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali loyihalayotgan vaqtda o‘quvchilarni ongli fikrlashi va o‘zaro ta'sir holatiga ham alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanganda auditoriyada mebellarni joylashtirish, adabiyot tanlash, tajriba, kerakli resurslar, o‘quvchilar hissiyotlariga ta'sir etish va ularni motivatsiyalash kabi o‘quv muhiti usullaridan oqilona foydalana olish ham shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi tashkil etgan va slaydda tayyorlangan manbalar asosidagi ijodiy muhit uchun berilgan topshiriqlarni bajarish davomida guruhlarga bo‘lingan holda muammolarning yechimini topsalar o‘quvchilarda quyidagi sifatlar hosil bo‘lishiga sharoit yaratiladi: motivatsion hatti-harakatni belgilovchi xohish-istak va ehtiyojlar, motivatsiya (tashqi va ichki omillardan tashkil topadi), his-tuyg‘ular (insonga ta'sir qiluvchi omillarni baholash, reaksiya qilish) bilan bog‘liq holat kichadi, shuningdek, ta'lim jarayonida quvonch, hayratlanish, muhabbat, havas qilish, ayrim hollarda uyalish, nafratlanish, hadiksirash kabi tuyg‘ular shaxs shakllanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz pedagoglar zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar shaxsini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Repyova. *Matematika.* Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008

ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA SIRDARYO VILOYATI SHAHARLARINING TASHKIL ETILISHI (Perovskiy va Kazalinsk shaharlari misolida).

Zoyirov E. I.,
NavDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Sirdaryo viloyatining tashkil etilishi, shuningdek, markazi Perovskiy (Oqmaschid) va Kazalinsk (Qazalli) shaharlari bo‘lgan uyezd shaharlarining tashkil topishi, undagi ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar mavjud manbalarning tahlili asosida atroflicha yoritilgan.

Tayanch iboralar: General gubernatorlik, Dasht general-gubernatorligi, uyezd, V.P.Perovskiy, kazarma, Ural kazaklari, Perovskiy uyezdi, Kazalinsk, staroobrayadchilar, raskolniklar, lyuteranlar, katoliklar, ofitserlar fligelyasi, Aleksandrovsk posyolkasi.

Rossiya imperiyasi ma'muriyati tomonidan 1867 yil 11 iyulda Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari tashkil etiladi. Sirdaryo viloyati Orenburg general gubernatorligidan ajratib olingan holda tashkil topib, hozirgi Qozog‘iston Respublikasining janubiy va janubiy sharqiy xududlari, hozirgi Toshkent va Sirdaryo bo‘ylarida tashkil topdi. Viloyat shimoldan markazi Semipalatinsk bo‘lgan Dasht general-gubernatorligi, shimoliy sharqdan Yettisuv viloyati, janubiy-sharqdan Farg‘ona viloyati, janubdan Samarqand viloyati, janubiy g‘arbdan Buxoro amirligi yerlari, shimoliy-g‘arbdan Xiva xonligi yerlari bilan chegaralangan. Markazi Toshkent shahri bo‘lgan Sirdaryo viloyati Sirdaryonig o‘rta va quyi oqimlari bo‘ylab joylashgan bo‘lib, asosan keng dasht va sahro hududlaridan iborat bo‘lgan. Sirdaryo viloyati ontinental quruq iqlim mintaqasiga kiradi. Viloyat 5 ta uyezd, 6 ta uyezd shahri ma'muriy birligidan iborat bo‘lgan[1].

1853-yilda yozida Orenburg general-gubernatori V.P.Perovskiy tomonidan Oqmachit qal'asining olinishi natijasida bu yerda dastlab kichik himoyalangan istehqom barpo etiladi va harbiylar joylashtiriladi. 1867 yilga kelib Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi hamda uning negizida Sirdaryo viloyati tarkibidagi Perovskiy uyezdi va Perovskiy shahrining tashkil etilishi natijasida rus aholi soni keskin osha boshlaydi. 1868 yilda Perovskiy uyezdida ma'muriy-boshqaruv binolari, xususiy uy-joylar, harbiy kazarmalar, rus amaldorlari va savdogarlarining ko‘chmas mulklari, 343 savdo nuqtasi bor bozor mavjud edi[2]. Bu bozorlarda Buxoro va rus yaxudiylari, toshkentliklar, tatarlar, afg‘onlar savdo-sotiq bilan shug‘ullanar edi. Bundan ko‘rinadiki, Sirdaryo viloyatining boshqa uyezdlariga qaraganda Perovskiy uyezdida aholi soni birmuncha ko‘pchilikni tashkil etgan. 1875 yillarga kelib aholi soni Ural kazaklari hisobiga kengayib boradi. Ular asosan, baliqchilik, chorvachilik va harbiy sohalarda faoliyat yuritgan edi. 1891-1892 yillarga kelib ocharchilik natijasida Rossiya imperiyasi janubiy-g‘arbiy hududlaridan katta hajmdagi aholi Turkiston o‘lkasiga ko‘chib o‘tadi va shunda Perovskiy uyezdi aholisi ham Turkistonning boshqa viloyat va uyezdlariga ko‘chib o‘tish jarayoni yuz beradi[2]. Bizningcha, Perovkiy uyezdi aholisi ham xosilsizlik yillaridan qiynalgan ko‘rinadi. 1897 yilgi olingan umumrossiya aholi ruyxatiga ko‘ra, uyezd aholisi 5058 nafar, jumladan, 3122 nafar erkaklar, 1936 nafar ayollarni tashkil etgan. Bunda 742 nafar rus millati vakillari, 434 nafar tatarlar, 2253 nafar qirg‘izlar, 6 nafar qoraqalpoq, 1384 nafar sartlar, qolgan aholini staroobrayadchilar, raskolniklar, lyuteranlar, katoliklar tashkil etgan[2].

Rossiya imperiyasi tomonidan 1853 yil 20 iyunda Qo‘qon xonligidan olingan Sirdaryo bo‘yidagi Qazalli qishlog‘i o‘rnida V.A.Perovskiy topshirig‘i asosida va injener, general mayor A.Bogdanov loyihasiga ko‘ra 1-sonli fort (qal’a) Kazalinsk barpo etish boshlanadi[2]. Shu yilning kuz oyigacha ikkita ko‘p xonali uy va kazarmalar tashkil etiladi va himoya maqsadida 50 nafar kazaklar hamda qal’a qurilishini davom ettirish uchun 300 nafar boshqird ishchilari joylashtiriladi. 1855 yilga kelib, imperiya ma’muriyati va Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy buyrug‘iga ko‘ra, bu yerga rus harbiylarini joylashtirish, boshqaruv, moliya, ta’minot, kommunikatsiya tizimlari barpo etildi. 1858 yilga kelib ushbu harbiy qal’ada 600 nafar piyoda ko‘shin, 300 nafar harbiy kazaklar, 85 nafar artileriyachi hamda, 200 nafar orol flotiliyasi ishchilari istiqomat qilardi. Qal’ada kazarma, ofitserlar fligelyasi, kichik gospital, dukon, ko‘chib kelganlar uylari va kichik unvondagi oilali zobitlar uylari joylashgan edi. Uylar fundamentsiz, xom g‘ishdan barpo etilib, usti yog‘och bilan yopilib, tom qismiga qamish bosilgan. Ushbu birinchi fortda (Kazalinsk) 1858 – 1859 yillarda 28 rus oilasi, 1861 yil yanvar xolatiga ko‘ra, 47 oila, 340 nafar (187 nafar erkak, 153 nafar ayollar) istiqomat qilardi[3]. Ushbu birinchi raqamli fort Sirdaryo viloyati Kazalinsk uyezdi nomi bilan almashtiriladi va uning negizida Kazalinsk shahri tashkil etiladi. Bunda uyezd boshlig‘iga juda katta vakolatlar beriladi.

1867 yildagi Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom loyihasining 52 bandida uyezd boshlig‘i vakolatiga boshqaruv, politsiya, ma’muriy ishlar bilan birgalikda rusiyzabon aholi va istefodagi harbiylarni qabul qilish vakolatlari ham beriladi. 1868 yillarga kelib Kazalinsk uyezdida nisbatan tatarlar soni osha boshlaydi. Tatarlarning savdo-sotiq, maishiy xizmat sohalarida ulushi orta boshlaydi. Kazalinsk qal’asida 1875-1880 yillarda harbiy xizmatdan bo‘shagan kazaklar soni 1000 nafardan kam emas edi. Ular Kazalinsk shahrida xonadon va kazarmalarda istiqomat qilar edi[4]. Dastlab bu qal’a shaharga harbiylar joylashgan bo‘lsa, 1860 yillardan boshlab dastlabki rus dehqon oilalari ushbu fortga ko‘chib kelib joylasha boshlaydilar. Bunda ular Aleksandrovsk posyolkasini tashkil etadi. Ular bu yerda asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasi bosib olinishining dastlabki yillarida dastlab Sirdaryoning quyi qismidagi Perovskiy (Oqmaschid qal’asi) va Kazalinsk (Qazalli qal’asi) qal’alari bosib olinadi va dastlabki harbiy qal’alar tashkil etiladi. Shuningdek, ushbu qal’alarga dastlab harbiylar, so‘ngra rus dehqonlari ham ko‘chirilgan edi. 1867 yildan boshlab esa Sirdaryo viloyati tashkil etilishi barobarida uyezd va uning markazi shahar maqomini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Первая всеобщая перепись населения Российской империя, 1897 г. LXXXIX. Сырдарьинская область.-Сырдарья.-1904.-С.3.
2. Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит. О.А. Порцева -Т.1912 г. С-77.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-17 fond, 1-ro’yxat, 1856-yig‘ma jild, 10- varaq.
4. Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. - СПб., Сенаторская типография. 1910. - С.181-182.

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Egamberdiyev Laziz,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Axloqiy tarbiya insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish maxsus yondashuv va pedagogik metodlarni talab qiladi, chunki ularning psixologik va fiziologik xususiyatlari boshqalarnikidan farq qiladi. Shu sababli, maxsus ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya jarayoni alohida e'tibor va metodik yondashuvni talab etadi.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy tarbiya, maxsus ta'lim, individual yondashuv, interaktiv metodlar, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar.*

Tadqiqotning maqsadi — imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning samarali pedagogik va psixologik usullarini aniqlash, ularni amaliy jihatdan tavsiflash va ta'lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdir.

Tadqiqot psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar asosida olib borildi. Ishtirokchilar 10–16 yoshdagi 50 nafar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bo‘lib, ularning ijtimoiy va axloqiy xulqi 3 oy davomida kuzatildi. Tadqiqotda interaktiv mashg‘ulotlar, guruh ishlari, rolli o‘yinlar va individual pedagogik rejalashtirish metodlari sinovdan o‘tkazildi. Kuzatuv, intervyu va statistik tahlil usullari orqali olingan natijalar batafsil tahlil qilindi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv va interaktiv metodlar o‘quvchilarda halollik, mehr-shafqat, mas'uliyat va hamkorlik kabi axloqiy fazilatlarni sezilarli darajada rivojlantirdi. Shuningdek, oila va sinf jamoasining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi bu jarayonni yanada samarali qildi. Masalan, o‘quvchilarda halollik darajasi 40% dan 65% gacha, mehr-shafqat 35% dan 60% gacha oshdi, mas'uliyat esa 30% dan 55% gacha ko‘tarildi.

Natijalar maxsus ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalarni beradi: pedagoglar har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy mashg‘ulotlarni shaxsiylashtirishlari; interaktiv va o‘yin metodlarini keng qo‘llashlari; oila va sinf jamoasining faol ishtirokini ta'minlashlari zarur. Ushbu tadqiqot imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ilmiy va amaliy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1972). *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books.
2. Kohlberg, L. (1981). *Essays on Moral Development*. San Francisco: Harper & Row.
3. Shokirova, G. (2018). *Maxsus pedagogika: nazariya va amaliyot*. Toshkent.
4. Karimov, S. (2020). *Axloqiy tarbiya metodlari*. Toshkent.

TARBIYA DARSLARIDA ROLLI O‘YINLARNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY VA INNOVATSION USULLARI

Ashurova O‘g‘iloy Shukurullo qizi,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarbiya darslarida rolli o‘yinlarni tashkil etishning zamonaviy va innovatsion usullari yoritiladi. Unda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda hayotiy ko‘nikmalarini*

shakllantirishda rolli o'yinlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada o'qituvchining ijodiy yondashuvi, o'yin jarayonini to'g'ri rejalashtirish va baholash mezonlari ham muhim omil sifatida asoslab berilgan. Natijada, mazkur yondashuvlar o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarini mustahkamlash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *tarbiya darsi, rolli o'yinlar, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, o'quvchi faolligi, ijtimoiy ko'nikmalar.*

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, uning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligi bevosita tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Xalqimizda "Bola boshidan, o'g'lon yoshidan" degan hikmatli naql bejiz aytilmagan, chunki aynan yoshlik davrida berilgan tarbiya insonning kelajakdagi hayot yo'lini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, "Tarbiya" fanining asosiy vazifasi o'quvchilar qalbiga umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'analar va yuksak ma'naviyatni singdirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iboratdir.

Tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: *"Ta'lim – tarbiya bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasidir!","Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur",- degan fikrlarida juda katta ma'no bor. ... har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim ..."* Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy – tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak qilib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

"Tarbiya" darslari o'quvchilarda insof, adolat, halollik, vijdon, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu fan orqali o'quvchilar xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va xalq pedagogikasi bilan yaqindan tanishadi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlarning ongiga turli g'oyalar va axborotlar ta'sir etayotganligi sababli, ularni mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy yondasha oladigan va ongli qaror qabul qiladigan shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirishga, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishga qaratilgan. Shu jihatdan, interfaol metodlar, xususan rolli o'yinlar, alohida ahamiyat kasb etadi. Rolli o'yinlar o'quvchilarga real hayotga yaqin vaziyatlarda ishtirok etish, turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali bilim va ko'nikmalarni amaliy jihatdan mustahkamlash imkonini beradi. Natijada o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki hayotiy tajribasi ham boyiydi.

Rolli o'yinlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash,

murosaga kelish va turli nuqtai nazarlarni hurmat qilishga o‘rganadi. Ayniqsa, “do‘stlik”, “halollik”, “mas’uliyat”, “adolat” kabi mavzularni rolli o‘yinlar orqali o‘rganish o‘quvchilarda chuqurroq tushuncha hosil qiladi va bu bilimlar ularning kundalik hayotida namoyon bo‘la boshlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda empatiya, ijtimoiy moslashuv va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’limda rolli o‘yinlarni tashkil etish an’anaviy usullardan farq qiladi. Endilikda o‘quvchilarga tayyor ssenariy berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil ravishda vaziyatni tahlil qilishga, rollarni taqsimlashga va muammoni hal qilish yo‘llarini izlashga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Muammoli vaziyatlarga asoslangan rolli o‘yinlar ayniqsa samarali bo‘lib, ular o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Keys-stadi usuli asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar esa real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘quvchilarga muammolarni hal qilish tajribasini beradi.

Innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi rolli o‘yinlarni yanada takomillashtirish imkonini bermoqda. Bugungi kunda raqamli platformalar orqali onlayn rolli o‘yinlar tashkil etish, gamifikatsiya elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida sun’iy muhit yaratish kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi.

Shuningdek, storytelling, ya’ni hikoya asosida rolli o‘yinlar tashkil etish ham samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar voqealar rivojini mustaqil ravishda belgilaydi, ssenariy yaratadi va rollarni ijro etadi. Bu jarayon ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, nutq madaniyatini oshiradi hamda jamoada ishlash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Natijada o‘quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi sifatida shakllanadi.

Rolli o‘yinlarni samarali tashkil etish o‘qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab etadi. O‘yin maqsadini aniq belgilash, vaziyat va ssenariyni to‘g‘ri ishlab chiqish, rollarni o‘quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda taqsimlash, vaqtni oqilona rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Eng asosiysi, o‘yin yakunida o‘tkaziladigan muhokama va tahlil jarayoni o‘quvchilarning o‘z faoliyatini baholash, xatolarini anglash va to‘g‘ri xulosa chiqarishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya darslarida rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash esa rolli o‘yinlarning samaradorligini yanada oshiradi. Natijada jamiyat uchun zarur bo‘lgan, ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolarni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Ta’limda innovatsion pedagogic texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari*. – Toshkent, 2010.
3. Quronov M. *Tarbiya nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent, 2008
4. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.edu.uz, www.pedagog.uz

4-SHO'BA: MA'NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'QITILISHIDA INNOVATSION YONDASHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI.

GENDER YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MA'NAVIY MEROSNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Boltayeva Zilola,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviy merosni o'rgatishda gender yondashuvning o'rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan yoritilgan. Ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati asoslab berilib, o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida tenglik tamoyillariga asoslangan yondashuvning zarurligi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *gender yondashuv, ma'naviy meros, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, rivojlantiruvchi o'yinlar, gender tengligi*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omillaridan biri sifatida nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim mazmuni insonparvarlik, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanishi zarur. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois mazkur bosqichda ma'naviy merosni o'rgatishda gender yondashuvdan foydalanish pedagogik jihatdan dolzarb va zaruriy masala sifatida namoyon bo'ladi.

Gender yondashuv pedagogika fanida o'g'il va qiz bolalarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning individual psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-amaliy konsepsiya sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv doirasida ta'lim jarayonida diskriminatsion qarashlarni bartaraf etish, stereotiplarni kamaytirish va inklyuziv muhitni yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich yoshdagi bolalarda gender stereotiplar asosan oilaviy muhit, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi. Shu sababli maktab ta'limi ushbu stereotiplarni to'g'rilash va muvozanatlashtirishda muhim institut sifatida ishtirok etadi.

Ma'naviy meros tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an'analari, og'zaki ijodi va madaniy boyliklarini o'z ichiga oladi. Uni o'quvchilarga yetkazish orqali ularda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ulari shakllantiriladi. Gender yondashuv asosida ma'naviy merosni o'rgatish esa ushbu jarayonni individuallashtirish va differensiallashtirish imkonini beradi. Ya'ni, o'quvchilarning jinsiy farqlariga emas, balki ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga tayangan holda ta'limni tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda ma'naviy merosni o'rgatishning metodik asoslari interfaol va innovatsion yondashuvlarga tayanadi. Xususan, "aqliy hujum", "klaster", "rol o'ynash", "kichik guruhlarda ishlash", "munozara" kabi metodlar o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga,

rivojlantiruvchi o‘yinlar texnologiyasi bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bilimlarni qiziqarli shaklda o‘zlashtirish imkonini beradi. O‘yin jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning teng ishtiroki ta'minlanganda, ularning o‘zaro hamkorlik, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari samarali rivojlanadi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muqobil fikrlarni solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, milliy ertaklar, rivoyatlar va tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali o‘quvchilar nafaqat ma'naviy meros mazmunini chuqur anglaydilar, balki undagi ijtimoiy rollarni, shu jumladan gender rollarini ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning gender tengligi haqidagi tasavvurlarini ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida gender stereotiplarini bartaraf etish pedagogning kasbiy kompetentligiga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar ongida mavjud bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlarni aniqlashi va ularni ilmiy asosda izohlab berishi lozim. Masalan, “kuchlilik” yoki “mehribonlik” kabi sifatlar ma'lum jinsga xos emasligi, balki har bir insonda individual tarzda namoyon bo‘lishi tushuntirilishi zarur. Shu orqali o‘quvchilarda tenglik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan gender tengligini ta'minlashga qaratilgan qonunlar va strategiyalar ta'lim tizimiga ham izchil joriy etilmoqda. Ta'lim muassasalarida gender yondashuvni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, liderlik salohiyati va o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshadi.

Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, boshlang‘ich ta'limda gender yondashuv asosida ma'naviy merosni o‘rgatish o‘quvchilarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish, shaxsning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyatda tenglik va adolat tamoyillarini qaror toptirish mumkin. Natijada esa barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalash uchun mustahkam asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr (O‘RQ-637-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019-yil 2-sentabr (O‘RQ-562-son).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2022-yil.
4. To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019-yil.

YOSHLAR ONGIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ravshanova Orzigul Sayfullayevna,
Navoiy viloyati PMM katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar va interaktiv usullarning samaradorligi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение современных педагогических подходов в формировании национальных и универсальных ценностей в сознании молодежи. Также освещается эффективность инновационных методов, цифровых технологий и интерактивных методов в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *национальные ценности, универсальные ценности, молодежное образование, инновационный подход, педагогические технологии, цифровое образование.*

Annotation. *This article analyzes the role and importance of modern pedagogical approaches in the formation of national and universal values in the minds of young people. It also highlights the effectiveness of innovative methods, digital technologies and interactive methods in the educational process.*

Keywords: *national values, universal values, youth education, innovative approach, pedagogical technologies, digital education.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongini yuksak ma'naviyat asosida shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti bevosita yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi va axloqiy fazilatlariga bog'liqdir. Shu bois milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi bu jarayonda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion metodlardan foydalanishni talab etadi. Chunki bugungi yoshlar axborot texnologiyalari asrida voyaga yetmoqda.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar, madaniyat, tili, dini va ma'naviy merosidir. Ular millatning o'ziga xosligini, betakrorligini va madaniy qiyofasini ifodalaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar esa barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan axloqiy me'yorlar majmui bo'lib, insonparvarlik, adolat, tinchlik, bag'rikenglik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mazkur qadriyatlarning uyg'unligi yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Chunki ular orqali yoshlar o'z milliyligini anglagan holda global jamiyatga moslashadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti, inson kamoloti hamda ma'naviy hayotning asosiy tayanch tushunchalaridan hisoblanadi. Ular insonning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy yondashuvlar – bu ta'lim va tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan tizimdir.

Quyidagi yondashuvlar ayniqsa samarali hisoblanadi: Interaktiv o'qitish (munozara, debat, "aqliy hujum"), muammoli ta'lim texnologiyasi, raqamli ta'lim platformalari, multimedia vositalari, gamifikatsiya (o'yin asosida o'qitish). Bu yondashuvlar yoshlarning faolligini oshirib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Yoshlar ongida qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion metodlarning o'rni

1. Interaktiv metodlar orqali tarbiya. Interaktiv usullar yoshlarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, bahs-munozaralar orqali ular turli qadriyatlar haqida fikr yuritadi va o'z qarashlarini shakllantiradi.

2. Raqamli texnologiyalarning ta'siri. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali yoshlar turli madaniyatlar bilan tanishadi. Shu bois raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish orqali ularga ijobiy qadriyatlar singdirish mumkin.

3. Multimedia vositalari. Video, audio va animatsiyalar yordamida qadriyatlar yanada jonli va tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu esa o'quvchilarning eslab qolish darajasini oshiradi.

4. Gamifikatsiya. O'yin elementlari asosida tashkil etilgan darslar yoshlarning qiziqishini oshiradi va ularni faol o'rganishga undaydi.

Yoshlar ongida qadriyatlarni shakllantirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatiladi: globallashuv ta'sirida milliy qadriyatlarning susayishi, axborot xurujlari va zararli kontentlar, ta'limda an'anaviy usullarning ustunligi. Ularni hal etish uchun ta'lim tizimiga innovatsion metodlarni keng joriy etish, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, milliy merosni zamonaviy shaklda targ'ib qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion metodlar orqali ta'lim jarayoni samaradorligi oshib, yoshlarning ma'naviy dunyosi boyiydi. Shu bilan birga, bu yondashuvlar yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak axloqli va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. *Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*. Toshkent. -2021 y.
2. Hasanov, B. *Globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi va ma'naviy qadriyatlar*. Toshkent: Fan nashriyoti. -2021 y.
3. Abdullayeva, D. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni." *Ta'lim va tarbiya jurnali*, - 2020, 3(2), 45–52.
4. Xudoyberdiyev, A. *Milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligi*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti. -2022 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanma*. Toshkent. -2021 y.

TARBIYA FANIDA QADRIYATLAR TA'LIMINI MODERNIZATSIYA QILISH MASALALARI

Turayeva Xusnora Ixtiyorovna,
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tarbiya fanida qadriyatlar ta'limini modernizatsiya qilish masalalari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli axborot muhitining kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Maqolada qadriyatlar ta'limini yangilashning metodologik asoslari sifatida aksiologik, kompetensiyaviy hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Qadriyatlar ta'limi, Tarbiya fani, modernizatsiya, aksiologik yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, innovatsion pedagogika, ma'naviy tarbiya, maktab ta'limi.*

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и методической точки зрения анализируются проблемы модернизации обучения ценностям в предмете «Тарбия» в общеобразовательных школах. В условиях глобализации, расширения цифровой информационной среды и усложнения социальных отношений обосновывается необходимость формирования у учащихся национальных и общечеловеческих ценностей на основе современных педагогических подходов. В статье раскрываются методологические основы обновления ценностного образования, включая аксиологический, компетентностный и личностно-ориентированный подходы.

Ключевые слова: Обучение ценностям, предмет «Тарбия», модернизация, аксиологический подход, компетентностное обучение, национальные ценности, общечеловеческие ценности, инновационная педагогика, духовно-нравственное воспитание, школьное образование.

Abstract: This article analyzes, from scientific-theoretical and methodological perspectives, the issues of modernizing values education in the subject "Tarbiya" in general secondary schools. In the context of globalization, the expansion of the digital information environment, and the increasing complexity of social relations, the necessity of forming national and universal human values among students based on modern pedagogical approaches is substantiated. The article highlights the methodological foundations for updating values education, including axiological, competency-based, and learner-centered approaches.

Keywords: Values education, the subject "Tarbiya," modernization, axiological approach, competency-based education, national values, universal human values, innovative pedagogy, moral and spiritual education, school education.

KIRISH: Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyalarida yoshlarning ma'naviy kamoloti va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar sharoitida yosh avlod tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan

biriga aylangan. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tarbiya” fani o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois qadriyatlar ta’limini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish ilmiy-pedagogik jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortishi, turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishi o‘quvchilar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday vaziyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglagan, mustaqil fikrlay oladigan, tanqidiy tahlil qila biladigan shaxsni tarbiyalash ta’lim tizimining asosiy vazifasiga aylanadi. “Tarbiya” fanida qadriyatlar mazmunini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi.

METODLAR: Qadriyatlar ta’limini modernizatsiya qilishning samarali metodik asoslaridan biri Muammoli ta’lim hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki muammoni mustaqil tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Tarbiya” fanida axloqiy dilemmalar va qadriyatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyatlar o‘quvchilarning chuqur fikrlashini rag‘batlantiradi.

Muammoli ta’lim nazariy jihatdan konstruktivistik pedagogikaga tayanadi. Konstruktivizmga ko‘ra, bilim shaxsning faol intellektual faoliyati jarayonida shakllanadi. Bu g‘oya psixolog John Dewey tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u ta’limni hayotiy tajriba va muammo yechish jarayoni bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlagan. Uning fikricha, o‘quvchi real ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilganida, uning tafakkuri va axloqiy ong darajasi rivojlanadi.

Muammoli ta’lim metodologiyasi shuningdek Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ham tayanadi. Piagetning ta’kidlashicha, o‘quvchi yangi vaziyatga duch kelganda “kognitiv ziddiyat” yuzaga keladi va bu ziddiyatni bartaraf etish jarayonida tafakkur rivojlanadi. “Tarbiya” fanida “Adolat va manfaat to‘qnashganda qanday yo‘l tutish kerak?” kabi savollar aynan shunday kognitiv ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Axloqiy rivojlanish nuqtayi nazaridan esa muammoli ta’lim Lawrence Kohlbergning axloqiy taraqqiyot bosqichlari nazariyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Kohlbergning fikriga ko‘ra, shaxsning axloqiy ong darajasi murakkab axloqiy muammolarni tahlil qilish va ularga nisbatan asoslangan pozitsiya bildirish jarayonida rivojlanadi. Muammoli vaziyatlar o‘quvchini yuqori axloqiy fikrlash bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tarbiya fanida muammoli vaziyatni yaratish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchidan, qadriyatlar to‘qnashuvi aks etgan real yoki shartli vaziyat taqdim etiladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilar muammoni aniqlaydi va savollar shakllantiradi.

Uchinchidan, guruhlar dalillar asosida yechim variantlarini ishlab chiqadi. To‘rtinchidan, umumiy xulosa chiqariladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mantiqiy tahlil, dalillash va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ma’naviy tahdidlar va axborot xavfsizligi

Muammoli vaziyat	**Muammoli savollar**	**Metod**	**Bosqichlar**	**Natija**
O‘quvchi zararli kontentli kanalga a’zo bo‘lib qolgan.	- Axborot tanlash mezonlari qanday? - Ma’naviy immunitet qanday shakllanadi?	“Muammoli savol – tahlil – yechim” modeli	- Muammoni aniqlash; - Xavf omillarini sanab o‘tish; - Himoya mexanizmlarini ishlab chiqish; - Tuzatuvchi tavsiyalar berish.	- Axborot savodxonligi - Tanqidiy fikrlash - Shaxsiy xavfsizlik madaniyati

Mashg‘ulot xulosasi: Ushbu muammoli vaziyatni tahlil qilish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot makonida ma’naviy immunitet nafaqat nazariy tushuncha, balki hayotiy zaruriyatdir.

O‘quvchining zararli kontentga duch kelishi misolida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Axborotni saralash - asosiy himoya. Har bir ma’lumotni qabul qilishdan avval uning manbasi, maqsadi va mazmuni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilinishi kerak. Axborot savodxonligi - bu shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki axloqiy filtrlash qobiliyatidir.

2. Ma’naviy immunitetning roli. Tashqi tahdidlarga qarshi eng samarali qalqon - bu shaxsning ichki qadriyatlar tizimidir. O‘quvchida ma’naviy-axloqiy mezonlar shakllangan bo‘lsa, u zararli g‘oyalarni mustaqil ravishda inkor etishga qodir bo‘ladi.

3. Tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish

“Muammoli savol - tahlil - yechim” modeli orqali o‘quvchilar:

- Vaziyatning xavf darajasini to‘g‘ri baholashni;
- Mantiqiy dalillar keltirish orqali o‘z pozitsiyasini himoya qilishni;
- Kutilmagan raqamli tahdidlar sharoitida xavfsizlik algoritmlarini qo‘llashni o‘rgandilar.

Axborot xavfsizligi faqat parollar bilan emas, balki to‘g‘ri shakllangan tafakkur bilan ta’minlanadi. Tanqidiy fikrlash va shaxsiy xavfsizlik madaniyati o‘quvchini virtual dunyodagi ma’naviy inqirozlardan asrovchi asosiy omildir.

NATIJALAR: Tadqiqot jarayonida “Tarbiya” fanida qadriyatlar ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar quyidagi muhim natijalarni ko‘rsatdi. Modernizatsiyalashgan o‘qitish modelining samaradorligi an’anaviy “tushuntirish-nasihat” metodi bilan birgalikda “vaziyatli tahlil va refleksiya” modeliga o‘tilishi o‘quvchilarning qadriyatarni qabul qilish darajasini oshiradi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda shunchaki yodlash emas, balki qadriyatli shaxsiy ehtiyoj sifatida his qilish ko‘nikmasini shakillantiradi. Raqamli muhitda ma’naviy immunitet ko‘rsatkichlari modernizatsiya jarayonida axborot xavfsizligi va ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish metodikalarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

- Tanqidiy filtr: Axborotni saralash va manbaning ishonchliligini tekshirish ko‘nikmasi guruh respondentlarining yuqori foizda shakllanadi.

- Qadriyatlar to‘qnashuvida yechim topishda murakkab hayotiy vaziyatlarda (masalan, zararli kontentga duch kelganda) etik qaror qabul qilish tezligi va sifati yaxshilandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,Tarbiya fanida qadriyatlar ta'limini modernizatsiya qilish - shunchaki o‘qitish metodikasini yangilash emas, balki o‘quvchi dunyoqarashini tizimli transformatsiya qilish jarayonidir. An'anaviy pedagogikadan farqli o‘laroq, muammoli vaziyatlar orqali qadriyatlarni yetkazish o‘quvchida axloqiy bilimlarni passiv qabul qilishdan, ularni shaxsiy e'tiqod darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchining ijtimoiy muhitdagi subyektlik mavqeyini mustahkamlaydi. Olingan ko‘rsatkichlar tahlili qadriyatlar to‘qnashuvi aks etgan vaziyatlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning yuqori samaradorligini isbotladi. Xususan, mantiqiy tahlil va dalillash ko‘nikmalarining o‘sishi o‘quvchilarda ma'naviy tahdidlarga nisbatan tanqidiy filtrni shakllantirdi. Bu ilmiy jihatdan shuni anglatadiki, qadriyatlar ta'limi zamonaviy axborot xavfsizligi madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u shaxsning raqamli makonda o‘zligini saqlab qolishining asosiy omiliga aylanadi. Modernizatsiya qilingan model doirasida ishlab chiqilgan "vaziyat - tahlil - yechim" zanjiri o‘quvchilarda nafaqat kognitiv, balki affektiv (hissiy) o‘zgarishlarni ham yuzaga keltirdi. Jadvalda aks etgan natijalar shuni tasdiqlaydiki, qadriyat o‘quvchi uchun mavhum tushunchadan real hayotiy qarorlar qabul qilish mezoniga aylangan. Bu esa ta'lim mazmunini shaxsga yo‘naltirilgan (student-centered) yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini pedagogik jihatdan asoslaydi.

XULOSA: Qadriyatlarni o‘zlashtirishning psixopedagogik asosida maqolada qo‘llanilgan "muammoli vaziyatlar" metodikasi isbotladiki, o‘quvchi qadriyatni tayyor dogma (nasihat) sifatida emas, balki o‘z intellektual tahlili natijasi sifatida qabul qilgandagina u barqaror shaxsiy e'tiqodga aylanadi. Bu esa "Tarbiya" fanining samaradorligini oshirishda "o‘quvchi - passiv tinglovchi" modelidan "o‘quvchi - faol tahlilchi" modeliga o‘tishning fundamental ahamiyatini tasdiqlaydi.

Modernizatsiya qilingan ta'lim mazmuni o‘quvchilarda virtual dunyodagi tahdidlarga nisbatan "ichki filtr"ni shakllantiradi. Natijalarda aniqlangan ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar ta'limi axborot xavfsizligi madaniyati bilan integratsiya qilinganda, yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan ongli immunitet shakllanadi. Bu esa fanning zamonaviy globallashuv sharoitidagi himoya funksiyasini ilmiy asoslab beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi tajriba davomida kuzatilgan mantiqiy tahlil va refleksiya ko‘nikmalarining o‘sishi "Tarbiya" fanining "bilimlar majmuasi"dan "ko‘nikmalar majmuasi"ga aylanganini anglatadi. Ya'ni, zamonaviy tarbiya jarayoni o‘quvchiga faqat "yaxshi" va "yomon"ni ajratishni emas, balki murakkab hayotiy vaziyatlarda axloqiy jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilish mexanizmini o‘rgatishi lozim.

Tizimli takomillashtirish zaruriyati "Tarbiya" fani metodikasini modernizatsiya qilish uzluksiz jarayon bo‘lib, u darsliklar mazmunini doimiy ravishda real hayotiy keyslar bilan boyitib borishni taqozo etadi. Bu yondashuv milliy qadriyatlarimizni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirib, raqobatbardosh va ma'naviy butun shaxsni tarbiyalashning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.B. Saidnazarova. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. 60220300 – Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi) ta'lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma . Buxoro-2024.
2. A.Muxsiyeva. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. Darslik., 2023.

3. F.X. Holikulova. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya”fanini o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2022-yil.
4. M. Ochilov. Pedagogika .Toshkent. O‘qituvchi, 2012.
5. B. X. Xodjayev. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent. Sano-standart, 2017.

O‘QUVCHILARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI (11-SINF O‘ZBEK TILI DARSLARI MISOLIDA)

Xakimova Dilorom Ikramovna,
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish asosida o‘quvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты глубокого привития универсальных ценностей в сознание учащихся на основе эффективного использования инновационных подходов в процессе обучения узбекскому языку.*

Abstract: *The article covers the theoretical and practical aspects of deeply instilling universal values in students' minds based on the effective use of innovative approaches in the process of teaching the Uzbek language.*

Kalit so‘zlar: *Ma’naviy meros, umuminsoniy qadriyatlar, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, kompetensiyaviy ta’lim, millatlararo totuvlik, o‘zbek tili ta’limi, ta’lim boshqa tillarda, iboralar, tarbiyaviy ta’lim, pedagogik texnologiyalar.*

Ключевые слова: *духовное наследие, универсальные ценности, инновационный подход, интерактивные методы, компетентностно-ориентированное образование, межэтническая гармония, обучение узбекскому языку, обучение на других языках, фразы, воспитательное обучение, педагогические технологии.*

Keywords: *Spiritual heritage, universal values, innovative approach, interactive methods, competency-based education, interethnic harmony, Uzbek language education, education in other languages, phraseological units, moral education, pedagogical technologies.*

Ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar har qanday jamiyatning ma’naviy poydevorini tashkil etadi. Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan, axborot oqimi keskin ortgan hozirgi davrda yosh avlod ongida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayonida ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki bu jarayonda o‘zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki milliy madaniyat, tarix va tafakkur ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur yo‘nalishda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish ta’lim sifati va tarbiyaviy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy ma’naviyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning turli millat va madaniyat vakillari ekanligi inobatga olinadi. Shu sababli dars jarayonida millatlararo totuvlik, o‘zaro hurmat g‘oyalarini

targ‘ib etish muhimdir. Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida yanada samarali amalga oshiriladi.

Bugungi davrda millatlararo totuvlik va xalqlar do‘stligi g‘oyasi umuminsoniy qadriyatlarning ajralmas qismiga aylandi. Amaldagi o‘quv dasturi asosidagi yaratilgan yangi avlod darsliklarida umuminsoniy qadriyatlar o‘z aksini topgan ko‘plab mavzular kiritilgan. 11-sinf O‘zbek tili darsligidagi “Qardosh xalqlar do‘stligi” mavzusi o‘quvchilarda bag‘rikenglik, hamjihatlik, tinchliksevarlik va o‘zaro hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dars avvalida darsni rejalashtirish, loyihalash va dars maqsadini to‘g‘ri qo‘yish juda muhim. Dars orqali o‘quvchilarga “Qardosh xalqlar do‘stligi” matni mazmunini tushuntirish, iboralar haqida nazariy bilim berish va ularni nutqda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik, tinchliksevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadi amalga oshiriladi. O‘qituvchi ham ta’limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi maqsadini zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanib, nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarni chuqur singdiradi.

Matnda O‘zbekiston hududining qadimdan turli millat va elat vakillari yonma-yon yashab kelgan muqaddas makon ekani ta’kidlanadi. Yurtimizning insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sifatida e’tirof etilishi, qadimgi diniy va falsafiy an’analar shakllangan maskan bo‘lgani alohida qayd etiladi. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni “falsafiy tafakkur beshigi” deb ta’riflagani ham matnning g‘oyaviy ahamiyatini oshiradi. Bu ma’lumotlar o‘quvchilarda milliy g‘urur bilan bir qatorda boshqa xalqlarga hurmat tuyg‘usini ham shakllantiradi. Mazkur mavzuni o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, “Aqliy hujum” metodida o‘quvchilarga “Millatlararo totuvlik nima uchun umumbashariy qadriyat hisoblanadi?” degan savol beriladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etadi, natijada mavzuning mohiyati jamoaviy tahlil asosida ochib beriladi, hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Klaster” metodida esa “Totuvlik” tushunchasi atrofida tinchlik, hamkorlik, bag‘rikenglik, teng huquqlilik kabi tushunchalar tizimlashtiriladi. Bu usul o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. “Debat” metodidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Millatlararo totuvlik jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir” mavzusida bahs tashkil etish orqali o‘quvchilar dalillash, fikrni asoslash va muloqot madaniyatini egallaydi. Bu jarayonda ular “Qo‘shning tinch – sen tinch” maqolining mazmunini hayotiy misollar orqali sharhlaydi. Natijada maqol zamiridagi umuminsoniy haqiqat – tinchlik va barqarorlik har bir jamiyat taraqqiyotining garovi ekanligi anglab yetiladi. Shuningdek, loyiha metodi asosida “O‘zbekistonda yashovchi millatlar madaniyati” mavzusida taqdimotlar tayyorlash topshirig‘ini berish mumkin. O‘quvchilar mustaqil izlanish olib boradi, natijada ularning nafaqat til kompetensiyasi, balki ijtimoiy faolligi ham ortadi. Shu bilan birga, grammatik topshiriqlar bilan ham ishlash mumkin. Iboralar bilan ishlash tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, “ko‘z yumdi”, “boshiga ko‘tardi”, “suvdan quruq chiqdi” kabi iboralarni o‘rganish orqali o‘quvchilar xalq tafakkuri va madaniyatini chuqurroq anglaydi. Iboralar milliy o‘zlikni aks ettiruvchi til birliklari bo‘lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, iboralarni kontekst asosida tahlil qilish o‘quvchilarda til madaniyatiga xos tafakkurni rivojlantiradi.

Bu mavzuning hayotiyligini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘qituvchilar unumli foydalanib, multimediali taqdimotlar, tarixiy manbalar va videolavhalar orqali o‘quvchilarni millatlararo totuvlikka oid real misollar bilan tanishtiradi.

11-sinf o‘zbek tili darsligidagi “Qardosh xalqlar do‘stligi” mavzusini innovatsion metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlar – tinchlik, bag‘rikenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat tuyg‘ularini shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi va ularni jamiyatda faol, o‘z fikriga ega shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur mavzuni metodik jihatdan boyitish va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir

Dars davomida grammatik topshiriqlarga ham alohida urg‘u berish joiz. Iboralar bilan ishlash uchun sinf 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga iboralar beriladi:

1-guruh: “Ko‘z yumdi”, “Boshiga ko‘tardi”

2-guruh: “Suvdan quruq chiqdi”, “Yerga urdi”

3-guruh: “Ko‘kka ko‘tardi”, “Ko‘chani boshiga ko‘tardi”

Topshiriq esa quyidagicha bo‘lishi mumkin: iborani topish, iboraning ma’nosini tushuntirish va shu ibora ishtirokida yangi gap tuzish. Topshiriq bajarilgach, har bir guruh taqdimot qiladi.

Innovatsion yondashuvlarning ahamiyati shundaki, ular ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy metodlar yordamida o‘quvchi shaxs sifatida shakllanadi, o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi va hayotiy muammolarni hal etishga tayyor bo‘ladi. Shuningdek, innovatsion ta’lim ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi, jamoada ishlash, muloqot qilish va axborotni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. O‘qitishda innovatsion yondashuv zamon talabi bo‘lib, ta’lim jarayonini samarali, qiziqarli va natijador etishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan model asosida tashkil etishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim tizimi yanada takomillashadi, barkamol va raqobatbardosh avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarda ma’naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Axborot xurujlari kuchaygan bir davrda yoshlarni turli zararli g‘oyalardan asrash uchun ularda mustahkam axloqiy mezonlarni shakllantirish zarur. Ma’naviy merosga tayangan holda olib borilgan darslar o‘quvchilarda vatanparvarlik, sadoqat, insonparvarlik va bag‘rikenglik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini singdiradi. Ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantiradi hamda ularni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash milliy qadriyatlarni chuqurroq anglash va ularni umuminsoniy tamoyillar bilan uyg‘un holda idrok etishga xizmat qiladi. Bu esa barkamol avlodni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash va milliy o‘zlikni asrab-avaylashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. 11-sinf O‘zbek tili darsligi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

BOLALAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Qurbonova Xolbibi To‘raqulovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo‘lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. Bolaga nisbatan bag‘rikenglik, mehri daryolik o‘ta fidoyilik o‘zbeklargagina xos xususiyatlari madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma’naviy qadriyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qadriyatlar, axloq-odob,urf-odatlar,oila,farzand tarbiyasi.*

Abstract. *This article discusses the basics of family education. It is considered a school of life that educates all the human relationships and virtues that should be formed in a child. The characteristics of the Uzbeks, such as tolerance, kindness, and selflessness towards children, as well as their culture, customs, and moral and spiritual values, are revealed.*

Keywords: *values, morality, customs, family, child education.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основы семейного воспитания. Семейное воспитание рассматривается как школа жизни, которая воспитывает все человеческие отношения и добродетели, которые должны формироваться в ребенке. Раскрываются характерные черты узбеков, такие как терпимость, доброта и бескорыстие по отношению к детям, а также их культура, обычаи и морально-духовные ценности.*

Ключевые слова: *ценности, этика, обычаи, семья, воспитание детей.*

Yurtboshimiz aytganlaridek, xalqimiz qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun harakat qilishi, mehnat qilishi lozim. Insonning inson bo‘lib shakllanishida, hayotda o‘z o‘rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo‘lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini o‘zida mujassam etishida oila asosiy o‘rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlanadi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma’naviy hayot poydevori quyiladi va mustahkamlanadi. Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo‘lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. O‘zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag‘ri kenglik, mehri daryolik o‘ta fidoyilik o‘zbeklargagina xos xususiyatdir. Shu boisdan ham, ota-onalarimiz farzandlarning baxti va kelajagi uchun

qayg‘uradi. Ularning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo‘yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada to‘g‘ri tarbiyalash-mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining sharafidir. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ushbu jarayon turmush quradigan yigit va qizning bir-biriga har tomonlama munosibligidan boshlanadi.

Oila mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma'naviy yetukligining garovidir. Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o‘g‘il uylantirishda kelin tanlashni, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko‘targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati-sog‘lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq millat, Vatan taqdiri uchun jonni tikkan insonlar qo‘lida.

Oilada farzand tarbiyasi u paydo bo‘lmasdan boshlanmog‘i zarur. Ya'ni, homilador ayolning kayfiyati doimo ko‘tarinki, asablari sokin, iste'mol qiladigan taomlari bola organizmi uchun foydali bo‘lmog‘i zarur. O‘z vaqtida mehnat qilib, dam olib, sayr qilib, ovqatlanib tug‘ilajak bola taqdirini uylash onaning vazifasidir. Er-xotin, oilaning boshqa a'zolari o‘rtasidagi sog‘lom ma'naviy muhit, ahillik, xushmuomalalik, xursandchilik bolaning bexavotir, sog‘lom tug‘ilishi garovidir.

Oilada, shu jumladan, o‘zbek oilalarida farzandning dunyoga kelishi bilan bog‘liq marosimlar va rasm-rusumlar mavjud bo‘lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism quyish kichik va katta chilla saqlash, beshikka belash, soch, tirnoq olish, birinchi qadam, ilk bor gapira boshlash, tish chiqishi, yoshiga to‘lishi, o‘g‘il bolalarni xatna qilish, birinchi muchal, muylavi sabza urishi bilan munosabatlari bilan bog‘liq oilaviy tantanalarning o‘tkazilishida ramziy ma'no bor. Bunday marosim, rasm-rusumlar bola quvonchiga quvonch qo‘shadi, uni ma'noviy kamolotiga ijobiy ta'sir etadi.

Ota-onaning, avlod-ajdodlarining nojo‘ya hatti-harakatlaridan, nopok ishlaridan farzand ham aziyat chekadi, shunday odamlarning farzandi bo‘lganidan ruhan afsuslanadi. Ba'zan ota-onalar farzandining kelajagini faqatgina moddiy ta'minlashdan iborat deb biladi. Shuning uchun ham turli yo‘llar bilan uzoq avloddan -ajdodlariga yetadigan mol-dunyo to‘plashga harakat qiladi, ochko‘zlik kasaliga mubtalo bo‘ladi. Inson jismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni insoniylikdan mahrum etadi, turli jinoyatlarga, noaxloqiy hatti-harakatlar sodir etishga yetaklaydi, el-yurt ichida obro‘sizlantiradi. Bunday boylik farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ota-onaga behisob molu dunyo emas, ilmu ma'rifatga intilish, insof-u diyonatga sadoqat, mehru shafqat, hayotga muhabbat, xalq, millat, Vatan uchun jon fidolik sifatlari meros bo‘lib qolmog‘i zarur.

Bola uchun millati, madaniyati, san'ati, dini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari, oila an'analari, urf-odatlarini chuqur bilish va ulardan ma'naviy ozuqa olish, g‘ururlanish tarbiyaviy xarakter kasb etadi.

O‘tmish allomalar, avlod-ajdodlardan faxrlanish, ular merosini mukammal o‘rganish, olg‘a surilgan hayotiy g‘oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo‘lida foydalanish, davlat ramzlari (Konstitutsiya, madhiya, gerb, bayroq, milliy valyuta)ning mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlanadi. Bu o‘rinda ota-onaning bilim saviyasi, mafkuraviy yetuklik darajasi, dunyoqarashi, jamiyatda tutgan o‘rni muhim ro‘l o‘ynaydi. Oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka

o‘rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berish, ularning hayot so‘qmoqlarida adashib qolmasligi va ravon yo‘ldan borishida yordam beradi.

Shunday qilib, oila tarbiya maskani bo‘lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onaning o‘z burch va vazifalariga qanday munosabatda bo‘lishiga bog‘liqdir. Oiladagi har bir kishining o‘z burch va vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir. Xullas, barkamol insonni, ya’ni avvalo oila uchun, qolaversa o‘zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi, shaxsni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Shuning uchun maktab o‘qituvchi-tarbiyachilari, mahalla, jamoa, davlat xo‘jaligi hamda tuman rahbarlari oila ravnaqiga va ayni choqda oila tarbyaisiga diqqat-e’tiborni qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. T.: “Nihol”, 2013.
2. Yusupova G.Z. Boshlanǵich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantiruvchi metodlar // Metodik qo‘llanma. Nukus.: 2020
3. https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/ Shavkat Mirziyoyev — oila va baxt haqida 2018-yil 25 iyul

МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ЖАРАЁНИНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ

Эргашев Алижон Боходирович,
Навоий инновациялар университети тадқиқотчиси

Аннотация. *Мақолада миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти масаласига замонавий ёндашувлар таҳлил этилган. Миллий ўзликни англашнинг жамиятни бирлаштирувчи, миллий хавфсизликни таъминлаш, миллий тараққиётга эришиш ва бошқа миллатлар билан мулоқот ва ҳамкорлик қилиш учун зарур шарт сифатидаги роли очиб берилган. Турли мамлакатларнинг миллий ўзликни англаш жараёнини кучайтиришга қаратилган тажрибалари таҳлил қилинган. Миллий ўзликни англашнинг замонавий глобаллашув шароитида миллий манфаатларни ҳимоя қилиш ва миллий қадриятларни сақлаб қолишдаги аҳамияти кўрсатиб берилган.*

Калит сўзлар: *миллий ўзлик, ижтимоий аҳамият, жамият барқарорлиги, миллий хавфсизлик, миллий манфаатлар, ижтимоий интеграция, ижтимоий бирлик, глобаллашув.*

Аннотация. *В статье анализируются современные подходы к вопросу социальной значимости процесса национального самосознания. Раскрывается роль национального самосознания как объединяющего общество фактора, необходимого условия обеспечения национальной безопасности, достижения национального прогресса и осуществления диалога и сотрудничества с другими нациями. Анализируется опыт различных стран, направленный на укрепление процесса национального самосознания. Показана важность национального самосознания в защите национальных интересов и сохранении национальных ценностей в условиях современной глобализации.*

Ключевые слова: *национальная идентичность, социальное значение, стабильность общества, национальная безопасность, национальные интересы, социальная интеграция, социальное единство, глобализация.*

Abstract. *The article analyzes modern approaches to the issue of the social significance of the process of national self-awareness. The role of national self-awareness as a factor uniting society, a necessary condition for ensuring national security, achieving national progress and implementing dialogue and cooperation with other nations is revealed. The experience of various countries aimed at strengthening the process of national self-awareness is analyzed. The importance of national self-awareness in protecting national interests and preserving national values in the context of modern globalization is shown.*

Keywords: *national identity, social significance, social stability, national security, national interests, social integration, social unity, globalization.*

Кириш

Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти ҳақида сўз юритганда унинг нафақат шахс ва жамиятнинг ўз-ўзини англаш механизми сифатида, балки миллий бирлик ва барқарорликнинг кафолати сифатидаги ролини ҳам қайд этиш лозимдир. Ҳозирги даврда миллий ўзликни англаш ва сақлаш эҳтиёжи тобора кучаймоқда, чунки миллий-маданий хусусиятларнинг йўқолиш хавфи, қадриятлар тизимининг емирилиши ва маънавий инқирозга қарши турувчи асосий омил айнан миллий ўзлик ҳисобланади.

Ижтимоий аҳамият деганда, маълум бир ҳодиса, жараён ёки қадриятнинг жамият ҳаётида тутган ўрни, унинг жамият ривожига, инсонлар ижтимоий фаоллигига, ижтимоий муносабатлар тизимига кўрсатадиган таъсири тушунилади. Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятини тадқиқ этиш – бу жараённинг жамият ҳаётидаги ўрни, унинг жамият тараққиётига таъсири, инсонлар онги ва хулқ-атворига таъсирини таҳлил қилишни англатади.

Адабиётлар таҳлили

Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятини тадқиқ этишда таниқли британиялик социолог Энтони Смитнинг илмий концепцияси муҳим ўрин тутади. Унинг "Миллий ўзлик" (National Identity) асарида таъкидланишича, "миллий ўзликни англаш жамият барқарорлигини таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади, чунки у одамларга ўзлигини англаш, ўзини бирон бир гуруҳга мансуб деб ҳис қилиш, умумий мақсадлар сари интилиш имконини беради" [1].

Канадалик файласуф Чарльз Тейлор ўзининг "Кўпмаданиятлилик ва тан олиниш сиёсати" асарида миллий ўзликни англаш жараёнининг диалогик табиатини таъкидлайди. Унинг фикрича, "миллий ўзлик бошқалар билан мулоқот жараёнида шаклланади ва бунда ўзаро тан олиниш принципи муҳим аҳамият касб этади" [2]. Тейлор миллий ўзликни англашнинг ижтимоий аҳамиятини қуйидагича ифодалайди: "Миллий ўзликни англаш инсонларга умумий қадриятлар ва мақсадлар атрофида бирлашиш, ўзларини маълум бир тарихий ва маданий анъаналарга мансуб деб ҳис қилиш, шу орқали ҳаётнинг маъносини англаш имконини беради" [3].

Ўзбекистонлик файласуф олим Садулла Отамуродов бир қатор асарларида миллий ўзликни англашнинг ижтимоий аҳамияти масаласини чуқур ёритган. Олимнинг таъкидлашича, "миллий ўзликни ўзликни англаш орқали миллат ўз

манфаатларини англайди, уларни ҳимоя қилиш йўлларини излайди, ўз тараққиётининг устувор йўналишларини белгилайди" [4].

Тадқиқот методологияси

Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятини таҳлил этишда қуйидаги методологик ёндашувлар қўлланилган:

- тизимли ёндашув – миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятини жамиятнинг турли соҳалари билан алоқадорликда таҳлил қилиш;
- қиёсий методлар – турли мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва таққослаш;
- структур-функционал метод – миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий функцияларини аниқлаш;
- социологик методлар – миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий таъсирини баҳолаш.

Таҳлил ва натижалар

Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятига доир замонавий қарашларни тизимлаштирадиган бўлсак, қуйидаги асосий ёндашувларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

Интеграцион ёндашув, миллий ўзликни англашнинг жамиятни бирлаштирувчи, ижтимоий бирлик ва барқарорликни таъминловчи омил сифатидаги ролини таъкидлайди. Бу ёндашув доирасида миллий ўзликни англаш жамиятнинг турли қатламларини умумий қадриятлар, мақсадлар ва манфаатлар атрофида бирлаштирувчи механизм сифатида талқин қилинади. Масалан, Дэвид Миллернинг "Миллий ўзлик" асарида миллий ўзликни англаш жамиятда бирдамлик туйғусини шакллантириш, ижтимоий ҳамкорликни ривожлантириш, умумий манфаатлар учун фаолият юритиш имконини берувчи маънавий асос деб кўрсатилган.

Дифференциал ёндашув миллий ўзликни англашнинг миллатни бошқа миллатлардан фарқлаш, унинг ўзига хослигини таъкидлаш, ўзига хос тараққиёт йўлини танлаш имконини берувчи омил сифатидаги ролини таъкидлайди. Бу ёндашув доирасида миллий ўзликни англаш миллатнинг ўзига хослигини сақлаб қолиш, уни бошқа миллатлардан фарқлаш, ўзига хос тараққиёт йўлини танлаш механизми сифатида талқин қилинади.

Коммуникатив ёндашув орқали миллий ўзликни англашнинг бошқа миллатлар, маданиятлар билан мулоқот қилиш, ўзаро тушуниш ва ҳамкорлик қилиш имконини берувчи омил сифатидаги роли асослаб берилади. Ўз навбатида ушбу ёндашув доирасида миллий ўзликни англаш миллатлараро мулоқот, ўзаро тушуниш ва ҳамкорлик механизми сифатида талқин қилинади. Масалан, Юрген Хабермас "Постмиллий констелляция" асарида миллий ўзликни англашнинг коммуникатив ролини таъкидлайди: "Миллий ўзликни англаш орқали миллат ўзини бошқа миллатлар орасида ўз ўрнига эга субъект сифатида англайди, бу эса миллатлараро мулоқот, ўзаро тушуниш ва ҳамкорлик учун зарур шарт ҳисобланади" [5].

Экзистенциал ёндашув миллий ўзликни англашнинг инсон ҳаётига маъно берувчи, унинг дунёдаги ўрнини белгиловчи, ҳаётий мўлжалларини шакллантирувчи омил сифатидаги ролини таъкидлайди. Ёндашув доирасида миллий ўзликни англаш инсон ҳаётига маъно берувчи, унинг дунёдаги ўрнини белгиловчи, ҳаётий мўлжалларини шакллантирувчи механизм сифатида талқин қилинади.

Юқорида таҳлил қилинган барча ёндашувларни умумлаштириб, миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятини қуйидаги хусусиятлар орқали ифодалаш мумкин:

1. Миллий ўзликни англаш жамиятнинг турли қатламлари, гуруҳлари, синфларини умумий қадриятлар, мақсадлар ва манфаатлар атрофида бирлаштиради, жамиятда бирдамлик, ҳамжиҳатлик туйғусини шакллантиради. Бу функция айниқса давлат мустақиллигини мустаҳкамлаш, миллий давлатчиликни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнида муҳим аҳамият касб этади.

2. Миллий ўзликни англаш миллатнинг ўзига хослигини, уникаллигини сақлаб қолиш, уни бошқа миллатлардан фарқлаш, миллий қадриятларни, анъаналарни, маданиятни сақлаб қолиш ва ривожлантириш имконини беради. Бу функция айниқса глобаллашув шароитида муҳим аҳамият касб этади, чунки глобаллашув натижасида миллий маданиятлар, қадриятларнинг универсаллашуви, стандартлашуви, миллий ўзига хосликларнинг йўқолиш хавфини пайдо қилади.

3. Миллий ўзликни англаш миллатни ривожлантириш, такомиллаштириш, миллий тараққиётга эришиш учун туртки беради. Миллат ўз имкониятларини, салоҳиятини англаш орқали ўз тараққиёт йўлини танлайди, ўз ривожланиш стратегиясини белгилайди. Бу функция айниқса мустақилликка эришган мамлакатларда муҳим аҳамият касб этади, чунки мустақиллик шароитида миллат ўз тараққиёт йўлини ўзи танлаш имкониятига эга бўлади.

4. Миллий ўзликни англаш миллатлараро мулоқот, ўзаро тушуниш ва ҳамкорлик учун зарур шарт ҳисобланади, чунки фақат ўзини англаган миллатгина бошқа миллатлар билан тенг ҳуқуқли мулоқот ва ҳамкорлик қилиш имкониятига эга бўлади. Бу функция айниқса халқаро муносабатлар тизимида муҳим аҳамият касб этади, чунки халқаро муносабатлар тизимида фақат ўз миллий манфаатларини англаган ва ифодалай оладиган миллатларгина муносиб ўрин эгаллайдилар.

5. Миллий ўзликни англаш миллий хавфсизликни таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади, чунки у миллий манфаатларни англаш, уларни ҳимоя қилиш йўлларини излаш, миллий тараққиётнинг устувор йўналишларини белгилаш имконини беради. Бу функция айниқса глобаллашув ва ахборотлашган жамият шароитида муҳим аҳамият касб этади, чунки бу шароитда миллий хавфсизликка таҳдидлар кўпаймоқда, уларнинг характери мураккаблашмоқда.

Хулоса

Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти масаласини ўрганиш бир қатор долзарб хулосаларга келиш имконини беради.

Биринчидан, миллий ўзликни англаш жараёни ўзининг моҳияти ва аҳамиятига кўра мураккаб ижтимоий-фалсафий феномен ҳисобланади. Бу жараён миллатнинг ўзини англаши, ўз моҳиятини, ўзига хос хусусиятларини, ўз тарихини, маданиятини, тилини, қадриятларини англаши жараёнидир.

Иккинчидан, ахборотлашган жамият шароитида миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти янада ортиб бормоқда. Бу биринчи навбатда ахборот технологияларининг ривожланиши, глобал ахборот маконининг шаклланиши, ахборот оқимларининг интенсивлашуви билан боғлиқ.

Учинчидан, миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти жамият ҳаётининг барча соҳаларида намоён бўлади. Бу жараён жамият ҳаётининг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий, маънавий соҳаларига таъсир кўрсатади.

Тўртинчидан, ахборотлашган жамият шароитида миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти масаласи миллий хавфсизлик масаласи билан чамбарчас боғлиқ. Миллий ўзликни англаш миллий хавфсизликни таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Бешинчидан, миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти масаласини тадқиқ этишда маҳаллий ва хорижий олимларнинг илмий ишларини қиёсий таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Бу қиёсий таҳлил миллий ўзликни англаш жараёнининг умумий қонуниятларини ҳамда миллий ўзига хосликларини аниқлаш имконини беради.

Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамиятини оширишга қаратилган қуйидаги амалий тавсияларни илгари суриш мумкин:

- миллий таълим тизимини такомиллаштириш, таълим мазмунида миллий қадриятларни, миллий маданиятни, миллий тарихни ўрганишга кўпроқ эътибор қаратиш;
- миллий маданиятни, миллий санъатни, миллий адабиётни ривожлантириш, миллий қадриятларни тарғиб қилиш;
- миллий ахборот маконини шакллантириш, миллий ахборот ресурсларини ривожлантириш, миллий ахборот хавфсизлигини таъминлаш;
- миллий тилни ривожлантириш, унинг қўлланиш доирасини кенгайтириш, тил маданиятини юксалтириш;
- миллий қадриятларни, урф-одатларни, анъаналарни сақлаб қолиш ва ривожлантириш, уларни замонавий шароитларга мослаштириш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Smith A.D. National Identity. - London: Penguin, 1991. - P. 14. https://doi.org/10.1080/00905999208408053.
2. Taylor C. Multiculturalism and the Politics of Recognition. - Princeton: Princeton University Press, 1992. - P. 25.
3. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. - Тошкент: Ўзбекистон, 2013. - Б. 67.
4. Habermas J. The Postnational Constellation. - Cambridge: MIT Press, 2001. - P. 76.
5. Қўчқоров В. Миллий ўзликни англаш ва миллий ғоя. - Тошкент: Akademi, 2015. - Б. 45.
6. Hickman M. National Identity and the Diaspora // Irish Journal of Sociology. - 2016. - Vol. 24, No. 1. - P. 12-20. https://doi.org/10.1177/0791603516629088.

MILLIY MEROS VA MA'NAVIY YUKSALISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Eshankulova Ma'mura Davlatovna,
Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy meros va ma'naviy yuksalish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilib, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *milliy meros, ma'naviyat, qadriyat, yoshlar, yuksalish, taraqqiyot.*

Abstract. *This article analyzes the close interrelation between national heritage and spiritual development. The role of national values, historical memory, and spiritual*

heritage in the progress of society is highlighted, as well as their significance in enhancing the spiritual maturity of youth.

Keywords: *national heritage, spirituality, values, youth, development, progress.*

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимосвязь между национальным наследием и духовным развитием. Освещается роль национальных ценностей, исторической памяти и духовного наследия в развитии общества, а также их значение в повышении духовной зрелости молодежи.*

Ключевые слова: *национальное наследие, духовность, ценности, молодежь, развитие, прогресс.*

Kirish. Milliy meros har bir xalqning tarixiy tajribasi, madaniy yodgorliklari, san'ati, urf-odatlari, tili va yozuvi, xalq og'zaki ijodi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Bu meros millatning tarixiy xotirasi, o'zligini anglash manbai, hamda kelajak avlod uchun ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi.

Globallashuv, raqamli texnologiyalar va madaniy xilma-xillikning kuchayishi sharoitida milliy merosni asrab-avaylash masalasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. UNESCO, ICOMOS, ICCHS kabi xalqaro tashkilotlar madaniy merosni "insoniyat sivilizatsiyasining umumiy mulki" sifatida e'tirof etib, uni asrash va yosh avlodga yetkazishni barqaror taraqqiyotning ajralmas qismi deb biladi [9].

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o'z asarlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratib, "Ma'naviyatni yuksaltirmasdan turib, hech bir jamiyatda haqiqiy taraqqiyot bo'lmaydi", deb ta'kidlaydi [2]. Shu nuqtai nazardan, milliy merosni o'rganish va uni ma'naviy yuksalishning poydevori sifatida tadqiq etish zamonaviy O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

Milliy meros tushunchasining nazariy asoslari. Milliy meros tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, u moddiy (me'morchilik yodgorliklari, arxeologik topilmalar, san'at asarlari) va nomoddiy (til, marosim, urf-odat, xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'naviy qadriyatlar) shakllarni o'z ichiga oladi.

UNESCO 2003-yilda qabul qilgan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi"da ushbu meros "avloddan avlodga o'tadigan, xalqning ijodiy salohiyati va identitetini belgilovchi ma'naviy boylik" deb ta'riflanadi [6]. Milliy merosning falsafiy mohiyatini aniqlashda Aksiologiya (qadriyatshunoslik) yondashuvi muhim. Bu yondashuvga ko'ra, ma'naviy qadriyatlar inson hayotining mazmunini belgilaydi, milliy meros esa bu qadriyatlarning tarixiy shaklga kirgan ifodasidir. Shu sababli, merosni asrash — bu nafaqat moddiy obidalarni saqlash, balki xalq ruhiyatini, ma'naviy kodini saqlashdir.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi: Tahlil va sintez usuli – milliy merosning mazmuni, ma'naviy yuksalish bilan aloqasi haqidagi ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Tarixiy-tipologik tahlil – turli davrlarda merosning ijtimoiy funksiyasi va ma'naviy ahamiyati solishtirildi. Aksiologik yondashuv – qadriyatlarning milliy identitet va ma'naviy o'sishga ta'siri aniqlanib, ularning tarbiyaviy roli tahlil qilindi. Empirik kuzatuv va sotsiologik tahlil – ta'lim muassasalarida o'tkazilgan so'rovlar orqali yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati o'rganildi. Komparativ (taqqoslash) yondashuv – O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan qiyoslandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari milliy meros va ma'naviy yuksalish o'rtasidagi o'zaro ta'sirni quyidagicha ifodalash imkonini berdi: Milliy meros — ma'naviy o'sishning

asosi. Xalq o‘z tarixini, tilini, madaniyatini chuqur anglagan sari, unda milliy iftixor, vatanparvarlik, ruhiy barqarorlik va o‘zlikni anglash kuchayadi. Bunday anglash ma'naviy immunitetni shakllantiradi. I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida qayd etilganidek, "milliy o‘zlikni saqlagan xalqni hech qanday tashqi kuch yenga olmaydi"[4]. Ta'lim tizimida milliy merosning o‘rni. Bugungi ta'limda milliy qadriyatlarni singdirish, ularni fanlararo integratsiya orqali o‘qitish dolzarbdir. Masalan, tarix, adabiyot, musiqa, san'at, texnologiya fanlarida milliy meros namunalaridan foydalanish yoshlarning estetik didi va ma'naviy tafakkurini rivojlantiradi. 2022-yilda tasdiqlangan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish konsepsiyasi"da aynan shu yo‘nalishga alohida e'tibor qaratilgan [8]. Raqamlashtirish jarayonida merosni asrash. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda "Merosimiz jahon e'tirofida" loyihasi, "Virtual muzeylar" platformasi va "Madaniy meros ob'ektlarini raqamlashtirish" dasturi orqali yuzlab tarixiy manbalar elektron shaklga o‘tkazilmoqda. Bu nafaqat saqlash, balki global maydonda O‘zbekiston madaniy boyligini targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Ma'naviy yuksalish – milliy o‘zlikning natijasi. Ma'naviy yuksalish milliy merosga tayanadi. Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Beruniy, Ibn Sino, Bobur singari allomalar asarlari xalqimiz ma'naviy tafakkurining ildizidir. Ularning merosini o‘rganish yoshlar ongida ezgulik, tafakkur erkinligi, ilmga muhabbat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi [7].

Bugungi kunda milliy merosni asrash faqat tarixiy majburiyat emas, balki ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy zaruratdir. Chunki milliy meros – bu xalqning brendi, davlatning xalqaro nufuzini oshiruvchi omil.

Masalan, Buxoro, Xiva, Samarqand kabi shaharlarning YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgani nafaqat tarixiy yodgorliklarni asrash, balki O‘zbekistonning global madaniy muloqotdagi o‘rnini mustahkamladi.

Ta'lim tizimida milliy merosni targ‘ib etishning innovatsion shakllari (interfaol darslar, loyiha-metod, media-madaniyat, milliy qadriyatlar festivallari) yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydi. Shu orqali yosh avlodda "milliy meros – bu bizning kelajagimiz" degan tushuncha shakllanadi.

Bundan tashqari, raqamli madaniyat sharoitida merosni himoya qilishning yangi shakllari – "madaniy texnologiyalar", "raqamli arxiv", "interaktiv muzeylar" kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishlarda xalqaro hamkorlik ham kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda,milliy meros xalqning o‘zligini saqlovchi, ma'naviy yuksalishning poydevorini tashkil etuvchi, jamiyatni birlashtiruvchi asosiy omildir. Uni o‘rganish, asrash va zamonaviy shaklda targ‘ib qilish – bu millatni ma'naviy yuksaltirishning eng muhim sharti.

Shunday ekan, har bir o‘qituvchi, olim, ziyoli va fuqaro milliy merosni qadrlash, uni yoshlar ongiga singdirish va xalqaro miqyosda tanitish yo‘lida faol bo‘lishi kerak. Bu orqali "Yangi O‘zbekiston" g‘oyasi faqat iqtisodiy emas, balki ma'naviy renessans shaklida ham ro‘yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. Milliy qadriyatlar va ma'naviyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 42–47.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 15–18.
3. Tursunov A. O‘zbek xalqining ma'naviy merosi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – B. 67–72.

4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 28–33.
5. Qodirova N. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – B. 91–95.
6. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris, 2003. – P. 12–16.
7. Yusupov R. Sharq allomalari merosi va zamonaviy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 110–118.

CHARLES DICKENS ASARLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI O'ZBEK TILIDA QAYTA YARATISH STRATEGIYALARI

Xo'jamova L.M.,
Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti,
Ilmiy rahbar: dotsent Usmanova R.M.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Charlz Dikkenz asarlarida uchraydigan frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari hamda ularning o'zbek tiliga tarjima usullari majmuaviy tahlil etiladi. Izlanish jarayonida «Oliver Tvist» va «Devid Kopperfild» romanlari zaminida 135 ta ibora ajratilib olinib, ular ma'noviy, tuzilish va amaliy jihatdan statistik hamda raqamli metodlar vositasida tekshirildi. Hosilalar iboralarni tarjima etishda tenglik, vaziyatga moslik va madaniy jihatlarning muhimligini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *frazeologizm, tarjima strategiyasi, lingvistik tahlil, korpus lingvistikasi, idiomalar, badiiy matn, raqamli gumanitariya.*

Аннотация: *В данной статье проводится комплексный анализ лингвистических особенностей фразеологических единиц, встречающихся в произведениях Чарльза Диккенса, а также стратегий их перевода на узбекский язык. В ходе исследования на материале романов «Оливер Твист» и «Дэвид Копперфильд» было выделено 135 фразеологизмов, которые были проанализированы с точки зрения семантики, структуры и прагматики с использованием статистических и цифровых методов. Результаты исследования демонстрируют важность эквивалентности, контекстуальной адаптации и национально-культурных аспектов в процессе перевода идиом.*

Ключевые слова: *фразеология, стратегии перевода, лингвистический анализ, корпусная лингвистика, идиомы, художественный текст, цифровые гуманитарные науки.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the linguistic characteristics of phraseological units found in the works of Charles Dickens and explores the strategies for their translation into the Uzbek language. Relying on the study of the novels Oliver Twist and David Copperfield, a total of 135 phraseological items were pinpointed and scrutinized through semantic, structural, and pragmatic lenses using statistical and digital methods. The outcomes underscore the significance of parity, situational adjustment, and socio-cultural elements in the process of rendering idioms into a target language.*

Keywords: *phraseology, translation strategies, linguistic analysis, corpus linguistics, idioms, literary text, digital humanities.*

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan sohasini tubdan isloh qilish, ayniqsa, tarjimashunoslikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor

yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Biz xorijiy tillarni o‘qitishning sifatini oshirish, tarjima san'atini yangi bosqichga ko‘tarish orqali jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan xalqimizni bahramand etishimiz zarur” [1].

Shu nuqtai nazardan, ingliz realistic prozasining zabardast vakili Charles Dickens asarlarini ona tilimizga yuqori badiiy mahorat bilan tarjima qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Dickens uslubi o‘zining lingvokulturologik boyligi, ayniqsa, frazeologizmlarning nihoyatda faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Frazeologik birliklarning tabiatini o‘rganishda A.V. Kuninning klassik tasnifi muhim bo‘lib, u iboralarni barqarorlik va ma'noning qayta ishlab bo‘lmasligi asosida guruhlaydi [3]. Zamonaviy tarjimashunoslikda esa M. Bakerning yondashuvi ko‘proq amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u tarjimondan idiomani kontekst ichida anglash va unga mos madaniy muqobil topishni talab etadi [2].

Tadqiqotning metodologik asosini **korpus lingvistikasi** tashkil etadi. Raqamli tahlil vositalari (AntConc dasturi) yordamida “Oliver Tvist” va “Devid Kopperfild” romanlarining elektron bazasidan 135 ta eng faol frazeologizm tanlab olindi [5]. Bunda birliklarning qo‘llanish chastotasi va ularning muallif uslubidagi o‘rni alohida o‘rganildi [4].

Natijalar va muhokama. Dickens asarlarida frazeologizmlarning qo‘llanishi statistik jihatdan yuqori ko‘rsatkichga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilgan matnlarda har 1000 so‘zga o‘rtacha 6.7 ta frazeologizm to‘g‘ri keladi.

1-jadval: Frazeologizmlarning struktur tasnifi

	Frazeologizm turi	**Soni (ta)**	**Ulushi (%)**
	Idiomatik birliklar	77	57%
	Frazeologik birikmalar	38	28%
	Qisman erkin birliklar	20	15%
	Jami	**135**	**100%**

Tarjima strategiyalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tiliga o‘girishda eng ko‘p **ekvivalent tarjima (41%)** va **analog tarjima (34%)** usullaridan foydalanilgan. Masalan, ingliz tilidagi *«to be in the same boat»* iborasini o‘zbek tilidagi *«bir kemaning yo‘lovchisi bo‘lmoq»* analogi orqali berish mazmun va shakl mutanosibligini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Charles Dickens asarlaridagi frazeologizmlarni raqamli tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Dickens iadiomalardan personajlarning psixologik portretini chizishda asosiy qurol sifatida foydalanadi.
2. Raqamli lingvistika vositalari tarjima jarayonida muallifning uslubiy chastotasini saqlab qolishda beqiyos yordam beradi.
3. Ingliz va o‘zbek tillarining frazeologik tizimidagi farqlar tarjimondan yuqori darajadagi madaniy adaptatsiya mahoratini talab etadi.

Amaliy taklif sifatida: oliy ta'lim muassasalarida «Badiiy tarjima va raqamli texnologiyalar» nomli maxsus kurslarni joriy etish hamda Dickens asarlari uchun «Frazeologik sharhlar lug‘ati»ni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992.

3. Kunin A.V. English Phraseology: Theoretical and Practical Aspects. – Moscow, 1984.
4. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: OUP, 1991.
5. Anthony L. AntConc (Version 4.2.4) [Computer Software]. Tokyo, 2023. [URL: laurenceanthony.net]
6. Dickens C. Oliver Twist. Project Gutenberg. [URL: gutenberg.org/ebooks/730]

MA'NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR ORQALI SINGDIRISH

Hamroyeva Anora Faxreddenovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada an'anaviy tarbiya usullari bilan innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish, o'yin asosidagi ta'lim, raqamli texnologiyalar, loyihalashtirish va hamjamiyat bilan hamkorlik orqali qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan, interaktiv va hissiy jihatdan boy muhitda qadriyatlarni singdirish ularning shaxsiyati, ijtimoiy ko'nikmalari va madaniy identifikatsiyasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy meros, umuminsoniy qadriyatlar, maktabgacha ta'lim, innovatsion metodlar, qadriyatlar tarbiyasi, o'yin texnologiyalari, raqamli ta'lim, hamjamiyat hamkorligi.*

1. Kirish

Maktabgacha yosh davri – inson shaxsiyatining poydevori qo'yiladigan, dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadigan eng nozik va mas'uliyatli bosqichdir. Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida bolalarni nafaqat bilimlar, balki milliy ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar (mehr, halollik, bag'rikenglik, tabiatni asrash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik) asosida tarbiyalash dolzarb masalaga aylandi. An'anaviy dars shakllari ko'pincha bolaning faol ishtirokini va hissiy idrokini to'liq qamrab olmasligi sababli, innovatsion metodlarni joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishning zamonaviy yondashuvlari, ularning amaliy qo'llanilishi va samaradorligi tahlil qilinadi.

2. Ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati

Ma'naviy meros – xalqning asrlar davomida shakllantirgan axloqiy me'yorlari, urf-odatlari, folklori, san'ati, tarixiy xotirasi va diniy-ma'rifiy an'analari yig'indisidir. O'zbek xalqi uchun bu meros "O'g'itnoma", "Boburnoma", Navoiy asarlari, allomalar ijodi, milliy hunarmandchilik, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, kichiklarni izzatlash kabi qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Umuminsoniy qadriyatlar esa insoniyatning umumiy tajribasida shakllangan, madaniyatlararo chegaralardan o'tuvchi tamoyillardir: inson huquqlari, tenglik, adolat, tinchliksevarlik, ekologik ong, hamjihatlik va mas'uliyat hissi. Maktabgacha yoshda bu ikki qatlamni uyg'unlashtirish bolaning o'z kimligini anglashi bilan birga, ochiq dunyoqarashga ega bo'lishini ta'minlaydi.

3. Innovatsion metodlarning ahamiyati va turlari

An'anaviy "eslatish" yoki "buyruq berish" usullari bolalarda qadriyatlarni ichki ehtiyojga aylantira olmaydi. Innovatsion metodlar esa bolani faol sub'ekt sifatida jalb qilib, qadriyatlarni tajriba, hissiyot va amaliy harakat orqali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Asosiy innovatsion yondashuvlar:

1. O'yin asosidagi ta'lim (Play-based learning): Bolalar tabiatan o'yin orqali dunyoni o'rganadi. "Mehmondo'stlik burchagi", "Savdogar va xaridor", "Tabiat qo'riqchilari" kabi rolli o'yinlar orqali halollik, o'zaro yordam, mas'uliyat ko'nikmalari shakllanadi.

2. Interaktiv hikoyalar: Animatsion qo'g'irchoqlar, audio-kitoblar, interaktiv doskalar yordamida milliy ertaklar va ibratli hikoyalar jonlantiriladi. Bolalar hikoya yakunini o'zgartirish, qahramonlarga savol berish orqali axloqiy tanlovlarni mustaqil tahlil qilishni o'rganadi.

3. Loyihalashtirish usuli (Project-based learning): "Mening oilam tarixi", "Katta bobomning hunari", "Maktab bog'ini bezash" kabi loyihalar bolalarda tarixiy xotira, mehnatsevarlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Tabiatga asoslangan ta'lim (Nature-based education): Bog'dorchilik, hayvonlarga g'amxo'rlik, tabiat hodisalarini kuzatish orqali bolalarda ekologik ong, sabr-toqat va hayotga hurbat uyg'otiladi.

5. San'at terapiyasi va kreativ ifoda: Rasmlar chizish, loy bilan ishlash, milliy kuy-qo'shiqlar, raqslar va teatr elementlari orqali bolalar hissiyotlarini sog'lom yo'l bilan ifodalashni va go'zallikni anglashni o'rganadi.

4. Amaliy joriy etish mexanizmlari

Innovatsion metodlarning samarasi quyidagi shartlar bajarilganda ta'minlanadi:

- Muhandislik-muhitni tashkil etish: Guruh xonalarida "Qadriyatlar burchagi", "Tincliik o'yinchog'i", "Milliy hunarmandchilik miniatyuralari" kabi zonalarni yaratish. Materiallar bolalarning erkin foydalanishi uchun ochiq va xavfsiz bo'lishi kerak.

- Pedagogik kompetensiyani oshirish: Tarbiyachilar uchun "Qadriyatlar tarbiyasida innovatsiya", "Bolalar psixologiyasi va axloqiy rivojlanish", "Raqamli vositalardan foydalanish" bo'yicha malaka oshirish kurslari va master-klasslar tashkil etish.

- Ota-onalar hamjamiyati bilan integratsiya: "Oilaviy qadriyatlar kuni", "Bobo va buvi hikoyalari", "Birgalikda loyiha" tadbirlari orqali oila va bog'cha o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlash. Ota-onalar uchun treninglar va axborot byulletenlari tarqatish.

- Baholash tizimini modernizatsiya qilish: An'anaviy ball tizimi o'rniga kuzatuv jurnallari, portfolio, bolalarning o'z-o'zini baholash (oddiy tilda), va rivojlanish xaritalari asosida qadriyatlarning shakllanish darajasini dinamik kuzatish.

5. Qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari

Qiyinchilik	Yechim takliflari
Resurslar (moliyaviy, texnik) yetishmasligi	Mahalliy hokimiyat, NNTlar va homiylar bilan hamkorlik; qayta ishlangan materiallardan foydalanish; ochiq manbali raqamli kontentlardan foydalanish.
Pedagoglarning innovatsion tayyorgarligi pastligi	Uzluksiz professional rivojlanish tizimi, mentorlik, onlayn platformalar orqali tajriba almashish.
An'ana va innovatsiya o'rtasidagi ziddiyat	Qadriyatlarni zamonaviy kontekstda talqin qilish; milliy o'yinlarni raqamli formatda moslashtirish; ota-onalar bilan ochiq muloqot.

Qiyinchilik	Yechim takliflari
Samaradorlikni o‘lchash qiyinligi	Sifatli ko‘rsatkichlar (bolaning empatiya darajasi, kelishuvga qobiliyati, mas'uliyat hissi) bo‘yicha diagnostika vositalarini ishlab chiqish.

6. Xulosa

Ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni maktabgacha ta'limda singdirish nafaqat milliy identifikatsiyani mustahkamlash, balki kelajak avlodni globallashgan dunyoda o‘z o‘rnini topa oladigan, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishning kalitidir. Innovatsion metodlar bolaning yosh xususiyatlariga mos keladigan, hissiy va amaliy jihatdan boy tajriba yaratish orqali qadriyatlarni "bilish"dan "his qilish" va "amalda qo‘llash" darajasiga ko‘taradi.

Samarali natijaga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Davlat ta'lim standartlarida qadriyatlar tarbiyasining innovatsion mexanizmlarini aniq belgilash va moliyalashtirish.
2. Tarbiyachilarning raqamli savodxonligi va psixologik kompetensiyasini oshirish uchun markazlashtirilgan tizim yaratish.
3. Ota-onalar va mahalla institutlarini ta'lim jarayoniga faol jalb qiluvchi hamkorlik platformalarini joriy etish.
4. Qadriyatlar rivojlanishini baholashning sifatli, bolaga qaratilgan monitoring tizimini ishlab chiqish.

Kelajakda sun'iy intellekt, virtual reallik va adaptiv o‘quv dasturlaridan foydalanish orqali qadriyatlar tarbiyasini yanada shaxsiylashtirish va samaraliroq qilish mumkin. Biroq, texnologiya har doim insoniy munosabat, mehribonlik va an'anaviy donishmandlikni to‘ldiruvchi vosita bo‘lib qolishi kerak. Faqat shu muvozanat saqlangandagina, maktabgacha ta'lim haqiqiy ma'noda "insonni inson qilish" missiyasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishni takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi. – Toshkent: O'zR VM qarori, 2023-yil 15-mart, 145-son.
2. Abdullayeva M.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning zamonaviy usullari. – O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: "Tafakkur bo‘stoni", 2023. – 178 b.
3. Rahimova G.T. Bolalar bog‘chasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 94 b.
4. Yusupova N.A. O‘yin faoliyati orqali bolalarda qadriyatlarni shakllantirish. – Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2024. – 67–82-betlar.

ZAMONAVIY MEDIA DISKURSDA METAFORA VA IDIOMALARNING LISONIY ҲAMДA PRAGMATIK TADQIQI

Axtamova Maftuna Hoshimovna,
NIU magistranti,
Ilmiy rahbar: dotsent Usmanova R.M.

Annotatsiya: *Ushbu tezis ommaviy axborot vositalarida (OAV) metafora va idiomalarning qo‘llanilishini lingvistik hamda pragmatik jihatdan tahlil qiladi. Metafora va idiomalar axborotni o‘quvchilar ongiga yanada ta'sirchan va tez yetkazishda muhim*

vosita hisoblanadi. Tadqiqot zamonaviy gazeta va internet nashrlaridan olingan materiallar asosida metaforik ifodalar va idiomatik birliklarning semantik xususiyatlarini chuqur o'rganadi, ularning kommunikativ, manipulyativ va ideologik funksiyalarini aniqlaydi. Ingliz va o'zbek OAV materiallari qiyosiy tahlil qilinib, ular orasidagi umumiylik va farqli tomonlar ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot yakunida metafora va idiomalar ommaviy kommunikatsiyada nafaqat stilistik bezak, balki auditoriya ongiga ma'lum yo'nalishda ta'sir ko'rsatuvchi strategik til vositalari ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *metafora, idioma, OAV, pragmatika, semantika, diskurs stilistika, lingvistik tahlil.*

Abstract: *This thesis analyzes the use of metaphors and idioms in mass media from linguistic and pragmatic perspectives. Metaphors and idioms serve as essential tools for conveying information to the readers' minds more effectively and rapidly. Based on materials gathered from modern newspapers and online publications, the research examines the semantic characteristics of metaphorical expressions and idiomatic units, identifying their communicative, manipulative and ideological functions. By conducting a comparative analysis of English and Uzbek mass media materials, the study substantiates their similarities and differences on a scientific basis. The study concludes that metaphors and idioms function in mass communication not only as stylistic devices but also as strategic linguistic tools that exert directional influence on the audience's consciousness.*

Keywords: *metaphor, idiom, mass media, pragmatics, semantics, discourse stylistics, linguistic analysis.*

Аннотация: *В данном тезисе рассматривается использование метафор и идиом в средствах массовой информации (СМИ) с лингвистической и прагматической точек зрения. Метафоры и идиомы являются важными инструментами для более эффективного и оперативного донесения информации до сознания читателей. На основе материалов, собранных из современных газет и интернет-изданий, исследуются семантические особенности метафорических выражений и идиоматических единиц, выявляются их коммуникативные, манипулятивные и идеологические функции. Путем сравнительного анализа материалов англоязычных и узбекоязычных СМИ научно обосновываются их сходства и различия. В заключение доказывается, что метафоры и идиомы в массовой коммуникации выполняют не только функцию стилистического оформления, но и выступают стратегическими языковыми средствами, оказывающими направленное воздействие на сознание аудитории.*

Ключевые слова: *метафора, идиома, СМИ, прагматика, семантика, стилистика дискурса, лингвистический анализ.*

Kirish Hozirgi zamon tilshunosligida ommaviy axborot vositalari (OAV) mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan sohalardan biridir. OAV faqat axborot uzatish vositasi bo'lib qolmay, balki jamiyatda muayyan qarashlar, munosabatlar va dunyoqarashni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi kuchli kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontentni o'z qo'limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib beramiz. Chunki odamlardagi

yangilik, tahliliy ma'lumotlar, real voqealarga ehtiyojni biz to'ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi" [1].

Bu fikrlar OAVning nafaqat axborot tarqatish, balki jamiyat ongini shakllantirish va milliy manfaatlarini himoya qilishdagi strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Shu bois, OAVda qo'llaniladigan til birliklari - xususan **metafora** va **idioma**larni o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Metafora bir tushunchani boshqa tushuncha orqali ifodalashga asoslangan bo'lib, inson tafakkurining muhim kognitiv mexanizmlaridan biri hisoblanadi [2]. Idiomalarning tarkibiy jihatdan barqaror, ko'pincha ko'chma ma'noni anglatuvchi va tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan birliklar ekanligi ma'lum [3].

Tadqiqot metodologiyasi Ushbu tadqiqotning empirik bazasi 2023–2026 yillarga oid o'zbek va ingliz tillaridagi OAV materiallaridan tashkil topgan. Tadqiqotda sifatli diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis - CDA), Lakoff va Johnsonning kontseptual metafora nazariyasi, Fernando ning idioma nazariyasi hamda qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

O'zbek tilidagi "Xalq so'zi", "Kun.uz", "Daryo.uz" va boshqa nashrlardan 150 dan ortiq matn (sarlavhalar, maqolalar, sharhlar); ingliz tilidagi "The Guardian", "BBC", "CNN" nashrlaridan 120 dan ortiq matn tahlil obyekti sifatida olindi.

Tahlil va muhokama Zamonaviy media makonida metafora va idiomalar nafaqat stilistik bezak, balki semantik va pragmatik jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Ular axborotni obrazli va ta'sirli shaklda yetkazish bilan birga, auditoriya ongiga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, o'zbek tilidagi **"bozor qizib ketdi"** metaforasi iqtisodiy o'sishni jismoniy harakat (qizish) orqali ifodalaydi. Semantik jihatdan iqtisodiyotni jonli organizm sifatida ko'rsatsa, pragmatik jihatdan o'quvchida optimistik his-tuyg'u uyg'otib, iqtisodiy siyosatni ijobiy baholashga undaydi (perlokutiv ta'sir).

Ingliz tilidagi parallel misol - **"The economy is booming"** (Iqtisodiyot gullab-yashnamoqda). Bu yerda ham iqtisodiy o'sish tabiat hodisalari yoki kuchli harakat orqali metaforizatsiya qilinmoqda va o'xshash ijobiy emotsional ta'sir hosil qiladi.

Yana bir misol: o'zbekcha **"Muzokaralar to'xtab qoldi"** idiomatik ifodasi muzokaralarni harakatlanuvchi mexanizm sifatida tasvirlaydi va muvaffaqiyatsizlikni kuchaytirib, salbiy emotsional reaksiya hosil qiladi. Inglizcha parallel — **"The negotiations have hit a deadlock"** (Muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qoldi).

Qiyosiy tahlil natijalari (siyosiy diskurs misollarida):

– O'zbekcha: "Siyosiy maydonda keskin kurash davom etmoqda" → Inglizcha: "A fierce battle is raging on the political arena".

– O'zbekcha: "Iqtisodiyot pasaymoqda" (yoki "tushib ketdi") → Inglizcha: "The economy is sinking" yoki "The economy has taken a nosedive".

– O'zbekcha: "Yoshlar kelajagi porloq" → Inglizcha: "The future of the youth is bright" yoki "Youth are the rising stars".

Isakova (2025) hamda Nuriddinova va Mannonova (2025) ishlarida ta'kidlanganidek, o'zbek media matnlarida idiomalar milliy-madaniy va axloqiy nuanslarni kuchliroq aks ettirsa, ingliz nashrlarida ritorik va universal obrazlar ustunlik qiladi [4]. Shu bilan birga, har ikkala tilda ham ushbu til birliklari manipulyativ va ideologik funksiyalarni muvaffaqiyatli bajaradi.

Stilistik nuqtai nazardan, metaforalar matnga obrazlilik va ekspressivlik beradi, oddiy faktiv ma'lumotlardan farqli ravishda kuchli emotsional ta'sir yaratadi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalarida metafora va idiomalar auditoriya ongiga ta'sir etuvchi strategik quroldir. Metaforalar orqali abstrakt tushunchalar o'quvchiga tushunarli va obrazli shaklda yetkaziladi, idiomalar esa matnga ekspressivlik bag'ishlaydi hamda milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, har ikkala tilda ham ushbu birliklar kommunikativ, manipulyativ va ideologik funksiyalarni bajaradi, biroq ularning ifodalanishi va ta'sir kuchi milliy mentalitet va madaniy kontekstga bog'liq holda farqlanadi. Tadqiqot natijalari media diskursni chuqurroq anglashga va tilshunoslikning pragmatika va stilistika yo'nalishlariga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh.M. Xavfsizlik kengashi yig'ilishidagi nutq (2024-yil yanvar).
2. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press. – 1980, P. 45.
3. Fernando, C. *Idioms and Idiomaticity*. Oxford: Oxford University Press. – 1996, P. 12.
4. Isakova, D.F. Phraseological units in English and Uzbek media discourse. – 2025, P. 88.
5. Rahmatullayev, Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. -T.: Universitet., 2010.
6. Cruse, D.A. *Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press, 2000.
7. Yo'ldoshev, B. *Ommaviy axborot vositalari tili va uslubi*. - T., 2015
8. Halliday, M.A.K. *Language as Social Semiotic*. London: Edward Arnold, 1978.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA, INDIVIDUAL HAMDA GURUHIY SHAKLDA TASHKIL ETILADIGAN O`YINLAR VA ULARNING BOLA PSIXIKASIDAGI AHAMIYATI

Sanaqulova D.S.,
Navbahor tumani 36-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Anatatsiya. *Ushbu ommlashtirish ishida bugun yosh avlodga ta`lim, tarbiya berish jarayonida boshlang`ich poydevor boshlang`ich sinflarda qo`yilishi lozimligini inobatga olib, aynan shu mavzuga ilmiylik jihatdan yondashish to`g`ri bo`lishi, boshlang`ich sinf rahbarlariga psixologik bilm, malaka va ko`nikmalarni berish lozim degan xulosaga keltirilgan.Boshlang`ich ta`lim bu o`quvchi hayotining mazmuni va mohiyatini, qanday kechishini ta`minlab beruvchi davr bo`lib, aynan individdan shaxs sifatida shakllanib borish omilidir.*

Kalit so'zlar: *Maishiy, jismoniy, yuridek,tibbiy, ekspremintal,diagnostik ta`lim va tarbiyaviy guruhiy, individual,ma`naviy, intelektual, chiroyli yozuv malakasi, qo`l motorikasi, sensor harakatni rag`batlanirish, alifbo, sensor sezgilar, diqqat, idrok,tafakkur, psixik jarayonlar, krezes, akseleratsiya, vaqt, fazo, makon tushunchasi, o`smir.*

Kirish

Bugungi shiddatli rivojlanib kelayotgan asrimizda, nafaqat insoniyat ba'lki butun boshli bir jamiyat ma`nan yetuk, jismnonan salohiyatli kadrlarga ehtiyoj sezib kelmoqda. Kundalik turmushimizda biz qaysiki diagnostik, maishiy, jismoniy, yuridek,tibbiy, ekspremental ta`lim va tarbiyaviy sohalarga nazar tashlar ekanmiz, malakali kadrlarga duch kelishni istaymiz. Sifatsizko`rsatilgan xizmat yoki, talabga javob bermaydigan mahsulot uchun hech bir insonda haq to`lash yoki ish faoliyatiga murojaat etish istagi

tug`ulmaydi. Shunday ekan, biz bunday salohiyatli, malakali kadrlarni qayerda va qanday usulda rivojlantirish mumkin? degan savolga to`xtalib, mashhur psixolog Lesgrafning "Bolaning kichik maktab yoshida nafaqat o`zi ba`lki xulq-atvori ham shakllanadi" degan qarashini o`rinli deb keltiramiz. Bu fikrdan kelib chiqadiki,boshlang`ich ta`lim nafaqat bolani o`qish savodxonligini balkim, boladagi jismoniy taraqqiyot, xulq-atvor mexanizmalari ham shakllanishiga,sayqallanishiga sababchi bo`lib qoladi. Sharq allomlaridan Hazrati Alisher Navoiy, tib qonunlari asari muallifi Ibn Sinoning qarashlariga keltirib o`tsak, bola maktab ta`limga 6 yoshdan tortilmog`i lozim deyishgan. Biz yosh izlanuvchilarda bugungi kunda Ta`lim to`g`risida qonun, bola huquqlari to`g`risidagi Konvensiyalarda bola 7 yoshda intelektual, jismoniy, fizilolgik maktab ta`limiga tayyor deyishsa-yu, mutafakkirlar bolani 6 yoshdan maktab ta`limiga ber deb yoqlasalar. Har ikkala yo`nalish nomayondalari o`z qarashlarini ilmiy yoqlaydilar. Bugun psixologiya fanida ham yechimini kutayotgan izlayotgan masalalar bisyor. Chunki insonlar har qanday kasbda mehnat predmeti bilan mashg`ul bo`lsalar, bizning soha aynan shu soha su`byektlarini o`zini,ish sifatini, ishdan qoniqish darajasini qo`yinki uning kelajagini ham oldindan bashoratlab bermoqda.Psixologiya fani chuqur biladigan, fannining negizi tushungan, bugungi istiqboli va kelajagini yaqqol ko`ra oladigan mutaxassislar bugun jamiyatimiz uchun zaruratga aylanib bormoqda.

1.4-5 yoshdan boshlab 7-yoshgacha bo`lgan bolaning aqliy rivojida o`yin texnikasining o`rini

(35 daqiqa darsda bitta xonada kislarod kam muhitda muntazam o`tirib diqqati 15 daqiqa chalg`ib keyingi darslardagi qabul qilish ko`lami, jihati va sifatiga ta`sir etishini oldini olish maqsadida 15 minutlik psixologik mashg`ulotlar) bolalar toza havoda o`yin vaqtida bir xillikdan xonadagi havo ham kislarodga muhitdan chiqib, tanasi kislarod bilan boyib to`yinadi.

"O`qish darsi uchun"
"Harflar poezdi"

1.O`yining maqsadi 7-yoshda bolaning tafakkuri obrazli, diqqati aynan o`yinda faol, tasavvuri kengayishi, nutq rivoji uchun,xotiradi mustahkam o`rganadi.

Bolalar harflar kesimida alefbo joylashuvida yozuvli taxtachalarni tutgan holda stansiya bo`ylab poeyz ovozida harakatlanadi. Sinf rahbari stansiyada harakatlanayotgan poezdning stop kran tugmasini bosganda stop ishorasiga to`g`ri kelib qolgan vagon o`z harfini aytib taxtachasidagi yozuv shaklinni vagonlarga ko`rsatib chiqib o`rniga turadi. Sinf rahbar shu zaylda alifbodagi barcha harflarga tanlov orqali to`xtash belgisini beradi. Bolajonlar bu mashg`lot orqali harflarni mustahkamlaydi. Yozilishini ko`radi. Siqiq havosiz dimiq xonadan salqin soya hovlida manfaatli o`yin o`ynab keyingi darsga qaytadilar.

"Matimateka darsi uchun"
"Qani toping bu nechchi"

3.O`yindan maqsad. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat. O`yin avvalida bolalar stol ustida betartib qalashib yotgan raqamlar oldida raqamlarni yaxshi yod olgan va o`zlashtirishi biroz sust tartibda saflanishadi. Sinf rahbari boshlash ishorasini berishi bilan 1-sonli raqamdan bola soniga qarab raqamlar ketma- ketligi navbati bilan qidirib o`z o`rniga yopishirilib ortga qaytiladi. Bu jarayonda bolada ko`rish qobilayati, sensor sezgilar, diqqat, idrok,tafakkur ka`bi barcha jarayonlar birga raqamlarni mexanik holda eslab qolishga zo`r berib urinish holatda ko`zatishimiz mumkin. Shu o`rinda ustozimiz

Davletshen qarashlariga ko`ra, bolalarda bu yoshda mexanik xotira yoqqol nomoyonligini isbotlanadi.

"Bolada rang va shakllarni ajrata olmasliklari uchun"
"Rangli xalqachalarni mosni top"

Mashg`ulotdan maqsad. Boladagi ranglarni ajratish ko`nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish. Mashg`ulotdan oldin sport o`qituvchisi zal oxirida rangli xalqachalardan namuna sifatida bittada xalqachalarni joylashtirib chiqiladi. Bolalar ikki guruhga teng bo`linib, har birining qo`liga ikkitadan har xil rangdagi xalqalar beriladi. Bolalarga sport o`qituvchisi tomonidan, start belgisi berilishi bilan, navbat bilan o`quvchilar oq`lidagi xalqachasini xalqa osilgan ustunga to`g`ri ilib, tezlikda ortga yugurib, ikkinchi ishtirolchiga navbatni berishi lozim. Mashg`ulot yakunida sinf rahbari uchun manba sifatida guruh ishtirokchilarining ya`ni o`quvchisining rang ajtatish malakasi qanday bosqichdaligi yuzaga chiqib qoladi. Natija murabbiy, sinf rahbar tomonidan chuqur muhokama qilinmasdan. Sinf rahbarga natija o`zi uchun ahamiyat kasb etmog`i lozim.

2.Psixikaning yoshga oid ta`sirlanish va rivojlanish strukturasi

Kichik maktab yoshida maktabga o`qish masalasida kelgan o`quvchilarda dastlab qo`l motorikalarining sust rivojlanganigini yaqqol kuzatamiz mumkin. Dastlab, bolalar ruchka, qalam, flamaster, plastlen, aplekatsiyadan shakllar yasashga, ko`rsatilgan feguralarni qo`lda yozuv bilan qayta belgilashga ancha qiynaladilar. Bolaning aqliy tafakkuri o`zining yoshidan orqada qolgan o`quvchilarni ham birinchi sinfda uchratishimiz mumkin. Bolalarga maktabgacha ta`lim muasasalarida dasturdan kelib chiqgan holda, ko`proq sayrlar tasviriy grafikalik mashg`ulotlar o`tiladi. Bundan maqsad esa, adaptatsiya jarayonini sekin o`tkazish. Ammo, birinchi sinfga qadam qo`ygan bolalar endi maktabni butunlay boshqa dargoh ekanligini chuqur anglab yetadilar. Ularda diqqat ixtiyorsiz, tafakkur obrazli, ko`rgazmali hayol ko`lami esa qisman yoshiga mos sayozroq bo`ladi. Eng asosiy jihati diqqatni faqat 35 daqiqagini o`qish faoliyatiga qarata olishidadir. Bola MTMda bola diqqati sustlashgan faoliyatdan o`zi istagan boshqa mashg`ulotga o`tish imkoniga ega. Bu yoshda bola bir xil o`yindan zerikadi. Tez-tez o`yin turini almashtirib turadilar. Bola maktab faoliyatidachi? Bola35 daqiqadan keyin diqqati charchagach darsdan chiqib keta oladimi? Yoki dars turini almashtira oladimi? Asosiysi maktabdagi sinf rahbari bolaning bu jihatni, diqqatining ko`lam imkoniyati bilan bog`lay oladilarmi? Kuzatuvlarimiz natijasi sifatida to`liq bu savolga yo`q deb javob bera olamiz. Ba`zan sinf rahbar bola 45 daqiqa tanaffusga qadar o`tirishga majbur deb fikrlaydi. Uo`qishni mustahkam egallashi, fan asoslarini teran anglashi lozim tamoyiliga asosan, tashqariga chiqish istagini ham ko`p hollarda rad etadi. Hozirgi kunda bu masalaga yaqqol yechim sifatida 1-sinf darsliklarini rasmli, rangli tusda yorqin nashrda taqdim etilayotganligi muammoga yechim degan izohlarni ko`ramiz. Ammo, bola 45 daqiqa kitobning yoki darsliklarning bu jihatiga diqqat qaratib darsga kitobi uchun qiziqib, darsni so`ngiga qadar kuzatib, yakunlamayotganligi mavhumligicha qolib kelmoqda. Chunki, aksariyat bolalar asosiy mavzuni tushuntirish qismi tugashi bilan darsliklarni sumkasiga solishadi. Uy ishini darsnikni sumkasidan qayta olib, sinf rahbarining talabi bilan yozish holatlari kuzatiladi. Shuningdek, bolaning qo`l matorikasi rivojlanishi uchun u musiqa chalg`u asboblari bilan ishlamog`i lozim. Bu 1-sinf o`quvchisida estitek did, nafosat, sensor rivojlanishni ta`minlaydi. Ammo, dars jadvallarida musiqa fani haftasiga 1 kundan oyiga 4 soatligi qo`yilganligini guvohi bo`lamiz. Bolaning 7 yoshda umurutqa pog`onasi yumshoq elastikligini bilganligimiz holatida bolani muntazam parta, stulda diqqatni bir jismga qaratishni majburiy holat

sifatida izohlay olamiz. Chunki, bola bir yil oldin MTMda tendoshlari bilan o`z xohish-istagiga ko`ra o`ynab, o`yinqaroq bolakay bo`lib, bir yil o`tmasdan 45 daqiqa darsda o`tirishi lozim degan shartga bo`ysunuvchi shaxsga aylanishi ancha qiyin murakkab jarayon. Bu boshlang`ich sinf o`qituvchisida nafaqat fan asosi balki bolalar psixologiyasi fanini ham mukammal o`zlashtirish lozimligi talabini qo`yadi. Biz boshlang`ich ta`lim mutaxassislarini bu fan asoslaridan xabardorliklariga shubha bilan qaraymiz. Chunki, o`qituvchilar faqat o`z ixtisosliklaridan malaka oshirib shug`ullanishlarini kuzatamiz. Bolani ruhiyatidan umumiy tushunchaga ega emaslar. Boladagi bu nuqson va qusrlar yig`ilib borib yig`indisi o`quv yili so`ngida bola maktab kelish undov motivlarini qisman noto`g`ri ekanligini anglaganarida yuzaga keladi.Sinf rahbari bilan konflektli holatlar ham kuzatiladi. Endi bola "maktabga bormasamchi"? "Unda o`qish majburiymi deb?" savollar bera boshlaydilar. Boshlang`ich 7-10- yoshda egallab olingan bilm bola ongiga "Toshga o`yib bitilgan naqsh" singari muhrlanadi. Demakki, bola rivoji uchun kichik maktab yoshi shunchlik ahamiyat qaratish lozim ekanki, bola bilan ishlovchi boshlang`ich ta`lim muallimlarini nafaqat ixtisosligi, ba`lki bola psixikasi bola psixologiyasi fani bilan yaqindan tanishtirmog`imiz lozim degan xulosaga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G do`stmuhammedova Sh.A va "Yosh davrlar pedagogika psixologiyasi" TTDPU 2004
2.Hudayqulova X.J.Xolova O.Ch "Tarbiya ishlar metodikasi"(o`quv qo`llanma) Termiz 2020
3.Jalilova S.X, Aripova S.M Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent. Faylasuflar nashriyoti 2013
4.M.G.Davletshin,Sh. Do`stmuhammedova, M. Mavlonova, S.To`ychiyeva,M.Djumaboyeva Yosh va pedagogika psixologiyasi o`quv qo`llanma T 2020
5.Jalilova S.X Taraqqiyot psixologiyasi va deferinsial psixologiya Toshkent. Inavatsion ziyo 2020-yil
6.E.G`oziyev Umumiy psixologiya (psixologlar uchun darslik) birinchi kitob Toshkent 2002-yil

MILLIY URF-ODAT,QADRIYAT VA AN'ANALAR– TARBIYA ASOSI

Hosilova Xurshida,
Qiziltepa tumani 39-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda oila, ta'lim muassasalari hamda jamiyatning o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida shaxs kamolotini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan asoslangan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, tarbiya jarayoni, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, ma'naviyat, shaxs kamoloti, oila tarbiyasi, milliy tiklanish, umuminsoniy qadriyatlar.*

Qadriyat tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, inson va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalarni qamrab oladi. Milliy qadriyatlar esa muayyan millatning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va an'analari asosida shakllangan ma'naviy boylikdir. Ular asrlar davomida sinovdan o'tib, xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini ifoda etgan. Shuning uchun ham ularni asrab-avaylash, kelgusi avlodga yetkazish har bir insonning burchidir.

Mamlakatimizda yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli va mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyaning barcha shakl va usullari ichida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analar alohida o‘rin tutadi. Chunki aynan shu omillar orqali insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Insonning shaxs sifatida kamol topishida uning qaysi muhitda tarbiya topgani, qanday qadriyatlarga suyangani muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar shaxs kamolotiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ular insonda axloqiy sifatlarni — burch, vijdon, insoflik, mas’uliyat kabi tushunchalarni shakllantiradi. Shuningdek, do‘stlik, hamjihatlik, qo‘ni-qo‘shnichilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi insoniy fazilatlar ham aynan milliy qadriyatlar ta’sirida shakllanadi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan inson jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, atrofdagilarga foyda keltiradi.

Tarbiya darslarida milliy qadriyatlarni o‘rgatish o‘quvchilarda milliy ong va milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarga xalqimizning boy tarixi, urf-odatlari, an’analari haqida bilim berish orqali ularda Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, kelajakka ishonch tuyg‘usi rivojlanadi. Bu esa ularni faqat bilimli emas, balki ma’naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yordam beradi.

Tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila — bu insonning birinchi ijtimoiy muhiti, uning ma’naviy qiyofasi shakllanadigan muqaddas maskandir. Oiladagi muhit qanchalik sog‘lom va ma’naviy jihatdan boy bo‘lsa, farzand ham shunchalik barkamol bo‘lib voyaga yetadi. Ota-ona va kattalarning o‘zaro hurmati, mehr-oqibati, an’analarga sodiqligi bola uchun eng katta tarbiyaviy namuna hisoblanadi. Milliy urf-odatlar — to‘ylar, marosimlar, bayramlar, ota-bobolardan meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlar bola ongiga singib, uning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi.

Hozirgi zamonda turli axborot oqimlari, tashqi ta’sirlar kuchayib borayotgan bir sharoitda milliy qadriyatlarni asrash va ularni yosh avlod ongiga singdirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ota-onalar va pedagoglar bolalarning axloqiy qiyofasiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni o‘z vaqtida anglab, ularga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirishlari lozim. Bu esa, o‘z navbatida, milliy tarbiya tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda rivojlanishi zarur. Chunki bugungi globallashuv davrida inson nafaqat o‘z millati, balki butun insoniyat oldida mas’ul shaxs sifatida shakllanishi kerak. Tinchlikni saqlash, tabiatni asrash, ilm-fanni rivojlantirish kabi umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar bilan birgalikda inson tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy tiklanish jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Chunki aynan shu qadriyatlar orqali jamiyatda barqarorlik, ma’naviy yuksalish va taraqqiyot ta’minlanadi. Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimi esa barkamol, vatanparvar va mas’uliyatli avlodni voyaga yetkazishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Estetik qadriyatlar ham tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Insonning go‘zallikni his etishi, tabiat va san’at asarlaridan zavq olishi, haqiqiy va soxta go‘zallikni ajrata olishi uning ma’naviy kamolotini belgilaydi. Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan me’morchilik yodgorliklari, milliy musiqa, amaliy san’at namunalari bolalarda estetik didni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analar tarbiyaning mustahkam poydevori hisoblanadi. Ular insonni inson qiladigan, uning ma’naviy dunyosini boyitadigan va jamiyatda munosib o‘rin egallashini ta’minlaydigan

muhim omildir. Shuning uchun ham har bir oila, har bir ta'lim muassasasi o'z faoliyatida milliy qadriyatlarga tayanib ish yuritishi, ularni asrab-avaylab, kelgusi avlodga yetkazishi zarur. Faqat shundagina biz ma'naviy yetuk, barkamol va yuksak salohiyatli jamiyatni barpo eta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari*. – Toshkent, 2021.
4. Yo'ldoshev J. *Milliy tarbiya asoslari*. – Toshkent, 2021.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY VAZIFALARINI STEAM VA LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA INTEGRATSIYALASH

Yax'yayeva Nigora,
Qiziltepa tumani 5-AFCHO'M o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanining ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) va loyihaviy ta'lim asosida integratsiyalash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ekologik, axloqiy, estetik, vatanparvarlik va gigiyenik tarbiyani samarali tashkil etishning metodik asoslari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tabiatshunoslik, boshlang'ich ta'lim, STEAM yondashuvi, loyihaviy ta'lim, ekologik tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, vatanparvarlik, gigiyenik tarbiya, ilmiy dunyoqarash, integratsiya, kuzatish, tajriba, kompetensiya*.

Boshlang'ich ta'lim tizimida tabiatshunoslik fani o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarini shakllantirish bilan birga, ularning shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin egallaydi. Ushbu fan orqali o'quvchilar tabiat hodisalari, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi bog'liqliklar, inson va tabiat munosabatlari haqida dastlabki bilimlarni egallaydilar. Shu bilan birga, tabiatshunoslik ta'limi o'quvchilarda ekologik ong, axloqiy qadriyatlar, estetik did, mehnatsevarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM yondashuvi va loyihaviy ta'lim metodlarining qo'llanilishi tabiatshunoslik fanining mazmunini yanada boyitadi. STEAM yondashuvi o'quvchilarga fanlararo integratsiyani anglash, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Masalan, "Tabiatda suv aylanishi", "O'simliklarning o'sishi", "Atrof-muhitni muhofaza qilish" kabi mavzularni o'rganishda o'quvchilar nafaqat kuzatish va tahlil qilish, balki tajribalar o'tkazish, modellar yaratish, natijalarni taqdim etish orqali faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.Tabiatshunoslik fanining muhim vazifalaridan biri ekologik tarbiyani amalga oshirishdir.

O'quvchilarda tabiatga ongli munosabat, uni asrab-avaylash va muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu maqsadda loyiha asosida ta'limdan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, "Yashil makon", "Toza sinf", "Suvni tejaymiz" kabi loyihalar orqali o'quvchilar ekologik

muammolarni anglaydilar va ularni hal etishda bevosita ishtirok etadilar. tabiiy fandarslarida axloqiy tarbiya ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar tabiatdagi uyg‘unlik va muvozanatni anglash orqali insoniy fazilatlar – mehr-shafqat, mas'uliyat, hamkorlik kabi sifatlarni o‘zlashtiradilar. Guruhli ishlar, tajribalar va muhokamalar jarayonida o‘zaro hurmat va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.Estetik tarbiya esa tabiat go‘zalligini his etish, uni qadrlash va undan zavqlanish orqali rivojlanadi. O‘quvchilar tabiat manzaralarini kuzatish, rasmlar chizish, tasviriy ifoda vositalaridan foydalanish orqali o‘z estetik didlarini boyitadilar. Bu jarayonda STEAM yondashuvining "Art" komponenti muhim ahamiyat kasb etadi.Vatanparvarlik tarbiyasi ham tabiatshunoslik fanining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘quvchilar o‘z yurtining tabiiy boyliklari, iqlimi, flora va faunasi bilan tanishish orqali Vatanga bo‘lgan muhabbat va faxr tuyg‘ularini rivojlantiradilar.

Mahalliy materiallardan foydalanish, ekskursiyalar tashkil etish bu jarayonni yanada samarali qiladi.Bundan tashqari, sanitar-gigiyenik tarbiya o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida shaxsiy gigiyena qoidalari, to‘g‘ri ovqatlanish, toza muhitni saqlash kabi tushunchalar amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatiladi. Bu esa o‘quvchilarning sog‘lom hayot kechirishiga zamin yaratadi. Umuman olganda, tabiatshunoslik fanini STEAM va loyihaviy yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki hayotiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Natijada ular mustaqil fikrlay oladigan, ekologik ongli, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari*. – Toshkent, 2020.
2. Boshlang‘ich sinflar uchun tabiiy fan darsliklari (1–4-sinflar). – Toshkent, 2021–2023.
3. Yakman G. *STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education*. – 2018.

ONA TILI TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Bahora Sharifovna,
Qiziltepa tuman 5-AFCHO‘M o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ma'naviy barkamollikni shakllantirish masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kompetensiyaviy, refleksiv va integrativ yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligi pedagogik nuqtai nazardan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar; *boshlang‘ich ta'lim, innovatsion yondashuv, ma'naviy barkamollik, kompetensiya, refleksiya, integratsiya, ona tili darsi.*

Ona tili o‘qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog‘lanadi .Tilni egallash va nutq o‘stirish bilan o‘quvchilarning fikrlash qobilyati ham o‘sib boradi. Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Ona tili fani bu jarayonda asosiy o‘rin tutib, o‘quvchilarning nutqi, tafakkuri va xulq-atvorini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ona tili darslarini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, innovatsion yondashuvlar sodda, tushunarli va qiziqarli shaklda qo‘llanishi lozim. Kompetensiyaviy yondashuv asosida dars tashkil etilganda o‘quvchilar faqat qoidalarni yodlab qolmay, balki ularni kundalik hayotda qo‘llashni o‘rganadi. Masalan, to‘g‘ri gap tuzish, o‘z fikrini aniq va odob bilan ifodalash, suhbatda boshqalarni hurmat qilish kabi ko‘nikmalar o‘quvchilarning ma’naviy rivojiga xizmat qiladi.Refleksiv yondashuv boshlang‘ich sinflarda oddiy savol-javob va suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Dars oxirida o‘quvchilarga “Bugun nimani bildim?”, “Menga nima yoqdi?”, “Qanday yaxshi ish qildim?” kabi savollar berish orqali ularning o‘z-o‘zini baholash va fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Bu esa bolalarda halollik, o‘z xatti-harakatiga javobgarlik hissini shakllantiradi.

Integrativ yondashuv esa ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitishni nazarda tutadi. Masalan, tabiat haqidagi matnlarni o‘qish orqali bolalarda tabiatga mehr, uni asrash tuyg‘usi shakllanadi. Tarbiyaviy mazmundagi hikoyalar orqali esa do‘stlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat kabi insoniy fazilatlar rivojlanadi. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ma’naviy barkamolligini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinflarda konstruktiv yondashuvni qo‘llashda o‘quvchilarga mustaqil fikrlash imkonini berish muhimdir. Masalan, qisqa matn o‘qilgandan so‘ng “Qahramon nima uchun shunday yo‘l tutdi?”, “Sen uning o‘rnida nima qilarding?” kabi savollar orqali bolalar fikrlashga undaladi. Bu usul o‘quvchilarning nafaqat nutqini, balki axloqiy qarashlarini ham rivojlantiradi.

Kognitiv yondashuv asosida esa o‘quvchilarning fikrlash faoliyati rivojlantiriladi. Oddiy tahlil qilish, taqqoslash, hikoyani davom ettirish, rasm asosida matn tuzish kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rganadi. Bu esa ularning ongli ravishda to‘g‘ri xulosa chiqarishiga yordam beradi.Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish natijasida o‘quvchilar darsda faol ishtirok etadi, o‘z fikrini erkin ifodalaydi va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rganadi. Eng muhimi, ularda ijobiy xulq-atvor fazilatlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ma’naviy barkamolligini ham rivojlantiradi. Bu esa kelajakda barkamol, ongli va mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari.* – Toshkent, 2018.
2. Zamonaviy pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2022.
3. Karima Qosimova ,Safo Matchonov *Ona tili o‘qitish metodikasi* Toshkent 2022

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI FAOLLIGINI OSHIRISHDA TA'LIMIY VA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Abdurayimova Zarifa Rahmatillayevna,
Azimova Habiba Eshniyozovna,
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'yinni pedagogik jarayon strikturasida analiz qilish faqat psixologik hodisa bo'lib qolmay, balki pedagogik hodisa ekanligi shuningdek, didaktik va ta'limiy o'yinlar darsda ishni individuallashtirish har bir o'quvchining kuchiga mos topshiriq berish, ularni qobilyatini o'stirish imkonini beraish lozimligi bo'yicha taklif va tavsiyalar haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchi, mashg'ulot, o'yin, ta'lim-tarbiya, texnologiya, didaktika, xususiyat, energiya, muvozanat, daraja, vazifa, faoliyat.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается предложения и рекомендации по тому, как анализ игры в структуре педагогического процесса является не только психологическим явлением, но и педагогическим феноменом, а также дидактические и обучающие игры индивидуализация работы на уроке должна дать возможность каждому учащемуся дать соответствующее задание, развить свои способности.*

Ключевые слова: *ученик, занятие, игра, воспитание, технология, дидактика, свойство, энергия, равновесие, уровень, задача, деятельность.*

Abstract. *This article discusses suggestions and recommendations on how the analysis of the game in the structure of the pedagogical process is not only a psychological phenomenon, but also a pedagogical phenomenon, as well as didactic and educational games individualization of work in the lesson should enable each student to give the appropriate task, develop their abilities.*

Keywords: *student, occupation, game, education, technology, didactics, property, energy, balance, level, task, activity.*

O'yin tarbiya vositasi. O'yinni pedagogik jarayon strikturasida analiz qilish natijasida shu narsa aniqlandiki, o'yin faqat psixologik hodisa bo'lib qolmay, balki pedagogik hodisa hamdir.

Biroq o'yindan tarbiya masalalarini hal qilish uchun ongli ravishda foyda lanilgandagina u pedagogik hodisa shaklini oladi.

Pedagogik vazifa sifatida o'yin turli vazifalarni: tarbiya vositasi, ta'lim berish, metod vazifasini, shuningdek, bolalarni o'qitish usullari vazifasini bajaradi.

Didaktik o'yinlarning asosiy xususiyatlari shundaki, bularda to'g'ridan-to'g'ri ta'limga aloqador masalalar o'yin qoidalari niqobi ostida o'tadi.

Bola o'ynar ekan, o'rganaman deb o'ylamaydi, lekin o'yin jarayonida u nima gadir o'rganadi. Ta'lim bu yerda ataylabdan o'tilmaydi. Didaktik o'yinlarning qim mati shundaki, u kichkina bolalarning imkoniyatlariga javob beradi va ularning energiya sarflashlarini muvozanatlashtiradi. U ma'lum darajada ta'lim mazmunini qabul qilish va o'qitishni niqoblash kabi muhim xususiyatga egadir. Bola buni xayolga keltirmagan holda o'rganadi.Shuni ham aytish keraki, didaktik o'yinlarda, shaxsning tormozlanishi qobilyati, diqqatini o'sishi, kuzatuvchanlik kabi xususi yatilarining o'sishiga qaramay, bolalarning bevosita o'quv faoliyatini shakllantira di.

Didaktik va ta'limiy o'yinlar darsda ishni individuallashtirish har bir o'quv chining kuchiga mos topshiriq berish, ularni qobilyatini o'stirish imkonini beradi. "Har bir yaxshi

o‘yinning mehnat kuchi – mehnatni kuchaytirish va fikrlashni o‘stirish xususiyati bo‘ladi,“ –degan buyuk pedagok A. S. Makarenko.

O‘yin jarayonida o‘quvchilar dastlab faqat o‘yinga qiziqa boshlasa ,keyin chalik uni tezda o‘yin bilan aloqador material qiziqtira boshlaydi.Endi unda shu mavzuni o‘rganish, eslab qolish, o‘yinga qatnashish istagi paydo bo‘ladi.

O‘yin o‘quvchilar diqqatini osonligicha jalb qilishga ularning eng muhim va murakkab narsalarga voqea va hodisalarga qiziqishlarini uzoq vaqt ushlab qolishga yordam beradi. Misollarni bir xil usulda yechaverish o‘quvchilarni toliqtiradi, ze riktiradi o‘qishga qiziqishini yo‘qotadi. Shu misollarni o‘yin shaklida kim tez baja radi? usuli bilan echish esa o‘quvchilarni jonlantiradi. Endi ular aniq maqsad yo‘li da, ya’ni topshiriqlarni bajarishda g‘olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishiga qodir ekanini ko‘rsatish hissi bilan harakat qiladilar.

Didaktik va ta’limiy o‘yinlarni darsga moslashtirib tanlash va o‘quvchilarning ma’lum bir o‘yindan zerikkanlarini sezgach, uning yangi turlarini qo‘llash zarur. Tanlangan o‘yin qiziqarli, o‘quvchilarning yoshiga mos, qisqa vaqtga mo‘ljallan gan bo‘lishi kerak.

Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan jajji o‘quvchi undan qat’iy tartib-intizomni talab etuvchi muhitga tezgina moslashib, kirishib keta olmaydi, chunki yangi muhitda yolg‘iz his etadi. Shuning uchun kichik yoshdagi o‘quvchining fao liyati tipidagi o‘zgarishlarga moslanuvchanligini samarali hal etish uchun, avvalo, uning yoshlik davrini, maktabgacha yosh davridan maktab (davri) yoshiga o‘tish davri sifatida metodik jihatdan ta’minlash, ta’lim olishga puxta tayyorlash talab eti- ladi.

Ta’limiy o‘yinlar o‘quv samaradorligini oshirishning asosiy va qulay usul laridan biri hisoblanadi. Chunki, maktabga yangi kelgan bolalarga o‘yin faoliyati asosiy, yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bola 45 daqiqalik dars davomida zerikadi, ko‘ngli ko‘proq o‘yinga moyil bo‘ladi. Shuning uchun harakatli ta’limiy o‘yinlar bolaning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ongli munosabatini tarbiyalaydi.

Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalar bilim oladilar, topqirlik va hishyorlikka o‘rga nadilar. Ayniqsa o‘yinlarni hayotga bog‘lab musobaqa tarzida tashkil qilish bolalar faolligini va qiziquvchanligini yanada oshiradi.

Ta’limning o‘yinli faol texnologiyalari zamirida o‘quvchining maktab ta’lim-tarbiyasiga majburiylik, hadiksirab qarashdan, o‘qituvchi ko‘rsatmalarini aynan takrorlashdan xalos etish, uni ta’lim jarayonining faol subyektiga yo‘naltirish g‘o yasi yotadi.

- Bolaning o‘yin faoliyati unga undovchi sabab (motiv)kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog‘liqdir.
- Bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, am mo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib xohlaganlaricha erkin fao liyatda bo‘ladilar.
- Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ra vishda rivojlanishi uchun birdan –bir vositadir.
- O‘yin bolalar hayotida ko‘p qirrali faoliyatni keltirib chiqaradi.
- O‘yin bolalar uchun qudratli tarbiya vositasi hamdir. Chunki ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari hamda individual xislatlari shakl lanadi.
- Bolalarning o‘yin faoliyati turli hayoliy va afsonaviy obrazlar yaratish orqali ular da faol ijodiy yaratuvchanlik jarayonini yuzaga keltiradi. Quyida shunday ijodiy o‘yin

namunalaridan misollar keltirib o‘tamiz.

“So‘zning o‘rnini topish” o‘yini.

O‘yinni o‘tkazishdan oldin o‘qituvchi yozuv taxtada yoki kartochkada she’ riy parchalarni yozib tarqatadi. Kartochkadagi ayrim so‘zlar tushirib qoldiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan so‘zlarning o‘rnini topib yozishni talab etadi. Bunday o‘yinlarni o‘tkazish o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga va lug‘at boyligini oshirish ga yordam beradi. Namuna:

Bog‘ yashnaydi, Uy yashnaydi,

..... bilan. ..... bilan.

Dala yashnar Tog‘ yashnaydi

..... bilan..... bilan.

O‘quvchilar ochiq qolgan so‘zlar o‘rniga mos keladigan to‘g‘ri javobni to pib yozishlari kerak (bog‘bon, dehqon, bola, lola).

„Kim zukko” o‘yini.

O‘qituvchi har bir guruh oldiga, bir xil topshiriqlarni yozib beradi. O‘quv chilar topshiriqni guruhda muhokama qilib, javobni yozib topshiradi. O‘qituvchi guruhlarni yozib topshirgan javoblarini o‘qib g‘olib guruhni taqdirlaydi.

Masalan: O‘quvchilarga shunday so‘zlar berilganki, ular shu so‘zlarni o‘x shash tomonlarini ochib berishlari lozim.

ot – hayvon

ot – biror narsani oti ma’nosida

ot – so‘z turkumi

o‘t – o‘simlik

o‘t – ta’na a’zosi

o‘t – olov ma’nosida

o‘t – biror joyga o‘tish ma’nosida

Qaysi guruh so‘zlarni ko‘proq ma’no jihatlarini topa olsa, shu guruh g‘olib hisoblanadi.

Ijodiy izlanish o‘yini

Bundan o‘qituvchi hikoyadagi noto‘g‘ri gapni topish yoki hikoya mazmuniga mos bo‘lmagan gapni topishni aytadi. O‘quvchilar izlanadilar va bunday gapni to pib,nega ortiqcha ekanligini isbotlaydilar. Bunday o‘yinlardan 3-4- sinf o‘qish darslarida foydalanilsa yaxshi natija beradi, ko‘p vaqtni olmaydi,maxsus jihozlarni talab etmaydi.

Didaktik va ta’limiy o‘yinlarni o‘tkazishdan oldin o‘quvchilarni tayyorlash kerak. O‘yin jarayonida o‘quvchilar uchun umumiy qoida quydagicha bo‘ladi:

1. O‘yinning borishini, zarur harakatlarni, ularning uzluksizligini diqqat bilan tinglash va eslab qolish zarur;
2. O‘yindagi muvaffaqiyat maqsadni aniq tushuni betishida, natijani oldindan ko‘ra bilishdadir.O‘qituvchining ko‘rsatmalarini oxirgacha tinglamay turib o‘yinni bosh lashga shoshilmaslik kerak.

O‘yin qoidalari o‘quvchilarni jamoa bo‘lib harakat qilishga, hozir javob bo‘ lishga, o‘rtog‘ining javobini diqqat bilan tinglashga va to‘ldirishga, intizomli, o‘z xatolarini tan oluvchi sofdil bo‘lishga o‘rgatadi. O‘yin qoidalari o‘yinning olib borilishiga rahbarlik va tashkilotchilik vazifasini bajaradi, o‘yin jarayonida bolalar ning o‘zaro munosabatlarini boshqaradi. Shuningdek ,boshqalarning faoliyatlariga o‘z harakatlarini moslashtirib olib borishga, tirishqoqlik, sofdillik, ziyraklik kabi xislatlarni ham tarbiyalashga o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘yin jarayonida o‘quvchilar faoliyatini, o‘yin qoidalarini, ularni bajarish yo‘llarini doimo nazorat qilib, so‘ roqlar va luqmalar bilan o‘yini boshqarib turadi.

O‘qituvchi o‘yinning didaktik tomonlariga ko‘proq berilib, uning tarbiyaviy ahamiyatini ikkinchi darajaga qo‘y maslik kerak.O‘yinda sinfning barcha o‘quvchilari ishtirok etishi kerak.

Shuning uchun o‘yinga barcha bolalar javob bera oladigan, ularning qo‘lidan keladigan qisqa topshiriqlar tanlash kerak. Bolalarning uzoq vaqt o‘yinga kirisha olmasliklari qiziqishlarining susayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun topshiriqlar bir xil bo‘lmasligi kerak. Topshiriq berilgandan so‘ng o‘qituvchining qoidalarining ko‘rsa tib beradi. O‘yin jarayonida shaxsiy manfatdorlik paydo bo‘lgan, o‘quvchilarda faollik ijodiy fikrlash, o‘zi uchun, guruh uchun jonkuydirish kabi xislatlar paydo bo‘ladi. O‘qituvchi darsga tayyorlash jarayonida oldindan zarur didaktik mate riallarni tayyorlab qo‘yishi, o‘yinni uyushtirish, nazorat qilish yakunlash va baholash kabi barcha tadbirlarni belgilab qo‘yishi kerak.O‘yin o‘tkazish, o‘yin va ziyatini yaratish har bir darsda ham shu ham ahamiyat kasb etadi.

Bu ayniqsa, hali bolalar jiddiy diqqat bilan uzoq o‘tirishga o‘rganmagan birinchi sinf o‘quvchilari uchun taalluqlidir. Ular tez toliqadilar, diqqati zaiflashib qoladi, bir xillik ularni zeriktiradi.Shuning uchun o‘yin birinchi sinf o‘quvchilari o‘quv faoliyatini tashkil qilishdagi ish faoliyatini eng samarali usullaridan biri bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda evristik va muammoli ta’limdan tashqari bilishga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan ta’lim metodlaridan va o‘yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Boshlan g‘ich ta’limda ishbop, rolli, syujetli o‘yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, il- miy - ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo‘yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar ya ratish, insholar yozish innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ldi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kattalarning hatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ishbop o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo‘ljallangan ishbop o‘yinlar takrorlash, mustahkamlash, o‘tilganlarning qay darajada o‘rganilganligini (diktant lar, musobaqalar, krossvordlar, rolli o‘yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Ishbop o‘yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o‘yinlar faqat bilishga oid bo‘lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta’sir etishi bilan ham xarak terlidir.

Masalan, boshlang‘ich ta’limda “Nima uchun?”, “T-chizma”, “FSMU”, “Tar moq (Klaster)”, “Ikki qismlik kundalik” kabi innovatsion metodlardan foyda langanda o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

Ushbu yuqorida keltirilgan didaktik va ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilar tafak kurini oshiradi,dars davomida bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishga yangi mavzularni mustahkamlashga yordam beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan peda gogik jarayonda o‘quvchilar faoliyati ,tarbiyaviy faoliyat tizimli va muntazam tashkil etilsa ,bilishga qiziqish o‘quvchi shaxsining asosiy sifatlaridan biriga aylanadi va uning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Didaktik va ta’limiy o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda bilimga qiziqishni uyg‘otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo‘ladi.Bunday hol larda bolada

doimo yangilklar bilishga ishtiyoq uyg‘onadi. Bilishga qiziqishni mun tazam rivojlantirish va mustahkamlash kichik maktab o‘quvchilarining o‘qishga ijobiy munosabatlarini tarbiyalaydi ,o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Har bir dars jarayonida didaktik va ta'limiy o‘yinlarni o‘quvchilar qiziqish bilan bajaradi lar,mustaqil fikrlashni o‘rganadilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda o‘quv chilar muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan masalalarni hal qilish uslublari bilan tani shadi. Bugungi kun ta'lim oluvchidan faol harakat qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni, hayotning o‘zgarayotgan sharoitlariga tez moslashishni talab qilmoqda. Buning uchun ta'lim oluvchi zarur bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo‘llash; muammolarni yechishga qaratilgan qarashlarni taklif qilish, yangi muammolarni aniqlash va yechish; erkin va mustaqil fikrlash; innovatsion g‘oyalar yaratish qobiliyatiga ega bo‘lish; o‘zining intellektual salohiyati rivojlantirish ustida mustaqil ishlash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". T.: "Nihol", 2013.
2. O'.Tolipova - Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2019 y.
3. "Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023
4. U.B.Aydarova. O`qish savodxonligi. Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Qutliyeva Dilafro‘z To‘yboyevna,
Tilavova Dilnoza Hamroqulovna,
Mamirova Dilafro‘z Do‘stmurodovna,
Zarafshon shahar 2-umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘qituvchilari

Annotatsiya: *Matematika darslarida innovatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali, zamon talabiga mos dars o‘tishlari, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. Bu hozirgi davrda uzluksiz ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri ekanligi yoritib berilgan.*

Аннотация: *Использование инновационных технологий в математике, современных методов обучения, создание современных методик обучения, совершенствование государственных образовательных стандартов на основе компетентностного подхода. Это одна из важнейших задач системы непрерывного образования сегодня.*

Annotation: *The use of innovative technologies in mathematics, modern teaching methods, the creation of modern teaching methodologies, the improvement of state educational standards on the basis of a competency-based approach. This is one of the most important tasks of the continuing education system today.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiya, zamonaviy metodologiya, vosita, metod.*

Ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki undan tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limga innovatsion ta'lim deyiladi. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardan iborat deb aytish mumkin.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish maktab ta'limining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Jahonda ta'lim standartlari darajasida bilim berish hamda ta'lim innovatsiyalarini joriy etish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni voyaga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi, xususan, har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o'qituvchisi o'zining mutaxassisligini, chuqur o'zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo'lishi lozim. Har bir dars o'qituvchidan o'ziga xos innovatsiyalarni, ya'ni ijodiy yondashuvni talab qiladi. Matematika fani rivojlanishining asoslari boshqa fanlarning rivojlanishi kabi insoniyat faoliyatining ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Matematika darsida o'quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o'zaro uyg'unlikda bo'ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil qilish shakllari bilan uzviy bog'liq. Noan'anaviy ta'limda 4 ta komponent uyg'unlikda amalga oshiriladi.

Bular maqsad, mazmun, faoliyat, natija. Demak, hozirgi zamon matematikasi darsining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-darsning dastur talablariga mosligi;

-har bir dars maqsadlarining aniq rejalashtirilishi;

-o'quv materiallarining sinfda taqsim qilib, o'zlashtirilishini ta'minlash va ta'lim natijalariga erishish;

-o'quvchilarni sinfda toliqtirmasdan faol ishlarini ta'minlash;

Matematika darslarida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, ziyraklik, atrofga tanqidiy qarash, ishda tashabbuskorlik, mas'uliyat, to‘g‘ri va aniq so‘zlash, hisoblash, o‘lchash va yozuvlarda aniqlik, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlari tarbiyalanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda kichik guruhlarda ishlash usulidan foydalanish ancha samarali bo‘ladi. Bunday usulda o‘qitishda kichik guruhlar to‘rtta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzu mazmunini tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari yoki masalalar to‘rt qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi

har bir kichik guruh natijasini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Bunday mashg‘ulot shakllari va dars bir-birini to‘ldiradi. O‘quvchilarning matematika fanini o‘rganishga qiziqishlarini orttiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, matematika o‘qitish samaradorligini oshirish o‘quvchining ta'lim markazida bo‘lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarida yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarini va axborot texnologiyalarini biladigan, ularda o‘qish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Repyova. *Matematika.* Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008

O‘QUVCHILARDA STRESSGA CHIDAMLILIKNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Xolikova Xilola Gulamovna,
Karmana tumani 1-umumiy o‘rta ta'lim maktab psixologi Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o‘quvchilarida stressga chidamlilikni shakllantirishning dolzarbligi, nazariy asoslari va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o‘quvchilar duch kelayotgan psixo-emotsional zo‘riqishlar tahlil qilingan. Stressga chidamlilikni rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim, hamkorlik pedagogikasi, o‘yin texnologiyalari, art-terapiya kabi innovatsion tarbiyaviy texnologiyalarning roli va samaradorligi pedagogik tadqiqot natijalari asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus ishlab chiqilgan tarbiyaviy dasturlarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish, muammolarni konstruktiv hal etish va hissiy barqarorlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *stressga chidamlilik, tarbiyaviy texnologiyalar, o‘quvchi, psixologik salomatlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim, hissiy intellekt, pedagogik innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются актуальность, теоретические основы и практические аспекты формирования стрессоустойчивости у учащихся общеобразовательных школ. В статье анализируются психоэмоциональные нагрузки, с которыми сталкиваются*

учащиеся в современном образовательном процессе. На основе результатов педагогического исследования освещается роль и эффективность инновационных воспитательных технологий, таких как личностно-ориентированное обучение, педагогика сотрудничества, игровые технологии, арт-терапия, в развитии стрессоустойчивости. Результаты исследования показывают, что применение специально разработанных воспитательных программ значительно повышает у учащихся навыки самоконтроля, конструктивного решения проблем и эмоциональной стабильности.

Ключевые слова: *стрессоустойчивость, воспитательные технологии, учащийся, психологическое здоровье, личностно-ориентированное обучение, эмоциональный интеллект, педагогическая инновация.*

Abstract. *This article examines the relevance, theoretical foundations, and practical aspects of developing stress resistance in secondary school students. The article analyzes the psycho-emotional pressures faced by students in the modern educational process. Based on the results of pedagogical research, the role and effectiveness of innovative educational technologies, such as person-centered learning, collaborative pedagogy, game-based technologies, and art therapy, in developing stress resistance are highlighted. The research findings indicate that the implementation of specially designed educational programs significantly enhances students' skills in self-control, constructive problem-solving, and emotional stability.*

Keywords: *stress resistance, educational technologies, student, psychological health, person-centered learning, emotional intelligence, pedagogical innovation.*

KIRISH. XXI asr - globallashuv, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davri sifatida inson hayotining barcha jabhalariga, xususan, yosh avlod ruhiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda[1]**.** Axborot texnologiyalarining keng imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning inson psixikasiga bo‘lgan bosimi, tezkor hayot sur’atlari, ijtimoiy tarmoqlardagi virtual raqobat va emotsional charchoq holatlari yoshlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda o‘quvchilar ta’lim jarayonida o‘quv yuklamalarining ortishi, baholash tizimining murakkablashuvi, kelajak kasbini tanlashdagi noaniqlik, oilaviy va ijtimoiy bosim, shuningdek, internet makonidagi taqqoslash va tazyiq kabi ko‘plab stress omillari bilan to‘qnash kelmoqdalar. Natijada, o‘quvchilarda emotsional beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik, motivatsiyaning pasayishi, diqqat va xotira buzilishlari kabi holatlar kuzatilmoqda.

Shunday sharoitda **stressga chidamlilik** - bu o‘quvchining turli psixo-emotsional zo‘riqishlarga bardosh bera olish, salbiy hissiyotlarni nazorat qilish, to‘sqinliklarga qaramay o‘z faoliyatini davom ettirish hamda ijobiy ruhiy holatni saqlab qolish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilarni hayotiy qiyinchiliklarga tayyorlash, ularning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlarida yoshlarni **jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, intellektual salohiyatli** shaxslar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan[2].

[1]*O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.*

[2]*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.*

Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ruhiy barqarorligini, stressga bardoshliligini mustahkamlash ham ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim.

Mazkur jarayonda **tarbiyaviy texnologiyalar** alohida o'rin tutadi. Zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalar - bu o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning individual xususiyatlarini inobatga olish, o'z-o'zini boshqarish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish hamda ijobiy psixologik muhit yaratishga qaratilgan interaktiv yondashuvlardir. Ular o'quvchilarda stress holatlarini boshqarish, emotsional intellektni rivojlantirish va ijtimoiy-psixologik muvozanatni saqlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi - o'quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirishda zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarning o'rni va samaradorligini nazariy jihatdan asoslash va amaliy tadqiqot natijalari orqali tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ob'yekti etib umumta'lim maktablaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni, predmeti sifatida esa tarbiyaviy texnologiyalar vositasida o'quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish jarayoni tanlandi. Tadqiqot gipotezasi: agar ta'lim-tarbiya jarayoniga o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos keladigan, tizimli va maqsadli yo'naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalar kompleksi joriy etilsa, bu ularning stressga chidamlilik darajasini sezilarli ravishda oshirishga, o'zlashtirish samaradorligi va umumiy psixologik farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maqolaning vazifalari

- O'quvchilarda stressga chidamlilik tushunchasining mohiyatini, psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilish;
- Stressga sabab bo'luvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning o'quvchilarga ta'sirini o'rganish;
- Tarbiyaviy texnologiyalar tizimida stressga bardoshlilikni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish;
- O'quvchilarning stress holatlarida o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantiruvchi interaktiv metodlarni amaliyotga tatbiq etish;
- O'quvchilarning stressga chidamliligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqolaning ilmiy yangiligi:

- O'quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish jarayoni tarbiyaviy texnologiyalar nuqtai nazaridan tizimli yondashuv asosida o'rganildi;
- Stressga bardoshlilikni rivojlantiruvchi pedagogik omillar aniqlanib, ularning amaliy ta'siri tahlil qilindi;
- O'quvchilarning emotsional barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan interaktiv tarbiyaviy texnologiyalar majmuasi taklif etildi;
- Stress holatlarida o'quvchi shaxsining psixologik tayyorgarligini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili. Stress va unga chidamlilik muammosi jahon psixologiya fanida uzoq yillardan beri o'rganib kelinadi. G. Selyening "Umumiy adaptatsion sindrom" nazariyasi stressning fiziologik mexanizmlarini ochib bergan[3]. R. Lazarus va S. Folkmanning kognitiv-tranzaksion modeli stressni shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro

munosabat sifatida talqin qilib, uni yengish strategiyalariga (coping strategies) alohida e'tibor qaratadi. Ushbu nazariyalarga ko'ra, stressga chidamlilik tug'ma xususiyat bo'lmay balki hayot davomida o'rganiladigan va rivojlantiriladigan dinamik xususiyatdir.

Pedagogik nuqtai nazardan, o'quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish masalasi Sh.A. Amonashvili, V.A. Suxomlinskiy kabi gumanistik pedagogika namoyandalarining asarlarida o'z aksini topgan. Ular bolaning shaxsiyatini hurmat qilish, unga ishonch bildirish, muvaffaqiyat situatsiyalarini yaratish orqali uning o'ziga bo'lgan ishonchini va psixologik immunitetini mustahkamlash mumkinligini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonda ham ushbu mavzu bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. M.G. Davletshin, E.G'. G'oziyev, V.M. Karimova kabi olimlarning ishlarida o'smirlar psixologiyasi, shaxs shakllanishidagi inqirozli davrlar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganilgan. So'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda (masalan, N.S. Safayev, Z.T. Nishonova) innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Biroq, aynan tarbiyaviy texnologiyalarning o'quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirishga tizimli ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, stress va tarbiyaviy texnologiyalar ko'pincha alohida-alohida o'rganilgan bo'lib, ularni o'zaro bog'liqlikda, yaxlit tizim sifatida tadqiq etish ilmiy va amaliy ehtiyoj bo'lib qolmoqda.

Mavzuning tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot maqsadi va gipotezasidan kelib chiqqan holda, quyidagi metodlar kompleksidan foydalanildi:

1. Nazariy metodlar: mavzuga oid psixologik, pedagogik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish.
2. Empirik metodlar:
3. Kuzatish: o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatlardagi xulq-atvorini, o'zaro munosabatlarini, qiyin vaziyatlarga reaksiyalarini kuzatish.

[3]*Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: Uchebnoe posobie. – M.: Narodnoe obrazovanie, 1998. – 256 s.*

4. So'rovnoma: o'quvchilar duch keladigan asosiy stress omillarini, ularning stress holatidagi hissiyotlari va xatti-harakatlarini aniqlash maqsadida maxsus anketalar o'tkazish.
5. Psixodiagnostik testlar: o'quvchilarning stressga chidamlilik darajasini baholash uchun "O'smirlar uchun stressga chidamlilik shkalasi" (moslashtirilgan variant) va Spilberger-Xaninning vaziyatli va shaxsiy xavotirlikni o'lchash metodikasi qo'llanildi.
6. Pedagogik eksperiment: tadqiqotning asosiy metodi bo'lib, u uch bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari. Eksperiment uchun ikkita guruh - tajriba va nazorat guruhlari tanlab olindi (har birida 30 nafardan o'quvchi).
7. Matematik-statistik metodlar: olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish va ularni qayta ishlash uchun ma'lumotlarni statistik tahlil qilish (masalan, Studentning t-mezoni) qo'llanildi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida tajriba guruhi bilan "Psixologik chiniqish" deb nomlangan maxsus dastur asosida mashg'ulotlar olib borildi. Dastur o'z ichiga quyidagi tarbiyaviy texnologiyalarni qamrab oldi: shaxsga yo'naltirilgan muloqot, rolli o'yinlar, art-terapevtik mashqlar (rasm chizish, loy bilan ishlash), hamkorlikda loyihalar bajarish, muvaffaqiyat kundaligini yuritish, relaksatsiya va mindfulness (ongli hozirlik) texnikalari. Nazorat guruhi esa an'anaviy ta'lim dasturi asosida o'qishni davom ettirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqotning aniqlovchi bosqichida o'tkazilgan diagnostika natijalari tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning stressga chidamlilik darajasi deyarli bir xil ekanligini va asosan o'rta va past ko'rsatkichlarda ekanligini ko'rsatdi. So'rovnomalar o'quvchilar uchun asosiy stress manbalari imtihonlar, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan qo'yiladigan yuqori talablar, tengdoshlar bilan kelishmovchiliklar va kelajak oldidagi noaniqlik ekanligini aniqladi.

Shakllantiruvchi eksperimentdan so'ng o'tkazilgan nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y berganini tasdiqladi. Quyidagi jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining eksperimentdan oldingi va keyingi ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan.

Stressga chidamlilik darajasi	**Tajriba guruhi (n=30)**		**Nazorat guruhi (n=30)**	
	Eksperimentgacha	Eksperimentdan so'ng	Eksperimentgacha	Eksperimentgacha
Yuqori	3	13	5	4
O'rta	14	15	14	16
Past	13	2	12	9







Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eksperimentdan so'ng tajriba guruhida **yuqori darajadagi stressga chidamli o'quvchilar soni 3 nafardan 13 nafarga** oshgan, ya'ni 10 nafar o'quvchida sezilarli ijobiy o'zgarish kuzatilgan. Shuningdek, **past darajadagi** o'quvchilar soni **13 nafardan 2 nafarga** kamaygan. Bu esa qo'llangan tarbiyaviy texnologiyalar o'quvchilarning psixo-emotsional barqarorligini oshirishda samarali natija berganini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o'zgarish kuzatilmadi: yuqori darajadagi o'quvchilar soni **5 nafardan 4 nafarga** kamaygan, o'rta darajadagi o'quvchilar soni biroz oshgan (**14 nafardan 16 nafarga**), past darajadagi o'quvchilar soni esa **12 nafardan 9 nafarga** kamaygan, biroq bu o'zgarishlar tajriba guruhidagiga nisbatan sustroq kechgan.

Umuman olganda, tajriba guruhi natijalari o‘quvchilarda stressga bardoshlilikni shakllantirishda **zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi**. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning o‘zini boshqarish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va emotsional muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam bergan.

Sifat tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

1. Kognitiv darajada: muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlar topish va rejalashtirish ko‘nikmalari rivojlandi. O‘z-o‘ziga nisbatan negativ fikrlar kamayib, pozitiv ustanovkalar shakllandi (“Muvaffaqiyat kundaligi” texnologiyasi bunda katta yordam berdi).

2. Hissiy darajada: o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish (hissiy intellekt) qobiliyati oshdi. Art-terapiya va relaksatsiya mashqlari orqali xavotirlik darajasi pasaydi, hissiy barqarorlik mustahkamlandi.

3. Xulq-atvor darajasida: ziddiyatli vaziyatlarda agressiv yoki passiv xulq-atvordan voz kechib, o‘z fikrini ishonch bilan bayon etish (assertivlik) va hamkorlikka asoslangan muloqot strategiyalarini qo‘llashga o‘tish kuzatildi (“Rolli o‘yinlar” texnologiyasi samarasi).

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlil va amaliy tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy o‘quvchilarning psixologik salomatligi uchun stress omillari jiddiy xavf tug‘diradi va ularda stressga chidamlilikni shakllantirish ta’lim tizimining muhim vazifasidir.

2. Stressga chidamlilik - bu shaxsning murakkab, ko‘p komponentli xususiyati bo‘lib, uni maqsadli pedagogik ta’sir orqali rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda an’anaviy tarbiya usullari yetarli samara bermaydi.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hamkorlik pedagogikasi, o‘yin, art-terapiya, trening kabi zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarni tizimli va kompleks tarzda qo‘llash o‘quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchining shaxsiy resurslarini faollashtirishga, o‘z-o‘zini anglashiga, hissiy intellektini rivojlantirishga va ijtimoiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

4. Tadqiqot gipotezasi o‘zining to‘liq tasdig‘ini topdi: maxsus ishlab chiqilgan dastur asosida tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llash tajriba guruhidagi o‘quvchilarning stressga chidamlilik ko‘rsatkichlarini nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshirdi. Bu esa o‘z navbatida ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi va umumiy kayfiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

TAVSIYA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiya va takliflar ishlab chiqildi:

Maktab ma’muriyati va pedagoglar uchun:

Har bir maktabda o‘quvchilarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Psixologik xizmat” faoliyatini kuchaytirish, uni shunchaki diagnostika bilan cheklanmay, balki profilaktik va rivojlantiruvchi ishlar bilan kengaytirish.

O‘qituvchilar uchun zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalar, emotsional kuyishning oldini olish va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish bo‘yicha malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etish.

“Sinf soati” mashg‘ulotlari doirasida stressni boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash (time management), ziddiyatlarni hal qilish kabi hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi maxsus dasturlarni joriy etish.

Ta’lim tizimi mutasaddilari uchun:

Umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlari va darsliklarga ijtimoiy-hissiy ta’lim (Social-Emotional Learning-SEL) komponentlarini integratsiya qilish.

Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalariga bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyalar bilan qurollantiradigan maxsus kurslarni kiritish.

Kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun:

1. **Stressga chidamlilikning yosh xususiyatlari bo‘yicha tahlilini chuqurlashtirish.**

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda turli yosh guruhlari — boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarining stressga bardoshlilik darajasini taqqoslab o‘rganish, yoshga xos psixologik omillarni aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, tarbiyaviy texnologiyalarni yoshga moslashtirish imkonini beradi.

2. **Stressni kamaytiruvchi tarbiyaviy texnologiyalarni amaliy sinovdan o‘tkazish.**

Ilmiy izlanishlar jarayonida o‘quvchilarda stress holatini yengillashtiruvchi interaktiv o‘yinlar, refleksiv mashg‘ulotlar, art-terapiya, treninglar va “psixologik dam olish” dasturlarining samaradorligini eksperimental jihatdan baholash tavsiya etiladi.

3. **Raqamli ta’lim muhiti sharoitida stress omillarini tadqiq etish.** Onlayn ta’lim, ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalarining o‘quvchilar psixikasiga ta’sirini chuqur o‘rganish, raqamli stressga bardoshlilikni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb yo‘nalishlardan biridir.

4. **O‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga oid tadqiqotlar.** Stressni boshqarish va o‘quvchilarda psixologik barqarorlikni shakllantirishda o‘qituvchining kommunikativ madaniyati, empatiyasi va emotsional intellektining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Shu bois, pedagoglarning stressga chidamlilikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

5. **Oilaviy omillar va ijtimoiy muhit ta’sirini o‘rganish.** O‘quvchilarda stressning paydo bo‘lishi va uni yengish mexanizmlarida oilaning roli, ota-onalar munosabati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining o‘rni bo‘yicha kompleks tadqiqotlar o‘tkazish muhim ilmiy natijalarga olib keladi.

6. **Milliy mentalitet va qadriyatlar asosida stressga bardoshlilikni rivojlantirish.** O‘zbek xalqining milliy tarbiya an’analari, axloqiy qadriyatlari, jamoaviylik tamoyillari va ijobiy ijtimoiy munosabatlar tizimidan foydalanib, stressga qarshi tarbiyaviy model yaratish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

7. **Stressga chidamlilikni baholashning diagnostik vositalarini takomillashtirish.** Mahalliy ta’lim tizimiga mos, o‘quvchilar psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi milliy diagnostik metodikalarni ishlab chiqish kelgusidagi tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa sifatida shu aytishim mumkinki, kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar o‘quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish jarayonini yanada mukammal o‘rganish, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, ularni ta’lim amaliyotiga samarali joriy etish orqali yosh avlodning ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [1]O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
2. [2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
3. [3]Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: Uchebnoe posobie. - M.: Narodnoe obrazovanie, 1998. - 256 s.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 kitob. - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 614 b.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. - 204 b.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. - 208 b.
7. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixodiagnostikasi. - Toshkent: “TDPU”, 2017. - 256 b.
8. Amonashvili Sh.A. Razmyshleniya o gumannoy pedagogike. - M.: Izdatelskiy Dom Shalvy Amonashvili, 1996. - 496 s.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI MILLIY QADRIYATLAR VA MA’NAVIY – AXLOQIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISH

Majidova Gulbahor Inatullayevna,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy barkamollikni shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Unda interfaol metodlarning o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qadriyatlar, jumladan urf-odatlar, an’analar, milliy kiyimlar, xalq og‘zaki ijodi va marosimlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, interfaol metodlar, milliy qadriyatlar, ma’naviy barkamollik, pedagogik innovatsiya, o‘quvchi faolligi, axloqiy tarbiya, milliy meros.*

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda ,O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishi ta’lim-tarbya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish,o‘quvchilarga zamonaviy metodlar orqali darslarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularni ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy fazilatlari shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu

bois, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki tarbiyaviy jarayonni ham chuqurlashtiradi.

Ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an'analari, milliy kiyimlari, marosimlari va ma'naviy merosining uzviy qismidir. So'nggi yillarda ushbu qadriyatlarni rivojlantirish, ularni yoshlar orasida keng targ'ib qilishga qaratilgan islohotlar ta'lim jarayoniga ham faol tatbiq etilmoqda. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan innovatsion yondashuvni talab etadi.Interfaol metodlar o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ular orqali o'quvchilar bilimni tayyor holda emas, balki izlanish, muhokama va amaliy faoliyat orqali egallaydi. Bu esa bilimlarning mustahkam va ongli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Interfaol metodlar o'quvchilarda muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Guruhli ishlash metodida o'quvchilar kichik jamoalarda faoliyat yuritib, milliy qadriyatlar bilan bog'liq mavzularni o'rganadilar. Masalan, "Navro'z bayrami", "Mehmondo'stlik an'analari", "Kattalarga hurmat", "Milliy kiyimlar" kabi mavzular asosida muhokamalar tashkil etiladi. Bu jarayonda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etadi, boshqalarning fikrini tinglaydi va jamoaviy qaror qabul qiladi

Rolli o'yinlar va dramatizatsiya metodlari o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali axloqiy me'yorlarni amaliy tarzda o'zlashtiradi. Masalan, "Mehmon kutish odobi", "Do'stlik va hamjihatlik", "Ota-onaga hurmat" kabi sahna ko'rinishlari orqali ular ijobiy xulq-atvor namunalarini egallaydi. Muammoli ta'lim metodlari esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarga "Nima uchun milliy qadriyatlarni saqlash muhim?", "Yaxshi inson qanday bo'lishi kerak?", "Jamiyatda odob-axloqning o'rni nimada?" kabi savollar berilib, ular ustida bahs-munozara olib boriladi. Bu esa o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi va ularni hayotiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi

"Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Baliq skeleti" kabi interfaol metodlar ham boshlang'ich ta'limda keng qo'llanilib, o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydi, sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunadi va o'z bilimlarini erkin ifodalaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish interfaol ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Multimedia vositalari, videodarslar, interfaol taqdimotlar orqali milliy qadriyatlar yanada jonli va qiziqarli tarzda yetkaziladi. Bu esa o'quvchilarning diqqatini jalb etadi va o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi

Ijodiy loyihalar va mustaqil topshiriqlar o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar hikoya yozish, rasm chizish, sahna ko'rinishlari tayyorlash, taqdimotlar yaratish orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Bu esa ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy barkamollikni shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularni ijtimoiy faol, axloqiy yetuk va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy o'qituvchi interfaol yondashuvlar orqali ta'lim mazmunini boyitib, milliy merosni yosh avlod qalbiga chuqur singdirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Sh. "Boshlang'ich sinf pedagogikasi va innovatsion metodlar". – Toshkent, 2021.
2. Rahmonova D. "Milliy qadriyatlar asosida tarbiya". – Toshkent, 2020. .
3. Xolbekov N. "Boshlang'ich sinfda axloqiy tarbiya metodikasi". – Toshkent, 2022.
4. Yoqubov M. "Milliy merosni pedagogik jarayonda saqlash va rivojlantirish". – Toshkent, 2021.

MA'NAVIY MEROSNI ANGLASH VA O'QISH SAVODXONLIGI: INNOVATSION YONDASHUV VA MUAMMOLI SAVOLLAR INTEGRATSIYASI

Muxammadiyeva Nafosat Isoyevna,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlarning o'rni keng yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda muammoli savollardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan metod va usullar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy meros, o'qish savodxonligi, innovatsion yondashuv, muammoli savollar, tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar.*

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omillaridan biri sifatida nafaqat bilimlarni uzatish, balki shaxsning har tomonlama – intellektual, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va ma'naviy merosni asrab-avaylash masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarga ma'naviy merosni o'rgatish, uni chuqur anglashga yo'naltirish hamda mazkur bilimlarni hayotiy faoliyat bilan bog'lash ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'z-o'zidan amalga oshmaydi, balki o'qitishning zamonaviy, innovatsion yondashuvlari orqali samarali tashkil etilishi zarur.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq.Binobarin,fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham bo'ladi.Masalan,eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi.Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma`nosini tushunishga ,o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e`tibor berilmagan.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni faqat matnni o'qishga o'rgatish yetarli emas, balki ularni o'qilgan axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yo'naltirish muhimdir. Bu esa o'qish savodxonligi tushunchasining kengroq mazmun kasb etayotganini ko'rsatadi. O'qish savodxonligi – bu nafaqat matnni tushunish, balki undagi yashirin g'oyalarni anglash, muallif pozitsiyasini aniqlash, o'z fikrini asoslab bayon qilish va real hayot bilan bog'lay olish qobiliyatidir. Shu bois, mazkur kompetensiyani shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, muammoli savollar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni alohida ahamiyatga ega.

Ma'naviy merosni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni dars jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Masalan, "Klaster" metodidan foydalanish orqali o‘quvchilar muayyan tushuncha atrofida mustaqil fikr yuritadi va uni kengaytiradi. "Ota-onaga hurmat" mavzusida tashkil etilgan klaster mashg‘ulotida "hurmat" tushunchasi turli semantik birliklar – ehtirom, mehr, yordam, itoat, qadrlash kabi tushunchalar bilan boyitiladi. Bu esa o‘quvchilarning mavzuni faqat yuzaki emas, balki tizimli va chuqur anglashiga olib keladi.

"Aqliy hujum" metodi esa o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Nima uchun ajdodlarimiz ilmga katta e'tibor bergan?" degan savol asosida o‘quvchilar ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, jaholatga qarshi kurashdagi ahamiyati hamda shaxs kamolotidagi rolini turli nuqtai nazardan izohlaydi. Bu jarayonda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, o‘z fikrini asoslash va boshqalarning qarashlariga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalari shakllanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa ta'lim jarayonini vizuallashtirish, uni yanada qiziqarli va ta'sirchan qilish imkonini beradi. Tarixiy shaxslar yoki milliy qadriyatlar haqida videomateriallar orqali berilgan ma'lumotlar o‘quvchilarda kuchli emotsional taassurot uyg‘otadi. Bu esa ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki olingan bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga ham yordam beradi. Videodan so‘ng beriladigan muammoli savollar esa o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini yanada chuqurlashtiradi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda muammoli savollarning o‘rni beqiyosdir. Bunday savollar o‘quvchini tayyor bilimni qabul qilishdan ko‘ra, mustaqil izlanishga, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga undaydi. Masalan, saxovat haqidagi matn asosida berilgan savollar o‘quvchini qahramonning xatti-harakatlarini tahlil qilishga, uning motivlarini anglashga va o‘z shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga olib keladi. Bu esa o‘qish jarayonini passiv qabul qilishdan faol tahlil qilish bosqichiga olib chiqadi.

Hayotiy vaziyatlarga asoslangan savollar esa o‘quvchilarning axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi. Masalan, do‘stiga yordam berish yoki shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish kabi vaziyatlar o‘quvchini ichki qadriyatlari asosida qaror qabul qilishga majbur qiladi. Bu esa tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Taqqoslashga asoslangan savollar esa o‘quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiradi. Qadimgi va zamonaviy qadriyatlarni solishtirish orqali o‘quvchilar tarixiy jarayonlarni tushunadi, qadriyatlarning evolyutsiyasini anglaydi va o‘z pozitsiyasini shakllantiradi. Bu esa ularda tarixiy tafakkur va ijtimoiy ongni rivojlantiradi.

Muammoli savollarni qo‘llashning bosqichma-bosqich tashkil etilishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Dastlab muammo qo‘yiladi, so‘ngra o‘quvchilar muhokamaga jalb etiladi, keyinchalik tahlil bosqichi amalga oshiriladi va yakunda umumiy xulosa chiqariladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash zanjirini shakllantiradi hamda ularni ilmiy mushohada yuritishga o‘rgatadi.

Integratsiyalashgan yondashuv esa turli fanlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta'minlaydi. Masalan, adabiyot darsida halollik mavzusini o‘rganish jarayonida uni kasbiy faoliyat bilan bog‘lash o‘quvchilarda amaliy tafakkurni rivojlantiradi. Tarix fanidagi buyuk ajdodlar hayotini o‘rganish orqali esa o‘quvchilar ulardan ibrat olish, shaxsiy rivojlanish yo‘lini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Debat metodidan foydalanish esa o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi, ularni dalillarga asoslangan holda fikr yuritishga o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy merosni o'qitishda innovatsion yondashuvlar va muammoli savollardan samarali foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularni mustaqil fikrlovchi, tanqidiy tafakkurga ega, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi kompleks tizimga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M.. *Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M.. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Quronov M.. *Tarbiya nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti*. – Toshkent, 2021.

HAMKORLIK QADRIYATI TUSHUNCHASINING INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDAGI PSIXOLOGIK TALQINI

Ochilova Fayyoza Mansurovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktaranti

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida hamkorlik qadriyatining psixologik mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi funksional ahamiyati hamda o'quvchilar shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri keng qamrovda tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim muhitida turli individual imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarning birgalikda faoliyat yuritishi hamkorlik tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Tadqiqot davomida hamkorlik qadriyatining nazariy asoslari, uning shaxslararo munosabatlarni tartibga solishdagi roli hamda empatiya, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat kabi psixologik sifatlarning shakllanishidagi o'rni yoritildi. Maqola natijalarida inklyuziv ta'lim muhitida hamkorlikka asoslangan pedagogik strategiyalarni joriy etish o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida insonparvarlik tamoyillari, ijtimoiy tenglik va ta'limning universalligi muhim o'rin tutmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'lim konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, u barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan tizim sifatida qaraladi. Inklyuziv ta'limning mohiyati shundaki, turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo'lgan bolalar umumiy ta'lim muhitida birgalikda ta'lim oladilar. Bunday muhitda samarali o'quv jarayonini tashkil etish uchun faqat pedagogik metodlar yetarli bo'lmaydi. Shu bilan birga o'quvchilar o'rtasida ijobiy ijtimoiy-psixologik munosabatlarni shakllantirish zarur. Aynan shu jarayonda hamkorlik qadriyati muhim ijtimoiy va psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Hamkorlik insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadigan fundamental qadriyatlardan biri bo'lib, u jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish, o'zaro yordam va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim muhitida hamkorlik qadriyati o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyatda ijtimoiy integratsiyani ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. Hamkorlik va ijtimoiy o‘rganish masalalari ko‘plab psixologlar va pedagoglar tomonidan o‘rganilgan. L.S. Vygotskiy o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida inson tafakkuri va bilimlari ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bilimlar ko‘pincha o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanadi.

J. Dewey ta’limni ijtimoiy tajriba almashinuvi jarayoni sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, maktab ijtimoiy hayotning kichik modeli bo‘lib, unda o‘quvchilar jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydilar.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham hamkorlikka asoslangan o‘qitish modellari keng qo‘llanilmoqda. Johnson va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan kooperativ ta’lim nazariyasi o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, shaxsiy mas’uliyat va jamoaviy natijaga erishish tamoyillariga asoslanadi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar ham ta’lim jarayonida hamkorlik muhitini yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

Hamkorlik qadriyatining psixologik mohiyati. Psixologik nuqtai nazardan hamkorlik inson faoliyatining ijtimoiy xarakterini aks ettiruvchi muhim jarayon hisoblanadi. Hamkorlik jarayonida shaxslar o‘zaro muloqotga kirishadi, tajriba almashadi va umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda faoliyat yuritadilar.

Hamkorlik jarayonida bir qator psixologik mexanizmlar faoliyat ko‘rsatadi. Ularga ijtimoiy identifikatsiya, empatiya, o‘zaro ishonch va kommunikativ kompetensiya kiradi. Bu mexanizmlar shaxslararo munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim muhitida hamkorlik o‘quvchilarning o‘zaro tushunishi va qo‘llab-quvvatlashini kuchaytiradi. Natijada jamoada ijobiy psixologik muhit shakllanadi va bu o‘quvchilarning akademik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’limda hamkorlikning ijtimoiy-psixologik funksiyalari

Inklyuziv ta’lim jarayonida hamkorlik bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi. Turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar birgalikda faoliyat yuritish orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar.

Ikkinchidan, hamkorlik empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantiradi. O‘quvchilar tengdoshlari bilan muloqot qilish jarayonida ularning his-tuyg‘ularini tushunishga va hurmat qilishga o‘rganadilar.

Uchinchidan, hamkorlik kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

To‘rtinchidan, hamkorlik o‘quv jarayonida motivatsiyani oshiradi. Jamoaviy faoliyat o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Pedagogik strategiyalar. Inklyuziv ta’lim jarayonida hamkorlik muhitini yaratish uchun bir qator pedagogik strategiyalarni qo‘llash mumkin. Jumladan, kooperativ o‘qitish metodlari, loyiha asosida ta’lim, muammoli vaziyatlarni jamoaviy hal etish kabi metodlar samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, pedagoglar o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy muloqotni rag‘batlantirishi va har bir o‘quvchining jamoa faoliyatida faol ishtirok etishiga sharoit yaratishi zarur.

Psixologik treninglar, kommunikativ mashg‘ulotlar va empatiyani rivojlantiruvchi faoliyatlar ham inklyuziv muhitda hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim sharoitida hamkorlik qadriyati o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat, bag‘rikenglik va jamoaviylik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida hamkorlik tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
2. Dewey J. Democracy and Education.
3. Johnson D., Johnson R. Cooperative Learning.
4. Florian L. Inclusive Education: Principles and Practice.
5. UNESCO. Guidelines for Inclusion.
6. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion.

MA’NAVIY MEROSINI O’RGATISHDA O’QITUVCHI NUTQINING SAMARADORLIGIVA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Nazarova Feruza Shobiddinovna,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodni ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ma’naviy merosning o‘rni tahlil etiladi. Shuningdek, o‘qituvchi nutqining pedagogik-psixologik xususiyatlari, uning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va storytelling texnologiyasining o‘qituvchi nutqini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ma’naviy meros, o‘qituvchi nutqi, nutq madaniyati, pedagogik kompetensiya, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, shaxs rivoji.*

O‘quvchilarda ta’lim tarbia berish vazifalaridan biri ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti-o‘quvchini shaxs sifatida muvoffaqiyatli kamol toptirish Tilning ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati uning aloqa vazifasini ifodalashdan iborat. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimiga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Bu esa ta’lim mazmuni va yondashuvlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Endi ta’limning ustuvor vazifasi faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, unda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Ma’naviy meros jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy ongini aks ettiruvchi muhim omil bo‘lib, uni o‘rganish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirish mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchining nutqi asosiy kommunikativ vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi nutqi pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarni tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish vositasi hamdir. Ilmiy manbalarda nutq madaniyati tushunchasi adabiy til me’yorlariga

amal qilish, aniq va ravon ifoda, mantiqiy izchillik hamda ta'sirchanlik bilan izohlanadi. Shu bois o'qituvchi nutqi yuqori darajada rivojlangan bo'lishi zarur.

Ayniqsa, ma'naviy merosga oid mavzularni o'qitishda nutqning obrazliligi va hissiy boyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy shaxslar, milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqida faqat faktlarni bayon qilish emas, balki ularni jonli tasvirlash, o'quvchi qalbiga yetkazish talab etiladi. Bu esa o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogikada konstruktivistik yondashuv muhim o'rin egallaydi. Unga ko'ra, bilim o'quvchi tomonidan faol o'zlashtiriladi. Shu sababli o'qituvchi nutqi monologik shakldan dialogik shaklga o'tishi, savol-javob, muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilishi lozim.

Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol metodlar – munozara, "aqliy hujum", kichik guruhlarda ishlash, rol o'ynash – o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi nutqi muloqot vositasiga aylana

Multimedia vositalari va raqamli texnologiyalar o'qituvchi nutqini boyitadi. Vizual va audio materiallar orqali berilgan ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan yaxshiroq o'zlashtiriladi. Ayniqsa, tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar haqidagi materiallar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Hikoya asosida o'qitish usuli ma'naviy merosni o'rgatishda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Voqea va obrazlarga boy tarzda yetkazilgan ma'lumotlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning tasavvur doirasini kengaytiradi hamda o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Bunday yondashuv orqali berilgan bilimlar o'quvchilar xotirasida uzoq muddat saqlanib, ularning hissiy dunyosiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Sahnalashtirish, esse yozish, rolli o'yinlar kabi ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirib, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon etish, voqealarga mustaqil baho berish hamda muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini egallaydi.

O'qituvchi nutqi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. O'qituvchining aniq, ravon va madaniyatli nutqi o'quvchilarga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda nutqiy kompetensiya, muloqot madaniyati hamda mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Natijada, o'quvchi nafaqat bilim egallaydi, balki har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy merosni o'rgatishda o'qituvchi nutqi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Nutqi rivojlangan pedagog o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ma'naviy va shaxsiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion yondashuvlardan foydalanish esa bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shu sababli o'qituvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent, 2017.
2. G'ulomov A., Yo'ldoshev J. *Nutq madaniyati asoslari*. – Toshkent, 2016.
3. Ishmuhamedov R. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2019.
4. Ona tili o'qitish metodikasi Karima Qosimova – Toshkent,2022.

INSON AXLOQIY KAMOLOTIDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI HAQIDA FORBIYNING QARASHLARI

Umarov Rahim Tojiyevich,
A.Qodiriy nomidagi JDPU dotsenti,
Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li,
A.Qodiriy nomidagi JDPU o'qituvchisi,

Аннотация: *В данной статье размышляются взгляды Абу Насра Фараби, признанного вторым учителем после Аристотеля на Востоке, о нравственном совершенствовании человека.*

Ключевые слова: *Умственная, нравственная, зрелость, мыслитель, монархия, аристократия, зрелость, организация, фанатизм, равенство, счас тье.*

Annatation: *This article reflects on the views of Abu Nasr Farabi, who is recognized as the second teacher after Aristotle in the East, about human moral perfection.*

Key words: *Mental, moral, maturity, thinker, monarchy, aristocracy, maturity, organization, fanaticism, equality, happiness.*

O'rta Osiyodagi ilg'or falsafiy yo'nalishning birinchi zabardast vakili Forobiydir. U o'sha davrning ilmiy markazlari bo'lgan Bag'dod va Damashqda bilim oldi. Forobiy juda ko'p tillarni bilgan. Natijada, u o'z zamonasining etuk olimi, faylasufi, matematigi va tabibi bo'lib etishdi.

Usbu maqolada sharqda arastudan keyingi ikkinchi muallim deb tan olingan Abu Nasr Forobiyning inson axloqiy kamolotida talim va tarbiyaning o'rni haqidagi qarashlari ustida fikr yuritiladi.

Farobiy o'rta asrlarda o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk zot edi.U birgina falsafa va mantiqdangina shuhrat qozonib qolmadi. Ulug' mutafakkirning 160 dan ortiq asarlarining chorak qismigina bizgacha etib kelgan. Shuni ham aytish joizki, ko'pchilik olimlarga nisbatan kambag'al hayot kechirgan. Farobiy Damashqning bir bog'ida qorovullik qilib kun ko'rgan. Kambag'alligidan qorovullik uchun berilgan chiroqni yoqib, kitob mutolaa qilgan va ijod bilan shug'ullangan.

U ta'lim - tarbiyaga oid,«Baxt-saodatga erishish yo'llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri»,«Fazilatli xulqlar», «Shaharni o'rganish haqida» kabi asarlar yaratgan. Olimning yuqorida biz tilga olgan asarlari butun jahon ziyolilari tomonidan haqli ravishda yuksak baholangandir.

Shuning uchun ham agar Aristotel Sharqda "Muallimi avval" degan unvon olgan bo'lsa, Forobiy Aristotel asarlarini targ'ib qilgani va uning qarashlarini yanada rivojlantirgani, Aristotel kabi universal bilimga ega bo'lgani uchun "al-Muallim as-soniy" ("Ikkinchi muallim") degan nom olgan.

Forobiy insoniyat jamiyati rivojlanishining qonuniyatlarini ijtimoiy tengsizlikdan axtaradi, insonlararo munosabatlar qanday bo'lmog'i kerakligini va bu munosabatlardagi, shuningdek, jamiyatdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini o'zicha hal qiladi, insonning insoniy mukammallikka va baxt-saodatga erishuvi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikrlar bayon etadi.

Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir.

1. Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi.

2. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi, deydi.

3. Har kimki ilm, hikmatdan desa, uni yoshligidan boshlasin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

4. Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi.

5. Ma'lumki, inson hech qachon tug‘ilganda yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi.Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo‘ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo‘ladi.

1.Fikriy fazilat

2.Xulqiy

Fikriy fazilat -aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikdan iborat.

Forobiy o‘z ijtimoiy idealini amalga oshirishga yordam beradigan hatti-harakatni yaxshilik, unga zid keladiganlarini yomonlik deb biladi. U bu fazilatlarni insonda shakllanishi unga berilgan tarbiyaga bog'liqligini e'tirof etadi.

U yaxshilik va yomonlik kategoriyasiga shunday ta'rif beradi. "...Insonga uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishiga xalaqit beruvchi kuchlari, qobiliyatlari va o‘rgangan ixtiyoriy harakatlari inson yomonligidir va, aksincha, insonga uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishiga yordam beruvchi kuchlari, qobiliyatlari va o‘rgangan ixtiyoriy harakatlari inson yaxshiligidir".

Forobiycha, insonni hozirgi kamolotga erishtirgan va shu kamolotga sabab bo‘lgan, unga erishish uchun yordami tekkan narsalar xayri-ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlar, yaxshilik hisoblanadi. Insonni kamolotga erishuvdan mahrum qiladigan dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo‘lmaslik kabi nuqsonlar va yomon-buzuq harakatlar yomonlikdir.

Forobiy tug‘ma g‘oyalarni tan olmaydi. Insonda fikriy va tug‘ma fazilat mavjud. Ammo tug‘ma fazilat fikriy fazilatga bo‘ysunishi kerak. Insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilati tug‘ma emas. "Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo‘lib qolar edi".

Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmas ekan, "xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir".

Shunday qilib, Forobiy yaxshilik va yomonlikning iroda erkinligini tan olish bilangina chegaralanmay, shu erkinlikni—imkoniyatni qanday amalga oshirish yo‘llarini ham ko‘rsatadi.

Inson butun mavjudotni o‘rganish, kasb-hunar va ilmlarni o‘zlashtirish orqali baxt-saodatga erisha oladi. Inson hayotining oliy maqsadi ham baxt-saodatga erishuvdan iborat. Insonning baxtli bo‘lishi uning irodasiga va unga beriladigan ta'lim tarbiyaga bog‘liq. "Inson yuksak kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilgandek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi".

Bu o‘rinda Forobiy “azaliy taqdir” nazariyasiga juda ishonarli va dadil qarshi chiqadi va bola kelajakda etuk o’z kasbining mutaxassisi bo’lib etishi shida unga beriladigan ta’lim-tarbiyaning o’rni beqiys ekanligini takidlaydi. .

Forobiy falsafiy-axloqiy, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy qarashlarida feodalizm tasavvuri doirasidan tashqari chiqa olmadi, uning qarashlarida davrning ijtimoiy-sotsial ziddiyatlari, axloqiy ideallari va ta’lim – tarbiyasi doirasida o‘z aksini topdi.

Forobiy ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarida shahar hunarmandlari, ziyolilari, savdo-sotiq, kasb-hunar, obodonchilik va osoyishtalik, ilm-ma’rifat ning, ta’lim-tarbiyaning ravnaqi va mustaqil davlat tarafdori bo‘lgan progressiv kuchlarning dunyoqarashini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning yuqoridagi ta’lim-tarbiyaga oid konsepsiyasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashda muhim rol o‘inaydi. Forobiy ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarida shahar hunarmandlari, ziyolilari, savdo-sotiq, kasb-hunar, obodonchilik va osoyishtalik, ilm-ma’rifatning ravnaqi va mustaqil davlat tarafdori bo‘lgan progressiv kuchlarning dunyoqarashini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.М Хайруллаев, Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. Тошкент. 1971,301-бет.
2. М.М Хайруллаев, Фараби. Эпоха и учение. Тошкент., 1975 г
3. М.М Хайруллаев, Форобий ва унинг фалсафий рисолалари, Т., 1963
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 9-жилд, «Ўзбекистон миллий энцнклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент, 2005
5. М.М Хайруллаев, Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти, Т., 1994
6. Фаробий Абу Наср, Фозил одамлар шаҳри. (Маъсул муҳаррир М. Хайруллаев)-Тошкент: Янги аср авлоди, 2022.-320 б.

O‘SMIRLAR XULQ-ATVORIDA QADRIYATLAR SHAKLLANISHI VA MA’NAVIY BARQARORLIKNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sharopov Jamshid Dilmurodovich,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlikning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. O‘smirlik davri shaxsning axloqiy qarashlari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqotda oila, maktab va ijtimoiy muhitning ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, emotsional intellekt, identifikatsiya jarayoni, ichki motivatsiya va ijtimoiy taqlid mexanizmlarining ma’naviy barqarorlikka ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘smirlarning axloqiy qaror qabul qilish jarayonida kognitiv va emotsional omillar o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy ijtimoiy muhit va mustahkam qadriyatlar tizimi o‘smirlarning barqaror axloqiy xulqini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *qadriyatlar, ma’naviy barqarorlik, o‘smirlar, axloqiy rivojlanish, identifikatsiya, emotsional intellekt, ijtimoiy muhit.*

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические механизмы формирования ценностей и духовной устойчивости в поведении подростков. Подростковый возраст является ключевым этапом формирования системы ценностей, моральных установок и социального поведения личности. В исследовании рассматривается роль семьи, школы и социальной среды в процессе*

формирования духовных ценностей. Особое внимание уделяется таким психологическим механизмам, как эмоциональный интеллект, идентификация, внутренняя мотивация и социальное подражание. Также анализируется взаимодействие когнитивных и эмоциональных факторов в процессе принятия моральных решений подростками. Результаты показывают, что позитивная социальная среда и устойчивая система ценностей способствуют формированию стабильного нравственного поведения.

Ключевые слова: *ценности, духовная устойчивость, подростки, моральное развитие, идентификация, эмоциональный интеллект, социальная среда.*

Abstract. *This article examines the psychological mechanisms underlying the formation of values and moral stability in adolescent behavior. Adolescence is a crucial stage in the development of an individual's value system, moral attitudes, and social behavior. The study highlights the role of family, school, and social environment in shaping spiritual and moral values. It also explores psychological mechanisms such as emotional intelligence, identification processes, intrinsic motivation, and social modeling. The interaction between cognitive and emotional factors in adolescents' moral decision-making is analyzed. The findings indicate that a positive social environment and a well-established value system significantly contribute to the development of stable moral behavior in adolescents.*

Key words: *values, moral stability, adolescents, moral development, identification, emotional intelligence, social environment.*

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, o'smirlik davri shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadigan eng sezgir bosqich hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, shaxsning asosiy axloqiy qarashlari 12–18 yosh oralig'ida shakllanib, keyingi hayot davomida nisbatan barqarorlashadi. Shu sababli ushbu davrda ma'naviy tarbiya va psixologik ta'sir omillari alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning xulq-atvori faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar va ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizim bilan chambarchas bog'liqdir. Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, insonning axloqiy qaror qabul qilish darajasi kognitiv rivojlanish va ijtimoiy tajriba asosida bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa o'smirlik davrida qadriyatlar tizimini shakllantirishda tashqi ijtimoiy omillarning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi.

Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, o'smirlar xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradi. Bu jarayonda ota-ona, o'qituvchi va tengdoshlar modeli muhim o'rin tutadi. Demak, ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi bevosita ijtimoiy muhitdagi namunaviy xulq bilan bog'liqdir.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNICEF va World Health Organization ma'lumotlarida ham o'smirlar orasida psixologik va axloqiy barqarorlikning pastligi ko'pincha ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, oilaviy muhitdagi nizolar va tarbiyaviy bo'shliqlar bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Bu holat yoshlarning stressga chidamliligini kamaytirib, ularning ijtimoiy xulqida beqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida ham yoshlar ma'naviy tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va internet ta'sirining ortishi esa o'smirlarning qadriyatlar tizimiga yangi talablar qo'ymoqda. Ayniqsa, virtual

muhitda tarqatilayotgan axborot oqimi o‘smirlarning axloqiy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli, ularning ma’naviy barqarorligini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlikning psixologik mexanizmlarini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo‘lib, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlikning psixologik mexanizmlarini o‘rganish zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada xorijiy va rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy rivojlanish murakkab, ko‘p bosqichli va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida shakllanadi.

Mazkur yo‘nalishda Lawrence Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, insonning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati kognitiv rivojlanish va ijtimoiy tajriba asosida bosqichma-bosqich shakllanadi. Kohlberg nazariyasida o‘smirlik davri axloqiy fikrlashning “konvensional darajasi” bilan tavsiflanib, bunda shaxs jamiyat me’yorlari va ijtimoiy qadriyatlarga moslashishga intiladi. Bu esa qadriyatlar shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlar abstrakt fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglay boshlaydi. Bu jarayon ularning qadriyatlar tizimini qayta qurish va yangilash imkonini beradi. Piaget yondashuvi Kohlberg nazariyasi bilan uyg‘un holda, axloqiy rivojlanishning kognitiv asoslarini tushuntirib beradi.

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa qadriyatlarning shakllanishida kuzatish va taqlid jarayonining ahamiyatini ko‘rsatadi. Bandura fikricha, o‘smirlar ota-ona, o‘qituvchi va tengdoshlar xulqini kuzatish orqali axloqiy me’yorlarni o‘zlashtiradi. Bu jarayonda model shaxslarning ijobiy yoki salbiy xulqi o‘smirning ma’naviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Rus psixologiya maktabida Lev Vygotskyning madaniy-tarixiy nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit va madaniy tajriba bilan belgilanadi. Vygotsky fikricha, o‘smirning ichki qadriyatlari avval ijtimoiy muloqotda shakllanib, keyinchalik ichki psixologik tuzilmalarga aylanadi. Bu jarayon “yaqin rivojlanish zonasi” orqali amalga oshadi.

Shuningdek, Sergey Rubinstein va Dmitry Leontiev tadqiqotlarida shaxsning qadriyatlar tizimi uning motivatsion sohasining markaziy qismi sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, ma’naviy barqarorlik shaxsning ichki motivlari va ongli hayotiy pozitsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda Shalom Schwartz tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u qadriyatlarni universal psixologik tuzilma sifatida tushuntiradi. Schwartz modeliga ko‘ra, qadriyatlar shaxs xulqini yo‘naltiruvchi asosiy motivatsion tamoyillar bo‘lib, ular madaniyat va ijtimoiy sharoit bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Shuningdek, UNICEF va World Health Organization hisobotlarida o‘smirlar orasida ma’naviy barqarorlikning shakllanishi oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijobiy ijtimoiy muhit va ta’lim tizimidagi tarbiyaviy yondashuvlarga bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Ushbu tashkilotlar tadqiqotlariga ko‘ra, kuchli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘smirlarning stressga chidamliligini oshiradi va ularning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlik ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar o‘zaro ta’siri asosida rivojlanadi. Xorijiy va rus olimlarining yondashuvlari ushbu jarayonni tizimli va kompleks tarzda o‘rganish zarurligini asoslab beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlikning psixologik mexanizmlari murakkab, ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Olingan empirik va nazariy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, o‘smir shaxsining axloqiy qarorlari va xulqiy yo‘nalishlari faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, maktabdagi pedagogik ta’sir hamda tengdoshlar guruhi bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi.

Natijalarga ko‘ra, ijobiy ijtimoiy muhitda tarbiyalanayotgan o‘smirlarda qadriyatlar tizimi barqarorroq shakllanadi va ularning axloqiy qaror qabul qilish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu holat Lawrence Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga mos keladi, ya’ni shaxsning axloqiy tafakkuri ijtimoiy tajriba va kognitiv rivojlanish asosida bosqichma-bosqich shakllanadi. Demak, o‘smirlik davrida ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar ichki psixologik tuzilmalarga aylanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi asosida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘smirlar atrofidagi muhim shaxslarning xulqini kuzatish va taqlid qilish orqali axloqiy me’yorlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli ota-ona va o‘qituvchilarning shaxsiy namunalari o‘smirlarning ma’naviy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, ma’naviy barqarorlik va psixologik moslashuv o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ma’naviy jihatdan barqaror o‘smirlar stressli vaziyatlarda ham o‘z qadriyatlariga sodiq qoladi va ijtimoiy bosimga nisbatan mustahkamroq bo‘ladi. Bu esa Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi, ya’ni shaxsning ichki dunyosi avvalo ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli muhit ham o‘smirlarning qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan turli xil axborot oqimi ba’zan qarama-qarshi qadriyatlarni shakllantirishi mumkin, bu esa o‘smirlarning axloqiy tanlov jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli, ma’naviy barqarorlikni shakllantirishda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlik bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan dinamik psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda oila, maktab va ijtimoiy muhitning uyg‘unligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, yoshlarning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun kompleks pedagogik va psixologik yondashuvlarni joriy etish zarur.

Xulosa. Mazkur tadqiqot o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma’naviy barqarorlikning psixologik mexanizmlarini tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘smirlik davri shaxsning axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyatlari va xulqiy yo‘nalishlari shakllanadigan eng muhim va

sezgir bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda shakllangan qadriyatlar tizimi keyingi hayotiy qarorlar va ijtimoiy xulqning asosini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oila va maktabdagi ijobiy ijtimoiy muhit o‘smirlarning ma'naviy barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ochiq muloqot, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijobiy namuna bo‘la olish kabi omillar o‘smirlarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni ijtimoiy bosimlarga nisbatan bardoshli qiladi. Aksincha, kommunikativ yetishmovchilik va salbiy ijtimoiy muhit qadriyatlar tizimining beqaror shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ma'naviy barqarorlik o‘smirning ichki motivatsiyasi, emotsional intellekti va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Barqaror qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan o‘smirlar murakkab vaziyatlarda ham o‘z axloqiy tamoyillariga sodiq qoladi va to‘g‘ri qaror qabul qilishga moyil bo‘ladi. Bu esa ularning psixologik moslashuvini kuchaytiradi va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma'naviy barqarorlik ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda oilaviy tarbiya, maktab muhiti va ijtimoiy ta'sirlar o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi. Shu sababli, yoshlarning ma'naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda kompleks yondashuv, ya'ni psixologik, pedagogik va ijtimoiy mexanizmlarni birgalikda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kohlberg L. Essays on Moral Development: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 480 p.
2. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965. – 420 p.
3. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
4. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
5. Schwartz S. H. Basic Human Values: Theory, Methods, and Application. – Jerusalem: Hebrew University, 2012. – 210 p.
6. Rubinstein S. L. Osnovy obshchey psikhologii. – Moskva: Pedagogika, 1989. – 488 s.
7. Leontiev D. A. Psikhologiya smysla. – Moskva: Smysl, 2003. – 320 s.
8. UNICEF. The State of the World's Children 2021: On My Mind. – New York: UNICEF, 2021. – 180 p.
9. World Health Organization. Adolescent mental health. – Geneva: WHO, 2022. – 48 p.
10. Zakirova F. M. O‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 220 b.

MUNDARIJA

KIRISH SO'ZI **3**

1-SHO'BA: PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Mardanov U.R.	Zamonaviy baholash tizimlari orqali ta'lim sifatini yaxshilash metodlari	5
Astanaqulov K.M.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari	7
Tuxfatullina D.T.	O'qituvchilarning pedagogik faoliyatini o'lchash va baholash usullari: yangi texnologik yondashuvlar	10
Boborahimov S.M.	Pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar	12
Shamuratov M.X.	Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari	16
Fayziyeva M.M.	Zamonaviy ta'limda demokratik qadriyatlar: interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar	21
Baxodirova U.B.	Bo'lajak biologiya o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda web-kvest ta'lim texnologiyasidan foydalanish	24
Umarov R.T., ***Isoqov Sh.T.***	Kasbiy kompetentlikni takomillashtirish tizimi	27
Kubayeva M.B.	Ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik tamoyillari va texnologiyalari	30
Mansurova S.R.	Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda Edtech texnologiyalaridan foydalanish	33
Abdullayev A.A.	Sun'iy intellekt tizimlari asosida pedagogik mahorat markazlarida boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy modeli	37
Narzullayev N.H.	O'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini takomillashtirishning psixologik xususiyatlari	40
O'tapov Z.B., ***Jabborova O.I.***	Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish	43
Nishonova D.O.	Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar	48
Maxmudov A.Yu.	Maktab ta'limida ekologik kompetensiyalarni shakllantirishda AR/VR texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari	53
Tuxtayev Q.H.	Python dasturlash tilida algoritmik tafakkurni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	57
Shamsutdinov F.A.	Talabalarning pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga oid kompetentligini rivojlantirish bosqichlari	61
Mirzaqobilova L.N.	Sun'iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va generativ ai (suno ai) misolida	64

	tahlili	
Abdiraxmonova G.M.	Oliy ta'limda pedagog shaxsiy potensiali: kompetensiyaviy yondashuv va kasbiy rivojlanish strategiyalari	67
Fozilova N.T.	Tarjima jarayonida terminologik aniqlikning zarurati	75
Niyozova G.	Badiiy matnda lingvistik geshtalt turlari va ularning xususiyatlari	79
Шермухаммедов А.	Развитие дистанционного обучения при использовании цифровых образовательных технологий в учебном процессе	81
Odilxujayeva M.X.	Loyihaviy faoliyat orqali o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish	84
To'xtasinov U.M.	Aksiologik yondoshuvi asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari	86

2-SHO'BA: STEAM VA LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA UMUMTA'LIM FANLARINI INTEGRATSIYALASH

Djurayeva P.S.	STEAM ta'limi asosida o'quvchilarda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlari va loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash metodikasi	89
Kalandarov J.	Texnikum o'quvchilarida kasbiy o'zini anglashni pedagogik-psixologik asoslari	96
Xamroqulov I.B., Nomonov J.	Ta'lim sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik	98
Xamroqulov I.B., Valiyev A.A.	Ta'lim sifatini oshirish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida dinamik yondashuv	101
Boboqulov J.Q.	STEAM yondashuvi orqali dasturlash ta'limida kreativ fikrlashni rivojlantirish	104
Boltayeva Z.	Umumta'lim fanlarida ta'lim sifatini oshirishda gender yondashuv asosida baholash va diagnostika qilish	108
Karimova N.D.	STEAM va loyihaviy yondashuv asosida musiqa madaniyati fanini integratsiyalash	109
Irmatov P.N.	STEAM yondashuvi va loyiha asosida ta'lim jarayonini integratsiyalashning pedagogik asoslari	112
Toshqulova Z.	Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida steam yondashuvining o'rni va ahamiyati	115
Saidova S.Z.	STEAM va loyihaviy yondashuv asosida texnologiya fanini integratsiyalash	118
To'xtasinov U.M.	Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni	121
Xamidov R.N., Sariyev R.B.	Virtual reallik va kengaytirilgan reallik haqida	125
Yo'ldosheva M.Q.	Ma'naviy merosni o'zlashtirishda innovatsion yondashuv va rivojlantiruvchi o'yinlarning tafakkurga ta'siri	129

3-SHO'BA: UMUMTA'LIM FANLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH: BAHOLASH VA DIAGNOSTIKA

Uralov A.B.	O'zbek tilining raqamli globallashuvdagi o'rni	132
Xasanova X.N.	Kimyo ta'limida ijodkorlikning o'rni	134
Xamroqulov I.B., Nomonov J.	Ta'lim sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy sikllar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik	136
Turayeva D.I.	Musiqa darslarida loyihaviy ta'lim metodini qo'llashning samaradorligi	139
Niyozova G.	Geshtaltning til hodisalari bilan aloqadorligi (o'xshatish, metafora, ramz va takrorlar asosida)	144
Hamdamova R.G'.	Biologiya darslarida o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirish	147
Merzayeva X.J.	STEAM va loyihaviy yondashuv asosida umumta'lim fanlarini integratsiyalash	150
Rahmonov U.U., O'tapov Z.B.	Uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini loyiha ishlari asosida rivojlantirish (fizika fani misolida)	152
Shavkatova Sh.Sh.	Boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida fanlararo integratsiyaning ahamiyati	156
Pulotov A.M., Adizova N.Q.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini blum taksonomiyasi asosida shakllantirish	158
Abdirova K.J.	Көсемшелердің қазақ, өзбек және қарақалпақ тілдеріндегі құрылымы, қызметі және салыстырмалы грамматикалық талдауы	161
Sattorova G.A.	Umumta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish omillari va ularning samaradorligi	165
Shavkatova Sh.Sh.	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish	168
Egamberdiyev L.	Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish	171
Ibragimova L.E.	O'quvchi (yoki talaba)larning qobiliyatlarini diagnostika qilish usullari va mezonlari	173
Qo'ldasheva D.M.	Ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar	175
Zoyirov E. I.	Rossiya imperiyasi davrida sirdaryo viloyati shaharlarining tashkil etilishi (Perovskiy va Kazalinsk shaharlari misolida).	178
Egamberdiyev L.	Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish	180
Ashurova O'.Sh.	Tarbiya darslarida rolli o'yinlarni tashkil etishning zamonaviy va innovatsion usullari	180

4-SHO'BA: MA'NAVIY MEROS VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'QITILISHIDA INNOVATSION YONDASHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Boltayeva Z.	Gender yondashuv asosida boshlang‘ich ta’limda ma’naviy merosni shakllantirishning pedagogik asoslari	183
Ravshanova O.S.	Yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar	185
Turayeva X.I.	Tarbiya fanida qadriyatlar ta’limini modernizatsiya qilish masalalari	187
Xakimova D.I.	O‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati (11-sinf o‘zbek tili darslari misolida)	191
Qurbonova X.T.	Bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni	194
Эргашев А.Б.	Миллий ўзликни англаш жараёнининг ижтимоий аҳамияти	196
Eshankulova M.D.	Milliy meros va ma’naviy yuksalishning o‘zaro bog‘liqligi	200
Xo‘jamova L.M., Usmanova R.M.	Charles Dickens asarlarida frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari va ularni o‘zbek tilida qayta yaratish strategiyalari	203
Hamroyeva A.F.	Ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar orqali singdirish	205
Axtamova M.H., Usmanova R.M.	Zamonaviy media diskursda metafora va idiomalarning lisoniy ҳамда pragmatik tadqiqi	207
Sanaqulova D.S.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, individual hamda guruhiy shaklda tashkil etiladigan o‘yinlar va ularning bola psixikasidagi ahamiyati	210
Hosilova X.	Milliy urf-odat,qadriyat va an’analar– tarbiya asosi	213
Yax’yayeva N.	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanning ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini STEAM va loyihaviy yondashuv asosida integratsiyalash	215
Abdullayeva B.Sh.	Ona tili ta’limida innovatsion yondashuv asosida ma’naviy barkamollikni shakllantirish	216
Abdurayimova Z.R.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faolligini oshirishda ta’limiy va didaktik o‘yinlardan foydalanish	218
Qutliyeva D.T., Tilavova D.H., Mamirova D.D.	Matematika darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash	222
Xolikova X.G.	O‘quvchilarda stressga chidamlilikni shakllantirishda tarbiyaviy texnologiyalarning roli	224
Majidova G.I.	Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish orqali milliy qadriyatlar va ma’naviy –axloqiy barkamollikni shakllantirish	231
Muxammadiyeva N.I.	Ma’naviy merosni anglash va o‘qish savodxonligi: innovatsion yondashuv va muammoli savollar integratsiyasi	233
Ochilova F.M.	Hamkorlik qadriyati tushunchasining inklyuziv ta’lim sharoitidagi psixologik talqini	235

Nazarova F.Sh.	Ma'naviy merosini o'rgatishda o'qituvchi nutqining samaradorligiva innovatsion yondashuvlar	237
Umarov R.T., ***Irmatov P.N.***	Inson axloqiy kamolotida ta'lim va tarbiyaning o'rni haqida forbiyning qarashlari	239
Sharopov J.D.	O'smirlar xulq-atvorida qadriyatlar shakllanishi va ma'naviy barqarorlikning psixologik mexanizmlari	241

“UMUMTA’LIM MAKTABLARI PEDAGOG-XODIMLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

2026-yil 27-mart.

Texnik muharrir: Boboqulov J.Q.

Maqolalar mazmuni va ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’ul.

Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining (2026-yil 31-mart, 3-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.